

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

# **DINSHUNOSLIK**

**O'quv qo'llanma**

### **Annotatsiya**

Mazkur o'quv qo'llanmada dinning jamiyat hayotidagi o'rni, funksiyalari, dinlar tasnifi, ibtidoiy dinlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Milliy dinlar, Zardushtiylik dini, jahon dinlarining tarixiy kelib chiqishi, ma'lumoti, manbalari, urf-odatlarini asoslab berilgan. Markaziy Osiyoda kalam ilmi, Hanafiya mazhabining o'rni, O'zbekiston Respublikasida vijdon erkinligi, davlat va din munosabatlari, shuningdek, missionerlik, diniy ekstremizm va uni oldini olishning yo'nalishlari haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.

### **Аннотация**

Данное учебное пособие содержит сведения о значении и функциях религии в жизни общества, классификации религий, первобытных религиях.

Обосновываются национальные религии, зороастризм, историческое происхождение, сведения, источники, традиции мировых религий. Подробно представлена сведения о науке Калам, роли мазхаби Ханафия Центральной Азии, свободе совести в государственно-религиозных отношениях в Республике Узбекистан, а также миссионерской деятельности, религиозном экстремизме и направлениях его профилактики.

### **Annotation**

The study guide contains data about the place and functions of religion in the life of society, the classification of religions, primitive religions.

National religions, Zoroastrianism, historical origin, information, sources, traditions of world religions are explained. Detailed information is provided about the science of the Kalam in Central Asia, the role of the Hanafia mazhab, freedom of conscience in the Republic of Uzbekistan, state-religious relations, as well as missionary work, religious extremism and directions for its prevention.

Iymon-e'tiqod har birimizning yuragimizda,  
vijdonimizda bo'lishi lozim

**Shavkat Mirziyoyev**

## **KIRISH**

Din doimo barchamizning diqqat markazimizda bo'lgan. Jamiyatimizdagi mavqeidan qat'iy nazar u doimo o'rganish, tadqiqiy ob'yekti bo'lib kelgan.

Globalashuv natijasida ro'y berayotgan millatlar, irqalar, dinlararo muloqotning o'ziga xos ahamiyat kasb etishi, dinlarni o'rganish yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ta'kidlash joizki, kishilik jamiyatining turli tarixiy davrlarida din jamiyatda faqat e'tiqod manbai sifatidagina emas, balki muayyan tabaqalarning boshqa insonlarga ta'sir etish, ularni dunyoga munosabati va turmush tarzini boshqarishga xizmat qiluvchi mafkuraviy vosita vazifalarini o'tab kelgan. Diniy omildan ayrim manfaatparast kuchlar siyosiy maqsadlarda foydalanishi mutaassib diniy harakatlarning vujudga kelishida sabab bo'lgan.

Yer qirrasining ba'zi mintaqalarida diniy asosdagi kelishmovchilik o'choqlarining alangalangani shuningdek ba'zi noxolis tadqiqotchilar tomonidan dinlar o'rtasidagi to'qnashuv "nazariya"larning ilgari surilishi din va bag'rikenglik masalalari bilan shug'ullanuvchi dinshunoslik fanining yangi bosqichga ko'tarishishga sabab bo'ldi. Ko'pmillatli hamda ko'p konfessiyali bo'lgan O'zbekistonda mustaqillikga erishilgan ilk kunlardanoq din bag'rikenglik masalalariga katta e'tibor berilmoqda. Buning samarasi o'laroq yurtimizda dinshunoslik sohasi ham rivojlanib bormoqda.

Hozirgi kunda bu sohada e'tibor yanada kuchayib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" kitobida ta'kidlaganidek "Bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash davlatimiz siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biriga

aylangan”. Shunga asosan dinshunoslik fanini o‘qitishdan maqsad diniy bag‘rikenglik, tolerantlik, millatlararo totuvlik, milliy va diniy qadriyatlarning tarixan mushtarakligi, ularning umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unligi, bu qadriyatlarning hozirgi mustaqil O‘zbekiston sharoitidagi ahamiyatini yanada aniqroq yoritib berib, talabalarga dinga nisbatan to‘g‘ri yondashuvni shakllantirish va jamiyat uchun yuksak ma‘naviyatli qadriyatlarni tarbiyalashdan iborat.

Kitobxonalariga taqdim etilayotgan ushbu o‘quv qo‘llanmada quyidagi yo‘nalishlarni yoritib berishga harakat qilindi:

- Din, dinshunoslik, teologiya, ilohiyot tushunchalarining mohiyati. Dinning funksiyalari va ijtimoiy ahamiyati.

- Dinlar tasnifi, ibtidoiy e‘tiqodlar, milliy dinlar, Zardushtiylik, Xristianlik dini, Islom dini, Islom dinining muqaddas manbalari. Islom dinining aqidaviy yo‘nalishlari va maktablari haqida.

- Markaziy Osiyo tarixida Hanafiy mazhabining o‘rni. Tasavvuf va tariqat  
- O‘zbekistonda faoliyat kursatayotgan diniy tashkilotlar, zamonaviy diniy tashkilotlar va sektalar, kibekmakonda diniy e‘tiqod targ‘ibotining ijtimoiy xavfi  
- Missionerlik va prozelitizmning siyosiy-ijtimoiy xavfi. Diniy fundamentalizm va terrorizmning tarixi va yo‘nalishlari

Diniy hamjamiyatlarning eksterimizm va terrorizmga qarshi kurash tajribasi, Dunyoviy bilimlar va diniy e‘tiqod birligiga erishishning ahamiyati haqida ma‘lumotlar berish

Dinshunoslikning muhim masalalariga bag‘ishlangan mazkur o‘quv qo‘llanma talabalarga mo‘ljallangan bo‘lib “Dinshunoslik” va “Dunyo dinlari tarixi” va boshqa ijtimoiy gumanitar fanlarni o‘qitishda shuningdek mavzuga qiziquvchi kitobxonlarga mo‘ljallangan.

# MAVZU: DINNING ITTIMOIY MADANIY HODISA SIFATIDAGI AHAMIYATI

## Reja:

1. Din, din falsafasi, diniy e'tiqod, ilohiyot tushunchalarining mohiyati.
2. Dinshunoslik fanini yuzaga kelishi va tarixiy taraqqiyoti. Dinning jamiyatdagi funksiyalari.
3. Dinlarning tasnifi. Dinlar paydo bo'lishining geografik va xronologik tasnifi.
4. Diniy e'tiqodlar evolyutsiyasi: poleteizm, genoteizm, monoteizm. Ibtidoiy e'tiqodlar

**Tayanch iboralar:** *Din, e'tiqod, yo'l, mazhab, religiya, «religio», «relegyere», transsendent, immanent, kult, dinshunoslik, «al-Firaq», «ar-Radd», «ad-Diyonot», «al-Milal», din fenomenologiyasi, din sotsiologiyasi, din psixologiyasi va din falsafasi.*

### **Din, din falsafasi, diniy e'tiqod, ilohiyot tushunchalarining mohiyati.**

Dunyo xaritasida mavjud mamlakat borki, unda yashovchi xalqlarning o'z dini, urf-odatlar va an'analar mavjud. Ana shu qadriyatlar xalqlarning yurish-turishi, kundalik faoliyati va umuman hayot tarzini belgilashda asosiy omil bo'lib hisoblanadi. «Dinshunoslik» fani ana shu muhim omilni tadqiq etib, tahliliy o'rganadi. Mustaqillik davrida jahonda xalqlarining dinlari haqida keng ma'lumot olish, ularning qadriyatlarini o'rganish imkoniyati yuzaga keldi. Natijada, dinshunoslik fani izchillik bilan rivojlana boshladi. Bunda, ajdodlarimiz qoldirgan boy ilmiy-ma'naviy merosni o'rganish bilan birga shu kunga qadar chet ellarda amalga oshirilgan izlanish va tadqiqotlarning natijalaridan unumli foydalanish zarurati paydo bo'ldi. «Dinshunoslik» fani dinni tanqid qilish yoki ko'r-ko'rona maqtash maqsadida emas, balki dinni tarixiylik, xolislik asosida turli xalqlar hayotida tutgan o'rnini ilmiy jihatdan, ma'naviy hayotning bir bo'lagi sifatida yondoshib o'rganadi.

Dinning mohiyati turlicha izohlansada, uning asosida ichonch, e'tiqod tuyg'usi yotadi. Darhaqiqat, din-ishonmoq tuyg'usidir. Ishonmoq tuyg'usi insoniyatning eng tyeran va ruhiy ma'naviy ehtiyojlaridandir.

Din arabcha soʻz ekani barchaga maʼlum. Lekin, din tushunchasini toʻliq anglab olish uchun, uning ham lugʻaviy, ham istilohiy maʼnolarini alohida-alohida olib tanishib, tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Arab manbalarida qayd etilishicha, din soʻzi « دان (»dâna) feʼlidan yasalgan boʻlib, «kingadir boʻysunmoq, boʻyin egmoq, itoat etmoq, kimdandir qarzdor boʻlmoq, eʼtiqod qilmoq, qilgan ishiga yarasha mukofotlamoq»; «diynun» soʻzi esa, «din, imon, ajr-mukofot, qilingan ishga yarasha berilgan haq» kabi maʼnolarni bildiradi<sup>1</sup>.

Oʻzbek tili lugʻat adabiyotlarida «din» - ishonch, ishonmoq, eʼtiqod, mulk, hukm, hisob, jazo, tadbir, boʻysunish, itoat qilish, ibodat, parhez, yoʻl tutish, odat qilish, eʼtiqod qilish maʼnolarini bildirishi keltirib oʻtiladi.

Islomdan avval turkiy xalqlarning din tushunchasini ifodalash uchun turli davrlarda «darm», «nom» va «den» kabi soʻzlarni ishlatganlari maʼlum. Ulardan «drm», «darm» din, aqida maʼnosida sanskritcha (qadim hind tili) «dharma»dan (Pali tilida dhamma); «nom» din ishonch, qonun maʼnosida sugʻd tilidan kirib kelganligi aytiladi.

Oʻzbek tilidagi «din» maʼnosini beruvchi atamalar barcha tillarda mavjud. Jumladan, zardushtiylarning manbasi «Avesto»da «din» sifatida «daena», qadimgi fors pahlaviy tilida «den», «din», «dena», «daena» soʻzi ishlatilib, «yoʻl», «mazhab», «marosim», «uslub», «tarz» kabi maʼnolarni bildirgan. Ibroniylar tilida istifoda qilinadigan «dath» soʻzi «din» tushunchasini ifodalash uchun umumiy termin boʻlib, «hukm», «amr» va «qonun» maʼnolarini anglatgan.

Rus tilida din maʼnosini anglatadigan «religiya» soʻzining kelib chiqishi borasida lugʻatlarda bir qancha yondashuvlar keltirib oʻtilgan. Ulardan baʼzilariga koʻra mazkur atama lotincha «religio» soʻzidan kelib chiqib, «diyonat, dindorlik, taqvodorlik, xudojoʻylik, moʻminlik, taqvo, muqaddas narsa yoki joy, qadamjo, ziyoratgoh, ibodat-topinish-sigʻinish va u bilan bogʻliq diniy marosimlar» degan maʼnolarni anglatadi.

---

<sup>1</sup>Dunshunoslik asoslari. Oʻquv qoʻllanma. -Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi.T. 2013.B.7.

Ikkinchi guruh tilshunoslar «religio» soʻzi semantik, maʼno va morfologik jihatdan «relegyere» soʻzi bilan bogʻliq boʻlib, «yangidan toʻplamoq, yangidan tanlashga kirishmoq, qayta ishlab chiqish uchun oldingi sintezga qaytish» kabi maʼnolarni anglatadi, deb taʼkidlaydilar.

Din tushunchasiga olimlar tomonidan yuzlab taʼriflar berilgan. Bunda, turli soha va dunyoqarash egalari, oʻz sohalari va qarashlaridan kelib chiqib dinga taʼrif berishgan. Shu tufayli turfa xil taʼriflar yuzaga kelgan. Quyida ularning baʼzilarini keltirib oʻtamiz:

**«Din, insonning muqaddas deb bilgan narsalariga nisbatan munosabatidir».**

*Rudolf Otto*

**«Din, ruhiy borliqlarga nisbatan ishonchdir».**

*Edvard Teylor*

**«Din, insonning abadiyatni anglashini taʼminlovchi, aql va mantiqqa tobeʼ boʻlmagan zehniy malaka yoki iqtidordir»**

*Maks Myuller*

**«Din, malakalarimizni erkin holda qoʻllashni toʻsuvchi taʼqiqlar majmuasidir»**

*Salmon Reynax*

*Din falsafasi.* Din sotsiologiyasi, psixologiyasi kabi asosiy mavzusi «din» boʻlgan din falsafasi, «din»ni falsafadan kelib chiqib tadqiq qiladi. Bu tadqiqot asnosida aqliy va betaraf yoʻl tutadi. Bu ilm turi, qandaydir bir Yaratuvchi kuch eʼtiqodiga falsafiy bir asos topishga harakat qiladi. Shu tufayli ham Din falsafasi sohasida faoliyat koʻrsatuvchilarning maqsadi dinning haq yoki botil ekanligi masalasi bilan mashgʻul boʻlish emas, diniy hukmlarning mantigʻi va mohiyatini ochib berishdir. Bu maqsad bilan ular, eng avvalo Xudoning mavjudligi bilan bogʻliq dalillarning tanqid yoki tahlilini qiladi, bu dalillarning qanchalik asosli yoki asossiz ekanligi masalasini koʻrib chiqadi.

Din falsafasini boshqa din ilmlaridan ajratib turuvchi jihat bu, undagi hukm berish, xulosa yasash xususiyatidir. Boshqa din ilmlari, baho berish, munosabat bildirish metodiga suyangan holda diniy masalalarni hal qilishsa; Din falsafasi, ular yasagan xulosa va erishgan natijalardan keng miqyosda foydalanadi va bu natijalar sababli bir qancha hukmlarni chiqaradi. Hatto Din falsafasi, dinni maqsad qilib olgan ilm turlari qo‘lga kiritgan natijalar va bu natijalarga erishish uchun ular qo‘llagan metodlar haqida ham hukm chiqarishi mumkin.

Din falsafasi, dinning mohiyati, insonning diniy haqiqatlar bilan bo‘lgan bog‘liqligini o‘rganadi. Bu ilm turining e‘tiborida bo‘lgan mavzularning boshida Xudoning borligi, sifatlari, yaratuvchi-koinot munosabati, yaratish, olamning yaratilishidagi maqsad, qayta tirilish, payg‘ambarlik va vahiy kabi keng miqyosda metafizik bir xarakterga ega masalalar asosiy o‘rinni egallaydi. Bundan tashqari ilm-imon, ilm-din, din-madaniyat (din-san‘at, din-til-adabiyot) diniy tajriba, diniy his kabi asoslar ham bu ilm turining sarhadlariga kiradi.

Umuman olganda, olimlar muayyan **e‘tiqod din** deb atalishi uchun **uch** asosiy xususiyatga ega bo‘lishi lozimligini ta‘kidlaydilar. Bulardan **birinchisi**, g‘ayritabiiy iloh (yoki ilohlar) haqidagi tasavvurning mavjudligi. Har bir dinda topinish ob‘ekti - Xudo bo‘lishi shart hisoblanadi.

Mavjud dinlardagi Xudo haqidagi tasavvurlarni shartli ravishda ikkiga - **transsendent va immanent** ilohlarga bo‘lish mumkin. Transsendent ilohlarga insonlar olamidan tashqarida, insonlarga hech qanday aloqasi bo‘lmagan, qusur va nuqsonlardan xoli Xudolar kiradi. Bunga misol sifatida tom ma‘noda islom dinidagi Alloh taolo va qisman xristianlikdagi Ota Xudo, yahudiylikdagi Yaxvelarni keltirish mumkin.

Immanent ilohlar deganda esa tabiatning bir bo‘lagi sifatida tasavvur qilingan, insonlarga o‘xshab ketadigan, biroq g‘ayrioddiy yaratuvchilik, buzg‘unchilik, rizqlantiruvchilik kabi kuchlarga ega bo‘lgan Xudolar kiradi. Bunday turdagi ilohlar ko‘pincha yo antropomorf (inson qiyofasida) yo zooantropomorf (yarim odam yarim hayvon) yoki zoomorf (hayvon) shaklda



tasavvur qilinadi. Bunga misol sifatida Qadimgi Misr, Yunon, Rim sivilizatsiyalari, zamonaviy Hindiston, Xitoy, Yaponiya dinlarini sanash mumkin.

***Ikkinchisi***, Xudo bilan insonlarni bog‘lab turuvchi kult yoki kultlar majmuasi. Yuqorida aytilganidek har bir dinda topinish ob‘ekti - Xudo bo‘lishi lozim. Yaratuvchi bilan insonni bog‘lab turadigan ibodat va marosimlar majmui (qurbonlik, ro‘za, bayramlar) kult deb ataladi. Kultlar kundalik yoki mavsumiy, yakka tartibdagi yoki jamoaviy kabi ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin. Jumladan, islom dinida «Namoz mo‘minning me‘roji» (ya‘ni Alloh taoloning xuzuriga ko‘tarilishi) hisoblansa xristianlikdagi «sirli marosimlar»da Muqaddas Ruhning o‘zi ishtirok etadi deb hisoblanadi. Shu tariqa, mavjud barcha dinlarda kultlar vositasida e‘tiqodchilar o‘z ilohlari bilan bog‘lanadilar.

***Uchinchisi*** esa e‘tiqodchilarni o‘zida jamlaydigan diniy tashkilotlarning mavjudligi. Diniy tashkilot, bu bir din izdoshlarining jamoaviy ravishda o‘z diniy rasm-rusum, ibodat marosimlarini o‘tkazadigan, diniy ta‘lim oladigan muassasalaridir. Bu, islomda - masjid, madrasa, xristianlikda - cherkov, seminariya, yahudiylikda - sinagoga va hokazo.

Dinlar tarixi, ular bilan bog‘liq jarayonlar, dinning inson hayotining turli jabhalari bilan o‘zaro ta’sirlashuvini o‘rganuvchi fan «Dinshunoslik» deb ataladi.

Dinshunoslik barcha ijtimoiy fanlar qatori ham o‘zining o‘rganish ob‘ektiga ega. U dinning paydo bo‘lishi, ijtimoiy mohiyati va jamiyatdagi rolini tadqiq qilish bilan birga diniy e‘tiqodlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi, ularning jamiyat taraqqiyotidagi evolyusiyasini ilmiy jihatdan o‘rganadi.

**Dinshunoslik fanining yuzaga kelishi va tarixiy taraqqiyoti.** Dinlarni o‘rganish uzoq tarixga ega. Har bir inson yon-atrofidagilarning e‘tiqodi, qaysi dinga mansubligiga qiziqadi, ular haqida bilishni istaydi. Bu boradagi ilk ma‘lumotlarni Qadimgi Gresiya va Rim yozuvchilari asarlarida ko‘rishimiz mumkin. Ulardan eng mashhuri «tarix otasi» nomini olgan Gerodot (mil. avv. V asr) o‘zi tadqiq qilgan xalqlarning dinlari haqida ma‘lumotlar keltirgan. Bu qiziqish O‘rta asr Yevropasida ham mavjud bo‘lgan. Lekin boshqa dinlar haqida fikr bildiruvchilar, xristianlarning e‘tiborini jalb qilmaslik va ularni o‘sha dinlarga

kirib ketmasliklari ta'minlash maqsadida, u dinlarga nisbatan salbiy fikr bildirish, ularni yomonlash orqali ularga yondashishni ma'qul deb topganlar.

Islom olamida ham dinlarni o'rganish bo'yicha tadqiqotlar uzoq tarixga borib taqaladi. Milodiy VII-VIII asrlardayoq diniy tortishuv (munozara)larni o'z ichiga olgan «maqola»lar (keyinchalik «maqolot»), VIII -IX asrlardan e'tiboran esa boshqa dinlarga «raddiya»lar yozila boshlangan. Keyingi asrlardan esa «al-Firaq» (Firqalar), «ar-Radd» (Raddiya), «ad-Diyonot» (Dinlar) va «al-Milal» (Xalqlar) yo'nalishidagi adabiyotlar vujudga kelgan<sup>2</sup>.

«Ad-Diyonot» (Dinlar) yo'nalishida yozilgan ilk asar Hasan ibn Muso an-Navbaxtiyning (vaf. 910 y.) «al-Aro' vad-diyonot» (E'tiqodlar va dinlar) kitobi hisoblanadi. Keyinchalik Mas'udiy (vaf. 957 y.) o'zining «ad-Diyonot» (Dinlar), Masbihiy (vaf. 1029 y.) «Darkul bug'yati fiy vasfid diyonoti val ibodoti» (Dinlar va e'tiqodlar vasfida maqsad me'yori) kitoblarini yozganlar. Shuningdek Beruniyning (vaf. 1048 y.) «Tahqiqun ma lilhind min maqulatin, maqbulatin fil-aqli av marzulatin» (Aqlga maqbul yoki noma'qul bo'lgan Hindistonga oid izlanishlardan) nomli kitobi ham shular sirasiga kiradi.

«Al-Firaq» (Firqalar) yo'nalishida yozilgan kitoblarga Abu Mansur Abdulqodir Bag'dodiyning (vaf. 1038 y.) «al-Farq bayn al-firaq» (Firqalar orasidagi farq) asari hamda Abul Maoliy Muhammad ibn Ubaydullohning (vaf. 1092 y.) «Bayn al-adyon» (Dinlar orasida) asarlarini kiritish mumkin.

«Al-Milal» yo'nalishida Qozi Abu Bakr Baqilloniyning (vaf. 1012 y.) «al-Milal van-nihal» (Dinlar va xalqlar), Abu Muhammad Ali Ibn Hazmning (vaf. 1064 y.) «Kitob al-fasl fi-l-milal va-l-ahvoi va-n-nihal» (Dinlar, havo va xalqlar haqida ajraluvchi kitob), Abul-Fath Muhammad ibn Abdulkarim Shahrisoniyning (vaf. 1183 y.) «al-Milal va-n-nihal» asarlarini sanash mumkin.

«Ar-Radd» (Raddiya) yo'nalishida ham ko'plab asarlar dunyo yuzini ko'rgan. Ularga Imom G'azzoliyning (vaf. 1111 y.) «ar-Radd al-jamil» (Go'zal

---

<sup>2</sup>Dunshunoslik asoslari. O'quv qo'llanma. -Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi.T. 2013.B.10.

raddiya), Ibn Kalbiyning (vaf. 819-821 y.) «Kitob al-asnam» (Butlar kitobi) nomli asarlarini alohida qayd etish lozim.

Darhaqiqat, Musulmon Sharqi o'lkalarida bu sohada ko'plab asarlar yaratilgan bo'lib, keyinchalik ular «Dinshunoslik» fanining taraqqiyoti uchun fundamental manba bo'lib xizmat qilgan. Jumladan, Abu Rayhon Beruniyning «al-Osor al-boqiya an al-qurun al-xoliya» («O'tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar»), «Hindiston», Muhammad ibn Abdulkarim Shahrisoniyning «al-Milal va-n-nihal» («Dinlar va oqimlar»), Ibn Hazm Andalusiyning «al-Fasl fi-l-milal va-l-ahvo va-n-nihal» («Dinlar, adashgan fiqaralar va mazhabni ajratish») kabi asarlari, shuningdek, Ibn Nadim (987-988) va Abul Hasan Omiriy kabilarning tadqiqot ishlari ko'plab Yevropa tillariga tarjima qilingan. Bu esa, islomiy va arab ilmlarini o'rganuvchi G'arb mutaxassislarining dinlar tarixiga oid islomiy tadqiqot ishlaridan asosiy manba sifatida foydalanishlari uchun qulay imkon yaratdi. Bunday asarlarda mualliflar tarixiy voqe'likni to'g'ri va xolis yoritganlar. Ular o'zlari musulmon bo'la turib, boshqa din va e'tiqodlar haqida ma'lumot berish yoki ularni tavsif qilishda noxolislikka olib kelishi mumkin bo'lgan har qanday shaxsiy hissiyotlarni suiiste'mol qilmaganlar. Buni Shahrisoniyning quyidagi so'zlari tasdiqlaydi: *«Men har bir fiqarani (din yoki diniy yo'nalishlarning hech birini) yoqlamay, kamsitmay, ularning kitoblarida qanday bo'lsa, shundayligicha, undagi xatolarni ajratib ko'rsatmay bayon qilishga ahd qildim».*

Beruniy o'zining «Hindiston» asari haqida shunday yozadi: *«Bu kitob bahs-munozara kitobi emas, tarix kitobidir. Hindlarning dinlarini ularning o'zlaridan o'rganib, fikrlarini tanqid qilmay bayon qilaman».* Bu Beruniy asarlarining butun dunyoga mashhur bo'lishiga sabab bo'ldi.

Ibn Nadim esa: *«Dinshunoslik fani hijriy IV-V asrlarga kelib mustaqil fan sifatida shakllandi.»*, deb yozadi. Bu milodiy X-XI asrlarga to'g'ri kelib, aynan shu davrda Beruniy o'zining «Hindiston» asarini yozgan.

G'arb mamlakatlarida dinshunoslik fani ko'pincha nemis tilidagi «RELIGIONS WISSENSCHAFT» yoki ingliz tilidagi «HISTORY OF RELIGIONS» kabi atamalar bilan yuritiladi. Bu esa «Ixivon as-safo» risolalari,

Beruniy va Shahrisoniy asarlarida qoʻllanilgan «علم الاديان» (Dinlar ilmi) yoki «تاريخ الاديان» (Dinlar tarixi) atamalarining harfiy tarjimasidir.

Zamonaviy Dinshunoslik esa bir yarim asrga yaqin davrga borib taqaladi. Gʻarbda, zamonaviy maʼnodagi dinlar tadqiqotlari Maks Myuller (1823-1900) tomonidan boshlab berilgan. Olim 1856 yilda «Qiyosiy mifologiya» va 1870 yilda nashrdan chiqqan «Dinlarning asosi va shakllanishiga oid dars baholari» nomli asarlari bilan boshqa dinlarni tadqiq qilishga yoʻl ochgan va kattagina eʼtibor qozongan. U Angliyadagi mashhur Oksford universitetida dinlar tarixidan maʼruzalar oʻqigan. Oʻzining «Sharqning muqaddas kitoblari tarjima silsilasi» asarida u ilk bora «**religious studies**»<sup>3</sup> (**dinshunoslik**) soʻzini qoʻllagan. Myuller va uning zamondoshlari dinlarni ilmiy tadqiq qilishda filologiyani muhim deb bilishgan va dinning asl mohiyatiga faqatgina til orqali qilingan izlanishlar bilangina etishish mumkin, degan fikrni olgʻa surgan.

Biroz keyingi davrlarda Gollandiyada S.R.Tile va Shantepi de la Sosse bu borada izchil faoliyat olib borganlar. Shunday qilib davrlar oʻtishi bilan Parij, Bryussel va Rim kabi markazlarda dinshunoslik universitetlar taʼlim dasturlaridan joy olgan.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab dinshunoslik sohasida olib borilgan izlanishlar shakllangan. Bu davrda turli mintaqalarda zikr qilingan soxada bir qancha mutaxassislar etishib chiqqan. Ulardan R.Pettazoni, M.Eliade, Van der Lyu, R.Otto, G.Menshing, J.Vax, F.Xeiler, G.Dumezil, E.G.Parrinder, S.G.F.Brandon, Erik F.Sharp, Ninian Smart, M.Kitagava, R.S.Zeyxner, Ugo Bienchi, V.Kantvell Smit, Ake V.Strom, Xans J.Shoyps va Mixael Paylar nomini zikr qilishimiz mumkin<sup>4</sup>.

**Dinning jamiyatdagi funksiyalari.** Dinning ijtimoiy vazifalari haqidagi taʼlimotni dinshunoslikda funksionalizm rivojlantiradi. Dinning «funksiya» va «rol» tushunchasini farqlash lozim, ular bir biri bilan bogʻliq, lekin oʻxshash emas.

---

<sup>3</sup>Dunshunoslik asoslari. Oʻquv qoʻllanma. -Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi.T. 2013.B.11.

<sup>4</sup>Dunshunoslik asoslari. Oʻquv qoʻllanma. -Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi.T. 2013.B.12.

Funksiya - bu dinning jamiyatdagi harakat usuli bo'lsa, rol - bu funktsiyani bajarish natijalarining jami yig'indisidir. Dinning bir nechta funktsiyalari mavjud: dunyoqarashni shakllantirish, kompensator, kommunikativ, regulyativ, integrallash-dezintegrallash, madaniyatni targ'ib qilish (kulturotranslyatsiya), legitimallashtirish-legitimallashtirishni olib tashlash.

*Dunyoqarashni shakllantirish* funktsiyasi dinda inson, jamiyat, tabiatga nisbatan aniq bir qarashlarning turlari mavjudligi tufayli amalga oshiriladi. Din hayotni (mavjudotni) ma'lum nuqtai nazardan tushunish (dunyoni to'la va undagi ayrim hodisa va jarayonlarni alohida tushuntirish), dunyoni kuzatish (his qilish va idrok etish orqali dunyoni aks ettirish), dunyoni his qilish (hissiy qabul qilish yoki rad etish), dunyoviy munosabat (baho berish) va hokazolarni o'z ichiga oladi. Diniy dunyoqarash Yaratganga nisbatan eng oliy tuyg'u va mezonlarni belgilaydi. Bunda mavjud borliqqa tushuncha berish dinga ishonganlar uchun turli cheklashlar doirasidan chiqish imkonini beradi, yorqin kelajak, huzur-halovatga erishish uchun umid, azob-uqubat, baxtsizlik, yolg'izlik, tushkunlikdan ozod bo'lishni qo'llab-quvvatlaydi.

*Kompensator funktsiya* ham odamlarning ongini qayta shakllanishini, ham turmushning ob'ektiv shart-sharoitlarini o'zgartirishdagi cheklanish, qaram bo'lish va ojizlikni to'ldiradi. Ruhiy erkinlik orqali real jabr-zulm bartaraf etiladi; ijtimoiy guruhlar gunohga botish va azob chekish borasida teng huquqlik bo'ladi; diniy tashkilotlar tomonidan beriladigan xayr-ehsonlar, mehr-shafqat, tarbiya, daromadlarni qayta taqsimlash mazlumlarning musibatini engillashtiradi va h.z. Umuman olganda, ruhiy zarbalarni bartaraf etish, tasalli berish, katarsis va ma'naviy ozuqa olish kabi kompensatsiyaning psixologik aspektlari muhim ahamiyatga egadir.

*Kommunikativ funktsiya* muloqotni ta'minlaydi. U ham diniy, ham diniy bo'lmagan faoliyat va munosabatlarda vujudga keladi, axborot almashish, o'zaro ta'sir ko'rsatish, insonni inson tomonidan idrok etish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Diniy ong ikki xil muloqotni belgilaydi: dindorlarning o'zaro bir-birlari bilan muloqoti va dindorlarning ibodat, namoz, meditatsiya, maxfiy qarashlar paytidagi

mediator va vositachilari tomonidan gipostazir jonzotlar (xudo, farishta, o'lganlarning ruhi, avliyolar va b.) bilan muloqoti.

*Regulyativ funksiya* ma'lum bir g'oyalar, qadriyatlar, yo'l-yo'riqlar, stereotip qoliplar, fikrlar, an'analar, rusumlar, institutlar orqali individ, guruh va jamoalarning faoliyati, munosabatlari, ongi va axloqini boshqarishdan iborat. Ayniqsa, me'yorlar tizimi (diniy huquq, axloq va h.z.), namunalar (taqlid uchun ko'psonli misollar), nazorat (qoidalar bajarilishini kuzatish), rag'batlantirish va jazo berish (haqiqiy va o'limdan keyin taqdirlanishiga va'da berish) muhim ahamiyatga ega.

*Integratsion-dezintegratsion funksiyasi* individ, guruh va institutlarni bir tomondan birlashtiradi, boshqa tomondan ularni ajratadi. Integratsiya shaxslar, ayrim ijtimoiy guruhlar, tashkilotlar, bir butun jamiyatdagi barqarorlik va chidamlilikni saqlasa, dezintegratsiya uni zaiflashishiga olib keladi. Integratsion funksiya ma'lum bir ma'noda yagona diniy e'tiqod mavjud bo'lganda amalga oshiriladi. Agar shaxslarning diniy ongi va xulq-atvorida bir-biriga muvofiq bo'lmagan g'oyalar, ijtimoiy guruh va jamiyatda bir-biriga qarama-qarshi konfessiyalar paydo bo'lsa, dinning funksiyasi dezintegratsion bo'ladi.

*Madaniyatni targ'ib qilish funksiyasi* oldin madaniyatning ma'lum bir qatlamlari - yozuv, kitob bosish, san'atning umuman rivojlanishiga yordam bergan bo'lsa, hozirda ba'zi madaniy fenomenlarni rag'batlantirib, ba'zilarini inkor etgan holda diniy madaniy qadriyatlarni saqlash va ko'paytirish, ilmiy-ma'naviy merosni nasldan naslga qoldirish vazifalarini bajaradi.

*Legitimlashtirish-delegitimlashtirish funksiyasi* ba'zi jamoat tartiblari, institutlar, munosabatlar, me'yorlar, namunalarni majburiyat sifatida qonuniy qilish yoki ularning ba'zilarini qonundan chiqarish vazifalarini amalga oshiradi<sup>5</sup>. Din ma'lum huquqiy talab va majburiyatlarni ilgari suradi va uning asosida ba'zi ko'rinishlarga, ularga ma'lum munosabatni shakllantirgan holda baho beradi.

---

<sup>5</sup> Петер Антерс. Религии современности. История и вера. - М.: Прогресс-Традиция, 2001. С.34.

Bunda majburiy va e'tiroz qilib bo'lmaydigan xarakter muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan qisqa xulosa qilib aytganda, din insoniyat tarixida, *birinchidan*, umuminsoniy axloq me'yorlarini o'ziga singdirib olib, ularni hamma uchun majburiy hulq-atvor qoidalariga aylantirgan; *ikkinchidan*, odamlarning bahamjihat yashashiga ko'malashgan; *uchinchidan*, odamlarda ishonch hissini mustahkamlagan hamda hayot sinovlari, muammo va qiyinchiliklarni engib o'tishlarida kuch bag'ishlagan; *to'rtinchidan*, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlarni saqlab qolish hamda avloddan-avlodga etkazishga yordam bergan va shu yo'l bilan madaniyat rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Ibtidoiy odam hayoti haqidagi tasavvurlarimizga ko'ra, uning hayotida kelib chiqqan diniy tasavvurlar quyidagi ibtidoiy din shakllarida namoyon bo'lgan.

**Dinlarning tasnifi. Dinlar paydo bo'lishining geografik va xronologik tasnifi.**

Dinlarni o'rganishda muayyan mezon asosida tasnif etib, tadqiq etish lozim bo'ladi. Bu dinlarning tarixi, e'tiqodiy asoslari, aqidalari, shuningdek, bir-biriga qilgan ta'siri kabi jihatlarining chuqur va har tomonlama mukammal o'rganilishiga zamin yaratadi. Dinlar unga e'tiqod qiluvchilarning soni, miqyosi, o'zining ma'lum millat yoki xalqqa xosligi yoxud millat tanlamasligiga ko'ra turli guruhlarga bo'linadi. Bu guruhlar son jihatdan qancha bo'lishidan yoki nazariy jihatdan qanchalik etuk bo'lishidan qat'i nazar, ularni mutlaqlashtirib bo'lmaydi. Chunki har qanday tasnif ma'lum bir jihatga e'tibor berib, boshqa qirralarni qamrab ololmaydi. Hozirgi kunda din tipologiyasida dinlarning quyidagi tasniflari mavjud:

- tarixiy-geografik jihatga ko'ra;
- etnik jihatga ko'ra;
- e'tiqod qiluvchilarining soniga ko'ra;
- hozirgi davrda mavjudligi jihatidan (tirik va o'lik diniy tizimlar) va h.k.

## **I. Tarixiy-geografik tasnif.**

### **1) O'rta er dengizi havzasi dinlari:**

- a) grek;
  - b) Rim;
  - v) ellinistik.
- 2) Qadimiy Yaqin va O'rta Sharq dinlari:
- a) Misr;
  - b) Shumer;
  - v) Akkad;
  - g) g'arbiy-somiy;
  - d) islomgacha arablar dinlari.
- 3) Yaqin va O'rta Sharqning payg'ambarli dinlari:
- a) zardushtiylik;
  - b) yahudiylik;
  - v) xristianlik;
  - g) manixeizm;
  - d) islom.
- 4) Hindiston dinlari:
- a) vedalar dinlari;
  - b) hinduizm;
  - v) hind buddizmi (teravada, maxayana);
  - g) jaynizm.
- 5) Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo dinlari:
- a) Shri-Lanka, Tibet, Janubi-Sharqiy Osiyo havzasi buddizmi;
  - b) Xitoy dinlari (daosizm, konfutsiychilik, buddizm maktablari);
  - v) Koreya va Yaponiya dinlari.
- 6) Amerika hindulari dinlari:
- a) toltek va asteklar dinlari;
  - b) inklar dinlari;
  - v) mayyalar dinlari.
- II. Etnik tasnif.



1) urug‘-qabila dinlari - totemistik, animistik tasavvurlarga asoslangan, o‘z urug‘idan chiqqan sehrgar, shaman yoki qabila boshliqlariga sig‘inuvchi dinlar. Ular millat dinlari va jahon dinlari ichiga singib ketgan bo‘lib, hozirda Avstraliya, Janubiy Amerika va Afrikadagi ba’zi qabilalarda saqlanib qolgan;

2) millat dinlari - ma’lum millatga xos bo‘lib, boshqa millat vakillari o‘ziga qabul qilmaydigan dinlar. Ularga yahudiylik (yahudiy millatiga xos), hinduizm (hindlarga xos), konfutsiychilik (xitoy millatiga xos), sintoizm (yaponlarga xos) kiradi;

3) jahon dinlari - dunyoda eng ko‘p tarqalgan, kishilarning millati va irqidan qat’i nazar unga e’tiqod qilishlari mumkin bo‘lgan dinlar. Ular safiga odatda buddizm, xristianlik va islom dinlarini kiritadilar.

### **Diniy e’tiqodlar evolyutsiyasi: politeizm, genoteizm, monoteizm. Ibtidoiy e’tiqodlar.**

Dinlar ta’limotiga ko‘ra **monoteistik** - yakkaxudolik (yahudiylik, islom) va **politeistik** - ko‘pxudolik (hinduizm, konfutsiychilik) dinlari va **genoteistik** (ko‘p xudolarga ishonish, lekin ulardan biri bosh xudo asosiy xudo deb qarashdir). Misol tariqasida Gretsiya xudolari orasidan Zevs bosh xudo, Misr xudolari orasida Amon-ra bosh homiy hisoblangan.

Ibtidoiy odam hayotidagi tasavvurlarimizga ko‘ra, uning hayotida kelib chiqqan diniy tasavvurlar quyidagi ibtidoiy din shakllarida namoyon bo‘ladi.

**1. Totemizm**<sup>6</sup>. Totem so‘zi - Shimoliy Amerikada yashaydigan *Ojibva* qabilasi tilida “uning urug‘i” ma’nosini anglatadi. Uning moxiyati “odamlarning hayvonot yoki o‘simlikning muayyan turlariga qarindoshlik aloqalari bor”, deb e’tiqod qilishdir. Extimol, ma’lum bir jamoaning avvalda asosiy ozuqa manbaini tashkil qilgan hayvon yoki o‘simlikka nisbatan e’tibor keyinchalik vujudga kelgan qabilaning diniy tasavvurlarining asosiy shakllaridan biriga aylangan bo‘lishi mumkin. Urug‘dosh guruxlar o‘zlarini umumiy belgilari va totemlari bo‘lgan hayvon yoki o‘simlikdan kelib chiqqan deb bilar edilar. Ammo bunday totemlar va odamlar orasidagi aloqalar uzoq o‘tmishga tegishlidir va bilvosita ularning mavjud

---

<sup>6</sup> Dinshunoslik.Haydarova.H.B.Durdona.Buxoro.2011.-B.24.

bo‘lganligini faqatgina qadimgi rivoyatlar tasdiqlaydi. Masalan, hozirgi davrgacha Avstraliya Aborigenlari orasida saqlanib qolgan afsonalardan ularning tasavvurlarini bilib olish mumkin.

Urug‘dosh jamiyatning shakllanishi jarayonida totemizm muhim rol o‘ynadi. Ayniqsa, ular qarindosh guruxlarning boshqalardan ajralishiga sabab bo‘ldi. “O‘zimizniki”, ya’ni bir totemga tegishli degan aniq taassurot paydo bo‘ldi. Totemizm ta’sirida paydo bo‘lgan urf-odatlar va normalar asrlar davomida qat’iy ravishda qo‘llanildi. Bu totemga xos bo‘lmagan begonalar bu jamoa urf-odati va normalaridan chetda hisoblangan. Totemizmning bunday ijtimoiy roli totemistik ko‘rinishlarni evolyusion harakteriga ham ta’sir ko‘rsatdi. Vaqt o‘tishi bilan qarindoshlik tizimining mustaxkamlanib borishi jarayonida birinchi darajali totem tartibi haqida tasavvur ilgari surildi. *Zooantropofomorf* ko‘rinishi bilan aralashgan holda odam bilan uning totemi qarindoshligi orasida oilaviy munosabatlar haqida, ya’ni odam vafot etgach uning o‘z totemiga aylanishi yoki aksincha - totemdan qayta inson shakliga kelishi haqidagi tasavvurlar paydo bo‘ldi. Birinchi tomondan buning hammasi o‘tgan ota-bobolar ruhlarining kuchayishiga va ilohiy kuchlarga ishonchni oshishiga olib kelgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan totemga bo‘lgan munosabatlarni o‘zgarishiga, totemni ozuqa sifatida iste’mol qilishni taqiqlanishiga olib keldi. *Tabu* - ta’qiqlash tizimi paydo bo‘ldi. Ulardan eng muhimi totemni ovqat sifatida iste’mol qilishni taqiqlash edi. Faqatgina ba’zi diniy marosimlarda ruhoniylar yoki qabila boshliqlariga totemni eyish ruxsat etilardi. Shunday qilib, totemizm urug‘chilik jamoasi - ijtimoiy jamoalarning eng birinchisida diniy ko‘rinishlarning tarixiy asosi bo‘lib qoldi.

Insoniyat rivojlanishining dastlabki bosqichlarida totemizmning asosiy vazifalari - birinchi ma’ruzada aytib o‘tilganidek **birlashtiruvchilik, tartibga soluvchilik** edi. Totemizm diniy shakllarning dastlabkisi bo‘lishiga qaramasdan, hozirda ham ko‘plab xalqlarning urf-odatlarida, e’tiqodlarida uning unsurlari saqlanib qolgan (Masalan, Xindistonda *sigir*, Avstraliyada *kenguru*, Qirg‘izlarda *oq bug‘u* afsonaviy baxt keltiruvchi hayvon sifatida ulug‘lanadi).

**2. Animizm**<sup>7</sup> (lotin tilida **anima** - ruh, jon ma'nolarini anglatadi). Animizm ruhlar mavjudligiga ishonch, tabiat kuchlarini ruhlantirish hayvonot, o'simlik va jonsiz jismlarda ruh, ong va tabiiy qudrat borligi haqidagi ta'limotni ilgari suruvchi ilk din shakllaridan biri. Ilk animistik tasavvurlar qadim o'tmishda, extimol totemistik qarashlar paydo bo'lgungacha, oilaviy jamoalarning shakllanganicha vujudga kelgan. Biroq etarli tushunib etilgan va barqaror ko'rinishdagi diniy xarakterga ega bo'lgan tizim sifatida kechroq, totemizm bilan bir vaqtda shakllangan.

Animizm totemizmdan farqlanadi. Totemizm ma'lum bir oilaviy guruhning ichki iste'moliga uni boshqalardan farqlash maqsadiga yo'naltirilgan bo'lsa, animistik tasavvurlar keng va umumiy xarakterga ega. Ular hammaga tushunarli va ma'qul bo'lgan. Shu bilan birga u tabiatning qudratli kuchlarini - osmon va er, quyosh va oy, yomg'ir va shamol, momaqaldiroq va chaqmoq kabilarni ilohiylashtirib, ularda ruh mavjud deb bilar edi. Tabiiyki, ibtidoiy odamlar nafaqat tabiatning buyuk mavjudliklarini, balki relefning ayrim alohida qismlari - tog'lar va daryolar, adir va o'rmonlar kabi odam e'tiborini tortuvchi narsa va jismlarga ham ilohiy munosabatda bo'lar edilar. Xattoki ko'p yillik daraxt, kattaroq xarsang tosh, jarliklarga o'xshash narsalar ham ibtidoiy odamlar tasavvurida jonli, tafakkurli, sezuvchan va harakat qiluvchi, shuningdek, yaxshilik yoki yomonlik keltirishi mumkin deb tushunilgan. Shunday bo'lgach, ushbu tabiiy narsa, hodisalarga e'tibor bilan munosabatda bo'lish taqazo etilardi, qurbonliklar qilish, ularning xaqiga duo qilib, marosimlar uyushtirilardi.

Animizm zamonaviy dinlarning barchasining asosiy aqidaviy qismini tashkil etadi. Jumladan, jaxon dinlari bo'lmish buddaviylik, xristianlik va islomda ham ruhlar haqidagi ta'limot mavjud.

**3. Shomonlik yoxud sexrgarlik**<sup>8</sup> ("shomon" so'zining tungus tilidagi ma'nosi "sexrgarlik"). Sexrgarlik (afsun, magiya) real natijalar olish uchun ilohiy kuchlarga ta'sir etish maqsadida amalga oshiriladigan ritual - urf-odatlar

---

<sup>7</sup> Dinshunoslik.Haydarova.H.B.Durdona.Buxoro.2011.-B.26.

<sup>8</sup> Dinshunoslik.Haydarova.H.B.Durdona.Buxoro.2011.-B.27.

majmuasidir. U totemizm va animizm bilan bir vaqtda paydo bo'lib, u orqali kishilar o'z totemlari, ota-bobolarining ruhlari bilan xayolan bog'lanishni amalga oshirib kelganlar. U qadim o'tmishda paydo bo'lib, minglab yillar davomida rivojlanishda davom etib, saqlanib kelgan. Odatda afsungarlik urf-odatlarini bilan maxsus odamlar - shamanlar, afsungarlar shug'ullanganlar. Ular orasida ayniqsa uzoq o'tmishda ayollar ko'p o'rinni egallaganlar. Bu shamanlar va afsungarlar jazavali va asabiy kishilar bo'lib, odamlar ularni ruhlar bilan muloqotda bo'lish, ularga jamoaning umid va niyatlarini etkazish, ularning irodasini talqin qilish qobiliyatiga ega ekanligiga chuqur ishonganlar. Shamanlar, odatda, ma'lum ritual harakatlar orqali ovoz chiqarish, ashula aytish, raqsga tushish, sakrash yo'li bilan nog'oralar va qo'ng'iroqlar ovozlari ostida o'zlarini jazavaga solib, o'zini yo'qotish, jazavaning yuqori nuqtasiga etkazish bilan afsungarlik qilishgan. Tomoshabinlar ham ba'zan o'zini yo'qotish darajasiga etib marosimlar ishtirokchilari bo'lib qolishar edi. Odatda shaman marosim oxirida bir holatga kelib hech narsani eshitmay, ko'rmay qolar edi. Shuning uchun uning ruhlari dunyosi bilan muloqoti xuddi shu holatda amalga oshadi deb hisoblanardi. Umuman, olganda ritual marosimlar qismlardan iborat bo'lgan afsungarlik jamiyatning haqiqiy talablaridan kelib chiqqan holda hayotda amalga oshirilgan. Ilohiy kuchlar dunyosi bilan bunday bog'lanish yo'li hayotda noma'lum, oldindan bilib bo'lmaydigan sharoitlardan kelib chiqqan. Lekin shu bilan birga afsungarlik odamlarning fikr yuritish, ongini mustaxkamlashda katta rol o'ynadi. Bu esa diniy ongni shakllanish jarayonida muhim o'rin tutdi. Afsungarlik fikr yuritish rivojlangan sari odamga o'z-o'zidan bo'ladigan, faqatgina maqsadli yo'nalishdagi harakatlar natijasida olinadigan emas, balki ilohiy kuchlar afsuni bilan bog'liq bo'lgan sharoitlardan kelib chiqadigan ko'rinish deb hisoblangan. Natijada ko'pchilik aniq hodisalar, xattoki alohida buyumlar sexrli kuch egasi sifatida qabul qilina boshlandi.

Sexrgarlik marosimlari yakka holda yoki jamoa bo'lib amalga oshirilishi mumkin edi. Afsungarlik maqsadga ko'ra quyidagilarga bo'linadi: 1) Zarar keltiruvchi - yovuz afsungarlik. Uning maqsadi kimgadir zarar etkazishdan iborat;

2) Harbiy afsungarlik. Bu dushmanga qarshi ishlatiladi (masalan, qurol-aslaxalarni sexrlash); 3) Sevgi afsungarligi. Undan “issiq” yoki “sovuq” qilish maqsadida ishlatiladi. 4) Tibbiy afsungarlik. Undan davolash maqsadida foydalanish. 5) Ob-xavo afsungarligi. Bu sexrgarlik turidan yomg‘ir chaqirish yoki shunga o‘xshash ob-xavoni o‘zgartirish maqsadida foydalanilgan.

Sexrgarlik hozirda ham zamonaviy dinlarda va turli xalqlar urf-odatlarida saqlanib qolgan.

**4. Fetishizm<sup>9</sup>** (fetish so‘zi fransuzcha fetiche - but, sanam; tumor ma’nosidagi so‘zni anglatadi). Uning mohiyati tabiatdagi jonsiz predmetlarga sig‘inishdir. Unga ko‘ra alohida buyumlar kishining o‘z maqsadiga erishtirish, ma’lum voqea-hodisalarning o‘zgartirish kuchiga ega. Fetish ham ijobiy ham salbiy ta’sir etish kuchiga ega.

Fetishizm yog‘och, loy va boshqa materiallardan yasalgan buyumlar paydo bo‘lishi bilan bir paytda shakllangan. Bu butlarda va tumorlarda jamoalar g‘ayritabiiy dunyodan keladigan ilohiy qudratning timsolini ko‘rdilar.

Bunday fetishga odatda afsungarlar, shamanlar ega edilar. Ular afsungarlik usullariga binoan bunday buyumlarga ta’sir ko‘rsatganlar. Ibtidoiy odamlarning dastlabki diniy taassurotlari umumiy majmuasining shakllanish jarayonida fetishizm yakunlovchi bosqich bo‘lib qoldi. Haqiqatda, ajdodlarni va tabiatni jonlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan animizm, turli totemlar hamda o‘lib ketgan avlodlar shaxsiga bog‘liq totemizm orqali ibtidoiy odamlar ongida real buyumlar bilan birga ilohiy va illyuziya dunyosi borligi haqidagi tushuncha paydo bo‘ldi. Natijada ularning ongida afsonaviy fikr yuritish qobiliyati mustaxkamladi. Va nixoyat fetishlarning paydo bo‘lishi shuni ko‘rsatadiki, afsonaviy qudrat faqatgina vaqt va bo‘shliqda ko‘chib yurish xususiyatiga ega bo‘lib qolmasdan, balki voqeiy dunyodagi buyumlarda ham bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, urug‘chilik jamiyatining tashkil topish jarayonida ibtidoiy odamlarning ongida dastlabki diniy ko‘rinishlarning keng, aniq, tartibli majmuasi ishlab chiqildi. Uning ma’nosi shuni anglatadiki, diniy tasavvurlar odam hayotining bo‘linmas, xattoki asosiy qismi


---

<sup>9</sup> Dinshunoslik.Haydarova.H.B.Durdona.Buxoro.2011.-B.28.

bo‘lib qoldi. Jamiyat va tabiat qonunlarini, albatta, o‘sha dunyo kuchlari boshqaradi. Shuning uchun jamoa yaxshi yashayman desa, ozuqalar bilan ta‘minlangan, kimningdir tomonidan himoyalangan bo‘lishni istasa, birinchi vazifasi u o‘sha g‘ayritabiiy kuchlarni juda ham hurmat qilishi kerak edi. Dunyo haqidagi bu tasavvurlar vaqt o‘tishi bilan takomillashib bordi va insoniyat hayotida uzoq vaqt mobaynida o‘z ta‘sirini o‘tkazib keldi.

Fetishizming unsurlari hozirgi davrda ham xalqlarning urf-odat va e‘tiqodlarida saqlanib qolgan. Masalan, barcha dinlardagi haykallar, suratlar, tumor, ko‘zmunchoq va turli ramzlar bunga yaqqol misoldir.

Markaziy Osiyo xalqlari hayotida “fetish” so‘zio‘ziga xos namoyon bo‘lgan. Ajdodlarimiz tosh qurollar, tayoq, to‘qmoq, yog‘och nayzalar bilan olishuvlar, urushlar va ovda g‘olib chiqishib, ularning ilohiyligiga ishonishgan. Shu bois qurollarni ehtiyot qilishgan. Qadimgi “fetish” odatlardan biri bu issiriq tutatish bo‘lib, undfan yovuz ruhlarni haydash, inson ruhiyatiga ijobiy ta‘sir etish, ko‘z tegishidan saqlash maqsadida qo‘llanilgan. Qo‘zmunchoq, tumor ham “fetish” sifatida taqib yurilgan.



**Ibtidoiy mifologiya**<sup>10</sup>. Ibtidoiy odamning tasavvuri va e'tiqodlari majmuasi, ularning real hayotdagi qiyinchiliklari, muammolari va yutuqlari og'zaki ijodda aks etgan. Bu narsa odamlarning ongida qolib, turli afsonalarning yaratilishiga sabab bo'lgan. Ibtidoiy mifologiyani tashkil etgan ijod doim odamlarning ma'naviy hayoti, ibodati, hissiyotlari va diniy tasavvurlari bilan chambarchas bog'liq edi. Buni tushunish oson: agar ibtidoiy odamning asosiy ma'naviy hayotida totemlarga, marxum ajdodlarga ibodat qilish, ular bilan sirli qarindoshligi bo'lsa, mifologiyaning markazida zooantropomorfik ajdodlar yoki har-xil mo'jizalar kuchiga ega bo'lgan ilohiylashtirilgan qaxramonlar turardi. "Madaniy qaxramon"larning ismlari afsonalarda biron bir muhim yaratilgan ixtiro yoki yangilikda mujassam bo'lgan. Masalan, olovni topish, oila va nikoxlar shaklni o'rnatish, mexnat va ov qurollarini yasash va boshqa jasoratlarga oid aqidalarni tashkil qilish. Kosmogonik syujetlar ibtidoiy mifologiyada katta o'rin egallagan. Ya'ni yer va osmon, quyosh va oy, o'simlik va hayvonot va nixoyat odamning yaratilishi to'g'risida rivoyatlar va afsonalarda diniy tasavvurlarning ta'siri yaqqol namoyon bo'lgan. Ruhlarini yangi shaklga kirish sexrli xususiyatiga, ya'ni o'z qiyofasini o'zgartirish qobiliyatiga ega, bir vaqtning o'zida odam va hayvon shaklidagi monstr deb hisoblashardi.

Ibtidoiy mifologiyada hayot va o'lim, tabiat va madaniyat, ayol va erkaklar orasidagi muhim aloqalar tasvirlangan edi. Mifologiyaning bunday qarama-qarshiliklarini tahlil qilish hozirgi sharoitda inson tarixining qadimgi bosqichini qayta tiklash uchun muhim manba hisoblanadi. Xususan, bu tahlil ibtidoiy jamoalarda taraqqiyotning borishida diniy tasavvurlarning muhim rolini aniqlashga imkon yaratadi.

### **Mavzu bo'yicha savollar**

1. Dinshunoslik fanini o'qitishdan maqsad nima?
2. Dinshunoslik fanining rivojlanish bosqichlari haqida nimalarni bilasiz?
3. Dinshunoslik alohida fan sifatida qachon shakllangan?
4. Yevropalik ilk dinshunoslardan kimlarni bilasiz?

---

<sup>10</sup> Dinshunoslik.Haydarova.H.B.Durdona.Buxoro.2011.-B.29.

5. Dinshunoslikning qanday sohalari mavjud?

6. Dinga qanday ta'riflar berilgan?

### **Mustaqil ish topshiriqlari**

1. Dinshunoslik fanining yuzaga kelishi haqida so'zlab bering.

2. Dinshunoslik fanining maqsad va vazifalari haqida so'zlab bering.

3. Turli olimlar tomonidan dinga berilgan ta'riflar haqida ko'rgazmali slayd tayyorlang (MS Powyer Point).

### **Adabiyotlar**

1. Dunyo dinlari tarixi. O'quv qo'llanma. -T., Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2011.

2. Davlat va din. O'quv qo'llanma / Tuzuvchilar: D.Rahimjonov, N.Ismatova, G.Xudayberganova, L.Alidjanova, O.Ernazarov. - Toshkent: Somplex Print, 2019. - 136 b.

3. Dinshunoslik asoslari. O'quv qo'llanma. -T., Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013.

4. Мен А. История религии. - М.: 1994.

5. Петер Антерс. Религии современности. История и вера. - М.: Прогресс-Традиция, 2001.

6. Радугин А.А. Введение в религиоведение: теория, история и современные религии. - М.:1996.

7. Яблоков И.Н. Основы религиоведения. - М. 1998


8. Dinshunoslik. O'quv qo'llanma / Muratov D., Alimova M., Karimov J. - Toshkent: Complex Print, 2019. - 224 b



# QADIMGI DINIY TASAVVURLAR

(EARLY RELIGIONS)

O'z urug'idan chiqqan sehrgar, shaman, qabila boshliqlari, ruhlarga, o'simlik, hayvon yoki buyum-narsalarga sig'inuvchi dinlar. Ular milliy va dunyo dinlari ichiga singib ketgan bo'lib, hozirda Avstraliya, Janubiy Amerika va Afrikadagi ba'zi qabilalarda saqlanib qolgan.



Tosh davridagi odamlar sig'ingan ana-xudolar haykallari

## Fetishizm

Fetishizm (fransuzcha "fetiche" - but, sanam, tumor) mohiyatan tabiatdagi jonsiz narsalarga sig'inish bo'lib, unda narsalar g'ayritabiiy xususiyatga ega va ular odamlarni yovuz kuchlardan, dushmanlardan saqlaydi deb e'tiqod qilinadi. Sig'iniluvchi fetishlar - tosh, daraxt, umuman barcha moddiy buyumlar bo'lishi mumkin va ularda ruh bor deb ishoniladi.



FETISHLAR va RUHLAR




## Totemizm

Totemizm - "ototeman" so'zi Shimoliy Amerikada yashaydigan hindularning Ojib va qabilasi tilida "uning nasabi" ma'nosini anglatadi.

Totemizmning mohiyatini ajdodlar bilan ayrim hayvonlar va o'simliklar orasida qandaydir yaqinlik, aloqa hamda qon-qarindoshlik, ajdodlik bor deb ishonish tashkil etgan.

Vaqt o'tishi bilan ba'zi qit'alarda yashovchi qabilalar o'z urug'i nomlarini birtorta hayvon yoki o'simlik nomi bilan ataganlar.


Bu nomlar ichida, sichqon, sigir, yo'lbars, ilon, ot, maymun, it muqaddas va xosiyatli hisoblangan.



Qadimgi odamlarni totemistik dunyo qarashi. Miloddan avval 13 ming yil.



Buryat shamanizm vakili. XX asr boshlari.



## Shamanizm

Shamanizm (tungus tilida "shaman" - sehrgarlik, afsungarlik, magiya) real natijalar olish uchun ilohiy kuchlarga ta'sir etish maqsadida amalga oshiriladigan ritual-marosimlar majmuasidir. Bunday afsungarlik maqsadga ko'ra quyidagilarga bo'linadi: 1. Zarar keltiruvchi - yovuz afsungarlik. Uning maqsadi kimgadir zarar yetkazishdan iborat. 2. Harbiy afsungarlik. U dushmanga qarshi, masalan, qurol aslahalarini sehrlash. 3. Sevgi afsungarligi. Undan "issiq" yoki "sovuq" qilish maqsadida. 4. Tibbiy afsungarlik. Undan maqsad davolash. 5. Ob-havo afsungarligi. Bu sehrgarlik turidan yomg'ir chaqirish yoki shunga o'xshash ob-havoni o'zgartirish maqsadlarida foydalanilgan. Shamanlar va afsungarlar jazavali va asabiy kishilar bo'lib, odamlar ularning ruhlari bilan muloqotda bo'lishlariga, ularga jamoaning umid va niyatlarini yetkazish, ularning irodasini talqin qilish qobiliyatiga ega ekanligiga chuqur ishonganlar.

## Animizm

Animizm (lotincha "anima" - ruh, jon) ruhlari mavjudligiga ishonch, tabiat kuchlarida, hayvonot, o'simlik va jonsiz jismlarda ruh, ong va tabiiy qudrat borligi haqidagi qadimgi diniy tasavvur. Animistik tasavvurlar totemizm dan farqli ravishda keng va umumiy xarakterga ega. Ularga ko'ra osmon va yer, quyosh va oy, yomg'ir va shamol, momaqaldiroq va chaqmaq kabi tabiat kuchlari ilohiy lashtirilib, ularda ruh mavjud deb, ishoniladi. Ana shunday e'tiqoddagi insonlar tog'lar va daryolar, adir va o'rmonlar kabi adam e'tiborini tortuvchi narsa va jismlarga ham ilohiy munosabatda bo'ladilar. Ular tasavvurida hatto ko'p yillik daraxt, kattaroq xarsang tosh, jarliklarga o'xshash narsalar jonli, tafakkurli, sezuvchan va harakat qiluvchi, shuningdek, yaxshilik yoki yomonlik keltirishi mumkin deb tushuniladi.

## MAVZU: MILLIY DINLAR

### Reja:

1. Yahudiylik dinining vujudga kelishi va ta'limoti.
2. Hindiston milliy dinlari (vedalar, braxmanlik, hinduiylik)
3. Xitoy milliy dinlari. Konfutsiylik ta'limoti va ijtimoiy-axloqiy masalalar. Daochilik-falsafiy ta'limot.
4. Sintoiylik. Yapon xalqi an'analari.

**Tayanch iboralar: Yahve, Muso, Sinagoga, Veda, Braxman, Hinduiylik, Konfutsiy, Dao, Sintoizm, Mikado, Kama.**

**Yahudiylikning vujudga kelishi va ta'limoti.** Yahudiylik dini eramizdan avvalgi 2000 yillarning oxirlarida Falastinda vujudga kelgan, birinchi bo'lib yakkaxudolik g'oyasini targ'ib qilgan dindir. Yahudiylik millat dini bo'lib, faqatgina yahudiy xalqiga xos. Yahudiylikning kitobiy asoslari er. av. IV-III asrlarda shakllandi. Bu dinning ta'limotiga ko'ra olamlarni yaratuvchi yagona



**Menora - shamdon**

xudo Yahve mavjud. U Tavrotni yahudiylarga berish bilan ular bilan axd tuzgan. Go'yoki yahudiylar Yahvening er yuzidagi xalqlarning "eng mumtozi" va keyingi dunyoda berilajak in'omlarning eng xaqlisi, Muso Yahvening elchisi, Tora (Tavrot) Yahve tomonidan Musoga Tur tog'ida berilgan muqaddas kitob. Yahve olamlarni yaratishni yakshanbada boshlab, juma kuni tugatdi, shanba kuni esa dam oldi va yahudiylarga ham shu kuni dam olishni buyurdi. Shuning uchun yahudiylik diniga ko'ra shanba kuni ulug' kun hisoblanib, hech qanday mehnatga qo'l urilmaydi.

Bundan tashqari yahudiylikda *messiya*<sup>11</sup> - *xaloskorning* kelishi haqidagi ta'limot ham keng o'rin olgan. Unga ko'ra oxirzamonda Yahve yahudiylar orasidan bir xaloskorni chiqaradi va u quyidagi vazifalarni bajaradi: 1) dunyoni

---

<sup>11</sup> u.wikipedia.org/wiki/Мессия

qaytadan, islox qilgan holda qurish; 2) butun yaxudiylarni Sinion (Quddus yaqinidagi tepalik) atrofida to‘plash; 3) ularning barcha dushmanlarini jazolash.

Muso Tur tog‘ida Yahve bilan uchrashganda unga 10 ta lavhani tushirdi. Ularda ushbu din asosini tashkil qilgan 10 ta nasixat bor edi:

1. Yahvedan boshqani iloh deb ushlamaslik;
2. But, sanam va rasmlarga sig‘inmaslik;
3. Bekordan-bekorga Xudo nomi bilan qasam ichmaslik;
4. Shanba kunini hurmat qilish va uni Xudo uchun bag‘ishlash;
5. Ota-onani hurmat qilish;
6. Nohaq odam o‘ldirmaslik;
7. Zino qilmaslik;
8. O‘g‘irlik qilmaslik;
9. Yolg‘on guvohlik bermaslik;
10. Yaqinlarning narsalariga ko‘z olaytirmaslik.

**Yahudiylikdagi oqimlar**<sup>12</sup>. Yahudiylikdagi oqimlar haqida gapirganda ularni qadimiy oqimlar va zamonaviy oqimlarga bo‘lishimiz mumkin. Qadimiy oqimlarga *Sadduqiylar*, *Farziylar*, *Yesseylar* kiradi. Zamonaviy oqimlarga esa *Massonizm* va *Sionizm* kiradi.

Sadduqiy nomi podshoh Dovud payg‘ambar davrida yashagan ruhoniylar Saduq nomi bilan bog‘liq. Ko‘plab mansabdor ruhoniylar sadduqiy bo‘lganlar. Ular diniy ishlarda faqat Qonun (Musoning besh kitobi)ni tan olganlar. Qonunda ruhoniylar, qurbonliklar, ibodatlar haqida so‘z boradi, lekin oxirat va qiyomat haqida hech narsa deyilmagan. Shuning uchun sadduqiylar qiyomatda o‘lganlarning qayta tirilishini tan olmaganlar.

Farziy nomi qadimiy yahudiy tilidagi “tushuntirish”, “ajratib ko‘rsatish” so‘zidan olingan bo‘lib, ular Musoning qonunini sharhlaganlar va oddiy odamlarga o‘rgatganlar. Farziylar Musoning zamonidan beri og‘zaki an‘ana davom etib kelyapti deb hisoblaydilar. Ular har bir avlod o‘z extiyojlarini qondirish uchun Qonunni sharhlay oladi deb bilganlar.


---

<sup>12</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Yahudiylar>

Ular muqaddas manba sifatida nafaqat Musoning qonunini, balki boshqa payg'ambarlarning ham muqaddas yozuvlarini, xatto o'zlarining urf-odatlarini ham qabul qilganlar va bularning hammasiga sinchkovlik bilan amal qilganlar. Shuning uchun ular ovqatga, kiyimga va boshqa narsalarga juda ehtiyot bo'lganlar. Qo'llarini va badanlarini ozodaligiga katta e'tibor berganlar. Farziylar juda ko'p payg'amlar gapirib o'tgan qiyomatga, o'lganlarning qayta tirilishiga ishonganlar.

Yesseylar Quddusdagi ko'pgina ruhoniylar Xudo ulardan talab qilganidek yashamas edilar. Undan tashqari rimliklar ba'zi diniy mansablarga Musoning Qonuniga muvofiq munosib bo'lmagan shaxslarni tayinlagan edilar. Buni ko'rgan bir guruh ruhoniylar Quddusda ibodat qilish va qurbonlik qilish Qonunga to'g'ri kelmay qoldi, deb hisobladilar. Ular Quddusni tashlab, yahudiy saxrolariga chiqib ketdilar va o'sha erda o'z jamoalarini tashkil qildilar. Ularni *esseylar* deb atashdi. Yesseylar Xudo tomonidan yuboriladigan xaloskor - Messiyaning kelishi va Quddusni tozalashini kutib, ibodat qilib yashar edilar.

Massonizmning ma'nosi "ozod quruvchilar" bo'lib, yahudiylikdagi yashirin tashkilotdir. U milodiy 44 yili Rim imperatorlaridan Irod Akriba tomonidan o'zining ikki yahudiy maslaxatchisi: rais o'rinbosari Xeron Abyud va birinchi sekretar Muob Lomiy yordamida tashkil etilgan. Maqsadi - dunyoda yaxudiylik hukmronligini o'rnatishga erishish. U tashkil topgan davrda "maxfiy qudrat" deb atalardi. Keyinchalik massonizm deb ataldi.



Muqaddas-  
Tora

Sionizm nomi Quddusdagi Sion tog'i bilan bog'liq. Bu oqim avstraliyalik yaxudiy jurnalist T. Gerlsning "Yaxudiylik davlati" risolasi asosida tuzilgan. Bu oqimning o'z oldiga qo'ygan maqsadi - yaxudiylik o'zlari yashab turgan turli o'lkalardan chiqib, Falastinda "milliy birlashish"ga erishish. Sionizm "jahon yahudiy millati" - "oliy millat" kabi g'oyalarni ilgari suradi. O'z g'oyasiga ko'ra sionizm siyosiy oqim bo'lib, maqsadiga erishish yo'lida yahudiy dinidan foydalanadi.

**Yahudiylik manbalari**<sup>13</sup>. Yahudiy dini boshqa dinlar kabi

<sup>13</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Yahudiylar>

o‘zining muqaddas yozuvlariga ega. Uning asosan ikkita manbasi bo‘lib, biri er. av. XIII asrda yashagan va Isroil xalqini Misrdan olib chiqib ketishga boshchilik qilgan Muso payg‘ambarga Tur tog‘ida berilgan Tora (Tavrot). Bu manba xristianlar uchun ham muqaddas hisoblanganligi uchun u haqida xristianlik mavzusida kengroq to‘xtalamiz.

**Talmud.** Talmud (qad. yaxud. Tilida *lameyd- o‘rganish*) miloddan avvalgi IV asrlarda vujudga kelgan va yozma Toradan farqli o‘laroq, avlod-dan-avlodga og‘zaki ravishda o‘tib borgan. Shuning uchun Torani yozma qonun, Talmudni esa og‘zaki qonun deb yuritilgan. Talmud Mishna va Gemara kitoblari majmuasi bo‘lib, Mishna ravvinlar tomonidan Tavrotga yozilgan sharxlar, Gemara esa Mishnaga yozilgan sharxlardan iborat. Talmudning Falastin (O‘rshalim) va Vavilon (Bavliy) nusxalari mavjud. O‘rshalim Talmudi eramizning III asrlarida Bavliy talmudi eramizning V asrida taxrir qilingan.

Unda ilgari yaxudiylar uchun noma‘lum bo‘lgan esxatologik (ya‘ni oxirat, qiyomat, marxumlarning tirilishi, u dunyodagi ajr va jazo) tasavvurlar o‘z aksini topgan. Talmudda yaxudiylikning marosimlari, urf-odatlarini aniq bayon etilgan bo‘lib, ular 248 ta vasiyat va 365 ta ta‘qiqni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, unda qadimiy yaxudiylar orasida din, partiya, guruhlar (sadduqiylar, farziylar, esseylar)ning kelib chiqishi haqida tarixiy ma‘lumotlar keltirilgan. Unda bayon etilgan diniy qonun-qoidalar, aqidalar, ko‘rsatmalar yaxudiy dinining asosini tashkil etadi.

**Yahudiy marosimlari va bayramlari**<sup>14</sup>. Yahudiylar o‘zlarining Yahvega nisbatan sodiq ekanliklarini isbotlash uchun bir necha rasm-rusumlarni ijro etadilar. Ular yillik va kunlik ibodatlardan, bayramlardan, marosimlardan iborat. Ibodat uyda ham sinagogada ham birday olib boriladi. Yahudiylar sinagogasining sharqiy tomonida Toraning nusxalari saqlanadigan sandiq va Ravvin uchun minbar qo‘yilgan. Ayollar erkaklardan alohida ibodat qilishadi. Sinagogada ibodat *xor* shaklida olib boriladi.

---

<sup>14</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Yahudiylar>

Yangi tugʻilgan oʻgʻil bolalar sakkizinchi kuni xatna qilinadi. Yahudiylilikda bir necha tur oziq-ovqatlar, asosan choʻchqa, quyon, qoʻshoyoq, tuya, yaxlit tuyoqlilar, oʻlaksaxoʻr qushlar kabi baʼzi hayvon goʻshtlarini eyish taqiqlanadi.

Yahudiylarning yillik bayramlari ichida eng eʼtiborlisi Peysax (Pasxa) bayramidir. Bu bayram xristianlarning pasxasidan farqli oʻlaroq, yaxudiylarning Misrdagi qullikdan qutulib chiqqanlari munosabati bilan nishonlanadi. Qadimiy yaxudiylarda Pasxa deb qoʻzichoq goʻshti va vinodan iborat kechki ovqatga aytilgan. Xudo Misrdagi yahudiy boʻlmagan goʻdaklarni qirib tashlashga qaror qilganda ular oʻz uylarining peshtoqini oʻsha qoni bilan boʻyab oʻzlarini yahudiy ekanliklarini bildirganlar.

Yahudiylar pasxa bayramidan keyingi etti kun davomida tuzsiz, hamirturushsiz patir - *masa* eydilar. Masani eyish bilan har bir yaxudiy Muso boshchiligidagi oʻz ota-bobolarining chekkan mashaqqatlarini his etadi. Bu bayram yahudiylarning quyosh-oy kalendarining *Nison* oyining 14 kuni (aprel oyining oʻrtalariga toʻgʻri keladi) nishonlanadi.

Pasxadan keyingi 50-kuni yaxudiylar *Shabuot*, *Shevuot* bayramini nishonlaydilar. Bu bayram dastlab dehqonchilik bayrami boʻlgan, keyinchalik Sinay togʻida Musoga Xudo tomonidan Torani berilishini niloshlab oʻtkaziladigan bayramga aylangan. U yaxudiylarning kalendari boʻyicha *Sivona* oyining 6-,7-kunlari nishonlanadi.

Kuzda yahudiy kalendaridagi *Tishri* oyining 1-,2-kunlari (sentyabr oxiri, oktyabr boshlari) yangi yil bayrami - *Rosh-Ashona* nishonlanadi. Bu bayram yahudiylar uchun poklanish bayrami hisoblanib, ular qurbonlik qilingan qoʻchqor shoxidan yasalgan surnaylarni chaladilar, choʻntaklarini toʻntarib yaxshilab qoqadilar.

*Tishri* oyining 9-kuni gunoxlardan poklanish bayrami - *Yom-Kipur* nishonlanadi. *Rosh-Ashona* va *Yom-Kipur* bayramlari oʻrtasida yaxudiylar roʻza tutadilar. Roʻza kunlari ular yuvinmaydilar, yalangoyoq, eski-tuski kiyimlarga oʻranib yuradilar. Sinagogada nadomatlar bilan yigʻlab tavba qiladilar.

*Purim* (qur'a) bayrami yaxudiy bayramlarining ichida eng quvnoq hisoblanadi. Bu bayram yaxudiylarning ularni qirib tashlamoqchi bo'lgan Fors podshoxi Xomon zulmidan qutilganliklari sharafiga baxorda nishonlanadi. Ularni Xomondan o'z amakisi Mordexay tarbiyalagan Yesfir ismli qizcha qutqargan. Shuning uchun bu kuni yaxudiylar "Xomonga la'natlar bo'lsin", "Mordexayga Xudoning rahmatlari yog'ilsin", deb qichqiradilar.

**Yahudiylar O'rta Osiyoda.** Ma'lumki, yahudiylar O'rta Osiyoga qadim zamonlardan ko'chib kelganlar. Ularning bu kelishlari haqida turli xil rivoyatlar mavjud. Ularning ichida umume'tirof etilganlaridan biri shuki, yahudiylar bu mintaqaga Eron orqali kirib kelganlar. Bu xalqning O'rta Osiyoga hijrati ko'p asrlar mobaynida davom etdi. Tahminlarga ko'ra, ular Assuriya quvg'inlari paytida - e.r. av. VII-VI asrlarda Eronga ko'chib kela boshlaganlar. Hatto e.r. av. VIII asrlarda ba'zi yahudiylar Isroilni tark etib, Misr, Eron kabi o'lkalarda boshpana topganliklari haqida ham xabarlar bor. Fors davlati ma'lum muddat O'rta Osiyoni o'z hukmlari ostida tutib turganlar va xuddi shu davrda yahudiylarning ko'chib kelishi amalga oshgan. Bu fikrni mahalliy yahudiylarning fors lahjalaridan birida gaplashishlari ham quvvatlaydi. Ularning hayot tarzlari, urf-odatlari qadimiy yahudiy, fors va mahalliy - O'rta Osiyo madaniyatlarining qorishmasidan iborat. Tarixning turli jarayonlarida bu uch madaniyatdan ba'zilarining ta'siri kuchayishi yoki aksincha susayishi kuzatilgan. XVIII asrning boshlarida O'rta Osiyoda yuz bergan siyosiy jarayonlar tufayli yahudiylar Eron, Afg'oniston, Xiva, Qo'qon va Buxoro jamoalariga bo'linib ketdi. O'tgan asrning ikkinchi yarmida Rossiya tomonidan O'rta Osiyoning ma'lum bir qismining bosib olinishi yana yahudiylarni Turkiston Muhtoriyati va Buxoro Amirligi jamoalariga bo'linib ketishiga olib keldi. Yahudiylik millat dini bo'lganligi uchun yahudiylar qayerda bo'lmasin, biri-ikkinchisidan qancha uzoq bo'lmasin, o'qiydigan kitobi - Tavrot, e'tiqod qiladigan dini yagona bo'lib qolaverdi. XVIII asrda O'rta Osiyo yahudiylari tushkunlik davrini boshdan kechirdilar. 1793 yili o'zi G'arbiy Afrikadan bo'lib, Falastinning Sfat shahrida yashovchi Iosif Mamon Mag'ribiy o'z shahri yahudiylar uchun moddiy yordam to'plash maqsadida Buxoroga keladi. U bu erlik yahudiylarning

o'z dinlaridan uzoqlasha boshlaganliklarini ko'rib, shu erda qolishga va millatdoshlariga diniy ta'lim berishga ahd qiladi. Yahudiylar doimo tinch, kam aholili joylarda yashashni afzal ko'rganlar. Agarchi O'rta Osiyolik yahudiylarni *Buxoro yahudiylari* deyilsa ham, ular ko'proq Samarqandda yashaganlar. XVIII asrning o'rtalarida Nodirshoh Samarqandni bosib olganida uning lashkarlari orasida turklar, lazginlar, afg'onlar, eroniylar, shuningdek, yahudiylar bo'lganlar. Ular Samarqandning Shox-Kash, Chor-Raga, Novadon, Qo'shhovuz kabi guzarlarida yashab qolganlar. Buxoro hukumati Nodirshoh davrida yahudiylarga nisbatan yumshoq muomalada bo'lgan.

Son jihatdan ko'paygan yahudiylar barchalari bir mavzega jam bo'lib yashashni xohlashardi. Biroq, Buxoroda ham, uning Shaxrisabz, Kattaqo'rg'on, Karmana kabi viloyatlarida ham yahudiylarni musulmonlardan ajralgan holda alohida yashashga majbur edilar. 1843 yilning baxorida mahalliy yahudiylarga Samarqandning sharqiy qismidan 2,5 gektar joyni 10000 kumush tangaga sotish haqidagi shartnoma tuzildi. Bu shartnomani yahudiylardan 32 kishi imzoladi, davlat uning haqiqiyiligini to'rt muhr bilan tasdiqladi. Shunday qilib, yahudiylar o'zlarining birinchi mahallalariga ega bo'ldilar.

### **Hindiston milliy dinlari**

**Vedalar.** Eramizdan avvalgi 2-ming yilliklar o'rtalarida Hindistonga Shimoldan erlik aholidan tillari va ranglari farq qilgan xalqlar kirib kela boshladilar. Ular Yevropa tillariga o'xshash bo'lgan *sanskrit* tilida gaplashar edilar, o'zlarini esa *oriylar* (aslzodalar) deb atar edilar. Ular o'zlari bilan muqaddas yozuvlarini ham olib keldilar. Ular *Vedalar* (sanskrit tilida - Bashorat) edi. Uning tarkibiga turli davrlarda yozilgan bir necha kitoblar kirgan bo'lib, ular ibodat, marosimlar, falsafiy ta'limotlar, tarixiy axborotlarni o'z ichiga olgan edi. Vedalarning boshqa muqaddas (mas. Bibliya) yozuvlardan farqli tomoni shunda ediki, ular nihoyasiga etkazilmagan va oxiri ochiq edi. Unga keyingi ruhoniylar tomonidan ham qo'shimchalar qo'shish imkoni bor edi. Shuning uchun keyinchalik bu yozuvlar juda ham kengayib ketdi. Vedalarda 33 ta, ba'zi



manbalarga ko‘ra 333 yoki 3339 ta afsonaviy xudolar haqida madhiyalar bitilgan. Bu xudolarning eng mashxurlari - Indra, Varuna, Mitra, Dyaus, Adita, Agnyu, Vishnu, Krishna.

**Braxmanlik.** Eramizdan avvalgi birinchi ming yilliklarga kelib oriylar Hindistonda o‘zlarining knyazliklariga ega bo‘ldilar. Vedalarning marosimlar haqidagi ko‘rsatmalari ancha murakkablashdi. Shu davrga kelib aholi o‘rtasida braxmanlarning nufuzi oshib ketdi. Ular oldingi ta‘limotlarni isloh qilib, yangicha liniy qonun-qoidalarini ishlab chiqdilar va *braxmanlik* diniga asos soldilar.

Braxmanlik ta‘limoti *kastalar*(varna)ga asoslangan, ya‘ni jamiyatdagi insonlar o‘zlarining kelib chiqishlari, mansablari va hunarlariga ko‘ra turli tabaqalarga bo‘linadilar. Braxmanlikda eng yuqori kasta braxmanlar, ular xudoning tilidan yaratilgan bo‘lib, xudolar nomidan gapirish huquqiga ega edilar. Ikkinchi kasta *kshatriylar* . Ular xudoning qo‘lidan yaratilgan insonlar hisoblanib, podshohlar, knyazlar, jangchilar shular jumlasiga kiradi. Kastalarning yana biri *vayshlar*. Ular xudoning sonidan yaratilgan insonlar hisoblanib, savdogarlar va hunarmandlar shu kastaga mansubdirlar. Kastalarning eng quyi tabaqasi *shudralardir*. Ular xudoning oyog‘idan yaratilgan hisoblanib, oddiy xalq, dehqonlar shular jumlasiga mansub.

Braxmanlikning kastachilik asoslari er. av. V asrlarda yashagan Hindistonning yarim afsonaviy hukmdori Manu qonunlarida mustahkamlangan.

Braxmanlikdagi ruhning ko‘chib o‘tish ta‘limoti Hindistonning deyarli barcha din va falsafalariga ta‘sir etgan.

Hinduiylik. Eramizdan avvalgi VI asrda Hindistonda keyinchalik jahon dinlaridan biriga aylangan vujudga keldi. U braxmanlikdagi bir necha elementlarni qabul qilgan bo‘lsa-da, kasta ta‘limotini inkor etdi. O‘sha davrda Hindistondagi kasta tuzumini saqlab qolishga, braxmanlik dinini isloh qilib, qayta tiklashga harakat boshlandi. Bu harakat braxmanlik bilan buddaviylik o‘rtasidagi kurashni ifodalovchi hinduiylik edi. Hinduiylik ko‘pxudolik dini bo‘lib, unda braxmanlikning asosan uchta xudosi tan olinadi; 1) koinotning yaratuvchisi

bo'lgan Braxma; 2) dunyo nizomini ushlab turuvchi Vishnu; 3) koinotni halok qilish qudratiga ega Shiva.



**Braxma**




**Vishnu**

Hinduiylik ta'limotiga ko'ra olam, hayotning barcha shaklini Braxma yaratgan. Biroq Braxma bu dinda uch xudoning nomigagina boshlig'i. Hozir Braxmaga sig'inish deyarli yo'q. Hinduiylar asosan Vishnu va Shivaga sig'inadilar, ularga atab qurbonliklar keltiradilar.

Hinduiylikda jannat va do'zax haqidagi tushunchalar ham mavjud. Ular marhumlarni Gang daryosi soxillarida kuydirib, kulini suvga oqizadilar.

Bu din asosan Hindistonda tarqalgan bo'lib, mamlakat aholisining 83% shu dinga e'tiqod qiladi. Hinduiylikning uni qabul qilmoqchi bo'lganlarga qo'yadigan



**Shiva**

birinchi va asosiy sharti Hindistondagi kasta tuzumini qabul qilishidir.

Hinduiylik ko'p xudolik dindir. Xususan, bu dinda brahmanlikning Braxma, Vishnu, Shiva, Indra, Agni kabi xudolari hozirgi paytda ham mavjud.

Bosh xudo Braxma hamma olamni, barcha tirik va notirik mavjudotlarni yaratgan. Hinduiylik ta'limotiga ko'ra, dastlab, olamda faqat tartibsizlik hukm surgan. Atrof qorong'ilikdan iborat bo'lgan. Keyinchalik ana

shu tartibsizlikdan suv paydo bo'lgan. Suvdan esa olov hosil bo'lgan. So'ng issiqlikning ulug' qudrati Oltin Tuxumni yaratgan. Tuxum qirg'oqsiz va tubsiz okeanda so'zgan. Bir yildan so'ng Tuxumdan Brahmaning ajdodi vujudga kelgan. Shu tariqa bosh xudo Braxma paydo bo'lgan.

Bugungi hinduiylikda Brahmaga sig'inish deyarli yo'q. Hinduiylar asosiy ikkita boshqa xudo - Vishnu va Shivaga sig'inadilar.

Butun dunyoni Brahma yaratgan bo'lsa-da, uni Vishnu boshqaradi. Xudo Vishnu quyoshdek ko'zni qamashtiruvchi, nilufardek tovlanuvchi taxtda savlat to'kib o'tirgan holda tasvirlangan.

Hinduiylik ta'limotiga ko'ra, Vishnu insoniyat boshiga halokat xavf solganda uni qutqarish uchun erga tushadi. Xudo Shiva hamma joyda hoziru nozir bo'ladi. U bo'yniga bosh suyaklaridan qilingan marjon, sochlariga esa oy to'g'nag'ich taqib yurgan, qo'lida uch ayirli nayza ushlagan holda tasvirlanadi.

Xudo Shivaga doimo yovuz ruhlar va devlar hamroh bo'lib yuradilar. Biroq, u xayrli ishlar ham qilgan. Masalan, qachonlardir okean tubidan zahar ko'tarilib, barcha tirik mavjudotga xavf solganida, Shiva bu o'lim zaharini ichib yuborgan va shu tariqa dunyoni halokatdan saqlab qolgan.

Ayni paytda, u o'lim va hamma narsani halokatga uchratuvchi vaqt xudosi. Shiva jangari xudo. U Vishnu va Brahmaga qarshi kurashda doimo g'alaba qozonadi.

Hinduiylikning yana bir xudosi - Indra havoda yashaydi. U momaqaldiroq, bo'ron va yomg'ir xudosidir. Hinduiylikda Agni nomli xudo ham mavjud. U olov xudosi hisoblanadi. U oltin aravada yuradi. Sochlari olov rangli, qizil soqolli. Temir tishlari yordamida o'rmonlar bilan oziqlanadi (Olov o'rmonlarni kuydirib yuborishiga kiyos). Ko'zlari ham olovdek yonib turadi.

Ma'lumki, xinduiylikka e'tiqod qiluvchilar vafot etganlarida olovda kuydiriladi.

Hinduiylik ta'limotiga ko'ra, shunday qilinsa marhum poklanadi, gunoxlari bu dunyoda qoladi. Olov u dunyoga gunoxlardan holi jonning o'zini olib ketadi, xolos.

## Xitoy milliy dinlari

Qadimgi Xitoyda Lao-Szi falsafiy ta'limoti bilan deyarli bir davrda Kun-Szi (Konfutsiy - miloddan avvalgi 551-479)ning falsafiy ta'limoti ham paydo bo'ldi. Konfutsiy - Qadimgi Xitoy faylasufi va pedagogi, konfutsiylikning asoschisi. Konfutsiy, garchi, samoni oliy ruhiy qudrat, ajdodlarga qurbonlik keltirishni ularni e'zozlashning asosiy ifodasi deb bilsa ham, o'z ta'limotida osmon sirlari muammolarini deyarli tilga olmagan hamda ruhlar va narigi dunyo kabi tushunchalarga kam e'tibor bergan. Konfutsiyning falsafiy va axloqiy g'oyalari markazida inson, uning aqliy va ma'naviy qiyofasi, olamdagi hamda jamiyatdagi o'rni, vazifasi muammolari turadi.

Konfutsiy fikricha olamdagi barcha mavjudot singari insonning taqdiri ham samoviy qudratga bog'liq. Shuning uchun odamlarning oliyjanoblighi yoki tubanligi, oliy yoki past tabaqaga mansubligini o'zgartirib bo'lmaydi.



**Kun Szi - Konfusi**



**Konfutsiylikning marosimi**

Binobarin, podshoh - podshohligicha, fuqaro - fuqaroligicha, ota - otaligicha, farzand - farzandligicha qolishi kerak. Bunday g'oya, ko'ramizki, mavjud tuzumni saqlab qolishni nazarda tutar edi. Shu bilan birga, Konfutsiy ideal, oliy inson, asl,

mard kishi konsepsiyasini ishlab chiqqan. Bu konsepsiyaga ko‘ra, odamlar ijtimoiy kelib chiqishi yoki jamiyatdagi mavqei orqali emas, balki odamiylik, adolatgo‘ylik, xaqgo‘ylik, samimiyat, farzandlik izzat-hurmati kabi yuksak ma‘naviy fazilatlarga erishish tufayli yuksak kamolotga etishuvi mumkin.

Konfutsiyning falsafiy ta‘limoti keyinchalik Xitoyda xukmron dinlarning biriga aylangan va konfutsiylik deb nom olgan dinning asosi bo‘ldi. (milodning boshlarida). Konfutsiylik manbai - Konfutsiy izdoshlari yozgan “Lung-Yuy” (Suxbatlar va muloxazalar, miloddan oldingi VI asr) kitobidir. Konfutsiylik Lao-Szi ta‘limotidan tubdan farq qiladi. U jamiyatni ijtimoiy larzalardan asrab qolishga intilgan feodal amaldorlarning qarashlari va manfaatlarini himoya qigan. Konfutsiylikning maqsadi - xalqni mavjud tartib-qoidalarni hurmat qilish ruhida tarbiyalashdir. Bu din aqidasi ko‘ra, jamiyatda osmondan yuborilgan “Jeng” (Insonparvarlik) qonuni amal qiladi. Bu qonunni o‘rganib olish uchun inson “Li”ga, ya‘ni ijtimoiy axloq normalariga, qoidalariga, an‘anaviy marosimlarga amal qilishi, o‘zining jamiyatdagi darajasiga qarab ish tutishi zarur.

Konfutsiylik belgilangan diniy tartiblarga qattiq amal qilishni talab etadi. Konfutsiyning o‘zi hayotligida diniy tartiblarni sidqidildan bajargan.

Endilikda, har bir oilaning o‘z ibodatxonasi bo‘lishi zarur bo‘ldi. har bir oila o‘z ibodatxonasiga ajdodlarning timsoli bo‘lgan “Chju” tasvirini joylashtiradi. Uning yoniga qurbonliklarni qo‘yadi va diniy marosimlarni ijro etadi.

Konfutsiylikda ijtimoiy-axloqiy masala alohida o‘rin egallaydi. Shu ma‘noda Konfutsiy ta‘limotini inson xatti-harakati hayoti me‘yorlari haqidagi ta‘limot deyishi ham mumkin edi. Insonlar o‘rtasidagi hayot tarzi an‘anaviy besh munosabatdan iboratligi qayd etilgan:

- davlat boshlig‘i bilan amaldorlar o‘rtasidagi munosabat;
- ota-onalar bilan farzandlar o‘rtasidagi munosabat;
- er bilan xotin o‘rtasidagi munosabat;
- katta va kichik aka-ukalar o‘rtasidagi munosabat;
- do‘st-birodarlar o‘rtasidagi munosabat.

Bu ta'limotda shunday qadriyatlar ham borki, unga qoyil qolmay iloj yo'q.

Birgina misol keltiramiz:

O'g'il ota-onasi oldida quyidagi beshta vazifani bajarish shart edi:

1. har doim ota-onani to'la hurmat qilish;
2. ularga eng suyakli taomni keltirish;
3. ular betob bo'lib qolganlarida chuqur qayg'urish;
4. ular vafot etganlarida yurak-yurakdan achinish;
5. ular xotirasiga tantanali ravishda qurbonliklar qilish.

Konfutsiylikda diniy marosimlarning asosiy mazmuni - konfutsiylikka qadar mavjud bo'lgan an'analarni, urug'-qabilaviy marosimlarni mustaxkamlash, qonunlashtirishni tashkil etardi. Chunki konfutsiy o'zining hech qanday yangi ta'limot yaratmaganligini faqat eski marosimlarga, tartib-qoidalarga qattiq rioya etishni talab qilardi. Bu o'rinda uning quyidagi so'zlarini keltirishni maqsadga muvofiq deb bildik: "qadimdan joriy etilgan marosimlar saqlanmas yoki ular bekor qilinadi, unda hamma narsa aralashib ketadi, izdan chiqadi. Nikox marosimini yo'q qilingchi, unda er-xotinlik bo'lmaydi, bu bilan bog'liq katta-katta jinoyatlarga yo'l ochiladi yoki dafn etish va qurbonlik qilish marosimini yo'q qilingchi, unda bolalar vafot etgan ota-onalari xotirasi to'g'risida o'ylamay, tiriklarga esa xizmat qilmay qo'yadilar; Pin-Szin marosimini yo'q qilingchi - unda podshox bilan amaldor o'rtasidagi farq yo'q bo'lib ketadi, kichik-kichik knyazchalar o'z boshimchalik qila boshlaydilar, natijada ta'qib etish va zo'ravonlik boshlanadi".

Xitoy xalqi tarixida qadimgi marosimlar katta o'rin tutganligini Konfutsiy yaxshi bilar edi. Shuning uchun ham Xitoy xalq an'alarini, marosimlarini o'zining ta'limotida asosiy mazmunga aylantirgan. Xitoyliklar uchun eng yomon fojea erkak tomonidan avlodning qolmasligidir. Ular avlodlari qolmasa, biz o'lganimizdan so'ng kim bizlarni yod etadi deb qattiq qayg'uga tushadilar.

Konfutsiylikning bosh xudosi-osmon Xudosi edi. Keyinchalik Konfutsiyning o'zi ham ilohiylashtirilgan. Uning sharafiga, xatto imperatorning o'zi ham diniy marosimlarni bajo keltirar edi. Bu bejiz emas edi, albatta. Chunki, konfutsiylik oddiy xalq ustidan "aslzodalar"ning xukmronligini oqlardi. Bu dinga ko'ra ayni

paytda imperatorning o‘zi oliy Xudoning erdagi vakili edi. Konfutsiylikda imperatorga qarata yozilgan quyidagi maslaxat ham bor edi: “Agar imperator biror katta maqsadni amalga oshirmoqchi bo‘lsa, u albatta ajdodlari ibodatxonasiga borishi lozim. Qilmoqchi bo‘lgan ishidan, o‘zining maqsadidan avlodlarini xabardor etmog‘i kerak. Shu paytda u osmonda yulduzlarning holatiga qaramog‘i, ular qulay joylashganligiga ishonch xosil qilganidan so‘ng o‘zining maqsadini amalga oshirmog‘i mumkin”.

## DAOSIZM<sup>15</sup>



Daoga ergashuvchining muqaddas asarni ta‘sirli qilib o‘qib berishi

Daosizm - aslida falsafiy ta‘limot bo‘lib, u miloddan avvalgi IV-III asrlarda Xitoyda paydo bo‘lgan. Uning asosida miloddan avvalgi II asrda daosizm dini shakllandi.

Daosizmning falsafiy prinsiplari “Dao-Deszin” kitobida bayon etilgan. Bu asar o‘tmishdagi Xitoy donishmandi Lao-Szi qalamiga mansubdir. Lao-Szining tarixiyligi xususidagi masalaga sinologlar shubxa bilan qaraydilar.

Asarning asosiy tushunchasi “dao” (yo‘l) bo‘lib, u olamning moxiyati va bosh sababi, dunyoning turli-tumanligi manbai, barcha narsalarning onasi deb tushunilgan. Bu, go‘yo qandaydir yo‘l bo‘lib, atrofni o‘rab olgan olam

va barcha kishilar shu yo‘l bilan borishi lozim. “Dao” diniy mazmun kasb etgan yo‘lgina bo‘lib qolmay, ayni paytda u hayot tarzi, usuli, prinsiplari ham edi.

Daosizm dinining asosiy mohiyatlaridan biri dao va u bilan aloqador tabiat falsafasi va kosmogoniya masalalaridir. Ikkinchi asosiy nuqta mavjudlik, hayot va o‘limning nisbiyligi va shunga bog‘liq holda uzoq yashash, abadiy hayotga erishish tushunchasidir.

<sup>15</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Daosizm>

## SINTOIZM<sup>16</sup>

**Sintoizm** dini Qadimgi Yaponiyada vujudga kelgan (sinto - “xudolar yo‘li”). Bu dinning vujudga kelishiga oid aniq ma‘lumotlar yo‘q. Biroq u Yaponiyada Xitoy ta‘siridan holi bir shiroitda paydo bo‘lgan va rivojlangan. Yaponlar sintoizning mohiyati va kelib chiqishini bir - biri bilan aralastirmaslikka harakat qiladilar. Sintoizmlar ular uchun ham tarix, ham an‘ana, ham butun demakdir.

Sintoizm ta‘limotiga ko‘ra, mikado (imperator) - osmon ruhlarining davomchisidir. Har bir yapon kishisi ikkinchi ajdodlar va qahramonlarning ruhlari deb e‘tiqod qiladilar. Xudojo‘y yapon o‘lganidan keyin o‘zining ham o‘sha kamalardan biri bo‘lishiga ishonadi.

Sintoizm da “Oddiy illoh” tushunchasi mavjud emas. U ajdodlar ruhiga va tabiatga sig‘inishiga o‘rgatadi. Sintoizm da umumiy hayotiy rioya qilinishi lozim bo‘lgan qoidalardan boshqa diniy urf - odatlar yo‘q. Unda bir umumiy ma‘naviy qoida - “Umumiy qonunlarga rioya qilish tabiiy. Agar shunday bo‘lmaganda, ular o‘rgatilmagan yovvoyi hayvonlardan ham pastroq darajada bo‘lar edilar.

Sintoizm haqidagi ma‘lumotlar “Kodziki” (“Qadimiy yozuvlar”) va “Nihongi” (“Yaponiya annallari”) manbalarida uchraydi.

Kodziki - bu sintoizmning muqaddas kitobi. U har bir yaponning eng yaqin kitobidir, boshqacha aytganda, bu kitob Yaponiyani, yapon xalqini tushunishning kaliti hisoblanadi.

Imperator - *miqado* yaponlar tasavvurida o‘zining ilohiy kelib chiqishi sababli butun xalq bilan qon - qardosh bo‘lib, u bir oiladan iborat millatning boshlig‘idir. Hatto Yaponiyada 300 yildan ortiq hukmronlik qilgan *syogunlar* ham o‘zlarini mikado namoyandalari deb ataganlar. Sintoizm ta‘limotida kiritilgan mikado g‘oyasining boshqaruvchilik xususiyati kuchi hozirgi kunda anchagina zaiflashgan bo‘lsa-da, yaponlar tasavvuridan o‘chib ketmagan.

Hozirgi kunda yaponlar tashqi ko‘rinishdan bu ta‘limotga biroz e‘tiborsiz ko‘rinsalar-da, chin dildan unga ongli ravishda ehtirom bilan yondashadilar.

---

<sup>16</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Sintoizm>



Hozirgacha sintoizm ibodatxonalarida imperator oilasiga atab turli marosimlar o'tkazilib turadi.

Sintoizm yaponlarga mavjudot olami, tabiat bilan o'zaro munosabatlariga o'ziga xos qarashni singdirgan. Bu qarashlar besh tamoyilda namoyon bo'ladi.

Birinchi tamoyil mohiyatiga ko'ra, butun borliq duyoning o'z - o'zicha rivojlanishi natijasidir. Dunyo o'z - o'zidan vujudga kelgan bo'lib, yaxshi va mukammaldir. Sintoizm ta'limotiga ko'ra, olamni boshqaruvchi kuch xristian yoki musulmonlar e'tiqodidagidek qandaydir oli mavjudotda emas, balki olamning o'zida mujassamdir.

Ikkinchi tamoyil hayot kuchini anglatadi. Hayotdagi har bir tabiiy holat hurmat qilinadi. Faqatgina "nopok" bo'lgan narsagina hurmat qilinmaydi. Biroq har qanday "nopok" lik tozalanishi mumkin. Shu bois sintoizm marosimlari insonda moslashishga moyillik uyg'otishga qaratilgan: yaponlar tozalab, isloh qilingan va yapon urf - odatlariga moslashtirilgan har qanday yangilikni qabul qiladilar.

Uchinchi tamoyil tabiat bilan tarixni yagona deb tushuntiradi. Sintoizm ta'limoti dunyoni jonli va jonsizga ajratmaydi. Unga e'tiqod qiluvchilar nazdida dunyodagi hayvonlar, o'smirlar, jismlar, umuman tabiatdagi barcha narsalar tirikdir va inson vujudida *kama* ilohlari yashaydilar. Sintoizmlar ta'limotiga ko'ra, *kamalar* dunyosi odamlar dunyosidan boshqa dunyo emas, balki u odamlar bilan birikib ketgan. Shuning uchun inson najotni qandaydir boshqa dunyodan olmaydi, balki najotga kundalik hayotda *kama* bilan birlashib ketish natijasida erishadi.

To'rtinchi tamoyil ko'pxudolik tushunchasi bilan bog'liq. Sintoizm mahalliy tabiat, urug', qabila ilohlariga bag'ishlangan marosimlardan kelib chiqqan. Sintoizmning ibtidoiy shamanizm va sehrgarlikka oid odatlari faqatgina V-VI asrlarda - imperator *sinto* ibodatxonalarini faoliyatini o'z nazoratiga olgach, hozirgi ma'lum bo'lgan yagona shaklga kirgan. VIII asr boshlarida imperator saroyida *sinto* ishlari bilan shug'ullanuvchi maxsus bo'lim tashkil etildi. X asrga kelib esa *sinto* ilohlarining ro'yxati tuzildi. O'shanda ularning soni 3132 ta edi, keyinchalik esa bu son yanada ortdi.

Beshinchi tamoyil milliy - ruhiy asos bilan bog'liq. Bu tamoyilga ko'ra, *sinto* ilohlari - *kamalar* barcha insonlarni emas, balki faqat yaponlarnigina yaratganlar. Shuning uchun ham yaponlar o'z farzandlariga yoshligidanoq "*biz sintoga* tegishlimiz", degan aqidani singdirib boradilar. Shu yo'l bilan alxloq me'yorlarini boshqarishning ikki muhim omili mavjud: birinchidan, *kama* juda intim yo'l bilan faqat yapon millati bilan bog'liq ekanligini tasdiqlash; ikkinchidan, sintoizm nuqtai nazaridan, agar chet ellik kishi *sintoga* e'tiqod qilib, *kamaga* ibodat qilsa, yapon bo'lmagan kishining bunday qilishi axloqsizlik sanaladi. Shuning bilan birga sintoizm yaponlarning boshqa dinlarga e'tiqod qilishlariga qarshilik qilmaydi: deyari barcha yaponlar, sintoizm bilan bir qatorda, yana boshqa bir dinga e'tiqod qiladilar. Agar yaponiyalarni diniy e'tiqodiga ko'ra guruhlarga ajratib, umumiy soni hisoblanadigan bo'lsa, ular soni mamlakat umumiy aholi sonidan ko'p chiqadi.



Sintoiyarning marosimli raqsi

Sintoizmning o'ziga xos jihati shundaki, har bir ibodatxonaning o'z xudosi bo'lib, uning boshqa ibodatxonalarga hech qanday aloqasi yo'q.

### **Ibodat marosimlari.**

Oddiy yapon kishi uchun uning o'z ibodatxonasi, unda amalga oshiriladigan marosimlar, yilda bir marta bo'ladigan rangin bayramlar hayotining zaruriy qismi bo'lib qolgan. Uning ota - bobolari ham shunday yashaganlar, o'zi ham undan oshirmasdan sh u tarzda yashaydi.

Ibodatxonalar uchun alohida o'ziga xoslik bilan birga ularning barchasi uchun umumiy bo'lgan jihatlari mavjud. Bu hukumatning din ishlarini tartibga solish va sintoizmni davlat diniga aylantirishga qaratilgan urinishlari natijasidir. Shunday urinishlarning biri 1868 yilda Meiji qayta qurishidan keyin bo'lib o'tgan. O'shanda sintoizm ruhoniylarini o'qitadigan ta'lim tizimni yaratishga harakat

qilingan edi. Kannusi deb ataladigan bunday ruhoniylk lavozimi odatda meros sifatida uzatilar edi.

1946 yilda konstitutsiya yo'li bilan din davlatdan ajratildi.

Ibodatxonada turli amallar bajariladi. Dindorlar *mehrob* oldida turib, maxsus katakli qutiga biror tanga tashlaydilar, ta'zim qiladilar, bir necha chapak chlib, ibodat so'zlarini qaytaradilar. Ibodatxonada turli bayramlar ham uyushtiriladi.

**Sintoizm bayramlari.** Sintoizmnning keng tarqalgan bayramlaridan biri Mosuridir. Bu bayram ba'zi ibodatxonalarda yilda bir marta, ba'zilar esa ikki marta nishonlanadi. Ko'pincha bu bayram dehqonchilik ishlarining boshlanishi, hosil yig'ib olish, shuningdek, ibodatxona yoki mahalliy xudoga bag'ishlangan sana bilan bog'liq bo'ladi. bayram ko'tarinki kayfiyatda o'tadi. Ruhoniylar bayram haqida faqatgina doimiy xabardor qiladilar. Mosuri bayramida juda ko'p odam to'planib, ular katta tantanalar bilan o'yin kulgu qiladilar. Ayrim ibodatxonalarda Mosuri rang - barang karnaval ko'rinishida o'tadi.

### **O'tilgan mavzular bo'yicha savollar**

1. Yahudiylik dini qaysi vaqtda vujudga kelgan?
2. Yahudiylik dinining muqaddas kitobi qaysi?
3. Yahudiylik dinining asosiy ta'limoti nimalardan iborat?
4. Vedalarning boshqa muqaddas kitoblardan qanday farqi bor?
5. Braxmanlik jamiyatni qanday tabaqalarga bo'ladi?
6. Hinduiylik qanday dinlar qatoriga kiradi?
7. Hinduiylik ta'limoti nimalardan iborat?
8. Konfutsiylik nima asosida vujudga kelgan?
9. Konfutsiylik Xitoyda qanday mavqega ega edi?
10. Daosizm asoschisi kim?
11. Sintoizm ta'limoti nimalardan iborat

### **Mustaqil ish topshiriqlar:**

1. Yahudiylik dini qachon yuzaga kelgan va uning o'ziga xos jihatlari nimada?
2. Veda xudolari tasnifi.

3. Xitoy dinlarining o'ziga xos xususiyatlari.
4. Sintoiylik dini.

### **Adabiyotlar**

1. Васиев Л.С. История религий Востока. Москва., 1975.
2. Древнекитайская философия. Москва, 1997.
3. Федоренко Н.Т. Земля и легенды Китая. М., 1961.
4. Кулаков А.Е. Религии мира. М., 1996, сс. 150-173.
5. Beruniy, Abu Rayxon. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar, Tanlangan asarlar, I tom, T., 1968.
6. Jo'raev U. Saidjonov Y. Dunyo dinlari tarixi. T., 1998.
7. Haydarova H.B. Dinshunoslik. "Durdona" nashriyoti, 2011 yil.

## MAVZU: ZARDUSHTIYLIK DINI

### Reja:

- 1.Zardushtiylik dinining vujudga kelishi.
- 2.Zardushtiylik ta'limoti. Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal.
- 3.Avesto Zardushtiylikning muqaddas kitobi.


**Tayanch iborolar:** Zardusht, Avesto, Axuramazda, Axriman, Mitra, Yasna, Yasht.



**Axuramazda**

### Zardushtiylik dinining vujudga kelishi.

Zardushtiylik dini eramizdan avvalgi VII-VI asrlarda O'rta Osiyo va Qadimiy Eronda yuzaga kelgan dindir. Bu din Zaratushtra, Zardust, Zaroastr nomi bilan bog'lik. Tadqiqotchilar o'rtasida Zardushtning tarixda bo'lgan yoki bo'lmaganligi borasida turli fikrlar mavjud. Ba'zilar uni tarixiy shaxs deb bilishsa, yana boshqalar uni afsonaviy shaxs deb hisoblaydilar. Manbalarning xabar berishicha, u eramizdan avvalgi, taxminan, 570 yillarda tug'ilgan ilohiyotchi, faylasuf, shoirdir. Zardusht Movarounnaxrdagi ko'pxudolikka asoslangan qadimiy diniy tasavvur va e'tiqodlarni islox qilib yangi dinga asos soldi.



**Zardusht**

Zardushtning tug‘ilgan va ilk diniy faoliyatini boshlagan joyi to‘g‘risida ikki fikr mavjud: birinchisi “G‘arb teoriyasi” bo‘lib, unga ko‘ra Media (hozirgi Eron hududida) Zardushtning vatani va Zardushtiylikning ilk tarqalgan joyi hisoblanadi. Bu fikr tarafdorlarining dalili - birinchidan zardushtiylikning Qadimiy Eron hududlarida keng tarqalganligi bo‘lsa, ikkinchidan Zardushtiylikning muqaddas kitobi sanalmish “Avesto”ning bizgacha etib kelgan nusxasi qadimiy eron-paxlaviy tilida yozilganligidir.

Yana bir boshqa fikr “Sharq teoriya”si bo‘lib, bunga ko‘ra Zardusht vatani va Zardushtiylikning ilk tarqalgan joyi Xorazm hisoblanadi va ko‘pchilik manbashunoslar shu teoriya tarafdoridirlar. Xorazm birinchi bo‘lib Zardushtiylik muqaddas olovi “Atar - xurra” yoqilgan va Axuramazda Zardusht bilan bog‘langan joy hisoblanadi. Zardushtiylikning asosiy manbasi hisoblangan Avestoda: “birinchi bor muqaddas olov “Atarxurra” “Eran-vej” (ba’zi manbalarda “Ayrian vedja”)da yoqildi” deyiladi.

“Eran-vej”ning geografik va iqlimiy tavsifi Xorazmnikiga to‘g‘ri keladi.

“Avesto”da Axuramazda tomonidan berilgan “Barokot va najot” soxibi bo‘lgan bir qator mamlakatlarni zikr etiladi va ularning eng birinchisi deb, “dunyoda hech narsa uning chiroyiga teng kela olmas Eran-vej”, keyin “odamlar va chorva podalariga mo‘l” Sogd (Sug‘d), “g‘udratli va muqaddas” Mouru (Marv), “Baland ko‘tarilgan bayroqlar mamlakati” Batxi (Baktriya) zikr etiladi.

Avestoda shuningdek Zardusht tug‘ilgan va o‘z faoliyatini boshlagan yurt haqida ham ma’lumot beriladi. Aytilishicha, “Shunday mamlakatni ko‘p sonli lashkarlarni botir sarkardalar boshqaradilar, baland tog‘lari bor, yaylov va suvlari bilan go‘zal, chorvachilik uchun barcha narsa muxayyo, chuqur, suvga mo‘l ko‘llari bor, keng qirg‘oqli va kema yurar daryolari o‘z to‘lqilarini Iskata (Skifiya), Pauruta, Mouru (Marv), Xareva (Ariya) Bava (Sug‘d hududida), Xivayrizima (Xorazm) mamlakatlari tomon elituvchi daryolari bor”.

Shubxasiz, “Keng qirg‘oqli, kema yurar daryolar” bu Amu va Sirdaryo bo‘lib, Avesto tasvirlagan mazkur shaxarlar O‘rta Osiyo shaharlarining bu ikki daryo qirg‘oqlarida joylashganlaridir.

Shunga asoslanib, biz Zardushtning vatani, Zardushtiylikning ilk makoni va Avestoning kelib chiqish joyi deb Xorazm, Sug‘d, Farg‘ona yoki Baktriyani ayta olamiz.

“Avesto”ning “yasht” qismida bayon etilishicha Zardushtning vatandoshlari unga ishonmaydilar, va uning ta’limotini qabul qilmaydilar. Zardusht vatanni tarkib, ko‘shni davlatga ketadi, u erning malikasi Xutoasa va Shox Vishtaspaning xayrixoxligiga erishadi, ular Zardusht ta’limotini qabul qiladilar. Natijada qo‘shni davlat bilan urush boshlanib, Vishtaspa g‘alaba qozonadi. Shundan so‘ng bu ta’limot xalqlar o‘rtasida keng tarqala boshlagan.

Shox Vishtaspa farmoniga binoan Zardushtning 1200 bobdan iborat pandnomasi “Avesto”ning qadimiy qismi “Gotni” yozib shoxning otashkadasiga topshirgan.

**Zardushtiylik ta’limoti.** Zardushtiylik ta’limoti Markaziy Osiyoda ibtidoiy davrda mavjud bo‘lgan tabiat kuchlarini ilohiylashtiruvchi e’tiqodlarga nisbatan progressiv, monoteistik ta’limotdir. U bexuda qon to‘quvchi qurbonliklar, harbiy to‘qnashuvlar, bosqinchilik urushlarini qoralab, o‘troq, osoyishta hayot kechirishga, mexnatga, dehqonchilik, chorvachilik bilan shug‘ullanishga da’vat etadi.

Moddiy hayotni yaxshilashga urinishni yovuzlikka qarshi kurash deb hisoblaydi. Zardushtiylik dinida qo‘riq er ochib uni bog‘u rog‘ga aylantirgan odam ilohiyot raxmatiga uchraydi, aksincha, bog‘lar, ekinzorlarni, sug‘orish inshootlarini buzganlar katta gunoxga qoladi. Zardusht o‘z ta’limoti bilan insonlarga tinch-totuv yashashni, xalol mexnat qilishni o‘rgatmoqchi bo‘ladi. U o‘z ta’limotini insonlarning bu dunyodagi hayotiga yarasha narigi dunyodagi taqdiri ham bo‘lajak, har bir inson o‘lgandan so‘ng o‘zining bu dunyodagi qilmishiga yarasha yoki abadiy roxat - *jannat*ga, yoki yomon ishlari ko‘p bo‘lsa na xursandlik va na xafalik ko‘rmaydigan arosat joy - *misvongatuga* tushadi, degan g‘oyaga asoslantirgan.

Zardushtiylik ta’limotining asosi olam qarama-qarshiliklari kurashi asosida ko‘rilgan. yaxshilik va yomonlik, yorug‘lik va qorong‘ulik, hayot va o‘lim

o‘rtasida abadiy kurash davom etadi. Barcha yaxshiliklarni Axuramazda va barcha yomonliklarni Anxramaynyu yoki Axriman ifodalaydi.

Axuramazda insonlarga ezgu ishlarni bayon etib ularga amal qilishni buyuradi, yomon ishlarni bayon etib ulardan saqalanishni buyuradi.

Zardushtiylikda imon uchta narsaga asoslanadi: fikrlar sofliqi, so‘zning sobitligi, amallarning insoniyliqi, har bir Zardushtiy kuniga besh marta yuvinib, poklanib, quyoshga qarab uni olqishlab sig‘inishi shart bo‘lgan.

Zardushtiylik ibodatxonalarida doimiy ravishda olov yonib turadi. Ularda dunyodagi to‘rt unsur - suv, olov, er va xavo urug‘lanadi.

Zardushtiylik dafn marosimi o‘ziga xos bo‘lib, o‘lganlar bir necha past, baland “sukut minoralari” - daxmalarga solinadi, u erda murdalarning go‘shklarini qushlar eb, suyaklarini tozalaydi. Go‘shtdan tozalangan suyaklar minora o‘rtasidagi kuduqqa sohib yuboriladi. Bunda “xalol” bilan “harom”ning bir-biriga yaqinlashmasligiga erishiladi.

Zardushtiylik dini jaxon miqyosida eng qadimgi dinlardan biri hisoblanib, eramizdan avvalgi VII-VI asrlar O‘rta Osiyo, Ozarbayjon, Eron va kichik Osiyo xalqlarining e‘tiqod qiluvchi dinlari hisoblangan.

Eronshoxlar davrida Eronda rasmiy davlat diniga aylangan. Biroq bu davrda uni ruhoniylar, zodagon xokimlar o‘z manfaatlariga bo‘ysundirganlar.

O‘rta Osiyoni arablar bosib, islomlashtirgunlariga qadar, zardushtiylik O‘rta Osiyo xalqlarining asosiy dinlari hisoblangan.

Hozirgi kunda zardushtiylikka e‘tiqod qiluvchilar soni keskin kamayib ketgan. Ular Xindistonning Bombay, Gujarot shtatlarida (115.000ga yaqin) va Eronning ba‘zi chekka viloyatlarida saqlanib qolganlar. Bombayda zardushtiylarning madaniy markazi Koma nomidagi institut faoliyat olib boradi.

### **Avesto<sup>17</sup> -Zardushtiylikning muqaddas kitobi.**

“AVESTO” yoki “OVASTO” Zardushtiylikning asosiy manbasi va muqaddas kitobi hisoblanadi. Avesto O‘rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon xalqlarining

---

<sup>17</sup> Ashirov A. “Avesto”da meros marosimlari. -T., 2001.-B.9.



islomgacha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, diniy qarashlari, olam to'g'risidagi tasavvurlari, urf-odatlari, ma'naviy madaniyatini o'rganishda muhim va yagona manbadir. Uning tarkibidagi materiallar qariyb 2 ming yil davomida vujudga kelib, avloddan-avlodga og'zaki ravishda ko'chib borgan.

Axuramazdaning rasmiy tus olishiga qadar uning Zardusht orqali vaxy qilingan ilohiy xabarlar Turon va Eron zamini xalqlari oraida asrlar davomida turli diniy marosimlar, duolar, madxlar, sura va oyatlar sifatida yig'ila boshlagan. Bular Zardushtning o'limidan keyin kitob holida jamlangan va "Avesto" (o'rnatilgan, qat'iy qilib belgilangan qonun-qoidalar) deb nom olgan.

Afsuski, bu eng qadimgi yozma adabiyot, axloq-odob qoidalarini o'zida mujassamlashtirgan asar bizgacha to'liq etib kelmagan. "Avesto" haqida buyuk olim Abu Rayxon Beruniy shunday yozadi: "Yilnoma kitoblarida bunday deyilgan: podshox Doro ibn Doro xazinasida (Abistonning) o'n ikki ming qoramol terisiga tillo bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar otashxonlarni vayron qilib ularda xizmat etuvchilarni o'ldirgan vaqtda uni kuydirib yubordi. Shuning uchun o'sha vaqtdan beri Abistonning beshdan uchi yo'qolib ketdi".

"Avesto"ning Aleksandr Makedonskiy tomonidan Gresiyaga olib ketilgani, zarur joylarini tarjima ettirib, qolganini kuydirtirib yuborganini, o'n ikki ming qoramol terisidagi tillo matn haqidagi (Tabariyda 12000 pergament) keyingi davrlarda yaratilgan Zardushtiylik adabiyotida ("Bundaxishin", "Shaxrixon Eron", "Denkard" (IX a), "Arda Viraf-namak" (IXa) "Tansar xatlari"(VI) "Muruj az-zaxab" "Forsnoma" va boshqa ma'lumotlar bor. Bu asarlarda yunoniylar otashxonalarini vayron qilganlari, ibodatxonalar boyliklarini talon-taroj etganlari, din arboblarni o'ldirib, asir olib ketganliklari haqida yoziladi. Hozir bizgacha etib kelgan "Avesto", Beruniyning yozishicha, aslining beshdan ikki qismi xolos. "Avesto" o'ttiz "nasx" edi, majusiylar qo'lida o'n ikki nasx chamasi qoldi".

Yozma manbalarga ko'ra haqiqatan ham "Avesto" mo'bidlar avlodidan-avlodga, og'izdan-og'izga o'tib, asrlar osha yashirin saqlangan. Dastavval (1 yoki 2 asrlarda) Arshakiylar davrida "Avesto" qismlarini to'plash boshlangan. Keyincha Sosoniylar davrida, Ardasher Papakan (227-243) davrida yozib olingan. Ayniqsa,

Shopur (243-273) davrida astrologiya, tabobat, riyoziyot va falsafaga oid qismlari yozib olinib, hamma qismlari tartibga keltirilgan, keyinchalik bu asosiy matn to'ldirib borilgan. "Avesto"ning ana shu to'ldirilgan nusxasining ikki to'liq qo'lyozmasi Xindistonda saqlanada biri Bombayda zardushtiylarning madaniy markazi bo'lmish Koma nomidagi institutda, ikkinchisi Kalkuttadagi davlat kutubxonasida. Har ikkalasi parfyan yozuvida.

Bizning fikrimizcha, xalqlarning dastlabki vatani bo'lmish Janubiy O'roldagi o'tga sig'inuvchilar dini xali maslak, nazariy jixatdan ishlab chiqilmagan bo'lsa kerak. "Avesto"ning 13,17,149 yashtlarida airiya, tuiiya, sairima, saina, daha kabilalari zardushtiylik dinini qabul qilishdi.

Natijada "Avesto"ning eng qadimgi qismlari, yashtlar yuzaga keladi. Insoniyat tarixida birinchi bo'lib Zardusht insonlarning bu dunyodagi hayotiga yarasha narigi dunyodagi taqdiri xal bo'lajagi haqidagi ta'limotni yuzaga keltirdi.

Avestoning saqlanib qolgan to'rtta kitobidan birinchisining nomi "Vadovdot" (devlarga qarshi qonun) deb ataladi. U yigirma ikki bob bo'lib, asosan Zardusht bilan Axuramazdaning savol-javoblari va muloqotlaridan iborat. Ikkinchi kitob "Yosin" deb ataladi. Va uning mazmunini asosan Zardushtning xatlari (nomalari) yoki gatlari tashkil etadi. U etmish ikki "Xa", ya'ni bashoratdan iboratdir. Birinchi bashoratda tabiat va xalolliklar xukmdori, hamma narsani biladigan va hamma narsaga qodir Axuramazdaning vaxylari xaqligiga imon keltirishga doir duolar mavjuddir. Uchinchi kitob "Visporat" deb nomlangan. U yigirma to'rt bobdan iborat bo'lib, olamni bilishga doir pand-nasixatlardan iboratdir. Uni ibodat namozlari yig'indisi ham deyishadi. Ayni paytda "Yosin"ga qo'shimcha hisoblanadi. To'rtinchi kitob "Bundaxash" deb atalib, u qadimiy Eron-paxlaviy tilida yozilgan. Unda xudoning zolim kuchlarga qarshi kurashda ulug'lovchi o'ziga xos yigirma ikkita qadimiy qo'shiqlar majmuasi joy olgan.

Avesto haqida eng muhim manba IX asrga oid "Denkard" (din amallari) asaridir. Unda Avestoning yigirma bir kitobi to'la ta'riflab berilgan. Bu ta'riflar: savobli ishlar yo'riqnomasi; diniy marosimlar va rasm rusmlar qoidasi; zardushtiylik ta'limoti asoslari; dunyoning Axuramazda tomonidan yaratilishi;

oxirat kuni va undagi hisob-kitob; falakiyot; ijtimoiy-huquqiy qonun-qoidalar; Zardushtning tug‘ilishi va bolaligi; xaq yo‘lini tutish; jamiyat a‘zolarining xaq-huquqlari; devlar, jinlar kabi yovuz kuchlarga qarshi o‘qiladigan duolar, amallar va boshqalardan iboratdir.

Zardushtiylik dini haqida ingliz olimi Dj.Buger, fransuz olimi A.Dyupperon juda qimmatli ma’lumotlar qoldirgan. Masalan, A.Dyupperon 1755 yilda Xindistonga ilmiy safar qilib, u erdagi zardushtiylar orasida uch yil yashagan, ularning ibodatlari, urf-odatlarini yaxshi o‘rgangan va Avestoni fransuz tiliga tarjima qilgan. Uch jildlik tarjima 1771 yilda nashr etilgan. Ayni paytda shuni ham ta’kidlash joizki, olimlarimizning fikricha Avesto G‘arbiy Yevropa, Eron va Xindiston tillari orqali bizga etib kelgani uchun undagi nomlar, atamalar aksariyat hollarda asliga to‘g‘ri kelmaydi. Avestoda turkona jixatlar kam qolgan.

O‘zbekistonda avestoshunoslik haqidagi dastlabki mulohazalar 50-yillarda paydo bo‘ladi. Professor M.N. Mallaev “X-XII asrlar adabiyoti (1958) risolasida Sharq xalqlarining eng qadimgi yozma yodgorliklari haqida fikr yuritib “Avesto”ning adabiy qimmatini alohida qayd etgan. Sharqshunoslardan M. Is’hoqov “Sog‘lom avlod uchun “. 1996, №4 hamda A. Irisov (“San’at” 1993 yil №3) larning “Avesto”ga doir maqolalari ham ahamiyatga molik. Keyinchalik Asqar Mahkam “Avesto”ni o‘zbekcha tarjima qilib 2001 yilda “Avesto” nomli kitob nashr etildi. 2001 yili Hamidjon Homidiy tomonidan “Avesto fayzlari” nomli qo‘lyozma nashr etildi. Hozirgi kunda ham “Avesto”ni o‘rganishga doir ilmiy tadqiqotlar keng yo‘lga qo‘yilgan.

### **O‘tilgan mavzu bo‘yicha savollar:**

1. Zardushtiylik qachon va qayerda vujudga kelgan?
2. Zardushtiylik asoschisi kim?
3. Zardushtiylik muqaddas manbai qaysi va u haqida nimalarni bilasiz?

### **Mustaqil ish topshiriqlari:**

1. Zardushtiylikning kelib chiqishi haqidagi nazariyalarni atroflicha o‘rganib, ma’lumot berish.

2. Zardushtiylikda muqaddas sanalgan unsurlar va ularni e'zozlash amallari haqida referat tayyorlang.

3. Zardushtiylik dinining bugungi kundagi qoldiqlari haqida gapirib bering.

### **Adabiyotlar:**

1. "Avesto" kitobi -tariximiz va ma'naviyatimizning ilk yozma manbai" mavzuidagi ilmiy-amaliy seminar materiallari. -Toshkent, 2000.

2. Ashirov A. "Avesto"da meros marosimlari. -T., 2001.

3. Ishoqov M. Xalq dahosining qadimgi ildizlari va ilk kurtaklari. (Zardushtiylik, Zardusht va Avesto haqida) "Til va adabiyot ta'limi" jurnali, 1992. № 2.

4. Markaziy Osiyo dinlari tarixi / Mas'ul muharrir -Sh.Yovqochev. -T.: Toshkent Davlat sharqshunoslik instituti, 2006.

## **MAVZU: BUDDAVIYLIK DINI**

### **Reja:**

1. Buddaviylik dinining paydo bo'lish tarixi.
2. Buddaviylik dini ta'limoti, oqimlari.
3. Buddaviylikni yoyilishi va rivojlanishi.
4. Buddaviylik dini manbalari.

**Tayanch iboralar:** Tripitaka, Vinaya-pitaka, Sutta-pitaka, Siddxartxa, Buddha, Maxayana, Xinayana, Dxarma, Karma, Nirvana, Meditatsiya

### **Buddaviylik dinining paydo bo'lish tarixi.**

**Buddaviylik** - uchta dunyo dinlari ichida eng qadimiysi hisoblanib, eramizdan avvalgi VI - V asrlarda Xindistonda yuzaga kelgan. Bu dinga e'tiqod qiluvchilar asosan Janubiy, Janubiy Sharqiy va Sharqiy Osiyo mamlakatlarida, Shri Lanka, Hindiston, Nepal, Butan, Xitoy, Singapur, Malayziya, Mongoliya, Koreya, Vetnam, Yaponiya, Kombodje, Birma, Tayland, Laosda va qisman Yevropa va Amerika qit'alarida, Rossiyaning shimoliy mintaqalari - Buryatiya, Qalmiqistonda istiqomat qiladilar.

Hozirgi kunda dunyoda Buddizmga e'tiqod qiluvchilar soni qanchaligi aniqlanmagan, chunki ko'pgina mamlakatlar huquq normalariga ko'ra qaysi dinga e'tiqod qiluvchilar soni qancha deb hisobot ishlari olib borilmaydi. Biroq taxminan olinganda hozirgi kunda dunyoda buddistlar soni 750 mln.ga yaqin bo'lib, ulardan 1 mln.ga yaqini monaxlardir.


Buddizm bundan 2500 yildan avvalroq Xindistonda diniy falsafiy ta'limot sifatida vujudga kelib, unda ko'plab qonuniy manbalar va ko'p sonli diniy yo'nalishlar mavjuddir.

Buddizmning turli millatlar tomonidan keng qabul qilinishi va uning keng doirada tarqalib ketishining sababi uning turli milliy va diniy an'analar bilan kirisha olishi bo'lib, bu narsa Buddizmning hayotning barcha sohalari, jumladan, diniy, madaniy, siyosiy va iqtisodiy qatlamlarga kirib borishiga sabab bo'ldi.

Buddizmni din yoki falsafa, ideologiya yoki madaniyat qonunlari to‘plami yoki hayot tarzi deb baholash mumkin.

Hozirgi buddizmga e‘tiqod qilib kelayotgan sharq mamlakatlaridagi buddizm ta‘limotini o‘rganish u erdagi siyosiy-iqtisodiy, ma‘naviy madaniyatini tushunishning asosiy omillaridan hisoblanadi. Bu davlatlarda buddizm qoida va an‘analari buddizmga e‘tiqod qiluvchilar nazarida markaziy xukumat qonunlaridan ko‘ra ustun turadi. Bu narsa zahirida buddizmning potensial kuchi yotadi.

**Buddizm asoschisining shaxsi.** Buddizm asoschisi haqiqiy tarixiy shaxsdir. Bu ko‘plab buddizm bilan shug‘ullangan tadqiqotchi olimlar bizgacha etib kelgan manbalar asosida isbot qilganlar. Buddizm asoschisi haqida xabar beruvchi folklor va badiiy adabiyotlar uni Siddxarta, Gautama, Shakyamuni, Budda, Tadxagata, Djipa, Bxagavan kabi ismlar bilan zikr etadilar. Bu ismlarning ma‘nolari quyidagicha: Siddxartxa - shaxsiy ismi, Gautama - urug‘ ismi, Shakyamuni - shaklar yoki shakiya qabilasidan chiqqan donishmand, Budda - nurlangan, Tadxagata - shunday qilib shunday ketgan, Djina - g‘olib, Bxagavan - tantana



qiluvchi. Bu ismlar ichida eng mashxuri Budda ismi bo‘lib, shu ismdan uning dinga buddizm nomi berilgan.

Hozirgi kunda Buddaning beshta biografiyasi ma‘lumdir: “Maxavostu” - eramizning II asrida yozilgan, “Lalitavistara” - eramizning II-III asrlarida yuzaga kelgan, “Buddaxacharita” - Budda faylasuflaridan biri Ashvagoshey tomonidan eramizning I-II asrlarida yaratilgan, “Nidanakatxa” - eramizning I asrida yozilgan va “Abnixishkramansutra”.

Bu biografiyalar orasidagi asosiy ziddiyat Buddaning qaysi yillarda yashaganligi xususidadir. Ular eramizdan avvalgi IX-III asrlar orasidagi turli muddatlarni ko‘rsatadilar. Rasmiy buddizm

Hindistondagi buddahaykali

hisobiga ko'ra esa Bhutama - Budda er. av. 623 yilda tug'ilib, 544 yilda vafot etgan. Biroq, ko'pchilik tadqiqotchilar uning tug'ilishi er. av. 564 yilda, o'limi esa 483 yilda deb hisoblaydilar. Ba'zan 560 - 480 deb to'liq sonlar bilan ko'rsatadilar.

Yuqorida zikr qilingan biografiyalarda Buddaning haqiqiy hayoti bilan uning afsonaviy hayoti o'zaro qorishib ketgan.

Siddxartxa Shakya qabilasining podshoxlaridan biri Shuddxodananing o'g'li edi. Uning saroyi Ximolay tog'lari etagida Kapilavasti degan qishloqda bo'lgan. (Hozirda Nepal hududida). Onasi - malika Mayya. Podshox o'g'lini orzu xavaslar og'ushida tarbiyalar, uni hech bir kamchiliksiz katta qiladi. Ulg'ayib qo'shni podshoxlardan birining qizi Yashadxaraga uylanadi va o'g'il ko'rib, unga Raxula deb ism qo'yadi.

Hech bir qiyinchilik va kamchilik ko'rmay o'sgan bola Siddxarta ittifiqo qarigan cholni, bemorni, og'ir mexnatli bir roxibni uchratadi. Bundan qattiq ta'sirlagan shaxzoda insoniyatni qiyinchilik va azobdan qutqarish yo'llarini axtarib saroyni tashlab ketadi. Bu vaqtda u 30 yoshda edi. U beshta roxibga ko'shilib, ular bilan qishloqma-qishloq kezib yuradi. Ko'p vaqt bu roxiblarga hamroxlik qilib, ularning yo'llarida ma'lum maqsad yo'qligini va bu yo'l o'z oldiga qo'ygan maqsadi - insoniyatni azob uqubatdan qutqarishga olib bormasligini angelaydi va roxiblar jamoasidan ajraladi.

U chakalakzor o'rmonlarda kezib, charchab bir daraxti tagida dam olish uchun o'tiradi va o'ziga toki haqiqatni topmaguncha shu erdan turmaslikni va'da beradi.

Bu o'tirishning 49 kuni uni qalbidan "Sen haqiqatni topding" degan sado keladi. Shu paytda uning ko'z oldida butun borliq namoyon bo'ladi. U hamma joyda shoshilinch qayoqqadir intilishni ko'radi. Hech bir joyda osudalik yo'q edi. Hayot nixoyasiz uzoqlikni ko'zlab o'tib ketayotgan edi. Inson aqli etmas bir kuch. Trishna - yashash, mavjud bo'lish umidi barchani tinchini buzar, halok qilar va yana qayta yaratar edi. Mana endi Budda kimga qarshi kurashish kerakligini ang'ladi. Shu ondan u Budda - nurlangan deb ataldi. U tagida o'tirgan daraxt esa - nurlangan daraxt deb atala boshladi.

Budda o'zining birinchi da'vatini Varanasi yaqinidagi Rishipatana bog'ida, o'zining besh roxib do'stlariga qildi va o'shalar uning birinchi shogirdlari bo'ldilar.

Shu kundan boshlab Budda o'z shogirdlari bilan qishloqma-qishloq yurib o'z ta'limotni tarqatib o'ziga yangi izdoshlar orttiradi. Budda 40 yil davomida o'z ta'limotini Xindistonning turli joylariga etkazadi va 80 yoshida Kushtnagara degan joyda dunyodan o'tdi. Uning jasadi xind udumiga ko'ra u erda kuydirilib, uning xoki 8 ta budda jamoalariga bo'lib yuborildi va har bir jamoa uni dafn etgan joyida ibodatxona barpo etdi.

Buddaning hayoti haqida turli afsonalar ham to'qilgan. Bu afsonalarda aytilishicha, Budda ko'p yillar davomida er yuzidagi turli mavjudotlar qiyofasida qayta tug'ilgan: 84 marta ruhoniy, 58 marta podshox, 24 marta roxib, 13 marta savdogar, 18 marta maymun, 12 marta tovuq, 8 marta g'oz, 6 marta fil shuningdek baliq, qurbaqa, kalamush, quyon kabi qiyofalarda qayta tug'ilgan. Jami 550 marta qayta tug'ilgan. U doimo qayerda, qay qiyofada tug'ilishini o'ziga o'zi belgilagan.

So'nggi marta uni xudolar insoniyatni to'g'ri yo'lga boshlashi uchun inson qiyofasida yaratganlar. Bu afsonalarning ba'zilariga ko'ra er yuzida Gautamaga qadar 6 ta budda o'tgan. Shuning uchun buddizmning ba'zi muqaddas joylarida 7 ta ibodatxona barpo etilgan. 7 ta Botxa daraxti o'tkazilgan. Ba'zi afsonalar 24 ta Budda avlodi o'tgan desa, ba'zilar minglab Buddalar o'tgan deb da'vo qiladi.

**Buddizm ta'limoti, oqimlari.** Buddizm qadimiy xind diniy - falsafiy ta'limotlari asosida vujudga kelgan, amaliyot va nazariyotdan iborat diniy sistemadir. Uning asosi "Hayot - bu azob, uqubatdir" va "najot yo'li mavjud" degan g'oyadir. Buddizm qonuniyatlariga ko'ra inson o'ziga moslashgan mavjudot bo'lib, o'zida tug'iladi, o'zini o'zi halok qiladi yoki qutqaradi. Bu narsa Buddaning ilk da'vatida mujassamlashgan 4 haqiqatda o'z ifodasini topgan.

**Birinchi haqiqat** - "Azob uqubat mavjuddir". Har bir tirik jon boshidan kechiradi, shuning uchun har qanday hayot - qiynoq, azob-uqubatdir.

Tug'ilish - qiynoq, kasallik - qiynoq, o'lim - qiynoq, yomon narsaga duch kelish - qiynoq, yaxshi narsadan ayrilish - qiynoq, yomon narsadan ayrilish -



qiynoq, o‘zi xohlagan narsaga ega bo‘lmaslik - qiynoq. Dunyo tuzilishining asosiy qonuni bir-biriga bog‘liqlik. Hech bir narsa ma‘lum sababsiz yaralmaydi. Lekin har bir hodisa yoki harakatning birlamchi sababini aniqlash mumkin emas. Shuning uchun buddizm dunyoni shu holicha qabul qilishga chaqiradi.

Buddizm ta‘limotiga ko‘ra, har qanday narsa yoki hodisa u xox moddiy yoki ma‘naviy bo‘lsin Dxarma (element)lardan tuzilgan. Bu elementlar o‘z xususiyatiga ko‘ra harakatsiz bo‘lib, ularni harakatlantiruvchi kuch insonning xayollar va so‘zlaridir. ob‘ektiv haqiqat bu doimiy ravishda o‘zgarib turuvchi Dxarmalar oqimidir. Harakatdagi Dxarmalar mavjudligining 5 formasini yaratadi: tana, sezgi, his-tuyg‘u, harakat, anglash. Bu besh forma insonni tashkil qiladi. Inson ular yordamida yashaydi va borliq bilan aloqa bo‘ladi, yaxshi yoki yomon ishlarni bajaradi. Bu narsa insonning o‘limi bilan tugallanadi. Insonni tashkil qiluvchi besh forma (skandx) o‘z navbatida qayta tug‘iladi. yangi tananing xususiyatlari asos bo‘luvchi besh natijani beradi: faoliyat, gumroxlik, xoxish, istak va norma. Bu protsess “hayot g‘ildiragi”ni tashkil qiladi. “Hayot g‘ildiragi”da doimiy ravishda aylanib, inson abadiy qiynoqqa duchor bo‘ladi.

**Ikkinchi haqiqat** - “qiynoqlarning sabablari mavjuddir”.

Inson moddiy narsalar yoki ma‘naviy qadriyatlardan foydalanib, ularni haqiqiy va doimiy deb hisoblaydi va doimo ularga ega bo‘lishga intiladi. Bu intilish hayot davomiyligiga olib boradi. Yaxshi yoki yomon niyatlardan tuzilgan hayot daryosi, orzular va intilishlar sababli kelajak hayot uchun karma hozirlaydi. Demak, qayta tug‘ilish, yangitdan qiynoqlarga duchor bo‘lish davom etadi. Buddistlar fikricha Buddadan keyin hech kim Nirvana holatiga erisha olmagan.

**Uchinchi haqiqat** - “qiynoqlarni tugatish mumkin”. yaxshi yoki yomon niyatlar, intilishlardan butunlay uzilish Nirvana holatiga to‘g‘ri keladi. Bu holatda inson qayta tug‘ilishdan to‘xtaydi. Nirvana holati buddistlar fikricha “Hayot g‘ildiragidan” tashqariga chiqish. “Men” degan fikrdan ajralib, insonning hissiy tuyg‘ullarini to‘la tugatishdir.

**To‘rtinchi haqiqat** - qiynoqlardan qutilish yo‘li mavjuddir. Bu yo‘l - “Sakkizta narsaga amal qilish, to‘g‘ri tushunish, to‘g‘ri harakat qilish,. to‘g‘ri

muomalada bo‘lish, fikrni to‘g‘ri jamlash”. Bu yo‘ldan borgan inson Budda yo‘lini tutadi.


Bu sakkiz narsaga amal qilish meditatsiya deb nomlanadi. Buddizm ta‘limoti asosan uch qismdan iborat: 1. meditatsiya; 2. axloq; 3. donolik.

Meditatsiya.

1. To‘g‘ri tushunish;
2. To‘g‘ri niyat qilish;
3. To‘g‘ri o‘zini tutish
4. To‘g‘ri anglash
5. To‘g‘ri harakat qilish
6. To‘g‘ri muomalada bo‘lish
7. To‘g‘ri fikr yuritish
8. To‘g‘ri gapirish

Axloq normalari - Budda “Pancha Shila” besh nasixati,

1. Qotillikdan saqlanish
2. O‘g‘rilikdan saqlanish
3. Gumroxlikdan saqlanish
4. Yolg‘on, qalbaki narsalardan saqlanish
5. Mast qiluvchi narsalardan saqlanish



O‘zbekistondan topilgan  
Budda haykali

Donishmandlik - bu buddizmning asosiy maqsadi bo‘lib, narsalar tabiatini to‘g‘ri tushunish.

Ilk Buddizmning dxarmalar tabiati haqidagi mavxum metafizik asoslari buddizmda ikki oqim “Xinayana” (kichik g‘ildirak) va “Maxayana” (katta g‘ildirak) yuzaga kelishiga olib keldi.

Xinayana ta‘kidlashicha dxarmalar tabiatini o‘rganish va nirvanaga erishish ma‘naviy yo‘l bilan bo‘ladi. Bu yo‘l juda og‘ir

va faqat monaxlargina nirvana holatiga etishi mumkin. Maxayana esa Budda tanasi jonzotlarni azobdan qutqarish uchun turli jonzot formasiga kirishi mumkin va hayot zanjiridagi barcha

uni o'rganishi, anglashi mumkin deydi. Bu narsa cheksiz Budda ramlarini, xudolarni kelib chiqishga sabab bo'ldi. Bu xudolarga ishonish yo'llari barchaga mumkin. Shu sababli "Katta g'ildirak" deb nomlanadi. Buddaviylik oqimlaridan yana biri -Lamaizm<sup>18</sup> (tibetcha-eng ulug') VII-XIV asrlarda Tibetda Mahayana yo'nalishi ta'sirida vujudga kelgan. Lamaizmning oliy diniy rahnamosi Dalay-Lama (tibetcha-"dengizdek ulug' lama") tug'ilgan mavjudotlarning eng ulug'i, "bodddhisattva"ning Yerdagi ko'rinishi, tirik xudo hisoblanadi.

"Lamaizm" tibetliklarning asosiy dini hisoblanadi, Rossiyaning, Buryatiya, Tuva, Oltoy kabi hududlarida ham keng tarqalgan.

### **Buddaviylikni yoyilishi va rivojlanishi.**

Buddizmning yoyilishida Sangxa - buddizm jamoalarining roli katta bo'lgan. Ular yilning ob-xavosi yaxshi bo'lgan 9 oyida shaharma-shahar, qishloqma-qishloq yurib, ular aholisini buddizmga da'vat qilib ularga Budda ta'limotini o'rgatib yurishgan. Faqatgina Musson yomg'irlari tinmay quygan 3 oydagina o'z ibodatxonalarida muqim bo'lib ibodat bilan shug'ullanganlar.

Eramizdan avvalgi 273-232 yillarda xukmronlik qilgan Imperator Ashoka davri buddizmning keng hududga yoyilishiga katta imkoniyatlar yaratdi. Ashoka o'zining ilk xukmronlik paytidanoq buddizmga e'tiqod qila boshladi. U buddizmga, monaxlariga, ularning Xindiston bilan chegaradosh davlatlarga qilgan missionerlik harakatlariga xayrixoxlik qildi. Ular o'z da'vatlari asosida biron-bir erlik aholi yoki ruhoniylar tomonidan qarshilikka uchrasalar, ular hech qanday qarshi harakat qilmay, o'z yo'llarida davom etganlar. Agar mahalliy aholi tomonidan o'zlariga nisbatan xayrixoxlik sezular, o'sha erga ko'proq ahamiyat berib, ularni ko'proq da'vat qilishgan.

---

<sup>18</sup>Dunshunoslik asoslari. O'quv qo'llanma. -Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi.T. 2013.B.158.

Buddizm jamoalari har qanday boshqa din, madaniyat yoki urf-odatlar qamrovida yoki aralashuvda bir necha yuz yillab o'zlarini saqlab qolish, hamda fursat kelganda ularga o'z ta'sirlarini o'tkazish qobiliyatiga egadirlar. Ularni bu xususiyatlari Xindistonda musulmon xukmdorlar davrida, Shri-Lankada portugallar, gollandlar va inglizlar mustamlakasi davrida, Xitoy va Yaponiya konfutsianlari davrida, Janubi-Sharqiy Osiyoga buddizmning yoyilishida yaqqol namoyon bo'lgan.

Shunday qilib, buddizm eramizdan avvalgi 1 ming yillik oxirlarida Shri-Lankaga va O'rta Osiyo, Markaziy Osiyo, hamda Old Osiyoni o'z ichiga olgan Kushon imperiyasiga kirib keldi. Bizning diyorumizda olib borilgan arxeologiya qazish ishlari asnosida Qora tepa, Dalvarzin tepa, uva, Zartepa, g'orovultepa, Ayrito mavzellaridan topilgan. Shakyamuni sanamlari, hayvon haykalchalari, ramziy g'ildiraklar va stupa qoldiqlarining guvoxlik berishicha Kushon imperiyasida buddizmga katta ahamiyat berilgan.

Buddizm eramizning 1 asrida Xitoyga, IV asrda Koreyaga, VI asrda Yaponiyaga, VII asrda Tibetga, XIII asrdan XVI asrgacha Mongoliyaga, XVII asrdan XVIII asrlargacha Buryatiya va Tuvaga, XIX-XX asrlarda Amerika va Yevropa qit'alariga kirib borgan.

Buddizm o'z ta'limotida hech qachon boshqa xudolarga sig'inishni ta'qiqlamagan. Balki ularga ibodat qilish insonga vaqtincha tasalli berish mumkin. Biroq, nirvana holatiga olib bormaydi deb aytgan. Shu sababli buddizm ta'limoti turli joylarda yoyilishi bilan ular ibodat qilib kelgan xudolari yoki ulug'langan shaxslari timsollari ibodatxonalarini egallagan.

Masalan, Hindistonning buddizmga mansub xudolari "dunyoni yaratuvchi Braxma", "chaqmoq va momaqaldiraq xudosi Indra", "hunarmandchilik ishlari xudosi Xatimanu", Tibetda: "Tibet eposi qaxramoni Baser" timsoli, Mongoliyada Chingizxon kabi milliy panteon buddizm ilohlari sifatiga aylandi. Biroq bu panteonlar Nirvana holatiga olib bormaydi. Faqatgina Buddha nirvanaga olib boradi va insonni qiynoqdan qutqaradi.

**Buddizm manbalari.** Buddizm ta'limoti bir qator devon shakliga keltirilgan to'plamlarda bayon qilingan. Ulardan eng asosiysi Tripitaka (yoki Tipitaka)- uch savat ma'nosini anglatadi. U uch qismdan iborat bo'lganligi uchun shunday nom bilan atalgan. Buddizmning bu yozma manbasi hozirgi davrda Shri-Lankada saqlanib qolgan. U eramizning boshlarida shakllangan. Ular - budda targ'ibotining haqiqiy bayoni hisoblangan sutra matnlari (sutta-pitaka), raxboniylik axloqi va xonaqoxlar nizomlariga bag'ishlangan vinaya matnlari (vinaya-pitaka), buddizmning falsafiy va psixologik muammolarini bayon qilib berishga bag'ishlangan abhidharma matnlari(abhidharma-pitaka)dan iborat.


Birinchi bo'lim -“Vinaya-pitaka” (sanskritcha-“Axloqiy me'yorlar kitobi”) buddaviylar jamoasi “sanxa” tarkibiga kirish tartibi, rohiblarning xulq-atvori hamda diniy ko'rsatmalarga rioya qilish qonun-qoidalari va unga amal qilmagan taqdirda beriladigan jazolar tavsifini o'z ichiga oladi.

Ikkinchi bo'lim -“Sutta-pitaka” (sanskritcha -“Duolar kitobi”) hajmi jihatidan savatlarning eng kattasi hisoblanadi. Budda ta'limoti masal, suhbat, nasihat, afsona, hikmatli so'z, dostonlar shaklida bayon qilingan.

Uchinchi bo'lim - “Abhidharma-pitaka” (sanskritcha -“Diniy-falsafiy masalalar kitobi”)da diniy ta'limotning asosiy qoidalari ifodalanib, Buddaviylik amaliyotining falsafiy mazmun-mohiyati ochib berilgan.

#### Keyinchalik

shakllangan sanskrit, xitoy, tibet, kxmer va yapon tillaridagi buddaviylikka oid adabiyotlar ancha keng tarqalgan, ammo ularning tarixiy qiymati kamroq. Budda hayotiga tegishli rivoyatlarning barchasi Tripitakada jamlangan.



### **O‘tilgan mavzu bo‘yicha savollar**

1. Buddizmning asoschisi kim?
2. Buddaviylik qaysi davrda va qayerda vujudga keldi?
3. Buddaviylikning hayot haqidagi ta’limoti qanday?
4. Buddaviylik qaysi davrda keng yoyildi?
5. Hozirgi paytda qaysi mamlakatlarda buddaviylik keng tarqalgan?
6. Buddaviylikning muqaddas kitobi qaysi?

### **Mustaqil ish topshiriqlari:**

1. Buddaviylikka Hindistonning boshqa dinlarining ta’sirini tahlil qiling.
2. Buddaviylikning Markaziy Osiyoda egallagan mavqei haqida ma’lumot bering.
3. Buddaviylikni muqaddas kitobi haqida ma’lumot to’plang.

### **Adabiyotlar:**

1. Raximdjano D., Ernazarov O. Dinshunoslikka kirish. O‘quv qo‘llanma. -T.: «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. -304 b.
2. Isoqjonov R. Qiyosiy dinshunoslik. O‘quv qo‘llanma. -T.: OOO «Complex print», 2020. -198 b.
3. Kamilov D. Dinshunoslik. O‘quv qo‘llanma. -T.: Lesson Press, 2021. -128 b.

## MAVZU: XRISTIANLIK DINI.

### Reja:

1. Xristianlikning paydo bo'lishi va ta'limoti.
2. Xristianlikning asosiy oqimlari, yo'nalishlari.
3. Markaziy Osiyoda xristianlik. Xristianlik manbalari.

**Tayanch iboralar:** Bibliya, Muqaddas Ruh, Pasxa, Cho'qintirish, Xoch, Ikona, Patriarx, Yepiskop, Diakon, Papa, Mitropolit, Altar, Indulgensiya, Post.

### Xristianlikning paydo bo'lishi va ta'limoti.

**Xristianlikning vujudga kelishi.** Xristianlik dini buddaviylik va islom dinlari qatorida jaxon dini hisoblanadi. Bu din o'ziga e'tiqod qiluvchilarning soni jixatidan jaxon dinlari orasida eng yirigi hisoblanadi. Unga e'tiqod qiluvchilarning soni 1 mlrd. 600 mln. bo'lib, bu son dunyo aholisining deyarli uchdan biriga to'g'ri keladi.

Xristianlik asosan Yevropa, Shimoliy va Janubiy Amerika, Avstraliya qit'alarida hamda qisman Afrika qit'asining janubiy qismida va Osiyo qit'asining sharqiy qismida tarqalgan.



Bibi Maryam ikonasi

Xristianlik eramizning boshida Rim imperiyasining sharqiy qismida Falastin erlarida vujudga keldi. Iso Masix (Iisus Xristos) Bibliyaning xabar berishiga ko'ra, xristianlik ta'limotining asoschisi bo'lib, u Rim imperiyasi tashkil topganining 747 yili Falastinning Nazaret qishlog'ida bokira qiz Maryamdan Xudoning amri bilan dunyoga keldi. Yangi eraning boshlanishi ham Iso Masixning dunyoga kelishi bilan bog'liq.


Eramizning boshlarida yaxudiylar xokimiyatning uch tabaqasi bilan bog'liq og'ir tushkunlikni boshdan kechirar edilar. Bir tomondan Rim imperatori va

uning joylardagi noiblari, ikkinchi tomondan Falastin podshoxi Irod Antipa, uchinchi tomondan esa ruhoniylar xalqni turli soliqlar va majburiyatlar bilan ko'mib tashlagan edilar. Xuddi shu davrda yaxudiylar o'rtasida kutilayotgan xaloskorning kelishi yaqinlashib qolganligi haqida xabar tarqatuvchilar paydo bo'ldi. Ular xalqni kutilayotgan xaloskor kelishiga tayyorlash uchun chiqqan edilar. Shunda Iso Masix yaxudiylikni islox qilish va uni turli xurofotlardan tozalash g'oyasi bilan chiqib, xristian diniga asos soldi. Yaxudiylar uni va uning izdoshlarini Falastindan quvg'in qildilar. Isoning 33 yoshida fitnachilikda ayblab qatl etishga xukm qildilar<sup>19</sup>.

Isoning tarixiyligi xususida diniy va diniy bo'lmagan manbalar orasida ixtilof mavjud: xristianlik manbalari Isoning o'zi xudo bo'la turib, insoniyatning gunoxlarini o'ziga olish uchun odam qiyofasida tug'ilganini, uning tarixiy shaxs ekanini ta'kidlab, uning hayot tarzini, insonlar bilan muloqoti haqidagi keng ma'lumotlarni bersada, diniy bo'lmagan manbalarda Isoning nomi uchramaganligini nazarda tutib, u tarixiy emas, balki afsonaviy shaxsdir deguvchilar ham bor.

Iso nomiga qo'shiluvchi Masix so'zi qadimiy yaxudiy tili - *ivrit*dagi "*moshiax*" so'zidan olingan bo'lib, "silangan" yoki "siylangan" ma'nolarini beradi. Grekchada bu so'z "xristos" ("christos") shakliga ega. Bu dinning "*xristianlik*" yoki "*masixiylik*" deb atalishi ham shu so'zlar bilan bog'liq. Bundan tashqari xristianlik Iso Masixning tug'ilgan qishlog'i - "Nazaret" bilan bog'lab, *nazroniyya* deb ham atalgan. Keyinchalik bu nom *nasroniyya*, *nasroniylik* shaklini olgan.

Iso Masix o'z ta'limotini o'zining 12 o'quvisi *Apostollar - Xavoriylarga* o'rgatdi. Ular esa Isoning vafotidan keyin ustozlarining ta'limotlarini har birlari alohida-alohida tarzda kitob shakliga keltirdilar. Bu kitoblar *Bibliyaning* "Yangi axd" qismini tashkil etadi.



Muqaddas "Troitsa"

<sup>19</sup> Dinshunoslik.Haydarova H.B.Durdona.Buxoro.-B.79.



**Xristianlikning ta'limoti.** Manbalar xabar berishicha, xristianlik yaxudiy muxitida yuzaga kelgan. Bu esa xristianlikning yaxudiylikdan ko'p jixatdan ta'sirlanishiga sabab bo'ldi. Xristianlikning asosiy g'oyasi - Isoning odamzodning xaloskori "messiya" ekanligi yaxudiylikda mavjud bo'lib, oxiratga yaqin kelishi kutilayotgan xaloskor haqidagi ta'limotdan kelib chiqqandir.

Keyinchalik bu ta'limot Xudoning mujassamlanishi yoki Isoning ikki xil - odam va xudo moxiyati haqida "gunoxni yuvish", ya'ni Isoning o'zini ixtiyoriy tarzda qurbon qilishi haqidagi ta'limot bilan mustaxkamlanadi. Xristianlik muqaddas ruh ota-xudo, bola-xudo va muqaddas ruh - uch yuzlik xudo to'g'risidagi ta'limoti, targ'ibot - tashkilotchilik, jannat va do'zax, oxiratda go'yo dunyoning oxiriga borish, Isoning qaytishi haqida va boshqa aqidalarni o'z ichiga oladi.

Xristian jamoasining shakllanishi, uning aqidalarini tartibga solinishi, cherkov munosabatlarining ishlab chiqilishi, diniy tabaqalar tuzumining vujudga kelishi eramizning IV asr boshlarida 324 yili xristianlik Rim imperiyasida davlat dini deb e'lon qilinganidan so'ng amalga oshdi.

325 yili tarixda birinchi marta Rim imperatori Litsiniya imperiya hududidagi xristian jamoalarini o'zaro kelishtirish va tartibga solish maqsadida Nikey shaxrida I Butun Olam Xristian Soborini chaqirdi. 381 yili Konstantinopolda II Butun Olam Xristian Sobori bo'lib o'tdi. Bu soborlarda xristianlik ta'limotining asoslari qabul qilindi va bu asoslar 12 qismda ifodalandi.

**Birinchi qismda** olamni yaratgan Xudo haqida so'z yuritiladi.

**Ikkinchi qismda** Xudoning o'g'li Isus Xristosga imon keltirish haqida so'z boradi.

**Uchinchi qismda** ilohiy mujassamlashuv haqida so'z yuritilib, unga ko'ra, Iso Xudo bo'la turib, bokira Bibi Maryamdan tug'ilgan va inson qiyofasiga kirgan.

**To'rtinchi qismda** Isoning azob-uqubatlari va o'limi haqida so'z ketadi. Bu gunoxlarning kechirilishi haqidagi aqidadir. Bunda Isoning tortgan azoblari va o'limi tufayli Xudo tomonidan insoniyatning barcha gunoxlari kechiriladi deb e'tiqod qilinadi.

**Beshinchi qismda** Isoning xochga mixlanganidan so'ng uch kun o'tib qayta tirilganligi haqidagi aqida keladi.

**Oltinchi qismda** Isoning meroji haqida so'z yuritiladi.

**Yettinchi qismda** Isoning nuzuli (ikkinchi marotaba erga qaytishi) haqida so'z yuritiladi.

**Sakkinchi qism** Muqaddas Ruhga imon keltirmoq borasidadir.

**To'qqizinchi qism** cherkovga munosabat haqida.

**O'ninchi qismda** cho'qintirishning gunohlardan forig' qilishi haqida.

**O'n birinchi qism** o'lganlarning ommaviy tirilishi haqida.


**O'n ikkinchi qismda** abadiy hayot haqida so'z yuritiladi.

Xristianlikning bundan keyingi falsafiy va nazariy rivojida avliyo Avgustinning ta'limoti katta rol o'ynadi. Beshinchi asr bo'sag'asida u dinning bilimdan afzal ekanligini targ'ib qila boshladi. Uning ta'limotiga ko'ra, borliq inson aqli bilishga ojizlik qiladigan hodisadir, chunki uning ortida ulug' va qudratli Yaratuvchining irodasi yashiringan.

Avgustinning taqdir haqidagi ta'limotida aytilishicha, Xudoga imon keltirgan har bir kishi najot topganlar safidan o'rin egallashi mumkin. Chunki imon taqdir taqozosidir.

**Xristianlikning asosiy oqimlari, yo'nalishlari<sup>20</sup>.**

Xristian cherkovining Katolik va Pravoslav cherkovlariga



Iso xaloskor va mo'jizakorlar

<sup>20</sup> Dinshunoslik.Haydarova H.B.Durdona.Buxoro.-B.79

ajralib ketishi Rim papasi va Istanbo‘l Patriarxining xristian olamida etakchilik uchun olib borgan raqobati oqibatida vujudga keldi. Ajralish jarayoni Rim imperiyasining g‘arbiy va sharqiy tafovutlari o‘sib chuqurlashib borayotgan asrlardayoq boshlangan edi. 867 yillar orasida Papa Nikolay va Istambul patriarxi Fetiy orasida uzil-kesil ajralish ro‘y berdi va bu ajralish 1054 yili rasman tan olindi.

XVI asr boshlarida katolitsizmdan bir necha Yevropa cherkovlari ajralib chiqishi natijasida xristianlikda protestanlik harakatlari vujudga keldi. Buning davrasida lyuteranlik, baptizm, anglikanlik va kalvinizm cherkovlari shakllandi. Bular bir cherkovning asosiy marosimlari jixatidan o‘zlariga xos bo‘lgan tomonlarga ega bo‘lish bilan bir qatorda, bular ham o‘z navbatida bir necha yo‘nalishlar, mazxablar va oqimlarga bo‘lindi.

**1. Pravoslav oqimi.** Pravoslav oqimi xristianlikning uch asosiy yo‘nalishidan biri o‘laroq, tarixan uning sharqiy shaxobchasi sifatida ro‘yobga chiqdi va shakllandi. Bu oqim asosan Sharqiy Yevropa, Yaqin Sharq va Bolqon mamlakatlarida tar-qalgan. Pravoslav atamasi yunoncha *ortodoksiya* so‘zidan olingan bo‘lib, ilk davr xristian yozuvchilari asarlarida uchraydi. Pravoslaviening kitobiy asoslari Vizantiyada shakllandi, chunki bu yo‘nalish u erdagi hukmron din edi.

Muqaddas kitob bo‘lmish Injil va muqaddas o‘gitlar IV-VIII asrlardagi etti butxona Soborlarining qarorlari, shuningdek Afanasiy Aleksandriyskiy, Vasiliy Velikiy, Grigoriy Bogoslov, Ioann Damasskiy, Ioann Zlatoust kabi yirik cherkov xodimlarining asarlari ushbu oqim ta’limotining asosi deb tan olingan.

Xristianlikning Sharqiy tarmog‘i bo‘lmish pravoslaviyaning rivojlanishi jarayonida 14 Mustaqil (avtokefal) cherkovlari: Konstantinopol, Aleksandriya, Antioxiya, Quddus, Rus, Gruziya, Serb, Rumin, Bolgar, Kipr, Ellada, Albaniya, Polsha, Chexoslovakiya, Amerika cherkovlari shakllangan.

Pravoslav oqimida sirli rasm-rusumlar muhim o‘rin egallaydi. Cherkov ta’limotiga ko‘ra, bunday paytlarda Xudo tomonidan dindorlarga alohida savoblar nozil bo‘ladi.

*Cho‘qintirish* - sirli hodisasi. Bunda dindor o‘z tanasini uch marta suvga botirishi Xudo-otani, O‘g‘ilni va Muqaddas ruhni chaqirish bilan ruhiy tug‘ilishni kasb etadi.

*Badanga eleyni surkash* ham sirli bo‘lib, bunda dirdorga Muqaddas ruhning ruhiy hayotga qaytaruvchi va chiniqtiruvchi ehsonlari ulashiladi.

*Poklanishning sirliligi*. Unda dindor non va vino ko‘rinishida o‘z badanida Iso qonini abadiy hayotga tayyorlaydi.

*Nadomatning sirliligi* shundaki, dindor o‘z gunoxlarini din peshvosi oldida tan oladi, din peshvosi esa uning gunoxlarini Iso nomidan kechiradi.

*Ruhoniylikning sirliligi* u yoki bu shaxsni ruhoniy darajasiga ko‘tarish uchun episkopning qo‘lini o‘sha shaxs badaniga tegizishi (yoki qo‘yishi) orqali amalga oshiriladi.

*Badanni eley bilan ishqalash* sirida Xudoning ruhiy va jismoniy zaifliklarni tuzatuvchi lutfu marhamatidan umid qilinadi.

Pravoslav cherkovi bayramlar va diniy marosimlarga alohida ahamiyat beradi. *Post* diniy marosimi odatda, katta cherkov bayramlaridan oldin o‘tkaziladi. Postning moxiyati inson ruhini tozalash va yangilash, diniy hayotning muhimi voqealariga tayyorgarlikdan iborat.

Rus Pravoslavining ko‘p kunlik postlari to‘rtta: Pasxa oldidan, Pyotr va Pavel kuni oldidan, Bogoroditsa uyqusidan oldin va Iso tug‘ilgan kundan oldin.

Buyuk bayram ichida Pasxa birinchi o‘rinda turadi. Pasxa Isoning o‘lganidan so‘ng qayta tirilganini nishonlab o‘tkaziladigan bayram. U yilning 22 apreldan may oyining birinchi yakshanbasigacha o‘tkaziladigan bayram. U “Otsovskiy den”dan avval o‘tkaziladi. Pasxaning tarixi yaxudiylikdagi *pesax* bayrami bilan bog‘liq bo‘lib, u yaxudiylarning Misrdan qochib chiqishi va ozodlikka erishishini nishonlanishidir. Xristianlik yaxudiylikdan to‘la ajralib chiqqach pasxa yangicha tus olgan.

Pasxadan so‘ng pravoslav dinining o‘n ikki kunlik o‘n ikki muhim bayrami boshlanadi. Ular: *Iso tug‘ilishi, Sretenie, Isoni cho‘qintirish, Preobrajenie, Quddusga kirish, Isoning osmonga ko‘tarilishi, Troitsa Muqaddas butning osmonga ko‘tarilishi, Blagoveuqanie* (Injilning nozil bo‘lishi), *Rojdestvo Bogorodiso* (Isoning xochga osilishi) va xakozo.

**2. Katolik oqimi.** Xristianlikning yirik yo‘nalishlaridan biri katoliklardir. U Yevropa, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida tarqalgan bo‘lib, muxlislari taxminan 800 mln. kishini tashkil etadi.

Katolitsizm *umumiy, dunyoviy* degan ma‘nolarni ifodalaydi. Uning manbai - uncha katta bo‘lmagan Rim Xristian jamoasi bo‘lib, rivoyatilarga ko‘ra uning birinchi Yepiskopi apostol Petr bo‘lgan.

Katolitsizmda Bibliyani sharxlash huquqi faqatgina ruhoniylarga beriladi, chunki ular uylanmaslik haqidagi diniy talabga amal qiladilar. Diniy ibodatlar dabdabali va soxtalashtirilgan ko‘rinishga ega, diniy o‘qish, duo, iltijolar lotin tilida olib boriladi. provslaviyadagi kabi katolitsizm ham farishta, ikona, ilohiy kuch, chirimaydigan marxum jasadlariga sig‘inish odatlari mavjuddir.

Katolitsizm xristianlikning yo‘nalishlaridan biri sifatida uning asosiy aqida va qoidalarini tan oladi, biroq diniy ta‘limot, sig‘inish va tashkiliy masalalarda bir qator xususiyatlar bilan ajralib turadi.

Katolik diniy ta‘limotning asosini Muqaddas kitob va Muqaddas yozuvlar tashkil qiladi. Biroq Pravoslav cherkovidan farqli o‘laroq katolik cherkovi Muqaddas yozuvlar deb nafaqat avvalgi etti Butun Olam Xristian Soborlarining qarorlarini, balki hozirgacha bo‘lib o‘tgan barcha Soborlar qarorlarini, bundan tashqari Papaning maktublari va qarorlarini ham hisoblaydi.

Katolik cherkovi tashkiloti qat‘iy markazlashuv bilan ajralib turadi. Rim papasi bu cherkovning boshlig‘i. U diniy axloq masalalariga oid qonun-qoidalarni belgilaydi. Uning xokimiyati dunyoviy soborlar xokimiyatidan yuqori turadi.

Katolik cherkovining markazlashuvi jumladan diniy ta‘limotni noan‘anaviy tahlil qilish (sharxlash) huquqida aks etgan dogmatik taraqqiyot tamoyilini keltirib chiqaradi. Masalan, Pravoslav cherkovi tomonidan tan olingan diniy ramzda

ta'kidlanishicha, Muqaddas ruh *ota xudodan* kelib chiqadi. Katolik aqidasiga ko'ra esa Muqaddas ruh *ota xudodan* va *o'g'il xudodan* kelib chiqadi. Cherkovning najot borasidagi roli haqida ham o'ziga xos alohida ta'limot shakllangan. Najotning asosi iymon va xayrli ishlar hisoblanadi. Cherkov, Katolik ta'limotiga ko'ra, xayrli zaruriy ishlar xazinasiga - Iso tomonidan yaratilgan "Xayrli ishlar xazinasiga" ega.

Cherkov Iso, Bibi Maryam, Muqaddas Ruh nomidan bu xazinani tasarruf qilish, undan muxtojlariga ulashish, ya'ni gunoxlarni avf etish, nadomat chekuvchilarga kechirim tufxa qilish huquqiga ega. Pul yoki tufxa evaziga avf qilish huquqiga ega. Pul evaziga yoki cherkov oldidagi xizmatlari uchun gunoxlarini kechirish - *indulgensiya* haqidagi ta'limot mana shundan kelib chiqqan.

A'rof haqidagi (do'zax va jannat oralig'idagi mavze) aqida faqat katolik ta'limotida mavjud. Gunohi katta bo'lmagan gunohkorlarning ruhi u erda o'tda kuyadi (extimol bu vijdon va nadomat azobining ramziy intihosidir), keyin jannatga yo'l topadi. Ruhning a'rofda bo'lish muddati xayrli ishlar tufayli qisqartirilishi (ibodat va cherkov foydasiga xayr-ehson qilish bilan) mumkin. Bu ibodat va xayr ehsonlar o'lganlar xotirasiga yaqinlar tomonidan qilinadi.

A'rof haqidagi ta'limot I asrdayoq paydo bo'lgan edi. Pravoslav va Protestant cherkovlari a'rof haqidagi ta'limotni rad etadi.

Bundan tashqari, pravoslav dini ta'limotidan farqli o'laroq, katolik yo'nalishida papaning begunohligi haqidagi aqida ham bor. Bu aqida 1870 yildagi birinchi Vatikan soborida qabul qilingan. G'arb cherkovining Bogoroditsaga nisbatan



Toshkentdagi Rim katolik kosteli

alohida e'tibori 1950 yilda papa Piy XII tomonidan kiritilgan, Bibi Maryamning meroji haqidagi aqidada o'z aksini topdi. Katolik ta'limoti pravoslav ta'limoti kabi etti asrorni tan oladi, biroq bu asrorlarning talqin qilinishida qarashlar mos kelmaydi. Masalan, pricheshenie (tamaddi) qilish qattiq non bilan, (pravoslavieda bo'ktirilgan non bilan) dunyoviy (miryane)larga non va vino bilan shuningdek faqat non bilan amalga oshiriladi. Cho'qin-tirish sirini o'tash paytida suv sepiladi (cho'qintiriluvchiga), muz ostidagi suvga cho'ktirilmaydi.

*Miropomazanie* (cho'qinuvchining peshonasiga eley surkash) etti-sakkiz yoshlarda amalga oshiriladi, go'dak-ligida emas. Bunda o'spirin (bola) yana bitta ismga ega bo'ladi. Bunda u o'sha avliyoning qilmish-lari va g'oyalarini maqsad qilib qo'yadi. Shunday qilib, bu rusumning ijro etilishi imon mustaxkamlanishiga xizmat qilishi zarur.

Pravoslavlarda nikoxsizlik rusumini faqat qora ruhoniylar qabul qiladi. Katoliklarda esa nikoxsizlik (selibat) Papa Grigoriy VII tomonidan joriy qilingan qoidaga ko'ra barcha ruhoniylar uchun majburiydir.

Din markazi - exromdir. Dinning muhim elementlari cherkovga qatnovchilar hayotining maishiy asoslarini tartibga soluvchi bayramlar, shuningdek postlardir.

Milodiy post katoliklarda advent deb ataladi. U Avliyo Andrey kunidan keyingi birinchi yakshanbada - 30 noyabrda boshlanadi. Ular uch ibodat bilan: yarim tundagi, ertalabki va kunduzgi ibodat bilan nishonlanib, Bibi Maryam xomilador bo'lishi, Isoning tug'ilishi va dindorning qalbida bo'lishi kabi ramziy ma'noni anglatadi. O'sha kuni ta'zim qilish uchun exromlarda go'dak Isoning figurasi qo'yilgan yaslilar o'rnatiladi.

Katolik ierarxiyasida uch darajadagi ruhoniylar bor: diakon, ruhoniylar (kyure, pater, kendz) Yepiskop. Yepiskopni papa tayinlaydi. Papani kardinal kollegiya saylaydi. Bunda umumiy ovozning uchdan ikki qismi plyus 1-ovoz (yashirin ovoz berish yo'li bilan) II Vatikan soborida (1962-1965 yillar) cherkov hayotining barcha jabxalarini yangilash, zamonaviylashtirish jarayoni boshlandi. Birinchi navbatda ibodat an'analari tegishli bo'ldi. Masalan, ibodatni lotin tilida olib borishdan voz kechildi.

**3. Protestantizm dini.** Protestanizm tarixi Martin Lyuterdan (1483-1546) boshlanadi. U birinchi bo‘lib katolik cherkovi bilan aloqani uzdi va protestant cherkovining asosiy qoidalarini ishlab chiqdi va uni himoya qildi. Bu nizomga ko‘ra, insonning Xudo bilan bevosita muloqoti mumkin. Lyuterning diniy va dunyoviy xokimiyatga qarshi chiqishlari, katolik dindorlarning imonni va vijdonni inson bilan Xudo o‘rtasidagi vositachi sifatida nazorat qilish haqidagi muloxazalarga qarshi chiqishi jamoatchilik tomonidan favqulodda diqqat bilan tinglandi.

Protestantizmning mohiyatiga ko‘ra, ilohiy lutfu marhamat insonlarga cherkovning vositasisiz, bevosita in‘om etiladi. Inson najot topishi uning shaxsiy e‘tiqodi va Isoning vositasi orqali ro‘y beradi. Avom ruhoniylardan farqlanmaydi, ruhoniylar hamma dindorlarga bir xilda joriy etiladi.

Protestantlik diniy marosimlarning ko‘pchiligini bekor qildi, faqatgina lyuteranlikda non va vino bilan cho‘qintirish saqalanib qoldi.

O‘lganlarga bag‘ishlangan duo o‘qish, aziz-avliyolarga sig‘inish, muqaddas murdalarga, sanamlarga topinish bekor qilindi. Ibodat uylari ortiqcha xashamlardan, mexroblardan, sanamlar, haykallardan tozalandi, ruhoniylarning uylanmaslik shartlari bekor qilindi. Bibliya milliy tillarga tarjima qilindi, uni sharxlash har bir xudojo‘yning eng muhim burchi bo‘lib qoldi.

Asrorlardan faqat *cho‘qinish* va *mansublik* (cherkovga) e‘tirof etiladi. Ibodat va‘z-nasixatlar, birgalikdagi ibodat va suralarni kuylashdan iborat bo‘ldi. Protestantlar Bogoroditsa shaxsiyatini, a‘rofnini tan olmaydilar.

Lyuter tomonidan tuzilgan reformatsiya bosh taomillari 95 tezis shaklida yozib bergan. Ular Vittenbergning Nasriy cherkovining shimoliy eshiklariga yozib qo‘yilgan. Mana shu tezislardan bir nusxasi: Iso payg‘ambar: “Tavba qiling, chunki samoviy shoxlik yaqinlashib qoldi” deb jar solganida shuni ta‘kidlaydiki, imon keltirganlar hayoti boshdan-oyoq to‘xtovsiz tavba-tazarrudan iborat bo‘lmog‘i darkor.



Tavba-tazarru ruhoniy (avliyo) oldidagi birgina tazarrudan iborat emas. Birinchi to'rt tezis, Lyuter ta'kidlaydiki, haqiqiy tavba uzoq muddatli jarayondir, birgina xatti-harakat bilan ro'yobga chiqmaydi.

Papa faqat o'zi belgilagan jazoni olib tashlashi mumkin. Cherkov hech qaysi samoviy jazodan insonni ozod qila olmaydi. Tavba-tazarru qonunlari tiriklar uchun joriy qilinadi (belgilanadi). Bu erda va keyingi bir qancha tezislarda papaning a'rof ustidan xukmronligi rad etiladi.

“Ruhlar uchun indulgeniya olgan shaxslarga tavbu-tazarru qilish talab qilinmaydi”, degan ta'limot Iso ta'limoti emas. Chindan tavba qilgan kishilarni Xudo gunohlarini kechadi va abadiy azobdan ozod qiladi. Gunohkor papa yorlig'isiz ham bunday mag'firatdan umid qilishi mumkin.

Lyuter bir necha tezislarda ta'kidlaydiki, chindan tavba qilgan, nadomat chekkan xristian (nasoro) “samoviy jazoga shoshilmaydi, ya'ni unga samoviy jazo joriy etilmaydi”.

Cherkovning haqiqiy xazinasini muqaddas Injil va xudo marhamatidir. Lyuterning ta'kidlashicha, “xayrli amallar xazinasini”ning mavjudligi kambag'allar uchun emas boylar uchun foydalidir, bu xazinalarga papa marhamati bilan emas, o'z amallari bilan erishuvi mumkin. Bu xil vositalar bilan Xudoning mexrini qozonmoqni Lyuter sarob deb ataydi.

Haqiqiy xristian Isoga ergashish istagi bilan yonmog'i zarur. Najot yo'li ruhsatnoma yorlig'ida emas, balki chin yurakdan nadomat chekmoq va tavba qilmoqdadir.

1517 yili 31 oktyabrda jamoatchilik xukmiga xavola qilingan tezislardan shundan iborat. Keyinchalik bu kun protestantlar bayrami bo'lib qoldi.

**Kalvinizm.** Diniy isloxotning boshqa bir yirik arbobi Jan Kalvin (1509-1564) edi. Uning 1536 yilda nashr etilgan “Xristian dinidagi ko'rsatmalar” degan bosh asari, protestanizm ta'limot sifatida shakllanganidan keyin yangi bir diniy yo'nalish - kalvinizmning asosi bo'lib qoldi.

Dastlabki isloxot arboblardan farqli o'laroq, Kalvin uchun diqqat markazi Injil emas Tavrot bo'lib qoladi. Kalvin absolyut taqdir haqidagi ta'limotni ishlab

chiqdi. Bu ta'limotga ko'ra, barcha odamlar xudoning biz uchun noma'lum bo'lgan irodasiga asosan mag'firat qilinganlar va maxkum etilganlar toifasiga bo'linadi. Inson na imon, na "xayrli ishlar" bilan taqdirga yozilganni o'gartira olmaydi: mag'firat qilinganlar najotga maxkum, mag'firatdan maxrum bo'lganlar esa abadiy azobga maxkumdirlar. Taqdir haqidagi ta'lim shunday asosga qurilganki, Iso ham bizning gunohlarimiz uchun azobu uqubatlarga giriftor qilingan edi.

Protestant cherkovining kalvinistik yo'nalishdagi davomchilari (kalvinistlar yoki reformatorlar) Shotlandiya, Gollandiya, Shimoliy Germaniya, Fransiya, Angliyada keng obro'ga va ta'sirga ega edilar.

**Presviterianlar.** Presviterianlik kalvinistik cherkovdan kelib chiqqan bo'lib, (yunoncha eng *eski*) mo'tadil puritanlardir. 1592 yili Shotlandiya parlamenti bu ta'limotni asosiy mafkura deb hisoblash haqida qaror qabul qilgan. Bu jamoa boshida jamoa a'zolari tomonidan saylangan presviter turadi. Jamoalar mahalliy va davlat ittifoqlariga birlashadi. Diniy marosim ibodat, presviterning mav'izasi, oyatlarni kuylashdan iborat. Liturgiya bekor qilgan, na "din ramzi" va na "otche nash" o'qilmaydi. Faqat dam olish kunlari bayram kuni deb hisoblanadi.

**Anglikan cherkovi.** Anglikan cherkovi - Angliyaning davlat cherkovi 1534 yilda mahalliy katolik cherkovi Rim qiroli Genrix VIII ni cherkov boshlig'i deb e'lon qildi, ya'ni cherkov qiroli xokimiyatiga bo'ysundirildi. XVI asr o'rtalariga kelib ibodatni ingliz tilida olib borish joriy etildi, postlar bekor qilindi, but va sanamlar olib tashlandi, ruhoniylar uylanmasligi majburiy bo'lmay qoldi. "Mo'tadil yo'l" ta'limoti, ya'ni Rim katolitsizmi va protestanizm orasidagi o'rtacha yo'l shakllandi. Anglikan diniy ta'limoti "Umumiy ibodatlar kitobi" da aks ettirilgandir.

**Baptizm.** Protestant ta'limotining eng ko'p sonli davomchilari baptistlardir. Baptizm (yunoncha "suvga cho'ktirish") XVII asr boshlarida vujudga kelgan bo'lib, hozirgi kunda dunyoning 130 mamlakatida o'z tarafdorlariga ega. Bu ta'limot tarafdorlari faqat o'spirinlarnigina cho'qintirishga olib boradilar. "Hech kim, jumladan, ota-onalar ham kishi uchun biror dinni tanlay olmaydi. Kishi dinni

ongli ravishda o'zi ixtiyor qilmog'i zarur", degan qoida baptistlar va zabur xristianlarining asosiy qoidasidir, ularda ibodat o'ta soddalashtirilgan bo'lib, diniy qo'shiq, ibodat va mav'izadan iborat. Zabur xristianlari to'rtta rusumni saqlab qolishgan: cho'qintirish, (o'spirinlar uchun) tanovul, nikox, qo'l bilan silab qo'yish. Bu xristianlar uchun but extirom ramzi emas.

**Adventistlar harakati.** Adventistlar harakati (lotincha - *kelish*) Amerikada XIX asrning 30 yillari og'ir iqtisodiy buxron (krizis), umumiy ishsizlik davrida vujudga keldi. Uning asoschisi Vilyam Miller (1782-1849). Adventistlar bir necha mustaqil cherkovlarga bo'lingan bo'lib, ularning eng kattasi "*Ettinchi kun adventistlari*". Ularning asosiy g'oyasi Isoning ikkinchi bor erga tushishi va insoniyatni xalos etib, shayton va uning tarafdorlarini bilan urushib, ularni mutlaq yakson qilishidir. Ular kishilarni Isoni kutib olish uchun yaxshi axloqli bo'lishga chaqiradi. Adventistlar dindorlardan o'z mablag'laridan o'ndan birini cherkov hisobiga o'tkazishlarini va tinmasdan targ'ibot ishlarini olib borishlarini talab qiladi. Iso payg'ambarning ikkinchi marta erga qaytishi haqidagi bashorat najot yo'li deb hisoblanadi.

Hozirgi paytda g'arbiy hamda sharqiy cherkovlarning raxbarlari ko'p asrli itxtiloflarning ayanchli oqibatlarini bartaraf qilishga intilmoqdalar. Masalan, 1964 yili Rim papasi Pavel VI va Konstantinopol patriarxi Afinagor ikkala cherkov vakillarining XI asrda aytgan o'zaro qasamyodlarini tarqoqligini bartaraf qilish uchun birinchi qadam qo'yildi.

### **Markaziy Osiyo Xristianlik. Xristianlik manbalari.**

XI asrning oxirida xristianlikning Sharqqa tomon harakati va tarqalishi ommaviy tus oldi. Bu dinni mahalliy aholi orasida tarqatuvchilar Sharqning ayrim viloyatlariga ilgaririq kirib borganlar. 280 yildayoq Talos (Marke) cherkovlari qurilib bo'lgan, Samarqandda (310 yildan), Marvda (334 yildan), Xirotda (430 yildan), Xorazmda, Marida va Markaziy Osiyoning boshqa shaharlarida episkopik, kafedra, missiyalar, keyinchalik Samarqandda, Maroda (430 yillar), Xirotda (658 yillar) episkoplikdan iborat diniy hududiy jamoalar, birlashmalar bo'lgan. Xurosonliklar va sug'diyonaliklar zardushtiylar, monaviylar, buddistlar, bilan bir

qatorida xristianlar ham bo'lishgan. Ular qoraxitoylar va sosoniylarga qarash erlarda ta'qib qilganlar.

Markaziy Osiyo territoriyasida islomning tarqalishi davrlarida islom bilan xristianlik o'rtasidagi ziddiyatlar, kelishmovchiliklar keskinlasha boshladi. Biroq, X asrgacha Samarqand, Xorazm, Toshkent viloyatlarida xristianlarning manzilgoxlari bo'lgan. Xatto Beruniy yashagan davrda ham (973-1056) Marvda pravoslav metropoliyasi bo'lgan.

Ana shu davrda xristianlik Kavkazda ham tarqala boshladi. Armaniston (301 yil) va Gruziyada (318 yili) davlat diniga aylanadi. Kavkaz Albaniyasi territoriyasida esa (hozirgi Ozarbayjon va Janubiy Dog'iston territoriyasi) IV-VII asrlarda xukmron din hisoblangan.

**Bibliya.** Bibliya Yaxudiylik va Xristianlik dinlari talimotiga ko'ra u Xudo tomonidan nozil qilingan, asosiy diniy aqida va axloq qonunlarini o'zida jamlagan muqaddas kitoblar majmuasidir.

Uning tarkibiga kirgan yaxudiy diniga talluqli kitoblar "Qadimiy axd" deb, xristian talimotiga tegishli kitoblar "Yangi axd" deb nomlanadi. Yaxudiy va Xristian bibliyalari bir-biriga mos kelmaydi. Yaxudiylarning muqaddas kitobi Qadimiy Isroil va Qadimiy Yaxudiylarning diniy talimot va urf-odatlarini asosida eramizdan avvalgi XIII davrda yozilgan bo'lsa, Xristianlarning kitobi esa eramizning boshlarida vujudga keldi. Yaxudiylar Xristianlarning kitobini muqaddas kitob sifatida tan olmaydilar Xristianlar esa Yaxudiylarning kitobini muqaddas kitob sifatida tan oladilar.

Bibliya so'zining grekchadan tarjimasi *biblia - kitob, o'ram* ma'nolarini anglatadi. Hozirgi Bibliya katolik nashrlarida 72 ta kitobdan, protestant nashrlarida esa 66 kitobdan iborat. Yaxudiylarning yana bir diniy manbasi Talmudning xabar berishicha Qadimiy axdda 24 ta kitob bo'lishi kerak. Qadimiy yaxudiy tarixchisi Iosif Flafiyning aytishicha 22 ta kitob bo'lishi kerak. Protestantlar va yaxudiylar, Trident Soboridan keyin (1545-1563) katoliklar ham qadimiy axd tarkibiga 45 ta kitob kirgizadilar. Bu son bilan yuqorida keltirilgan son o'rtasidagi tafovutni keyinchalik ba'zi kitoblar bir necha mustaqil kitoblarga bo'linib ketganligi bilan

izoxlash mumkin. Masalan, “Musoning besh kitobi” avval bir butun bo‘lib, keyinchalik beshta mustaqil kitobga ajratib yuborilgan, “kichik payg‘ambarlar kitobi” 12 kitobga ajratib yuborilgan.

Yaxudiyalar Qadimiy Axdni 3 qismga bo‘ladilar:

1. birinchisiga “Musoning besh kitobi” - “Tora” (“Tavrot”);
2. ikkinchisiga “Payg‘ambarlarning avvalgi va keyingi kitoblari (Netiim);
3. uchinchisiga qolgan kitoblar (Ketubim)

Xristianlar Qadimiy Axdni “Rivoyatlar kitoblari”, “Ta’limotlarga kitoblari”ga, “Payg‘ambar kitoblari”ga bo‘lishadi. Ular Yangi Axdning 27 kitobini ham shunday tasnif qiladilar. “Rivoyatlar kitoblari”ga “Injil” va “Xavoriylar faoliyati” kitoblari kiradi. “Ta’limotlar”ga “Xavoriylar maktublari” kiradi, “Payg‘ambarlar kitoblari”ga “Vaxy” kitobi kiradi.

Bibliyaning kitoblari boblarga, boblar esa suralarga bo‘linadi. Uning hozirgi qabul qilingan bo‘linishi Nenterberiya episkopi Stefan Langton (vafoti 1228 y.) tomonidan kiritilgan. U 1214 yili lotin tilidagi matnni boblarga bo‘lib chiqdi va bu narsa keyinchalik yaxudiy va yunon tillaridagi matnlarga ham joriy qilindi. Suralar avval Santes Panino (v. 1541 y.) keyinchalik 1555 yilda Robert Etenlar tomonidan raqamlandi.

**Tavrot.** Musoga tegishli bo‘lgan, besh kitob “Tavrot” deb ataladi va u quyidagi kitoblarga bo‘linadi: 1) “Borliq” yoki “Ibtido”; 2) “Chiqish”; 3) “Levit”; 4) “Sonlar”; 5) “Ikkinchi qonun”.

**Injil.** Injil - xushxabar ma’nosini anglatadi. Yangi axd tarkibiga kirgan Injil 4 ga bo‘linadi. 1) Matvey injili; 2) Marko injili; 3) Luka injili; 4) Ioann injili.

O‘tilgan mavzu bo‘yicha savollar

1. Xristianlik birinchi bo‘lib qaysi davrda va qayerda tarqaldi?
2. Xristianlikning asosiy aqidasi qanday?
3. Xristianlikning qanday asosiy oqimlarini bilasiz?
4. Xristianlikning muqaddas kitobi qaysi?
5. Iisus Xristos shaxsi haqida nimalar bilasiz?
6. Hozirgi paytda xristianlikning asosiy markazlari qayerda?

7. Xristianlikning qanday manbalarini bilasiz?
8. Bibliyaning tarkibiga qanday kitoblar kirgan?
9. Jumhuriyatimiz hududida xristianlikning qaysi oqimlari tarqalgan?

### **Mustaqil ish uchun mavzular**

1. Xristianlikning vujudga kelishi.
2. Iso Masix hayoti.
3. Bibliya - xristianlikning muqaddas kitobi.
4. Pavlusning xristianlikda tutgan o‘rni.
5. Xristianlikning ikki asosiy oqimga bo‘linishi.
6. Pravoslaviening asosiy ta’limoti.
7. Katolitsizmning tarqalishi.
8. Protestantlik oqimining vujudga kelishi.
9. Baptistlar, adventistlar, presviteriyanlar harakati.
10. O‘zbekistonda xristianlik.

### **Adabiyotlar:**

1. Мен А. История религии. М., 1994.
2. Мифы народов мира. В 2-х томах. М., 1973.
3. Радугин А.А. Введение в религиоведение: теория, история и современные религии. М-1996.
4. Кон-Щербок Д. Кон-Щербок Л. Иудаизм и христианство. Словар. М-1995.
5. Христианство. Энциклопедический словарь. В 3-х томах. М., 1993-1995.
6. Haydarova H.B. Dinshunoslik. “Durdona” nashriyoti, 2011 yil.

## **MAVZU: ISLOM DINI.**

### **Reja:**

1. Islom dinining paydo bo'lishidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy sharoitlar.
2. Payg'ambarlik va vahiylikning talqini.
3. Islom dinining muqaddas manbalari(Qur'oni Karim, Hadisi sharif)
4. Buyuk muhaddislar (Imom al-Buxoriy, at-Termiziy).

**Tayanch iboralar:** Islom dini, johiliya, vahiy, Makka, Madina, Qur'on, hadis, shariat, rukn,diniy marosimlar.

### **Islom dinining paydo bo'lishidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy sharoitlar.**

Islom dini yuzaga kelishi jihatidai jahon dinlari ichida uchinchi o'rinda turadi. Islom dini Yaqin va O'rta Sharq, Shimoliy Afrika, Janubi-sharqiy Osiyo, Kavkaz xalqlarining tarixida nihoyatda muhim o'rin tutadi va ayni vaqtda ham ularning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotiga katta ta'sir o'tkazib kelmoqda. Yeron, Pokiston, Afg'oniston, Saudiya Arabistoni, Liviya, Tunis, Sudan singari mamlakatlarda islom rasmiy davlat dini mavqeiga ega. MDH, davlatlari xududida Markaziy Osiyo, Shimoliy Kavkaz, Ozarbayjon, Tatariston va Boshqirdiston xalqlari o'zlarining islom dinida ekanliklarini e'tirof etishadi. Hozirgi kunda turli qit'alarda yashovchi bir milliarddan ziyod kishi irqi, millati, sinfi va tabaqaviy farqlaridan qat'i nazar, islom dini normalari va qadriyatlari atrofida birlashgan hamda jahon ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida salmoqli o'rinlardan birini egallaydi. XX asrda musulmonlar dunyo aholisining 15-16 foizini tashqil etgan bo'lsa, bugungi kunda bu ko'rsatkich Yyer yuzidagi har besh kishidan birini tashqil etmoqda. 2025 yilda esa, dunyo aholisini 30 foizini islomga e'tiqod qiluvchilar tashqil etishi mumkin. Eng katta musulmon jamoalari Indoneziyada (165 mln.), Pokiston (125 mln.), Bangladesh (120 mln.), Hindiston (93 mln.), Yeronda (63 mln.), Turkiya (61 mln.), arab mamlakatlaridan eng yirigi Misrda (48 mln.), Nigyeriyada (43 mln.) mavjuddir.

Islom milodiy VII asrning boshlarida Arabiston Yarimorolida paydo bo'lgan. Yarimorol aholisining asosiy qismini arablar tashqil etgan. Islom vujudga

kelishi arafasida arablar asosan chorvachilik bilan shug'ullanar edi. Arabistonning qulay geografik o'rni (hududidan g'arb va Sharq davlatlarini bog'lovchi karvon yo'llari o'tgan va uchta qit'ani tutashtirib turadi) sababli, savdo-sotiq va hunarmandchilik qadimdan rivojlangan. Iqtisodiy rivojlanish darajasi Yarimorolning hududlarida turlicha bo'lgan. Uning bepoyon cho'llarida yashagan ko'chmanchi arablar chorvachilik bilan shug'ullangan. Yarimorolning shimoliy qismida Vizantiya va Mesopotamiya kabi qadimgi madaniy markazlarning ta'siri kuchli edi. Karvon yo'li o'tgan janubi-g'arbiy qismi (Hijoz)da qadimdan savdo-sotiq, sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik va qisman hunarmandchilik rivojlangan. Milodiy I asrda Arabistonning janubi-g'arbiy qismida shahar-davlatlar vujudga kelgan. IV-VI asrlarda bu yyerda Makka, Yasrib, Toif singari yirik shaharlar mavjud edi. Ularda istiqomat qiluvchi arab zodagonlarining daromadini karvon yo'llaridan kelayotgan boj soliqlari va savdo-sotiq tushumlari tashqil etgan. Mintaqadagi iqtisodiy jonlanish natijasida ko'chmanchi chorvador qabilalarda urug'-qabilaviy munosabatlarning emirilishi va davlat uyushmalarining paydo bo'lish jarayoni kuchaygan. Islomgacha bo'lgan davrda Arablarda johiliya davri hukm surgan. «Johiliya» so'zi adabiy arab tilida «bilmaslik- nodonlik», ma'nolarini byeradi. Bu davrda axloqsizlik, nodonlik, sudxo'rlik, xotin-qizlarga past nazar bilan qarash holatlari kuchayib borgan edi. Arabiston yarim orolining Makka, Madina, Toif, Xaybar singari bir qancha eng muhim shaharlarini o'z ichiga olgan qismini qadimdan Hijoz deb atalgan. Bu yarim orolning katta qismida islom vujudga kelguniga qadar «ko'pxudolilik» e'tiqodi hukm surardi. Islomgacha Arabistonda turli xil dinlar mavjud edi. Semit qabilalari an'analariga ko'ra, quyosh, Oy, tabiatning bejilov kuchlari, turli xudolar va ruhlarga sig'inganlar. Har bir qabilaning o'z xudolari, totem yoki fetishlari mavjud bo'lgan. Ular gohida bir-biriga qarama-qarshi edi. Qabilaning diniy tasavvurlari faqat mazkur qabila a'zolarininggina birligini ta'minlagan, umumarab dini esa yo'q edi. -Allohning Rasuli dunyoga kelishi arafasida Arabiston yarim orolida tarqoq, qabila tuzumida istiqomat qiladigan xalqlar butparastlik va jaholat botqog'iga botib qolgandilar. Payg'ambar Ibrohim (a.s.) va uning o'g'li Ismoil (a.s.) tiklagan muqaddas Ka'ba



but va sanamlarga to'lib bo'lgandi. Qabilalar tinmay o'zaro janglar olib borar, ijtimoiy va mulkiy tengsizlik chidab bo'lmas darajada edi. Jaholat shu darajaga borgandiki, ayrim qabilalarda qiz farzand dunyoga kelsa, uni tiriklayin ko'mib yuborar edilar. Demak, Arabistondagi iqtisodiy inqiroz, tarqoq qabilalarni birlashtirishga intilish Yangi mafkuraga talabni kuchaytirgan va islom shunday mafkura sifatida vujudga kelgan. Qadimgi arablarning diniy tasavvurlari jumlasiga totemizm, fetishizm, animizm elementlari va o'tmish ajdodlar ruhiga sig'inishni kiritish mumkin. Totemizmning yaqqol dalili sifatida ko'pgina qabilalarning nomlarini keltirish kifoya: asad -arslon, kalb -it, bakr -bo'taloq, sa'lab -tulki, zi'b -bo'ri va h.k. Barcha somiy xalqlarga xos bo'lgan samoviy jismlarga sig'inish, ya'ni astral kultlar arablar orasida ham keng tarqalgan edi. Arabistonda har xil xudolarning timsoli - sanamlar kulti bir vaqtda paytda paydo bo'lgan emas, albatta. Ular uzoq vaqt shakllanganlar. Biroq, keyingi davr islom tarixchilarning xabar byerishlariga qaraganda, Arabistonga dastavval sanam keltirgan va unga ibodat qilishni targ'ib qilgan shaxs Amr ibn Luhay ismli kishi bo'lgan. Keyinchalik butlarga sig'inish arablar orasida keng tarqalib ketgan. Harqalay, but-sanamlarga sig'inish - dinning Yangi bosqichi bo'lgan. Ibn alKalbiyning (v. 763 y.) «Kitob al-asnom» asarida ta'kidlanishicha, mil. av. VIII asrdayoq har bir arab qabilasi o'z sanamiga ega edi. Tez-tez bo'lib turadigan qabilalararo urushlardan so'ng, odatda, mag'lub qabila g'olib qabila sanamiga sig'ina boshlardi. Ba'zida g'olib qabila mag'lub qabilaning sanamini ham o'z sanamlari safiga qabul qilishi mumkin edi. Arabistonning turli yyerlarida muayyan sanamlarning qarorgohi mavjud bo'lib, ular ziyoratgohlar sifatida ma'lum edi. Ulardan biri Makka Ka'basi edi. Makka eski Arabistonning diniy markaziga aylangach, u yyerdagi Ka'baga sanamlar to'plandi. Ibn al-Asirning (vafoti 1232 y.) uqtirishicha, Makka fath etilgan 630 yili Ka'ba ichida 360 ta sanam bo'lgan. Sanamlar uchun bu raqam juda katta ko'rinadi, ammo muayyan sanam bir necha qabilada ehtirom qilingan bo'lsa, u Ka'baga shuncha nusxada qo'yilgan bo'lishi mumkin. Islomdan oldin Arabistonda Yahudiy jamoalari mavjud bo'lgan. Arabiston Yahudiylari haqida, asosan, Qur'on, hadis, tafsir, sira (Payg'ambar hayoti va muqaddas urushlari haqida hikoya qiluvchi

adabiyot janri) va tarix kitoblari xabar beradi. Bu mavzuga aniqlik kiritadigan va hozirga qadar topilgan hujjatlarning eng qadimiysi - Yangi Bobil podshohi Nabonidga (mil. av. 555-539) tegishli xronikadir. Unda aytilishicha, mil. av. 552-542 yillarda Shimoliy Arabistondagi Tayma shahrini o'ziga poytaxt qilib olgan Nabonid bu yerdagi shaharlarni o'zlashtirish maqsadida Bobildan talaygina aholini ko'chirgan; ularning ko'pchiligini Yahudiylar tashqil qilgan. Ma'lumki, bundan oldinroq (mil. av. 586 y. ) Navuxodonosor II Quddusni zabt qilganida salkam 30 ming Yahudiyni asir olib, Bobilga keltirgan va «Bobil asirligi» 50 yil davom etgan edi. Shundan so'ng ham ba'zi Yahudiylar Falastinga qaytmay, Bobilda qolib ketgandilar. Arabiston yarim orolida Yahudiylik bilan bir qatorda xristianlik dini ham tarqaldi. Ijtimoiy ziddiyatlar va arab qabilalarining og'ir tanglikdan chiqish uchun markazlashgan mustaqil davlatga birlashishga harakatlar kuchaygan. Buning uchun tarqoq arab qabilalarini birlashtiruvchi mafkura zarur edi. Islom dini tarqoq qabilalarni birlashtiruvchi mafkura sifatida tarix sahnasiga chiqqan. VI asrda Janubiy Arabistonda haniflar (arabchada - chinakam e'tiqod qiluvchilar, taqvodorlar degan ma'nolarni anglatadi)<sup>21</sup>, ya'ni yakka xudolikka da'vat etuvchilar harakati keng yoyilgan. Ularni «haniflar» deb atalganligining sababi hozirgacha aniq emas. Ayrim manbalarda harakat ishtirokchilarining ko'pchiligi -banu hanifa urug'idan chiqqanligi bois shunday nom berilganligi qayd etiladi. Ular sanamlar, fetishlar va turli xudolarga sig'inishni qoralab, Yagona xudoga sig'inishga da'vat qilganlar.

### **Payg'ambarlik va vahiylikning talqini.**

Makka davri. Muhammad ibn Abdullox ibn Abdal-Muttalib Arabiston tarixida -fil voqeasi nomi bilan mashhur jangdan 50 kun keyin tavallud topdi. Misrlik munajjim Mahmud poshoning aniqlashicha payg'ambarning tavallud topishi milodiy sananing 571 yil 21 aprel kuniga to'g'ri keladi. Otasi Abdulloh Muhammad a.s. tug'ilmasidan oldin savdo ishi bilan Shomdan qaytayotib Yasrib(Madina)da vafot etdilar va o'sha yyerga dafn etildi.

5 yoshlarida onalari Omina vafot etdi. 8 yoshgacha buvalari Abdulmuttalib

---

<sup>21</sup> Dinshunoslik.Haydarova H.B.Durdona.Buxoro.-B.92.

qo'llarida qolib, buvalari vafot etgach amaqilari Abu Tolib Muhammad a.s.ni o'z qarmog'iga oldi.

Muhammad a.s. 25 yoshga to'lganlarida Asad jamoasidan bo'lgan boy ayol Xadicha bint Xuvaylid u kishidan o'zining savdo karvoni bilan birga Shomga safar qilishni so'radi. Bu savdodan katta foyda tushdi. Muhammadning to'g'ri so'zlilik, xalollik, sadoqatlilik kabi yuksak insoniy fazilatlarini ko'rgan Xadicha yoshlari ancha katta bo'lishiga qaramay, taomilga zid ravishda unga sovchi qo'ydi. Muhammad tomonidan amaqilari Abu Tolib, Xadicha tomonidan amakivachchasi Varaqa rozilik byerib, nikoh o'qildi.

Muhammad 40 yoshga etganida ko'proq tarkidunyochilikni qo'msaydigan bo'lib qoldi. Makkaning 3 mil yuqorisidagi Xiro tog'ida joylashgan g'orga ketar va Ramazon oyini u erda kechirib, ibodat qilardi. G'amlagan ozuqalari tugagach bibi Xadicha oldiga qaytar, bu erda bir oz qolib, yana o'sha g'orga ketar edi. U yyerda o'zlarini sukunatga byerib, chuqur o'yga tolar edilar. G'oyibdan quloqlariga -Sen Allohning elchisidan degan tovushlar tovushlar eshitilar edi. Tush - xayollari to'g'ri chiqayotgandek edi.

Milodning 610 yilida Ramazoni sharif oyida Payg'ambar a.s. odatga ko'ra, yana Xirodagi g'orga chiqdilar. Jamiyatda yuz byerayotgan nohaqliklar, insoniyat jabr tortayotgan zalolatdan qutulish - oliy haqiqatga erishish haqida fikr yuritar edilar. Xiro tog'ida avvalgi o'tgan payg'ambarlardan Ibrohim, Muso, Iso kabi - taxannus ibodati bilan mashg'ul bo'lardilar. Imom al-Buxoriy bu ibodatga shunday sharx byeradilar: Payg'ambarimizning qaysi shaklda ibodat qilganligi so'raladigan bo'lsa, buning tafakkur va ibratdan iborat bo'lganligini aytamiz.

Payg'ambarlikning boshlanishi tushda ayon bo'la boshladi. Tushda ko'rilgan har bir narsa oydin bir subh kabi o'ngda yuz byerardi. Kunlarning birida Xiro tog'idagi g'orda vahiy keltirgan malak Jabroil a.s. Payg'ambarga ko'rindi va: O'qi, - dedi.

Payg'ambar:

Men o'qishni bilmayman, - dedilar.

Malak yana amrini takrorladi. Payg'ambar yana:

Men o'qishni bilmayman, - javobini byerdilar. So'ngra malak uni boshdan oyoqqa qadar kuchlari qolmaguncha siqdi.

Shunda Payg'ambar:

Nimani o'qishim kerak? - deb so'radi.

U zamon farishta ilohiy oyatlarni o'qiy boshladi:

-Yaratgan rabbing nomi bilan o'qi! U insonni laxta qondan yaratdi. O'qi! Karami keng bo'lgan Rabbing xaqqi uchunki, U qalam bilan ta'lim byerdi, insonga bilmaganlarini o'rgatdi.

Alaq surasining boshidagi bu oyatlar ilk kelgan vaxydir. Payg'ambar a.s. bu oyatlarni qalbga joylab, farishtaning ketidan qaytardilar. Shundan so'ng bo'lib o'tgan voqeadan nixoyatda xayrat va qo'rquvga tushganlaridan darhol bibi Xadichaning xuzurlariga qaytdilar va -Meni o'rab qo'ying, o'rab qo'ying, dedilar. Shundan so'ng uzoq uyquga ketdilar. Uyg'ongach bo'lgan voqeani ayollariga so'zlab byerdilar. Xadicha buni yaxshilikka yoyib, Varaqa ibn Navfal nomli avvalgi samoviy kitoblardan boxabar bo'lgan qarindoshlarining xuzuriga borib bu voqeaning tafsilotini so'radilar. Varaqa bu ko'ringan farishta Muso va Iso payg'ambarlarga vaxyni olib tushgan - Jabroil ekanligini aytdi. U yana kelajakda Muhammad a.s. o'z ummatiga payg'ambar bo'lishi, bu yo'lda ko'p aziyat chekishi, o'z yurtidan chiqarilishi haqidagi xabarlarni bildirdi.

Rasululoh yashirin da'vatga o'tdilar. Birinchi bo'lib Xadicha bint Xuvaylid va amakivachchalari Ali ibn Abi Tolib iymon keltirishdi. Keyin Zayd ibn Xorisa, Abu Bakr iymon keltirishdi. Birinchilardan bo'lib iymon keltirganlarni ko'radigan bo'lsak, ular ayollardan - Xadicha, erkaklardan - Abu Bakr, go'daklardan - Ali ibn Abi Tolib, qullardan - Zayd ibn Xorisa bo'ldilar. Ular jamiyatning turli tabaqalaridan bolib, bu narsa islom hamma uchun ham munosib din ekanini ko'rsatardi. Vaqt o'tishi bilan jami musulmonlar 30 kishiga etdi. Ular qurayshiylarning yangi dinga qarshi ekanliklarini bilganliklari uchun o'z dinlarini yashirin saqladilar.

Ilk musulmon bo'lganlarning ichidan hech kimi va orqasida quvvatli suyanchig'i bo'lmaganlar mushriklarning ta'qibiga uchradilar. Mushriklar Usmon

ibn Affon kabi musulmonlarga qo'llaridan kelgan azoblarni byerishdan chekinmayotgan edilar. Payg'ambarga eng ko'p dushmanlik qilganlar quyidagilar edilar: Abu Laxab, Abu Jaxl, Valid ibn Mug'ira, Abu Sufyon, Umayya ibn Xalaf, Os ibn Voil.

Quraysh ulug'lari Payg'ambarning Alloh elchisi bo'lganligini tan olgan edilar.

Musulmon bo'lmagan makkaliklar ham Muhammadning yuksak axloq egasi ekanini tan olar edilar. Musulmonlar safi kengayib Payg'ambar amaqilari - jasur Hamza undan so'ng Umar ibn al-Hattobning imon keltirishlaridan mushriklar sarosimaga tushib qoldilar. Ular musulmonlarga ozor byerishni yanada kuchaytirib yubordilar. Bu aziyatlardan holi bo'lishlari uchun Payg'ambar musulmonlarga Xabashistonga xijrat qilishni buyurdilar.

Habashistonga ketishni istagan 11 erkak va 4 ayoldan iborat bo'lgan birinchi guruh Makkadan yashirin ravishda chiqib, Qizil dengiz bo'ylab ketdi. Ularning ichida Usmon ibn Affon va xotini Ruqiya (Payg'ambarning qizi), Abu Xuzayfa va xotini, Zubayr ibn Avvom, Abdurrahmon ibn Avf, Abdullox ibn Mas'ud bor edilar. Guruh boshlig'i Usmon ibn Maz'un edi. 15 kishi bir guruh holida vaxiyning 5-yili Xabashistonga ketdilar. Ularni Xabashistonda juda yaxshi kutib oldilar. U erda yaxshi sokin hayot kechira boshladilar. Ularning bunday osoyishta hayot kechir ayotganliklarini eshitgan boshqa musulmonlar ham bir yildan so'ng ikkinchi bir guruh holida u erga xijrat etdilar. Bu guruhning boshida Ja'far ibn Abi Tolib bo'lib (Alining akasi), ular 80 kishi edilar.

Habashiston xalqi va uning podshoxi Najoshiy musulmonlar juda yaxshi munosabatda bo'ldilar.

Makkaliklar Abdumanof urug'ini Abu Tolib darasiga qamal qildilar. Shundan so'ng ikki marta Habashistonga xijrat qilindi.

Qamaldan so'ng Xadicha vafot etdi. Payg'ambar Toifga xijrat qildilar.

Makkada -Isro va Me'roj voqeasi yuz byerdi. Dushmanlar Rasulullohni o'ldirishga qaror qilishdi.

Madina davri. Madinaliklar Makkaga Payg'ambarxuzurlariga kelib islomni

qabul qildilar. Ular bilan makkalik musulmonlar o'rtasida do'stlik aloqalari o'rnatildi. Makka mushriklarining musulmonlar ustidan tazyiqlari kuchaygach, Payg'ambarularga Yasrib(Madina)ga xijrat qilishni buyurdilar. Ular ketidan o'zlari ham jo'nadilar.

Madinalik -ansor(-yordamchi)lar makkalik muxojirlarni juda samimiy kutib oldilar. Muhammad a.s.ning xijratlari rabi al-avval 8-kuni milodiy 622 yil 20 sentyabrda bo'ldi. Birinchi musulmonlar masjidi qurildi. Azonga asos solindi. Avs va Xazraj arab qabilalari va Banu Qurayza, Banu Nadir qabilalari bilan o'zaro sulh tuzildi. Har tomondan musulmonlarga qarshi xujumlar uyushtirildi. Musulmonlar ularni muvaffaqiyat bilan qaytardilar. -Badr g'azoti bo'ldi.

Madina davrida Muhammad Payg'ambar etakchiligidagi islom jamoasi yaqin davlatlar orasida tuzilajak kuchli bir davlatning vazifalarini bajarib, turli arab qabilalarining va bir-biriga qaram bo'lgan qabilalar ittifoqlarining o'zaro dushmanligini yo'qotishga ular o'rtasida yaqin va uzoq muddatli sulx shartnomalarini tuzishga kirishgan edi.

Hijratning 6 - yilida Makka qurayshiylari bilan tuzilgan Hudaybiya shartnomasi eng muhim tarixiy xujjatlardan biridir.

Oradagi keskin vaziyatni yumshatish uchun Payg'ambar Hudaybiya degan joyda Makka raislari bilan o'n yillik sulx shartnomasini tuzishni taklif etdilar. Hudaybiya shartnomasi musulmonlar uchun murakkab vaziyatda tuzildi.

Musulmonlar davlatining ilk tarixiy xujjatlaridan bo'lgan

Shartnomaga musulmonlar jamoasi tarafidan Muhammad payg'ambardan so'ng Abu Bakr Siddiq, Umar ibn al-Xattob, Abdurahmon ibn Avf, Abdulloh ibn Suxayl (quraysh vaqilining o'g'li), Sa'd ibn Abi-l-Vaqqos, Muhammad ibn Maslama imzo chekdilar. Qurayshilar tarafidan Suxayl ibn Amr, Miqroz ibn Xafs, Xuvaylid ibn Abdul Uzza imzo chekdilar.

Hijratning 8-yili Makka fath etildi. Makka fathidan so'ng islom xukumati Arabiston yarim orolida to'la g'alabaga erishdi. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, Makkaning olinishi musulmonlar uchun g'oyat katta ahamiyatga ega bo'ldi, chunki shundan so'ng Madinadagi musulmonlar jamoasi Arabiston muhitida yagona

davlat va siyosiy kuchga aylandi.

632 yili Payg'ambar hajga borishga qaror qildi. Bu uning oxirgi haji bo'lganligi tufayli islom tarixida -Hajjatul vado (xayrlashuv haji) deb nomlandi. Bu safarga to'qson ming musulmon otlandi. Zulxijja oyining to'qqizinchi kuni Arafot tog'ida Payg'ambar (s.a.v.) islom dinining asosiy shartlarini bayon etgan, Vidolashuv xutbasini o'qidilar. Shundan so'ng, deyarli barcha arab qabilalari islomni tan olib Payg'ambar (s.a.v.)ga elchi va maktublar yo'llay boshladilar.

Hajdan Madinaga qaytgan Payg'ambar bir oz muddatdan so'ng kasallikka chalindilar. Zotan -Moida surasining 3-oyati nozil bo'lgan vaqtda saxobalarning ba'zilar Payg'ambar hayotining oxirlashib qolganligini sezgan edilar.

Xijratning o'n birinchi yilida Payg'ambar a.s. vafot etdilar. Payg'ambarning vafot etgan kuni haqida tarixchilar orasida turli xil fikr-muloxazalar mavjud. Tarixchilar V.V.Bartold, Muhammad Xuzariy Sayid Amir Ali, marhum professor Mutalib Usmonov, Doktor Abdulmun'im Majid Muhammad Payg'ambarning vafot etgan kunini 632 yilning 8 iyun deb byeradilar. Tarixchi Muhammad Rizo payg'ambari 632 yil 9 iyunda (11 hijriy yil, 12 rabiul avval) vafot etgan deb hisoblaydi.

Islom so'zining arab tilidagi lug'aviy ma'nosi - taslim bo'lish, bo'ysunish, istilohda esa yagona Allohga bo'ysunish ma'nolarini byeradi. Islom dini ta'limoti bo'yicha Muhammad payg'ambar (a.s.) avvalgi payg'ambarlar ishini davom ettirgan, ular dinini qayta tiklagan, qiyomat oldidan yuborilgan oxirgi payg'ambar (Xotam al-anbiyo) - nabiy va rasul deb tan olinadilar.

Imon, namoz, zakot, ro'za, haj islomning besh asosiy sharti - rukni hisoblanadi.

-Imon so'zining lug'aviy ma'nosi ishonmoq, tasdiqlamoq bo'lib, istilohda esa -La ilaha illallohu Muhammadun rasululloh (-Allohdan o'zga iloh yo'q va Muhammad Allohning payg'ambari) kalimasini til bilan aytib, dil bilan tasdiqlash demakdir. Hadislarda imonning etti sharti borligi ta'kidlanadi. Ular:

- Allohning borligi va birligiga, Qur'on va hadislarda bayon qilingan barcha ismlari va sifatlariga imon keltirish, uning barcha buyruqlarini qabul qilish va

barcha qaytargan narsalaridan qaytish.

- farishtalarning borligiga imon keltirish. Farishtalar (maloika) Allohning nurdan yaratgan, uning buyruqlarini so'zsiz bajaruvchi, uning amridan tashqari chiqmaydigan xos bandalaridir. Ulardan Jabroil, Mikoil kabi buyuk farishtalarning nomlari Qur'onda zikr etilgan;

- ilohiy kitoblarga imon keltirish. Alloh Muhammad payg'ambarga (a.s.) Qur'onni nozil qilganidek, boshqa payg'ambarlarga ham kitoblar tushirgan. Ulardan bizga ma'lum bo'lganlari: Ibrohim payg'ambarga -Sahifalar, Muso payg'ambarga -Tavrot, Dovud payg'ambarga -Zabur va Iso payg'ambarga berilgan -Injil kitoblaridir. Islom ta'limotiga ko'ra, oldingi ilohiy kitoblar buzilib ketganligi sababli Qur'on ularning ta'limotini tiklab kelgan;

- payg'ambarlarning haqligiga imon keltirish. Alloh insonlarga to'g'ri yo'lni ko'rsatish uchun payg'ambarlar yuborgan. Barcha payg'ambarlar bir zanjirning bo'g'inlari kabidirlar. Qur'onda 25 payg'ambarning nomlari zikr etilgan. Hadislarda payg'ambarlarning umumiy soni 124 ming ekani bayon qilingan;

- oxirat kuniga ishonish. Islom ta'limotiga ko'ra, bu dunyo bir sinov maydonidir. Bu dunyoda qilingan savob ishlar uchun mukofot, gunoh ishlar uchun jazo beriladigan oxirat hayoti mavjud;

- taqdirga - inson boshiga tushgan yaxshiligu yomonlik Allohdan ekaniga e'tiqod qilish;

- o'limdan keyin qayta tirilishga ishonish. Islom ta'limotiga ko'ra, qiyomat kuni bo'lganda barcha insonlar qabrdan turadilar va mahshargoh maydoniga yig'iladilar. U yyerda barcha odamlar dunyodagi amallariga qarab mukofot (jannat) yoki jazo (do'zax)ga mahkum etiladilar.

**Qur'on - islom dinning muqaddas kitobi. Hadislar qur'ondan keyingi mo'tabar manba.**

Qur'oni Karim Alloh taolo tarafidan 23 yil mobaynida Muhammad payg'ambarlarga oyat -sura tarzida nozil qilingan ilohiy kitobdir.

Qur'on - arabcha so'zdan olingan bo'lib, «o'qimok» - «qiroat» degan ma'nolarni bildiradi.



Qur'on «Kalomulloh (Allohning kalomi so'zi) «Furqon» (hak bilan botilni ayiruvchi) «Zikr» (eslatma), Tanzil (nozil qilingan kabi nomlar bilan atalib, «Nur» (Yorug'lik) «Xudo» (Xidoyat), Muborak (Barakatli), «Mubin» (ochiq ravshan) «Bushro» (Xushxabar), Aziz (e'zozlanuvchi) «Majid» (Ulug') «Bashir» (Bashorat byeruvchi Nazir (ogohlantiruvchi) kabi so'zlar bilan sifatlangan.

Qur'on Alloh taollo tomonidan o'z payg'ambari Muhammad alayhissalomga tushirilgan vahiydir, ya'ni Ollohning o'z payg'ambariga yuborgan ko'rsatmalaridir.

1. Muhammad Payg'ambarga birinchi vahiy tush orqali namoyon bo'lgan.

2. Farishtalar ko'rinmay turib, Payg'ambarqalbiga kerakli narsalarni etkazgan.

3. Vahiy ovozdek jaranglab quloqlariga chalingan

4. Jabroil farishta Payg'ambarimizga odam shaklida ko'ringanlar

5. Farishta o'zining asl qiyofasida ko'ringan va vahiy etkazgan

b. Allohning o'zi Payg'ambar al Me'roj kechasida namozni farz qilish va shunga o'xshash ba'zi narsalarni vahiy qilgan.

Dastlabki vahiy Muhammad Xiro Rorida yolg'iz ibodat qilayotganda yuborilgan.

Goho bir oyat, ayrim hollarda 10 ta ortik oyat ketma - ket vahiy orqali nozil qilingan. Qur'on 114 ta sura 6632 oyatdan iborat.

Yaratilgan vaqti va joyiga ko'ra suralar ikkiga bo'lingan.

Makka suralariga (610 - 622 yillar 90 ta sura)

Islomshunoslik va Qur'onshunoslik xulosalari asosida suralarning xronologik tartibini kuyidagicha tasavvur qilish mumkin.

Makka davri

1. Makka davri (610 - 615 yillar). Bu davrda yuksak adabiy ijod namunalari bo'lgan saj' janridagi suralar o'qilgan Evropa olimlari ularga «Nazmiy suralar» deb nom byerganlar.

2. Makka davri (616 - 619 yillar). Muhammad (s.a.v.) va ularning izdoshlari

doimiy ta'kib ostida yashagan va ko'pchilik Habashistonga ko'chib ketgan muxitda o'qilgan. Bu suralarda Ollohning «Rahmon» sifatida ko'p tilga olinganligi sababli Evropa olimlari ularni «Rahmon suralari» deb ataganlar.

3.Makka davri (610 yil boshlaridan 622 yil sentyabrigacha). Bu davrda ham Muhammad (s.a.v.) va uning izdoshlari ta'kib ostida yashaganlar, maxfiy ravishda, ko'pincha shahardan tashqarida ibodatga to'planganlar. Bu davr suralarida islomning akoid ta'limotiga keng o'rin berilganligi sababli, Evropalik olimlar bularga «Payg'ambarlik suralari» deb nom byerganlar.

Madina davri(622-632yili)

Tarixiy voqealar aniqrok ko'zda tutilgan holda Madinada tushirilgan 24 ta suraning nozil bo'lish davrini besh boskichga ajratish ma'qulroqdir:

I davr (622 yil martidan 625 yil oktyabrdan) Muhammad (s.a.v.) Madinaga ko'chib kelganidan Makkaliklar bilan birinchi yirik tuknashuv - Badr jangigacha o'qilgan 4 sura bu davrga kiradi.

II davr (624 yilmartidan 625 yil martigacha). Badr jangidan keyin Uhud jangigacha o'tgan bir yil ichida o'qilgan 3 surani o'z ichiga oladi.

III davr (625 yil martidan 627 yil martigacha). Uhud jangidagi mag'lubiyatidan keyin Xandak jangigacha otgan ikki yil ichida 5 ta sura o'qilgan.

IV davr (627 yil apreldan 630 yil yanvargacha). Xandak jangidan so'ng Makkaning olinishigacha o'tgan salkam uch yil ichida o'qilgan 8 sura shu davrga kiradi.

V davr (630 yil fevralidan 632 yil mayigacha). Makka olinganidan keyin keyin Muhammad (s.a.v.) Payg'ambarning vafotigacha o'tgan ikki yildan ortiqroq davr ichida o'qilgan 4 ta sura shu davrga kiradi<sup>22</sup>.

Muhammad hayotlik chog'larida yana vahiy kelib qolar degan umidda Qur'oni jamlanib kitob holiga keltirilmagan edi.

Muhammad alayhissalom Qur'on oyatlarini farishtalardan eshitib, yodlab olar edilar. Keyin boshqa musulmonlar u kishidan eshitib yodlab olar edilar.

Payg'ambar vafotidan so'ng musulmonlarga Abu Bakr boshliq etib saylandi.

---

<sup>22</sup> Dinshunoslik.Haydarova H.B.Durdona.Buxoro.-B.102.

Uning davrida mo'minlar va mushriklar o'rtasida keskin janglar bo'lib utadi. Bu janglarda Qur'onni yod bilgan ko'plab qorilar shahid bo'ladi. Shunda Umar Ibn al Xattob Abu Bakrga uni jamlab kitob holiga keltirishni aytadi. Abu Bakr bu ishni Zayd Ibn-Sobitga topshiradi. Chunki Zayd ibn Sobit Muhammad Payg'ambar bilan doimo birga bo'lib Qur'on suralarni yodlagan, U barcha manbaalardan yig'ilgan suralarning to'plamini tuzdi. Suralarni to'plam «Suhuf» (Sahifalar) deb aytili.

Bu nusxa Abu Bakr vafotigacha unga saqlangan biroq xalifa Usmon davrida Qur'onning yangi nusxasini tuzib chikish zaruriyati paydo bo'lgan. Chunki bu davrda arab xalifaligi juda keng mintaqalarni egallagan edi. Impyeriya kengaygan sari odamlar orasida aloqa vositalari zaifligi uchun sahobalar tomonidan targ'ibot ishlarini olib borish qiyinlashdi. Natijada Qur'oni Karim oyatlari turli joylarda turlicha o'qila boshladi. Bu ixtilof o'z navbatida islom jamiyati bo'linib ketishiga olib kelishi mumkin edi. Buni ziyraklik bilan hisobga olgan xalifa Usmon ibn Affon Qur'oni Karimning kitob holidagi nusxasini yaratishda amr etdi.

Bu ish yana Zayd ibn Sobitga topshirildi. Usmon davrida Qur'onning yangi nusxasi yaratildi. Qur'onning yangi nusxasi 651 yilda taqdim etildi. Yangi nusxa «Mushaf» deb ataldi. Ko'pincha «Usmon to'plami» deb ataladi.

Usmon Qur'oni kiyik terisida bitildi yangi to'plamning asl nusxasi Madinada qoldirilib 3 nusxa ko'chirildi. Kufa, Basra, Damashkda yuborilgan. Usmon to'plami katta Jom'e masjidlarida saqlanardi. Hatto biror shakl qo'shish, biror qog'ozdan yoki bargdan xat cho'p solish ham mumkin emas edi. Bu hol 50 yil davom etdi. Ko'chirilgan nusxalar «Mushafi» Usmon deb ataldi.

Qur'on nusxasi Markaziy Osiyoda qanday olib kelinganligi haqida turli fikrlar mavjud.

Usmon Qur'oni ruslar O'rta Osiyoni bosib olguncha Samarqandda, Xo'ja Ahror madrasasida saqlanar edi. Bu haqda turli rivoyatlar mavjud. Ulardan biri muqaddas kitobni Abu Bakr al -Raffal -ash -Shomiy Bog'doddan olib kelgan deb hikoya qilinadi.

Ayrim manbalarda misr podshosi Baybars mo'g'ullardan birinchi bo'lib islomni qabul qilgan, keyinchalik do'stona aloqa o'rnatgan Samarqand hukmdori

Barokotxonga sovg'a sifatida yuborilgan deyiladi.

Boshqa manbaalarda Qur'on sohibkiron Amir Temir (1370-1405) tomonidan Basradan ko'plab qo'lyozma kitoblar va boshqa o'ljalari bilan birga Samarqandga keltirilgan va Temurning mashhur kutubxonasiga qo'ydirilgan.

Sankt - Petyerburglik sharhshunos olimi A.V.Shebunin fikricha, Basradan Samarqandga keltirilgan fikr hakikatga yaqin. Bu kitob 400 yil davomida Samarqandda saqlangan. 1868 ruslar Samarqandga bostirib kirishi bilan moddiy

boyliklar talon - taroj qilinadi. Jumladan bu muqaddas kitob Petyerburgda alohida soqchilar bilan 1869 yilda yuborildi.

1869 yillarda Petyerburgda -Impyerator kutubxonasiga saqlangan. 1923 yilda musulmonlarning talabi bilan Qur'oni Karim O'rta Osiyoga qaytarildi.

1923 yil 18 avgustda Sirdaryo diniy idorasiga qarashli Xo'ja Ahror masjidiga topshiriladi.

1926 yil eski shahar muzeyiga keltiriladi. Qur'onida Sharqning juda ko'p olimlari tomonidan sharhlar yozilgan. Qur'on XII asrda Evropa lotin tiliga tarjima qilindi. XVIII asrda Evropa xalqlari tillaridan, XIX asrda arabcha asl nusxasidan rus tilida tarjima qilindi.

Olim G.Sablukovning arabchadan dastlabki tarjimasi Qozonda 3 marta nashr qilingan. Akademik Krachovskiyning ilmiy izohlari bilan rus tilidagi tarjimasi mashhurdir. Bu tarjimalar 1986 yilda nashr etildi.

O'zbekistan mustaqillikka erishgandan keyin Qur'onni o'zbek tiliga tarjima qilishga kirishildi.

1992 yil avgustda Qur'oni Karim ma'nolarining birinchi o'zbek tilidagi tarjimasi Alouddin Mansur tomonidan tayyorlandi va «Cho'lpon» nashriyotida 100 ming nusxada chop etildi. 2001 yil 2 mayda «Qur'oni Karim» ma'nolarining tarjimasi Abdulaziz Mansur tomonidan tayyorlandi.

Qur'oni karim - to'g'ri yo'lni ko'rsatuvchi, musulmonlar uchun qonunnoma, xalq uchun o'git nasihat, hamma narsaning izohi, chin so'z deb atalgan. Qur'oni karimning axlokiy masalalarga doir ba'zi sura va oyatlardan namunalar keltiramiz. Qur'oni karimda axloq odob bobida quyidagi oyatlar keltirilgan

«Haqni nohaq bilan qorishtirmangiz, bila turib, haqiqatni yashirmangiz».  
(Bakara surasi, 42 oyat)

«Imon keltirib solih amallarni qilganlar esa aynan aqllidir va ular u erda abadiy qoluvchilardir» (Bakara surasi 82 oyat)

«Imon keltirib, solih amallarni qilganlarga esa (Alloh) mukofotini mukammal byerur. Alloh zolimlarni yoqtirmas». (Oli imron surasi 57 oyat)

«Qachon sizlarga salomlashish uchun salom byersa, sizlar undan chiroyliroq qilib alik olingiz yoki o'sha iborani qaytaringiz, albatta Alloh har bir narsani hisobga oluvchi zotdir». (Niso surasi 86 oyat)

«Ey odam avlodi! Har bir mavjud (namoz) odildan ziynatlaringiz (pok kiyimlaringizni kiyib olingiz.) shuningdek eb - ichingiz, lekin isrof qilmangiz, Zero u isrof qiluvchilarni sevmagay». (A'rof surasi 3 oyat).

«Illox, sabrli bo'lgan va ezgu ishlarni qilganlarga, aynan o'shalarga ma'rifat va katta mukofot bordir». (Xud surasi 11 oyat)

«Ey qavmim»! O'lchov va vaznni adolat bilan to'la byeringiz. Odamlarning narsalarini urib qolmangiz va erda fasot bilan buzg'unchilik qilmangiz (Xud surasi 85 oyat)

«Yer yuzida kibrlanib yurma. Chunki sen oyoqlaring bilan zinxor erni tesha olmaysan va uzunlikda tog'larga eta olmaysan». (Isro surasi 37 oyat)

«Odamlarga kibrlanib yuzingni burishtirmagin va erga kyerilib yurmagin chunki Allox barcha kibrlil maqtanchoq kimsalarni suymas». (Luqmon surasi 14 oyat).

Qur'oni karimda xayr -ehson qilish isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik alohida ta'kidlab o'tiladi. Jumladan:

«Qarindoshga, miskin va yo'lovchiga xayr ehson qilish bilan haklarini ado eting va isrofgarchilikka mutlaqo yo'l qo'ymang, chunki isrofgarchilik shaytonning birodarlaridir». (Isro surasi 26 oyat).

«Baxllik qilib qo'lingizni, bo'yninggizga boplab ham olmang isrofgarchilik qilish bilan uni butunlay yoyib ham yubormang aks holda malomatda mahrumlikka o'tirib qolursiz» (Isro surasi 29 oyat)

Qur'oni karimda ota -onani rozi qilishlik alohida ta'kidlanadi.

Ko'krakdan ajratish muddati ikki yilda bitar. (Biz insonga buyurdikki,) «sen, menga va ota -onangga shukr qilgin. Qaytishlik mening huzurimgadir». (Luqmon surasi 14 oyat).

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan Qur'on oyatlari insonlarni ezgu amallarni bajarish, haqqoniy odil bo'lishga, ota -onani hurmat qilishga va er yuzida tinchlik osudalik bo'lishiga undaydi. Xulosa qilib aytsak, Qur'oni Karim Islom diniga e'tiqod qiluvchi xalqlar hayoti va tarixida asosiy o'rin egallaydi.

### **Hadisi Sharif – Qur'ondan keyingi ikkinchi manbadir.**

Hadis - arabchadan olingan bo'lib, hikoya, xabar) Muhammad alayhissalomning aytgan so'zlari qilgan ishlari ko'rsatmalari to'g'risidagi rivoyatlardir. Qur'ondek muqaddas kalom turganda hadis yaratilishining sabablari nima edi?

Xalifalik kengayib borgan sari jamiyatda siyosiy, ijodiy, madaniy hayotda ziddiyatlar kuchaydi. Qur'on mukammal manba bo'lmasin u baribir musulmon hayotining barcha huquqiy axloqiy masalalariga javob byera olmasdi.

Natijada saxobalar tomonidan yod olingan Muhammadning so'zlari imollari kog'ozga tushirila boshlandi. Qur'onda barcha huquqiy va axloqiy masalalarga aniqlik kiritish uchun Muhammad alayhissalom o'z hadislarini aytganlar. Saxobalar uni yod olganlar.

VII -VIII asrlardan boshlab hadis yoza boshlandi. Muhaddislar hadis yozish bilan shug'ullangan. Hadis 2 turga bo'linadi.

1. Hadisi qudsiy (ma'no Allohdan so'z payg'ambardan)

2. Hadisi nabaviy (ma'no ham, so'z ham, payg'ambardan) Bu xayrli ishga birinchilardan bo'lib ummaviylarning sakkizinchi xalifasi Umar -Ibn Marvon qo'l urdi. Muhammad Payg'ambarvafotidan 80 yil o'tgach to'plana boshlandi. Lekin hadis to'plaganlari tartibga solinmagan edi. Islom dini VIII asrda Markaziy Osiyoda kirgandan keyin Buxoro Samarkand, Shosh, Marv Xorazm, Nasaf shaharlarida Qur'oni Karim va Payg'ambar hadislarini o'qitilib, targ'ib qilindi. Bu sohada yurtdoshlarimizdan:

- 1)Haysam Ibn Shoshiy
- 2)Ibrohim ibn Nasafiy
- 3) Hafiz al Xorazmiy
- 4)Abu Muhammad al -Dorimiy
- 5) As – Samarkandiy faoliyat ko'rsatdilar.

Hijriy uchinchi (milodiy) to'qqizinchi asr hadis ilmi taraqqiyotida alohida o'rin egalladi.

Aynan shu davrda faqat sahihlari ajratilib, mustaqil asarlar yaratilgan. Xuroson va Movarunnahr zaminidan etishib chiqqan

- 1)Abu Abdullox Muhammad ibn Ismoil - al Buxoriy (810 - 870)
- 2)Muslim -ibn al Xajjoj an - Naysorubiy (819 - 874)
- 3)Dovud Sulaymon Ibn -al - At'as -as Sijistoniy (817-880)
- 4)Iso-at-Termiziy (824-892)
- 5)Ahmad ibn Nasoiy (830-915)
- 6)Abdulloh ibn Moja (822-886) Olti sahih to'plamini yaratdilar.

Ular orasida buyuk alloma imom al -Buxoriy hazratlari alohida ajralib turadi.

Islom olamida eng obro'li hadis to'plamlari

- 1.Al – Jomi' -as -sahih (Sahihi Buxoriy)
- 2.Sahihi Muslim
- Z.Sunati Termiziy
- 4.Sunati Abu Dovud

### **Imom al-Buxoriy<sup>23</sup>-Sharqning buyuk muhaddisi**

Imom al -Buxoriy 810 yilning 20 iyulida Buxoro shahrida dunyoga kelgan. Otasi shayx Ismoil ibn Ibrohim o'z davrining ilmli odamlaridan edi. Birok, unga o'g'lining qanday inson bo'lib etishishini ko'rish nasib etmaydi. Imom al -Buxoriy go'dakligidayok otadan etish kolib, onasi kulida katta bo'ladi. Aql - idrokli, o'tkir zehqli bo'lgan Imom al -Buxoriy 10 yoshidanok arab tili va hadis kitoblarini astoydil o'qishva ularni yodlashga qunt bilan kirishadi.

<sup>23</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Imom\\_al-Buxoriy](https://uz.wikipedia.org/wiki/Imom_al-Buxoriy)

825 yilda Imom al -Buxoriy onasi va akasi bilan haj safariga yo'l oladi. Hajjdan keyin onasi va akasi qaytib ketgach, 6 yil Hijozda yashab hadis ilmidan astoydil saboq oladi. Shundan so'ng uz bilimni yana oshirish maksadida usha paytda ilm - fanning yirik markazlaridan hisoblangan Damashq, Qohira, Basra, Kufa, Bag'dod kabi shaharlarda yashab mashxur olimlardan hadis, fikh ilmidan tahsil ko'radi. Ilmiy bahslar va munozaralarda qatnashadi, toliblarga dars byeradi.

863 - 868 yillarda Nishopurda yashab, madrasada hadis ilmidan dars byeradi. O'sha paytda Nishopur musulmon Sharqidagi eng yirik ilmiy markazlardan biri bo'lib, bu erda mashxur olimlar to'plangan edi. Al - Buxoriyning at -Termiziy bilan uchrashuvi ham Nishopurda yuz byerib, ikki mashhur muxaddis o'rtasida qizg'in ilmiy bahslar, ko'pdan -ko'p ijodiy va do'stona muloqotlar bo'lib o'tadi. At -Termiziy ning yozishicha, u o'z asarlari uchun ko'plab ma'lumotlarni al -Buxoriy bilan o'tkazgan maroqli suhbatlardan olgan. O'z navbatida al -Buxoriy ham shogirdi va safdoshi at - Termiziy salohiyatini yuqori baholab: «Sen mendan baxra topganingdan ko'ra, men sendan ko'prok bahra topdim», - deydi. Bu so'zlar al - Buxoriyning at -Termiziy ga bo'lgan cheksiz hurmatining belgisi edi.

Imom al -Buxoriy zehni o'tkirligi va yodlash qobiliyatining kuchliligi bilan g'oyatda keng shuxrat qozongan inson edi. Manbalarda al -Buxoriyning 300 mingga yaqin hadisni yod bilgani qayd qilingan.

Imom al Buxoriy xoriydan qaytgach o'z vatani Buxoroda ham ko'plab shogirdlar va ulamolarga xadis ilmidan saboq byerdi. Birok, Buxoriy bilan Buxoro amiri o'rtasida kelib chiqqan ixtilof tufayli uning o'z vatanidagi hayoti og'ir kechdi. Buxoro amiri Xolid ibn Axmad az -Zuxaliy al -Buxoriy xuzuriga odam yuborib «At -Tyerix al -kabir» (katta tarix) kitoblarini saroyga kelib bolalariga o'qib byerib turishni tayinlaydi. Lekin, al - Buxoriy -men ilmni xor qilib, uni xokimlar eshigiga olib bormayman deydi. Natijada al -Buxoriyni ko'rolmagan ba'zi hasadguy, fitnachi, bo'htonkor kimsalarning gapiga kirgan Buxoro amiri unga Buxoroni tark etishni amr etadi. Imom al -Buxoriy Samarkandga ko'chishiga majbur bo'lib va Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog'ida yashaydi. Bu orada kasalga chalingan al - Buxoriy 870 yili 62 yoshda vafot etadi va shu erda dafn



qilinadi. Hozir uning qabri musulmonlarning tabarruk ziyoratgoxiga aylangan.

Imom -al-Buxoriy o'z ijodiy faoliyati davomida yigirmadan ortiq asar yaratdi ulardan bizgacha etib kelgan Alloma ijodida al -Jome' -as -Sahih (ishonarli tuplam) sahih - al - Buxoriy nomi bilan mashxurdir). Bu qimmatbaho asar Makkai mukarrama, Madinai Munavvara va Buxoroi Sharifda o'n olti yil davomida yozilgan bo'lib, o'n sakkiz mingga yaqin sahih hadislarni to'qson etti kitob, 3450 bobdan iborat. Asosan 4 jildda joylashgan. «Sahih -al -Buxoriy» ning ko'plab qo'l yozmalari dunyoning turli yirik shaharlarida kimmatbaxo manba sifatida saqlanadi. U bir necha xorijiy, jumladan ingliz, fransuz, fors, turli tillarga tarjima qilindi. Mustaqillik tufayli qilib tarjima qilinib, Toshkentda nashr etildi.

Imom -al -Buxoriy jami 600 ming hadis to'plab, shulardan 100 ming «Sahix» 200 ming «g'ayrisahihlarni» yod olgan. Uning 4 jilddan iborat hadis tuplami kitobida 7275 ta eng «sahih» Imom -al -Buxoriyning hadislarini beqiyos tarbiyaviy axloqiy ahamiyatga ega.

1998 yilda Imom al-Buxoriy tavalludining 1225 yilligi munosabati bilan ulug' alloma xotirasiga Samarqand viloyatining Chelak tumanidagi Xartang qishlog'ida Ulkan yodgorlik obidasi bunyod etilgan.

Necha umrlarga tatigulik ilm zaxmati evaziga allomani musulmon olamida «Amirul -mo'min - fil - hadis» ya'ni «hadis ilmida imomlarning sultoni», «Imomul -dunyo» ya'ni «dunyodagi barcha imomlarning ulug'i» deb ulug'lanib uning kitobiga ikkinchi manba deb qarab kelganlar.

**Abu Iso Muhammad Ibn Iso at-Termiziy**<sup>24</sup>. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, at-Termiziy 824 yilda Tyermizda tug'ilgan. Yoshlik chog'laridan boshlab ilmga katta qiziqish va ishtiyoq ko'rsatgan. Hijoz, Xuroson va boshqa joylarda mashxur muhaddislar, ulamolar bilab muloqotda bo'lgan, ulardan sabok olgan. Imom al-Buxoriy o'z ustozini deb bilgan. Imom al-Buxoriy at-Termiziyning hadislarini sinchiklab o'rganishdagi nodir qobiliyati, taqvodagi ustunligini tan olgan.

Hofiz Umar ibn Alak bunday degan: «Imom al-Buxoriy vafot etib, butun Xurosonda ilm va taqvoda va zuxdda Abu Iso Termiziy ga teng keladigan ulug'»

---

<sup>24</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Termiziy\\_Abu\\_Iso](https://uz.wikipedia.org/wiki/Termiziy_Abu_Iso)

pirni o'zidan keyin qoldirmadi».

Imom at-Termiziy ning mashhur asari ham «Al-Jome' as-sahih» deb ataladi. Shuningdek, «Shamoili Nabaviya» (Payg'ambaralohissalomning shakl va sifatleri), «Kitob uz-zuxd» (Zoxidlik kitobi), «As-mo' us-saxoba» (Saxobalarning ismlari), «Al-Asmo' val kuna» (Ismlar va kunyalar), «Kitobo'l-ilal» (Illatlar kitobi) kabi asarlar ham bitgan.

Imom at-Termiziy hadislarni 3 guruhga ajratgan. Ular - sahih, xasan, zaif deb atalgan. Bu bilan Imom at-Termiziy hadisning sahihligini (ishonarligini) aniqlashda yana bir boskichga ko'tarildi.

Har bir hadisga «sahih», «xasan» yoki «zaif» belgilarini qo'ygan edi.

Imom at-Termiziy har doim ilm-fanni targ'ib etgan, ayniqsa yoshlarni ilm olishga da'vat qilgan. Ayni paytda, muloyimlik va xushfe'llik ul kishining go'zal fazilati edi.

Umr bo'yi qilingan mashaqqatli mehnat, xayotiy uqubatlar o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmas edi. Hayotining so'nggi yillarida Imom at-Termiziy ning ko'zlari ojiz bo'lib koladi. Ul zot 892 yili 70 yoshida vafot etadi.

1993 yil avgustda «Buyuk yurtdoshimiz, mashxur muhaddis Abu Iso -at - Termiziy ning» «Sahihi Termiziy » (Tanlangan Hadislar) asarlari ilk bor Abdulg'ani Abdullox tomonidan o'zbek tilida o'girildi va 50 ming nusxaga chop etildi.

Birinchi prezidentimiz I.Karimov «Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch» asarlarida quyidagilarni ta'kidladilar. «Yana bir ulug' vatandoshimiz -Abu Iso Muhammad ibn Iso Termiziy ning ma'naviy merosi, jumladan (Sunani Termiziy ) asari ham musulmon olamida ana shunday yuksak qadrlanadi». Allomaning asrlar davomida olimu fuzalolarga dastur bo'lib kelgan insof va adolat, insonparvarlikni targ'ib etuvchi g'oyalari hozirgi murakkab davrimizning ko'plab axloqiy ma'naviy masalalarini hal etishda ham muhim ahamiyat kasb etishi bilan e'tiborga molikdir».

Xulosa qilib aytganda, islom dinning muqaddas manbalari bo'lgan Qur'oni karim va Hadisi Sharif xalqimiz ma'naviy merosining asosida tashqil qiladi.

Hozirgi kunda muqaddas islom dinimizni rivojida beqiyos hissa qo‘shgan buyuk allomalarimizni ma‘naviy merosni yanada chuqurroq o‘rganishimiz uchun davlatimiz tomonidan keng imkoniyatlar yaratilib berilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil oliy majlisga murojaatnimasida bu borada quyidagilarni ta‘kidlab o‘tdilar. “Mamlakatimizda - jaholatga qarshi ma‘rifat degan ezgu g‘oya asosida islom dinining insonparvarlik mohiyatini, tinchlik va do‘stlik kabi oliyjanob maqsadlarga xizmat qilishni kun tartibimizdagi doimiy masalalaridan biri bo‘lib qoladi.

Joriy yilda hadis ilmining sultoni Imom Buxoriy, kalom ilmi asosichisi Abu Mansur Moturidiy va uning davomchisi Abu Muin Nasafiyning hayoti, ilmiy merosiga bag‘ishlangan hamda diniy bag‘rikenglik mavzularida xalqaro ilmiy amaliy konfyerensiyalar va boshqa tadbirlar tashqil etiladi.

Biz yoshlarga berilgan ana shunday imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalanib, ajdodlarimiz ma‘naviy merosini o‘rganish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Bu buyuk allomalarning yurtdoshlari bo‘lganligimiz bilan xaqli ravishda faxrlanmog‘imiz lozim”.

### **O‘tilgan mavzu bo‘yicha savollar:**

- 1.“Johiliya” deb qaysi davrga aytiladi?
- 2.Makkadan Madinaga Hijratning sabablari nimaga edi?
- 3.Qur‘oni karim nechta sura va oyatlardan iborat?
- 4.Hadis so‘zining mazmun mohiyati nimada?

### **Mustaqil ish topshiriqlari.**

- 1.Islom dinini vujudga kelishi haqida ma‘lumot to‘plash.
- 2.Islom dinining manbalari.
- 3.Markaziy Osiyo allomalarining Islom dini rivojiga qo‘shgan hissalar haqida referat tayyorlash.

### **Adabiyotlar:**

1. Qur‘oni karim ma‘nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur. – T.: Toshkent islom universiteti,2009

2. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Al-Adab al-mufrad. – T.: O'zbekiston, 1990.
3. Muratov D., Alimova M., Karimov J. Dinshunoslik, darslik.  
-Toshkent, «Navro'z» nashriyoti, 2019. -264 b.
4. Raximdjano D., Ernazarov O. Dinshunoslikka kirish. O'quv qo'llanma.  
-T.: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. -304 b.
5. Isoqjonov R. Qiyosiy dinshunoslik. O'quv qo'llanma. -T.: OOO  
«Complex print», 2020. -198 b.

## MAVZU: ISLOM DININING AQIDAVIY YO'NALISHLARI VA MAKTABLARI.

### Reja:

1. Kalom ilmining shakllanishi.
2. Moturidiylik va Ash'ariylik. Islomda imom masalasi.
3. Moturidiylik kalom maktabi vakillari Islom dini oqimlari, yo'nalishlari.

### Tayanch iboralar

*Aqida, kalom, moturidiylik, ash'ariylik, imon, Alloh, farishta, payg'ambar, taqdir, qiyomat, jannat, do'zax.*

### Kalom ilmining shakllanishi.

**Kalom ilmi.** «Kalom»<sup>25</sup> so'zi arab tilida gap, suhbat, til, so'zlashuv, nutq va bayon ma'nolarini anglatadi. Istilohiy ma'noda esa, musulmon kishining e'tiqodi, aqidasi va dunyoqarashini belgilab beradigan ta'limotga aytiladi. Boshqacha aytganda, balog'atga etgan kishining e'tiqodi, imon keltirishi, islom dinining talablari shaklida tasdiqlashi shar'iy e'tiqodiy hukmlarga aytiladi. Islom ta'limoti bo'yicha barcha payg'ambarlarning Allohga imon keltirishga da'vatlari eng asosiy vazifalari deb qaralgan. Shunday bo'lsa-da, ularning tutgan shariat yo'llari turlicha bo'lganini alohida ta'kidlash kerak.

Islom ta'limotini Muhammad (alayhis-salom)dan bevosita sahobiylar o'rganib, o'zlaridan keyingi tobeiylarga etkazishgan. O'z navbatida ular ham o'zlaridan keyingilarga etkazgan. Shu tariqa islom ta'limoti sof holda hozirgi kungacha etib kelgan. Biroq tarix mobaynida odamlar mavjud diniy matnlarni turlicha talqin qilishlari natijasida turli oqimlar va toifalar paydo bo'lganini ko'ramiz. Ayni din masalasida yuzaga kelgan noto'g'ri tasavvur va tushunchalar xato ekanini ko'rsatib beradigan olimlar ham paydo bo'lib, ular islom ta'limotini to'g'ri tushuntirib beradigan fanga asos soldilar. Mazkur fanni turli davrlarda «al-fiqh al-akbar», «tavhid», «aqida», «kalom», «usul ad-din» kabi bir qancha nomlar

---

<sup>25</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Kalom>

bilan ataldi. Shundan ma'lum bo'ladiki, nomlar turlicha bo'lsa-da, ularning hammasi bir mavzuni, ya'ni aqida ilmini o'rganish va tadqiq etishga qaratilgan.

«Al-Fiqh al-akbar» atamasini birinchi bo'lib imom Abu Hanifa qo'llab, ayni shu mavzuga bag'ishlab bir risola yozadi. Chunonchi, «fiqh» so'zi biror narsani har tomonlama o'rganib, uning daqiq qirralarigacha fahmlab etish ma'nosini bildiradi. Shuningdek, namoz, ro'za, haj, nikoh va boshqa amaliy hukmlarni o'rganuvchi ilmni ham fiqh deb ataladi. Shuning uchun aqidaviy masalalarni o'rganuvchi ilmni «Al-Fiqh al-akbar», ya'ni «katta fiqh», amaliy fiqh ni esa kichik fiqh deb yuritiladigan bo'lgan. Yana bir «usul ad-din»da shariat va dindan olingan e'tiqodiy hukmlarni o'rganilib, dindagi asl hukmlarni tadqiq etiladi. Bir qator olimlar shu nom ostida o'z kitoblarni ta'lif etganlar. «Tavhid» ilmida Allohning yagonaligini va Uning sifatlarini o'rganishga e'tibor beriladi. Bu ilm asosida Alloh taoloni yakkayu yagona deb bilib, Uning sifatlarini sharhlab tushuntirishga ko'proq ahamiyat beriladi. Zero, musulmon kishi aqida borasida o'ziga zarur bo'lgan dastlabki bilimga ega bo'lishi kerak. Bu dastlabki ilm Alloh taoloning vahdoniyati, ya'ni yakkayu yagonaligiga imon keltirish va uni o'rganishdan iborat. Yana bu atama «kalom ilmi» deb yuritiladi. Islom diniga oid manbalarda uni aqida ilmining eng mashhur nomlaridan biri sifatida keltiriladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, aqid yoki kalom ilmining vazifasi: a) diniy e'tiqodlarni qat'iy dalillar bilan isbotlash va ular haqidagi shubha hamda gumonlarni rad qilish; b) insonni aqidada oddiy taqlidchi bo'lishdan har bir e'tiqodga hujjat keltira olish darajasiga ko'tarish; v) islomning sof e'tiqodlarini adashgan zalolat ahlining shubha va gumonlaridan himoya qilish.

### **Moturidiylik va Ash'ariylik. Islomda imom masalasi.**

Mutakallimlar Qur'on oyatlari, hadislar va sahobiylarning tutgan yo'li asosida aqida masalalarini mufassal bayon etib berganlar. Aqida borasida faoliyat olib borgan olimlar orasida Abu Mansur Moturidiy va Abul Hasan Ash'ariy alohida o'rin egallaydi. Bu olimlar Ahli sunna val jamoa aqidasi bo'yicha Imom deb tan olindilar. «Ahli sunna val jamoa» to'rt fiqhiy mazhabdan biriga amal qilib kelayotgan bo'lsalar, aqidaviy masalada moturidiylik va ash'ariylikning aqidaviy

ta'limiga asoslanadi. Bunga ko'ra, hanafiy mazhabi moturidiylik, molikiy, shofei va hanbaliy mazhabi ash'ariylik ta'limotida deb qaraladi. Shu o'rinda bu ikki maktab vakillari haqida biroz ma'lumot berib o'tish o'rinlidir. Moturidiylik aqidaviy maktab asoschisi buyuk kalom imomi va fakih Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud Hanafiy Moturidiy Samarqandiy (853-944) bo'lib, u asli Samarqandning Moturid qishlog'ida (hozirgi Jomboy tumanida joylashgan) dunyoga kelgan va taxallusi shu qishloqqa nisbatan olingan. Abu Mansur Moturidiy dastlabki ta'limni o'z qishlog'ida olib, keyinchalik Movarounnahrning o'sha davrdagi diniy va ma'rifiy markazi bo'lgan Samarqandda davom ettiradi. Moturidiy Abu Bakr Ahmad Juzjoniy, Abu Nasr Ahmad Iyodiy, Imom A'zam mazhabidagi buyuk olim Nasr ibn Yahyo Balxiy, Muhammad ibn Fadl kabilarni o'zining ustozlari deb bilgan. Moturidiy fiqh va kalom masalalariga qiziqib, o'z zamonasining taniqli hanafiy mazhabi olimlaridan saboq oladi. Shu vaqt davomida ko'plab mashhur faqihlar va muhaddislar bilan muloqotda bo'lib, bahs-munozaralari bilan taniladi va shu sohaga oid asarlar yozib qoldiradi. Bunday asarlar qatoriga «Kitab at-Tavhid», «Kitab al-maqomat», «Kitab rad avoil al-adilla li-l-Ka'biy», «Kitab al-usul», «ar-Radd ala usul al-Qaromita», «Kitab ta'vilot ahli sunna» va boshqalarni keltirish mumkin.

Bugungi kunga qadar Abu Mansur Moturidiyning ko'plab asarlari saqlanib qolmagan, ulardan etib kelganlari esa asosan xorijiy mamlakatlarning kutubxona va qo'lyozma fondlarida saqlanadi.

Imom Moturidiyning «Kitab ta'vilot ahli sunna» (boshqa bir nomi «Ta'vilot al-Qur'on») asarida sunniy aqidaga zid qarashlarni rad etish yo'lidan boradi va Abu Hanifaning qarashlariga suyangan holda sof aqida yo'lini tutadi. Moturidiyning shu birgina asari keyingi davrlarda yashagan ko'p allomalarning asarlariga xamirturush vazifasini bajardi.

Musulmon olimlar aqida masalasida asosan ikki manbaga tayanganlar: birinchisi naqliy dalillar, ya'ni Qur'on oyatlari, hadislar va ularga qo'shimcha tarzda sahobiy va tobeiylar ijmosi (mujtahid olimlarning biror fikrga ittifoq qilishi) hamda ijthod (olimning biror masaladan shariy hukm olish uchun qilgan

urinishi)laridir. Ikkinchisi esa, aqliy dalillar. Imom Moturidiy ham naqliy, ham aqliy dalillarni uyg'unlashtirgan holda ilmiy xulosalar chiqarganiga duch kelamiz. Chunonchi, ko'pchilik odamlarning aql-tafakkuri ko'p hollarda naqliy dalillarni qabul qila olmaganidan imom Moturidiy o'z o'rnida aqliy dalillardan ham foydalangan. Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, moturidiylik (ash'ariylik ham)da ham aqliy dalillar naqliy dalillardan keyingi o'ringa qo'yiladi. O'sha davrda mo'taziliylar naqliy dalillardan oldinga aqliy dalillarni qo'yib, agar aqliy dalil naqliy dalilga, ya'ni oyat va hadislariga qarshi chiqsa, ularni inobatga olmaganlar.

Imom Moturidiyning asosiy xizmatlari shundan iboratki, o'sha davrdagi aqidada adashgan oqimlarning salbiy ta'sirining oldini olish, ularning qarashlariga qarshi asosli va kuchli dalillar keltirib raddiya berish, haqiqiy islom aqidasi himoya qilish, jaholatga qarshi ma'rifat bilan javob berish, shu bilan birga musulmonlar uchun aqida borasida asosli qo'llanmalar yaratish va tarqatishdan iborat bo'lgan deyish mumkin.

Imom Moturidiy ko'plab shogirdlar etishtirdi, ular o'z ustozlarining ta'limotini davom ettirishgani tufayli hanafiy mazhabida kalom ilm bo'yicha maktab vujudga kelganini ko'rish mumkin.

Moturidiy «Imom al-huda» (hidoyat yo'li imomi) va «Imom al-mutakallimin» (mutakallimlar imomi) kabi nomlar bilan dovruq qozongan.

Ash'ariy ta'limotining asoschisi Abul Hasan Ali ibn Ismoil ibn Is'hoq ibn Solim ibn Abdulloh ibn Muso Abu Muso Ash'ariydir (873-941). U boshlang'ich saboqlarni o'z otasidan oladi, keyinchalik o'z zamonasining taniqli olimlari Abu Is'hoq Marvaziy va Ibn Surayjdan fiqh ilmini o'zlashtiradi, Zakariyo ibn Yahyo Sojiydan hadis ilmini o'rganadi. U taxminan qirq yoshlaridan keyin Bog'dodga ko'chib kelib, umrining oxirigacha shu shaharda yashab qoladi. U umri davomida yuzga yaqin asarlar yozgan bo'lib, ulardan «al-Fusul fi-r-radd ala-l-mulhidin», «ar-Radd ala-l-mujassima», «Izoh al-burhon fi-r-rad ala ahl az-zayg' va-t-tug'yon», «an-Naq's ala-l-Jubboiy», «Maqolot al-mulhidin», «Tafsir Abu-l-Hasan», «Imomat Abu Bakr Siddiq» kitoblari ilm ahlining nazariga tushgan. Imom Ash'ariy



aqiydaviy dalil-isbot keltirishda naqldan va aqldan foydalanib, aqliy va mantiqiy dalillardan hujjat sifatida foydalanadi. Shuningdek, falsafiy masalalardan ham o'z o'rnida iste'foda etganiga duch kelish mumkin. Chunki Ash'ariy mo'taziliy, faylasuf, qarmatiy, botiniy, rofiziy va boshqalarga raddiyalar bergani bilan aqida ilmi sohasida tanilgan allomalardan biridir.

Abul Hasan Ash'ariy ahli sunnat va jamoaning ash'ariya e'tiqodiy ta'limotini tarqatayotgan vaqtda Samarqandda Abu Mansur Moturidiy ham moturidiya ta'limotiga asos solgan edi. Bu ikki imom bir vaqtda yashab, bir-birlari bilan uchrashmagan bo'lsa-da, ularning aqidaviy qarashlari deyarli bir xil. Bu ikki alloma qarashlarida ayrim masalalarda lafziy ixtiloflar ko'zga tashlansa-da, ularning asl maqsadi bir-biridan farq qilmaydi. Boshqacha aytganda, ikki ta'limot orasidagi ba'zi ixtiloflar lafziy bo'lib, mohiyatan bir-birini qo'llab-quvvatlaydi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, bu ikki alloma o'zaro bir-birini adashganlikda yoki bid'atchilikda ayblamaydi hamda o'zaro bir-birlarini «ahli sunna val jamoa» deb e'tirof etadilar.

Ash'ariy va moturidiylik orasidagi asosiy farq imon masalasiga borib taqaladi. Moturidiy ta'limotiga ko'ra, imon til bilan iqror bo'lib, dil bilan tasdiqlashdan iborat, ammo amal imon tarkibiga kiritilmaydi. Ash'ariylikda esa, imonga amalni ham qo'shiladi. Shu sababdan moturidiylik tarqalgan yurtlarda imon keltirgan kishi musulmon hisoblanadi, ammo amal qilmagani uchun gunohkor bo'ladi, deb yuritiladi.

Mazkur ikki allomaning ta'limotlari islom olamida keng tarqaldi va asrlar davomida musulmonlarni sof e'tiqodda bardavom bo'lishiga, oyat va hadislarning ma'nolarini to'g'ri anglab, hayotga tadbiq etib kelishlariga, e'tiqodi noto'g'ri turli oqimlar ta'siriga tushib qolmaslikka sababchi bo'ldi. Abu Mansur Moturidiy va Abul Hasan Ash'ariylarning sof aqidani musulmonlarga etkazishdagi xizmatlari beqiyos bo'lib, ularning aqidaviy ta'limotiga hozirgacha musulmonlar tomonidan alohida e'tibor bilan amal qilib kelinmoqda. Ular o'z asarlarida islom aqidasi yoritish barobarida adashgan oqimlarga raddiyalar ham berganlar. Shu bois Imom

Moturidiy «hidoyat imomi» deb yuritilsa, imom Ash'ariy «ahli sunna homiysi» degan nomga sazovor bo'lganlar.

### **Moturidiylik kalom maktabi vakillari. Islom dini oqimlari, yo'nalishlari.**

Moturidiya ta'limoti vakillariga Movarounnahrda faoliyat olib borgan bir qancha olimlarni misol keltirish mumkin. Ularning orasida Abul Muin Nasafiyning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Abul Muin Maymun ibn Muhammad Makhuliy Nasafiy 1046 yili Nasaf vohasida ziyoli oilada tavallud topgan. Dastlabki ta'limni otasidan olgan. Nasafiyning bobosi Abul Muti' Makhul ibn Fazl Nasafiy (vaf. 930 y.) o'z davrining mashhur mutakallimi va mutasavvif olimi hisoblangan. Abul Muin Nasafiyning fiqh ilmiga oid asarlari ham mavjud. U 1114 yilda vafot etgan. Allomaning qabri Qarshi tumanidagi Qovchin qishlog'ida joylashgan. U umri davomida o'ndan ortiq asarlar yozib qoldirgan. Olimning asarlari orasida «Tabsirat al-adilla», «at-Tamhid li qavoid at-tavhid» («Tavhid qoidalariga muqaddima») va «Bahr al-kalom» («Kalom ilmi ummoni») kabi asarlari bizgacha etib kelgan.

Abul Muin Nasafiy asarlari orasida «Tabsirat al-adilla» eng muhim va asosiysi hisoblanadi. Asarning to'liq nomi «Tabsirat al-adilla fi usul ad-din ala tariqati Abi Mansur al-Moturidiy» («Abu Mansur Moturidiy tariqatiga binoan din usullarini aniq dalillar bilan sharhlash») deb nomlanadi. Abul Muin Nasafiyning ushbu asarini yozishiga o'sha davrda moturidiya ta'limoti bo'yicha «Kitob at-tavhid» dan keyin bironta ham yirik asar bo'lmagani sabab qilib ko'rsatilgan. U «Tabsirat al-adilla» asarini yozib tugatgach, unga xotima va fihrist sifatida «Tamhid» va «Bahr al-kalom» asarlarini yozgan.

Yana bir olim Abu Hafs Nasafiy nomi bilan tanilgan Najmuddin Abu Hafs Umar ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Ismoil Nasafiy (1068-1142) bo'lib, ba'zi manbalarda unga «Moturidiy» nisbasi berilgani qayd etilgan. Bu esa uning Imom Moturidiyning ma'naviy shogirdi va moturidiya ta'limotining davomchisi ekanidan darak beradi. Zero, Abu Hafs Nasafiy o'zining «Kitob al-qand fi zikri ulamoi Samarqand» («Samarqand olimlarini zikr etish bo'yicha qanddek (shirin) kitob») asarining bir qancha o'rinlarida Imom Moturidiy nomini o'zining ma'naviy ustoz sifatida hurmat bilan tilga oladi. Shuningdek, Abu Hafs Nasafiy o'zining «Aqoid

an-Nasafiy» («Nasafiy aqidalari») asarida moturidiya ta'limoti qarashlarini aks ettirgan.

Abu Hafs Nasafiyga «Moturidiy» nisbasi berilishiga uning Imom Moturidiy yurti Samarqandda umrining asosiy qismini o'tkazganini ham sabab qilib ko'rsatiladi. Jumladan, o'rta asr alloma va mashhur kishilarining nisbalarini yoritib beruvchi «Kitob al-ansob» («Nasablar kitobi») nomli qomusiy asar muallifi Abu Sa'd Sam'oniy (vaf. 1167 y.) bu allomani Abu Hafs Umar ibn Muhammad Nasafiy Moturidiy, deb atagan.

Najmuddin Nasafiy o'rta asr sharq olimlariga xos qomusiy bilim sohibi bo'lib, zamonasining mashhur tarixchisi, faqihi, mufassiri, tilshunosi, geografi, faylasufi hamda shoiri bo'lgan. Uning yozgan asarlari mundariyasi nihoyatda keng va rang-barang bo'lib, bir qismigina bizgacha etib kelgan. Najmuddin Nasafiy tilshunoslik, tarix, fiqh kabi ilmlarga bag'ishlab yuzdan ortiq asarlar yaratgan. Abu Sa'd Sam'oniy Abu Hafs Nasafiy bilan maktublar orqali ilmiy muloqotda bo'lib turgan. Hozirgi ma'lumotlarga ko'ra, uning bizgacha o'ntacha kitobi etib kelgan. Ayniqsa, moturidiya kalom maktabiga oid «Aqoid an-Nasafiy» asari katta shuhrat qozongan. U moturidiya ta'limotida Abul Muin Nasafiyning «Tabsirat al-adilla» asaridan keyingi o'rinda turadi. Najmuddin Nasafiyning falsafa va aqoidga doir ko'plab asarlari mavjud bo'lgan. Ayniqsa, uning «Manzumot an-Nasafiy fi-l-xilofiyot» («Ixtiloflar haqida Nasafiy manzumasi») nomli she'riy asari mashhur bo'lgan.

Keyingi olim Sadr al-islom Abul Yusr Muhammad ibn Muhammad ibn Abdilkarim Pazdaviy 1030 yilda tug'ilgan. Dastlabki ta'limni otasi Abul Hasan Muhammad Pazdaviydan olgan. Bobosi Abdilkarim ibn Muso, Imom Moturidiy shogirdlaridan biri bo'lib, unga ustozlik ham qilgan. Bundan tashqari, Pazdaviy bir qancha hanafiy olimlardan ham tahsil olgani manbalarda aytilgan. Pazdaviyning ustozlari orasida Abu Ya'qub Yusuf ibn Muhammad Nishopuriy va Abul Xattob kabi olimlarning xizmati katta bo'lgan. Abu Hafs Najmuddin Umar Nasafiy va Abul Muin Nasafiy Pazdaviyning eng mashhur shogirdlari hisoblangan. Manbalarda qayd etilishicha, u 1099 yilda Buxoroda vafot etgan.

Pazdaviyning asarlari orasida «Usul ad-din» («Din asoslari») asari muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur asar 96 masaladan tashkil topgan va mazmun-mohiyatidan ahli sunna val jamoa yo‘nalishi va moturidiya maktabi qarashlarining mohiyatini ochib berish va Movarounnahrda tarqalgan bid‘at va xurofotlar jamoasi (ahl az-zayg‘ val bida‘) ta‘sirini kamaytirish maqsadida yozilgan. Shuningdek, Pazdaviy Imom Muhammad Shayboniyning «al-Jomi‘ as-sag‘ir» («Kichik to‘plam») asariga sharh sifatida «Ta‘liqot» («Sharhlar») hamda fiqhga oid «al-Voqiot» («Voqealar») va «al-Mabsut» («Keng ma‘nolar») asarlarini yozib qoldiradi. Pazdaviy Movarounnahrda, ayniqsa, Buxoroda hanafiy mazhabi hamda moturidiya kalom maktabi rivojida ulkan xizmat ko‘rsatgan olim hisoblangan.

Alloma Alouddin Samarqandiy ham moturidiya ta‘limotining yirik namoyandasi Abul Muin Nasafiyning eng yaqin shogirdlaridan bo‘lib, fiqh sohasida ulkan muvaffaqiyatlarga erishgan olimdir. Uning to‘liq ismi Muhammad ibn Abi Ahmad Abu Bakr Alouddin Samarqandiy bo‘lib, tug‘ilgan yili haqida manbalarda ma‘lumotlar uchramaydi. Shunday bo‘lsada, olimning vafoti ko‘p manbalarda 1143 yil deb ko‘rsatilgan.

Alouddin Samarqandiy Abul Muin Nasafiydan fiqh va kalom ilmlarini o‘rgangan va shu asosda o‘zining fiqhga oid «Tuhfat al-fuqaho» («Faqihlar tuhfasini») nomli mashhur asarini yozib qoldiradi. U nafaqat fiqh, balki kalom hamda tafsir ilmlari borasida ham samarali ijod qilib, moturidiya kalom maktabini qo‘llab-quvvatlagan. Natijada Abu Mansur Moturidiyning «Ta‘vilot ahli sunna» («Ahli sunna ta‘villari (tafsiri)») nomli tafsiriga «Sharh ta‘vilot ahli sunna» («Ta‘vilot ahli sunna tafsiri») nomli sharhini bitadi.

Allomaning ushbu sharhni yozishida Abul Muin Nasafiyning xizmati nihoyatda katta. Chunki Alouddin Samarqandiyning o‘zi Nasafiy bilan Moturidiyning «Ta‘vilot» asarini birga mutolaa qilganini va Nasafiy joiz, deb topgan o‘rinlarga sharh yozib ilova qilib borgani va keyinchalik ushbu sharhlarni alohida kitob holiga keltirgani haqida ma‘lumot beradi. Ibrohim ibn Is‘hoq Saffor Buxoriy (vaf. 1139 y.) Abul Muin Nasafiydan Buxoroda kalom ilmidan ta‘lim olgan moturidiya kalom maktabi vakilidir. Dastlab u o‘zining «Risola fiha masoil

suila anha ash-Shayx as-Saffor fa ajaba anxa» («Shayx as-Saffor javob bergan masalalar haqida risola») nomli risolasini yozgan. Ushbu risolada Abu Mansur Moturidiyning qarashlariga keng to'xtalgan. Olim buxoroliklar uchun kalom ilmi bo'yicha «Kitob talxis al-adilla li qavoid at-tavhid» («Tavhid qoidalariga oid dalillarning qisqacha bayoni») nomli o'quv qo'llanmasini yaratadi. Nuriddin Ahmad ibn Mahmud ibn Abi Bakr Sobuniy (vaf. 1184 y.) ham Ibrohim Saffor bilan Buxoroda moturidiya kalom maktabining keng tarqalishida jonbozlik ko'rsatgan olimlardan biridir. U Abul Muin Nasafiydan kalom ilmini o'rgangan. Nuriddin Sobuniy Buxoroda ash'ariya maktabi vakili Faxruddin Roziy bilan muloqotda bo'ladi. Olimning «al-Bidoya fi usul ad-din» («Boshlang'ich din asoslari») nomli o'quv qo'llanmasi hozirga kelib qadr-qimmatini yo'qotmagani bois ko'p marotaba nashr etildi.

Islomda imon masalasi. Imom Moturidiy, imom Tahoviy, Abul Muin Nasafiy va boshqa olimlar tomonidan yozilgan asarlarda «imon» masalasi alohida o'rganilgan, chunki u kalom ilmining eng nozik va asosiy mavzularidan biri hisoblanadi. Chunki imon islomning birinchi sharti hisoblanadi. Imonga berilgan ta'rif orqali bandaning xatti-harakati xususida hukm chiqarilgan. Islomda adashgan ekstremistik, terroristik va aqidaviy oqimlarning aksariyati imon masalasida xatoga yo'l qo'yib, o'z shubhalarini keng xalq ommasi orasida yoyishga harakat qiladilar.

Yuqorida keltirilgan olimlar aqida mavzusini to'rt qismga ajratib o'rganganlar: ilohiyot, nubuvvat, kavniyot va sam'iyot. «Ilohiyot» iloh va Unga oid masalalar haqida bahs yuritadi. «Nubuvvat»da vahiy, payg'ambarlik va ularga tegishli masalalar, kavniyotda esa, borliqdagi mavjudotlar - inson, farishta, jin va sababiyat qonunlari haqida bahs yuritiladi. Sam'iyot eshitish bilangina sobit bo'ladigan aqidalar haqida bahs yuritadi. Bular asosan g'ayb olamiga tegishli masalalar bo'lgani uchun bu turni «g'aybiyot» ham deyiladi. Islom besh asosga qurilgan. Ular: imon, namoz, zakot, ro'za va haj. Bular islomning rukni (farz) hisoblanadi. «Imon» so'zi ishonmoq, tasdiqlamoq ma'nolarini bildirib, istilohda, kalimai shahodatni aytish, ya'ni «La ilaha illallohu Muhammadun Rasululloh»

(«Allohdan boshqa iloh yo‘q, Muhammad uning rasuli»)ni til bilan aytish va dil bilan tasdiqlashdir. Buni chin dildan aytgan kishi musulmon hisoblanadi.

Abu Mansur Moturidiyning fikricha, insonning qalbida imon xuddi osmonda oy yagona bo‘lgani kabi yagona bo‘ladi. Agarda u kamaysa, yarimta, ko‘paysa bir yarim yoki ikkita bo‘lishi kerak. Bu esa haqiqatga ziddir. Imonning faqat qalbdagi nuri yaxshi amallar sababli yorug‘lashishi va imonning nuri xiralashishiga olib keladi.

Hadislarda imonning etti sharti mavjudligi qayd etilgan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Allohning borligi va birligi
2. Musulmon kishi farishtalarga ham ishonishi lozim. Farishta arab tilida «malak», ko‘pligi «maloika» deyiladi.
3. Ilohiy kitoblarga imon keltirish. Alloh tarafidan payg‘ambarlariga kitoblar tushirilganiga imon keltirish.
4. Payg‘ambarlarga imon keltirish. Islom dini ta‘limotiga ko‘ra Allohning insonlarga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatish uchun yuborgan payg‘ambarlariga imon keltirish vojib hisoblanadi.
5. Oxirat kuniga ishonish ham imonning bir qismi hisoblanadi. Islom ta‘limoti bo‘yicha bu dunyo sinov-imtihon maydonidir.
6. Inson boshiga tushadigan yaxshilik yoki yomonlik Alloh tarafidan bo‘lishiga - taqdirga imon keltirish.
7. O‘lgandan keyin qayta tirilishga ishonish ham imon shartlaridan biri bo‘lib, unga ko‘ra qiyomat kuni bo‘lganda, barcha insonlar qayta tirilib, mahshargohga yig‘iladi.

Musulmonlar asosiy aqidaviy masalalarga bir xil yondashuvchi, biroq ayrim shar‘iy va diniy-siyosiy masalalarda turli nuqtai nazarda turuvchi ikki guruh – sunniylar va shialardan iborat. Bugungi kunda dunyodagi musulmon aholisining 90 % dan ziyodini sunniylar qolganini shialar tashkil etadi. O‘z navbatida, mazkur yo‘nalishlar diniy masalalarga turlicha yondashuv asosida yuzaga kelgan mazhablarga bo‘linadi. Musulmonlarning mazhablari quyidagilar: sunniylar:

xanafiya (asoschisi-Imom abu Hanifa), shofi'iyalar(Imom ash-Shofi'iy), molikiylar (Imom Molik), xanbaliylar (Imom Ahmad ibn Hanbal). Shialar: jafariylar (Imom Ja'far as-Sodiq), zaydiylar (Imom Zayd ibn Ali), ismoiliylar (Muhammad ibn Ismoil) shuningdek, ibodiylar hisoblanadi.

O'zbekiston musulmonlarining ko'pchiligi shar'iy amallarni hanafiya mazhabi asosida amalga oshiradilar.

### **Mavzu bo'yicha savollar**

1. Kalom, aqida, tavhid ilmlari nimani o'rganadi?
2. Moturidiylik va ash'ariylik yo'nalishlari qanday paydo bo'lgan?
3. Imon qanday ma'noni bildiradi?
4. Islom ta'limotida necha narsaga imon keltirish shart hisoblanadi?

### **Mustaqil ish topshiriqlari**

1. Imom Moturidiy va uning qarashlari.
2. Kalom ilmi adabiyoti.
3. Hadislarda ilm olishga bo'lgan targ'ibot.
4. Moturidiylik maktabi vakillari.

### **Adabiyotlar**

1. Tulepov A. Islom va aqidaparast oqimlar. To'ldirilgan nashr. Mas'ul muharrir Shayx Abdulaziz Mansur. - Toshkent: Sharq, 2014. - 536 b.

2. Oqilov S. Kalom ilmi. - Toshkent: TIU nashriyot-matbaa birlashmasi, 2011. - 160 b.

3. Isoqjonov R. Islom falsafasi. - Toshkent: Somplex Print, 2019. - 192 b.

4. Muhammad Anvar Badaxshoniy. Aqidatut-tahoviya sharhining talxiysi. - Toshkent: 2015. - 448 b.

5. Ochildiev O., Rahimjonov D., Muhamedov N. va boshq. Dinshunoslik asoslari (o'quv qo'llanma). - Toshkent: TIU nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013. - 320 b.

6. Mo‘minov A., Yo‘ldoshxo‘jaev H., Rahimjonov D., va boshq. Dinshunoslik. - Toshkent: Mehnat, 2004. - 296 b.

7. Abdullaev A., Hakimova N., Jo‘raev Sh., Karimov J. Ilmdan boshqa najot yo‘q. - Toshkent: TIU nashriyot-matbaa birlashmasi, 2015. - 156 b.



# MAVZU: MARKAZIY OSIYO TARIXIDA HANAFIYA MAZHABINING

## O'RNI

### Reja:

1. Hanafiylik mazhabining asoschisi Abu Hanifa hayoti va ta'limoti.
2. Fiqhiy mazhablarning paydo bo'lishi.
3. Tasavvuf tushunchasi va uning mohiyati.
4. Tasavvuf tariqatlarining kelib chiqishi. Markaziy Osiyoda tasavvuf.

### Tayanch iboralar:

*Mazhab, oqim, firqa, hanafiylik, shofeiylilik, molikiylik, hanbaliylik, fiqh, fatvo, mujtahid, sunniylik.*

### **Hanafiylik mazhabining asoschisi Abu Hanifa hayoti va ta'limoti.**

Hanafiylik<sup>26</sup> asoschisi Imom A'zam Abu Hanifa No'mon ibn Sobitdir. U hijriy 80-150 milodiy 699- 767 yillarda hayot kechirgan. Ko'fa shahrida voyaga etgan. Zirikliy "Al-A'lom" kitobida Imom A'zamning otasi Sobit haqida quyidagilarni qayd etgan: "Sobitning otasi Zutiy Ali (r.a.)ning oldiga boradi va unga hadya berib, o'g'li Sobitning haqiga duo co'raydi. Ali ibn Tolib uning va avlodlarining haqiga baraka tilab duo qiladi". No'mon ibn Sobit Ko'fa shahrida ilm ahllari orasida voyaga etdi. Bilimi chuqur inson sifatida tanildi. O'z kasbi orqasidan kun kechirar edi. Chunki otasidan unga katta boylik meros qolgan edi va uni tijoratga sarf etib, daromadini ilmu ma'rifat yo'lida sarf etardi.

No'mon ibn Sobit tarixga ikki sharaflilik bilan kirdi.

- Abu Hanifa, ya'ni to'g'ri yo'lida sobit turuvchilar rahnamosi.
- Imom A'zam, ya'ni buyuk imom.

Abu Hanifa yoshlik chog'idayoq Qur'oni karimni yodladi va uning ma'nolarini fahmlashga intildi. Keyinchalik mantiq va kalom ilmi bilan shug'ullanib, bu borada atrofdagilardan o'zib ketdi. U Hammud ibn Abu Sulaymon (r.h.) bilan uchrashganidan so'ng fiqh ilmiga qiziqadi va Hammoddan 18 yil davomida tahsil oladi. Umri davomida 55 marta haj qildi. Har bir hajda ko'plab ilm

---

<sup>26</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Hanafiylik>

ahllari bilan muloqotga kirishdi. Imom A'zam (r.h.) ustozlarining adadi 4000 ga etishi manbalarda qayd etilgan. Ulardan 8 tasi sahoba, 39 tasi tobe'in edi. Hofiz as-Solihiy esa "Uqud al-juman" kitobida: "Imom Abu Hanifa sakkiz sahobiy va bir ayoldan hadis rivoyat qilgan", deydi va ularning nomlarini keltiradi. Bular:

1. Anas ibn Molik, Amr ibn Horis, Abdulloh ibn Anis, Abdulloh ibn Horis, Ibn Juz' az-Zubaydiy, Jobir ibn Abdulloh, Abdulloh ibn Abu Avfo, Voila ibn Asqo', Oysha bint Ajrad (r.a.).

"Bag'dod tarixi" kitobida keltirilishicha, Abu Hanifa hukmdor Abu Ja'far Mansur huzuriga kirganida uning oldida o'tirgan Iso ibn Muso hukmdor Mansurga: "Bugungi kunda dunyoning eng etuk olimi ushbu Abu Hanifadir", dedi. Shunda Mansur Abu Hanifaga: "Ey No'mon! Ta'limni kimdan olgansan?", dedi. U : "Umarning izdoshlari orqali Umardan, Alining izdoshlari orqali Alidan, Abdullohning izdoshlari orqali Abdulloh ibn Mas'uddan oldim. Ibn Abbos davrida er yuzida undan ko'ra olimroq kishi yo'q edi (ya'ni, ibn Abbos shogirdlaridan ham ta'lim olganliklarini aytmoqchilar)", dedi. Shunda Abu Ja'far Mansur: "Haqiqatan ham sen o'zingga kuchli hujjat to'plagan ekansan", dedi. Imom A'zam (r.h.) o'z davrining ko'zga ko'ringan faqih va muhaddis olimlaridan ta'lim oldi. Jumladan, mashhur muhaddis Imom A'mashdan hadislarni o'rganar va yod olar edi. Imom A'mashning oldida Abu Hanifa bir odamning fiqh borasidagi savoliga javob berdi. Shunda A'mash: "Nimaga asoslanib bunday javob berding?", deya so'radi. Imom A'zam: "O'zingiz rivoyat qilgan hadislarga asoslanib" deb, bir nechta hadisni sanab berdi. Imom A'mash shogirdining zakovatiga qoyil qolib: "Ey faqihlar jamoasi, sizlar tabib, biz muhaddislar esa dorishunos ekanmiz", dedi. Haqiqatan, oyat va hadislardan har kim ham hukm chiqara bilmaydi. Balki, bu mujtahid va faqihlarga xosdir. Afsuski, bugungi kunda islom manbalaridan o'zicha fatvo olishga intilib, mazhablarga, o'tgan olimlarning xizmatiga bepisandlik qilayotganlar turli ixtilof va ziddiyatlarga sababchi bo'lmoqdalar.

Imom A'zam (r.h.) ham aqidaviy ta'limotga ham fiqhiy mazhabga asos soldi. Ma'lumki, bilim sohasi vaqt o'tishi bilan fizika, matematika, ximiya kabi aniq fanlar va tarix, geografiya, huquqshunoslik kabi ijtimoiy fanlarga ajratilgan.

SHunga o‘xshash, Imom A‘zam ham birinchi bo‘lib fiqhni boblarga bo‘ldi. E‘tiqod sohasida birinchi bo‘lib "Al-fiqhul-akbar", ya‘ni "Katta fiqh" degan kitoblarini yozdi. Bu kitobda islomdagi musaffo e‘tiqod ta‘limoti o‘z ifodasini topgan. Keyinchalik Imom A‘zamning mazkur asariga ko‘plab sharhlar bitilgan. Ba‘zi manbalarda qayd qilinishicha Imom A‘zamning ushbu "Al-fiqhul-akbar" kitobiga buyuk vatandoshimiz Imom Moturidiy (r.h.) ham sharh yozgan. Bu narsani ba‘zi bir tarixchilar inkor etishadi. Lekin, Imom Moturidiy o‘z ta‘limotini yaratishda Imom A‘zamning e‘tiqod borasidagi qarashlariga tayanganlari, Moturidiyning ustozlari Imom A‘zam izdoshlari ekani manbalarda o‘zining aniq ifodasini topgan.

Abu Hanifaning ba‘zi asarlari haqida qisqacha ma‘lumot:

1. "Kitob as-solat" - Abu Muqotildan rivoyat qilinganki, u aytdi: "Abu Hanifaning birinchi kitobi ushbu kitobdir".

2. "Kitob al-Manosik" - Abu Hanifa ustozlari Imom A‘mash (r.h.) hajga borishni niyat qilgan vaqtida unga atab yozgan. Chunki A‘mash Ali ibn Mus‘irni Imom Abu Hanifaga yuborib, undan hajning tartibi va hukmlari haqida kitob ta‘lif qilib berishni so‘ragan. Shunda Abu Hanifa bu kitobni yozib, Ali ibn Mus‘irdan A‘mashga berib yuborgan. Shu bois bu kitob haj manosiklari haqida yozilgan birinchi kitob hisoblanadi.

3. "Kitob al-faroiz" - Al-Muvaffaq aytishicha, meros ilmida birinchi yozilgan kitoblardandir.

4. "Kitob ash-shurut" - Imom Quduriyning ustozlari shayx Abu Abdulloh aytishicha, Abu Hanifaning shartnomalar haqidagi ushbu asari bu mavzudagi bitilgan birinchi kitobdir.

5. "Kitob al-olim val mutaallim" - savol va javob tariqasida bitilgan kitobdir.

6. "Kitob al-fiqh al-akbar" - sunniylik aqidasi bo‘yicha bitilgan mashhur kitobdir.

7. "Kitob al-vasiya" - qozilarga pandu nasihatdan iborat bo‘lib, Imom Abu Yusuf (r.h.) va boshqalarga atab ta‘lif etilgan.

**Hanafi** mazhabi ta‘limoti

Imom Abu Hanifa barcha imomlarning peshvosi, faqixlarning ustози, Imom Shofeiy ta'biri bilan aytganda, barcha odamlar fiqhda uning boqimandalari bo'lgan zot edi. Alloh taolo unga noyob zakovat, etuk aql, o'tkir fikr ato etgan bo'lib, har bir ishni chuqur tahlil qilar, hech qanday shak-shubhaga o'rin qolmaydigan darajadagi aniq hujjat va dalillar asosida hukm chiqarar edi. Uning ilmi butun olamga yoyilib, olimlar ham, omma xalq ham ta'limotini zo'r e'tibor va ochiq ko'ngillik bilan o'rganib kelmokdalar. Imom Abu Hanifa (r.h.) o'z mazhabini bino qilishda islom shariatining asosi deb e'tirof etgan manbalarga - Qur'oni karim, sunnati nabaviya, ijmo, qiyos va sahobalarning qavllari hamda urfga suyandi: "Men, avvalo, hukmni Allohning kitobidan olaman, undan topmasam, Rasululloh (s.a.v.)ning sunnatlaridan olaman. Agar Allohning kitobidan ham, payg'ambarning sunnatlaridan ham topa olmasam, sahobalarning gapidan olaman, agarda bular ixtilof qilgan bo'lsalar, ularning so'zidan Qur'on va hadisga yaqinrog'ini olaman, ularning gapidan boshqanikini olmayman. Agarda sahobalarning so'zidan ham topa olmasam va gap tobeinlarga etib kelsa, o'zim ularga o'xshab ijti hod qilaman", dedi. Abu Hanifa nazdida fiqhiy hukm olishda asosiy manba Qur'oni karim bo'lib, boshqa biron narsa unga barobar bo'la olmaydi, chunki u Alloh taoloning kalomi, musulmonlar uchun qat'iy hujjatdir. Shuning uchun ohod yo'li bilan kelgan hadislar Qur'oni karim hukmini nasx (bekor) qila olmaydi, chunki ohod sunnatlar Payg'ambardan etib kelishi jihatidan hammasi zonniydir. ("Sunnati ohod" deb Rasulullohdan rivoyat qilgan roviylar adadi hamma tabaqalarda mutavotir adadiga etmagan, ya'ni, uchtadan kam odam bo'lgan holda rivoyat qilingan hadisga aytiladi). Shu boisdan ham Abu Hanifa Qur'oni karim oyatiga ma'nosi zid bo'lgan hadislarni olmagan.

Abu Hanifa sunnati nabaviyani shariat ahkomlarining ikkinchi asosi deb e'tibor qilgan. Shu bilan birga qovliy sunnatni (Rasululloh so'zlarini) fe'liy sunnatdan (Rasulullohning qilgan ishlaridan) ko'ra avloroq deb qaraydi. Chunki Rasulullohning qilgan ishlari o'zlariga xos amallar bo'lish ehtimoli mavjud. SHuningdek, mutavotir sunnat bilan ohod sunnat ma'nolari bir-biriga zid bo'lib qolsa va ularni hech bir yo'l bilan bir-biriga moslashtirish (kelishtirish) iloji

bo'lmasa, Abu Hanifa mutavotir sunnatni ohoddan muqaddam qo'ygan. Mutavotir sunnatda o'z ma'nosiga ko'ra Rasulullohdan boshlab to oxirgacha roviylar silsilasining adadlari ko'p bo'lganidan ularning yolg'onga ketishlari, adashishlari mumkin emas. Abu Hanifa yuqorida mazkur so'zlarida ta'kidlaganlaridek, biron shar'iy hukm olmoqchi bo'lsa, avvalo, Allohning kalomiga - Qur'oni karimga murojaat qilgan, undan javob topa olmasa, e'tiborini sunnatga qaragan, mabodo hadislardan ham dalil topa olmasa, sahobai kiromlar so'zlaridan dalil axtargan. Imom Saraxsiy o'zining "Usulul-fiqh" kitobida ta'kidlaganidek, Abu Hanifa sahobai kiromlar so'zini qo'yib qiyosga aslo o'tmas edi.

Abu Muti' al-Balxiy Abu Hanifadan: "Menga ayting-chi, biron masalada siz bir fikrda bo'lsangiz-da, Abu Bakr Siddiqning fikri bu masalada boshqacha bo'lsa, siz uning fikrini qabul qilib, o'z fikringizdan qaytasizmi yo yo'qmi?" deb so'radi. Abu Hanifa: "Albatta, fikrimdan qaytaman", dedi. U yana: "Ayting-chi, agar bir masalada sizning fikringiz boshqa bo'lsa va Umar ibn Xattobning fikri boshqa bo'lsa, siz o'z fikringizni qo'yib, uning fikrini olasizmi?!", deb so'radi. Abu Hanifa: "Ha, uning fikrini qabul qilaman", dedi. So'ngra u yana Usmon ibn Affon va Ali ibn Abi Tolib to'g'rilarida ham so'ragan edi, Abu Hanifa yana bularning fikrlarini ham olishini aytib, men barcha sahobalarning fikrini qabul qilib, o'z fikrimdan voz kechaman, dedi.

Rasululloh (s.a.v.) o'z hadislarining birida: "Mening ummatlarim xato (adashish)ga ittifok, qilmaydilar, agarda biron masalada ixtilofni ko'rsangizlar, ko'pchilik tomonida bo'lingizlar", degan. Ya'ni, qaysi davrda bo'lsa ham, biron shar'iy hukm borasida ixtilof sezilganda obro'-e'tiborli ko'pchilik tomonining fikrini ma'qullash lozim bo'ladi. Ko'pchilikning fikrini "ijmo'" deyiladi va Abu Hanifa (r.h.) ham ijmo'ni shar'iy hukmlarga asos bo'lishini aytgan. Abu Hanifa : "Agarda sahobalar biron masalada turli fikrda bo'lsalar, Qur'on va sunnatga yaqinroq bo'lgan fikrni olaman, sahobalar fikrini qo'yib, boshqasini olmayman", deganida, ijtihod etib, sahobalarning so'zlarini Qur'onga va sunnatga qiyos qilishni va, avvalo, Qur'onga muvofiq kelgan fikrni, agar unga muvofiq bo'lmasa, hadisga muvofiq bo'lganini olishni nazarda tutgan edi. Va agarda bu ikki asosga ham

muvoftiq bo'lmasa, ulardan xohlaganining fikrini qabul qilishni va ularning fikrini tashlab, o'z fikrlaricha hukm qilmaslikni bayon qilgan edi.

Abu Hanifa (r.h.) hadisi mursalni va hatto zaif hadisni ham qiyosdan ustun qo'yadilar va hatto bu darajadagi hadislar bor bo'lganda, qiyosni ishlatmaydi. Naql qilinishicha, Abu Hanifaning o'zi bu haqda: "Allohga qasamki, kim bizni qiyosni hadisdan ustun qo'yadi desa, yolg'on aytibdi va bizga tuhmat qilibdi. Hadis bo'lgandan keyin qiyosga hojat qolar edimi?!" dedi. Shuningdek, Abu Hanifa aniq, ravshan qilib: "Biz o'ta zarurat bo'lgan vaqtdagina qiyosga murojaat qilamiz. Chunki biror masalaga dalil axtarsak, biz avvalo Qur'onga, undan keyin sunnatga va, qolaversa, sahobai kiromlar fatvolariga murojaat qilamiz, agarda ushbu manbalardan dalil topa olmasak, shundagina dalili yo'q masalani o'ziga o'xshash va dalili mavjud masalaga qiyos qilamiz" deya ta'kidladi. "Istehson" lug'atda "bir narsani yaxshi deb, hisoblash" ma'nosida ishlatiladi. Ya'ni, bir narsaning yaxshisini, go'zalini, mustahkamini izlash demakdir. Alloh taolo aytadi: "Ey Muhammad, Mening bandalarimga - so'zga quloq tutib, uning eng go'zaliga ergashadigan zotlarga xushxabar bering!" (Zumar,17). Usul istilohida esa, "mujtahidning ochiq-ravshan qiyosdan maxfiy qiyosga, kulliy hukmdan juz'iy hukmga o'tishi" tushuniladi. Ya'ni, bir ishni nassga (shar'iy hukm asoslariga) qiyos etish imkoni bo'lmasa, faqih ijtihod qilib, odamlarga oson bo'lishi maqsadida istehson qoidasi bilan hukm chiqaradi. Imom Abu Hanifa shar'iy hukm olishda istehsonga asoslanib hukm chiqarishni qabul qilgan.

"Urf" deb kishilar o'rganib-odatlanib qolganlari tufayli qiladigan va shariat ta'limotiga zid bo'lmagan ishlariga aytiladi. Faqiqlar urfning shar'iy dalilligini e'tirof etib, uni qabul qilishgan. Abu Hanifa (r.h.) ham Abdulloh ibn Mas'uddan rivoyat qilingan quyidagi hadisga asoslanib urfni qabul qilgan. Rasululloh (s.a.v.) aytdilar: "Musulmonlarning ko'pchiligi nimani yaxshi deb bilsa, u Alloh huzurida ham yaxshidir". Imom Ahmad ibn Hanbal (r.h.) ham urfni shar'iy dalil deb qabul qilgan. Mana shunday asoslarga barpo qilingan hanafiy mazhabi ta'limotida barcha fiqhiy masalalar aniq va ravshan bayon qilingan. Huquqiy muammolar juda sodda ravishda o'z echimini topgan. Har bir masalaning nozik jihatlarigacha

e'tibor qilingan. Chunki, bu mazhab mujtahidlari ham diniy, ham dunyoviy fanlarni chuqur bilishgan.

Umuman, hanafiy mazhabi mo'tadilligi, ilmiy asoslarining puxtaligi va huquqiy muammolarni osonlik bilan hal etgani kabi xislatlari tufayli islom olamining ko'plab hududlariga tarqaldi. Natijada, mazhablar ichida katta va keng yoyilgan mazhabga aylandi.

**Fihiy mazhablarning paydo bo'lishi<sup>27</sup>.** Islom dini tarqalgan hudud kengayib, turli millatlar va xalqlar shu dinni qabul qilganlaridan va uni o'z hayotlari tarziga aylantirdilar. Diniy masalalarda turli qarashlarni paydo bo'lishi va ularni hal qilish maqsadida musulmon olimlari katta rol o'ynadi.

Muhammad payg'ambar (a.s.) vafotlaridan keyin u kishining ishini xalifalar, sahobalar, so'ng tobeinlar davom ettirdilar. Payg'ambardan keyin u kishining ishini sunna asosida davom ettirganlar «sunniylar» yoki «ahli sunna val jamoa» nomini oldi. Payg'ambar davrida biror masala yuzasidan savol paydo bo'lsa, odamlar darhol shu holatni payg'ambarga etkazib, o'zlariga aniq javob olganlar. Shuning uchun bu davrda ixtiloflar bo'lmagan. Sahobalar ko'pchilikni tashkil qilgan vaqtda ham ixtilofli masalalarni tez va oson hal qilganlar, ammo sahobalar davri tugab borishi natijasida musulmonlar orasida turli ixtiloflar ko'paydi.

Hijriy ikkinchi asrga kelib musulmonlar orasida shariatning turli masalalarni mustaqil echib bera oladigan olimlar paydo bo'la boshladi. Ular turli masalalarni hal qilishda Qur'on oyatlari va hadislarni sharh qilib, shu bilan birga sahobalarning qilgan ishlarini o'rganib, o'shalar asosida hukmlar chiqarib berdilar.

Olimlarning atrofida shogirdlari ko'payib, ularning qarashlarini yozib, ommalashtirdilar. Buning natijasida mazhablar paydo bo'ldi. Shu bilan birga ba'zi olimlarning qarashlari kengaymagani sababli ularning qarashlari mazhab darajasiga chiqa olmadi.

Islom huquqida ulamolar nazdida, Qur'on va sunnatda kelgan ilohiy ko'rsatmalar (hukmlar)ning majmuidir. Boshqacha qilib aytganda islom dinining amaliy qismi. Huquqshunoslar esa, islom qonunchilik majmuini nazarda tutudilar.

---

<sup>27</sup> <https://www.sammuslim.uz/oz/articles/actual/fiqhiy-mazhablar-va-ularning-yuzaga-kelishi>

«Fiqh» esa, lugʻatda «chuqur tushunish», «idrok etish», «bilish» maʼnolarini bildiradi. Istilohiy maʼnosi esa, «fiqh» - shariat hukmlarini oʻrganish, shariat qoidalarini barcha qismlari bilan anglash hamda qaysi maqsadda ishlab chiqarilganini tushunish va oʻzlashtirilgan ushbu ilmni amalga tadbiiq etishdir. Fiqhning manbasi: Qurʻon, sunnat, ijmo va qiyos.

Fiqh bilan chuqur shugʻullangan olimlar faqihlar (fiqh olimi, huquqshunos) deb nomlandi. Bular orasida eng koʻzga koʻringan va fiqhiy mazhabi hozirgacha etib kelgan mujtahid olimlar quyidagilardir: Imom Abu Hanifa Noʻmon ibn Sobit Kufiy, imom Molik ibn Anas Madiniy, imom Muhammad ibn Idris Shofeyy va imom Ahmad ibn Hanbal Shayboniy.

Mazkur mazhablar oldingi mavzuda aytilganidek, aqida nuqtai nazardan bir xil, faqat fiqhiy jihatdan bir-biridan farq qiladi. Shuningdek, bular bir-birini inkor qilmaydi, balki qoʻllab-quvvatlaydi. Mazhablarning maqsadi diniy manbalardagi matnlarni keng xalq ommasiga oson tushuntirish boʻlgan va bu bilan oddiy xalq oʻz masalalarini tezda xal qilganlar.

«Mazhab»<sup>28</sup> arabcha soʻz boʻlib, «yoʻnalish», «yoʻl», «diniy taʼlimot» maʼnolarini bildiradi. Islom shiati va aqidasiining muayyan bir tizimga solingan holatdagi koʻrinishi mazhab deyiladi. Bundan koʻrinib turganidek, mazhablar ikki qism - fiqhiy va aqidaviyga boʻlinadi. Fiqhiy mazhablar toʻrtta: hanafiy, molikiy, shofeyy va hanbaliy. Aqidaviy mazhablar: moturidiy va ashʼariylardir.

Molikiy mazhabiga madinalik olim imom Molik ibn Anas Abu Abdulloh (713-795) asos solgan. U «Madina imomi» unvoniga sazovor boʻlgan. Imom Molik Madina olimlari qarashlari asosida oʻz mazhabini yaratgan. Shuning uchun ushbu imom Madina faqihlaridan fiqhni oʻrganib, ahli hadis qoʻllaydigan uslubni qabul qilgan va ushbu qoida asosida oʻz shogirdlarini tarbiyalagan.

Imom Molik Qurʻon, sunna va ijmo tayanib hukm chiqargan. Shu bilan birga madinalik olimlarning ittifoqini ham hukm chiqarishda juda katta eʼtiborga olgan. Chunki Muhammad (a.s.) shu shaharda yashagan va bu shahar aholisi

---

<sup>28</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Mazhab>



payg'ambar va sahobalar ko'rsatmalari va qilgan ishlarini mukammal o'zlashtirganlarini e'tiborga olgan.

Olim «al-Muvatto» nomli hadis ilmiga oid to'pam muallifi hisoblanadi va mazkur asar molikiy mazhabining asosiy manbasi sifatida o'z ifodasini topgan. Muhaddis buning uchun 40 yil umrini sarflagan. Bu asar ilk hadis to'plamlaridan biri bo'lib, bir necha ming hadisni o'z ichiga olgan.

Imom Molik ibn Anasning shogirdlari orasida taniqli muhaddis va hanafiy mazhabi faqih imom Muhammad Shayboniy (vaf. 805 y.), shofi'iylik mazhabi asoschisi Muhammad ibn Idris Shofeiyy (vaf. 820 y.) bo'lgan.

Hozirgi vaqtda ham bu mazhab qoidalarining Marokash, Tunis, Jazoir va Liviya nikoh-oila va mulkka oid huquqiga sezilarli ta'siri bor.

Muhammad ibn Idris Shofeiyy (767-820) ham alohida mazhabga asos solgan.

Bu olim imom Molik va imom Abu Hanifaning katta shogirdi imom Muhammaddan dars olgan. Shu nuqtai nazardan ushbu mazhab huquq tizimi xanafiylar va molikiylarning diniy-huquqiy ta'limotini asosida ishlab chiqilgan, deb aytish mumkin. Shunday bo'lsada, ko'proq molikiylarga yaqin turadi. Boshqacha qilib aytganda, ahli hadis va ahli ra'yni qarashlarini birlashtirgan va o'ziga xos uslubni yaratdi. Olim ijmo bo'yicha ummat ijmosiga e'tibor qaratgan bo'lsa, shu mazhabning keyingi ulamolari olimlar ijmosini ham qabul qilishga majbur bo'ldilar.

Shofeiyylik ham boshqa mazhablar kabi Qur'on, sunna ijmo va qiyosga tayanadi. Imom Shofeiyyning «al-Umm» va «ar-Risola» kitoblari ushbu mazhab usuliga asos bo'ldi.

Hanbaliy mazhabi asoschisi Ahmad ibn Hanbal (780-855) hisoblanadi. Olim yashagan Bag'dod shahrida ilmu fan rivoj topishi bilan birga turli e'tiqodiy qarashlar markazi ham bo'lgan.

Hanbaliy mazhabida Qur'on, sunnat, ijmo va sahobalarning gaplari asosiy o'rin egallaydi. Qat'iy zarurat sezmaganda holatlardan tashqari qiyosdan foydalanmaydi. Barcha hadislarni va rivoyatni (sahobalar so'zini) qiyosdan ustun qo'ygan.

Imom Ahmad xulafoi roshidin, sahobalar, tobeinlar, shuningdek, o'zidan oldingi uch mazhab fiqhini o'zlashtirgan. Chunonchi ilk marta fiqhni imom Abu Hanifaning shogirdi imom Abu Yusufdan o'rgangan. Shuningdek, «men hadis yozib olgan birinchi kishi Abu Yusuf edi», deganidan hadisni ham shu kishidan olgani bilinadi. Keyinchalik imom Shofeydan ham fiqhni o'rgangan. O'zi esa, imom Buxoriyga ustozlik qilgan.

Hadis ilmi bo'yicha «al-Musnad» asari juda mashhur hisoblanadi. Bu kitobda qiriq ming atrofida hadis jamlangan bo'lib, asar hanbaliy mazhabining asosiy qarashlarini ifoda etadi.

Yuqorida keltirilgan fiqhiy mazhablar diniy firqalardan farq qiladi. Ular bir-birining fikriga qarshi chiqaydi va o'zlarini boshqasi bilan teng deb hisolaydilar. Mazhablar shariat masalalarida engilroq yoki qattiqroq hukm chiqarishi bilan farq qiladi. Shuningdek, mazhablar o'zi tarqalgan mintaqalarning sharoitidan ham kelib chiqqan holda fatvolar berganlar. Jumladan, shofey mazhabida tahoratdan so'ng yuzni artmaslik afzal hisoblansa, hanafiy mazhabida yuzni artish afzaldir. Hanafiy mazhabi sovuq o'lkalarda ham tarqalganini e'tiborga olinsa, shofey mazhabi asosan issiq o'lkalarda yoyilgan.

Mazhablar turlicha bo'lsada, ular asoschilari-mujtahidlarning barchasi bir-biriga ustoz-shogird tizimidadir. Ular bir-birlarining mazhabini tan oladilar. To'rtta mazhab ham hijriy ikkinchi asrning o'zida shakllanib ulgurgan. Ammo ushbu mazhablarning faqat bittasini ushlash lozim. Bir masalada bu mazhabni, boshqasida ikkinchisiga amal qilish mumkin hisolanmaydi.

**Tasavvuf tushunchasi va mazmun-mohiyati.** Tasavvuf - islom doirasidagi mistik-zohidlik oqimidir. Ushbu ta'limot tanlangan insonlar (*al-xossa*)ning Alloh bilan hissiy bog'lanishi haqidagi g'oyani olg'a suradi. Ushbu ta'limot nazariyotchilarining fikrlariga ko'ra, shunday bog'lanish natijasida mazkur tanlangan kishilar va ularning ta'limotiga ergashganlar Allohni tanishga erishadilar.

*Tasavvuf* va unga o'zakdosh bo'lgan *sufiy*, *mutasavvif* atamalarining kelib chiqishi haqida xilma-xil qarashlar mavjud. Hozirgi paytga kelib ko'proq

tasdiqlangan va ko'pchilik (ham musulmon, ham g'arb olimlari) tomonidan qabul qilingan fikr shuki, ushbu atama "jun, yung" ma'nosini bildiruvchi sufdan olingan. Bu boshlang'ich davrda islom olamida zohidlik guruhlari ko'rinishida shakllangan ilk sufiylarning, hadisda aytilganidek, sovuq va issiqdan saqlaydigan jun chopon - *xirqa* kiyib yurganliklari bilan bog'liq.

To'g'ri, tasavvufning paydo bo'lishiga turtki bo'lgan barcha zohidlar ham sufiy deb atalmaganlar. Ularga ko'pincha *zuhhod* (birligi - *zohid*) so'zini qo'llaganlar. Zohidlik amalda islom bilan bir davrda paydo bo'ldi. Tasavvuf yozma an'anasiga ko'ra, Muhammad payg'ambarning sahobalari orasida Abu Dardo, Abu Zarr, Huzayfa kabilarni sufiylar deb ataladi. Ko'pgina sufiy tariqatlari o'zlarining silsilalarini Payg'ambar sahobalaridan biriga va ilk to'rt xalifaga, ko'pincha Abu Bakr (632-634)ga qadar etkazadilar.

Biroq, ko'pchilik tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, islomdagi mistik-zohidlik harakatining paydo bo'lishi VIII asrning o'rtalari - XI asr boshlariga to'g'ri keladi. Ushbu davr sufiylari orasida mashhur hadis yig'uvchilar (*muhaddisun*), Qur'on o'quvchilari (*qurro'*) va ilk sharhlovchilari, hunarmandlar, savdogarlar, bor edi. Shuni ta'kidlash kerakki, zohidlik harakati turfa xil xalifalik jamiyatidagi ijtimoiy va mulkiy tabaqalanishga, doim ham Payg'ambar sunnatlariga amal qilmagan boy tabaqaning ajralib chiqishiga qarshi o'ziga xos harakat edi. Bunday vaziyat avvalgi ikki asr davomida musulmon jamiyatining murakkab diniy hayoti bois ko'pincha ijtimoiy va demakki, siyosiy beqarorlikka sabab bo'lgan. Aynan mana shunday vaziyatda past va o'rta tabaqalar o'zlarining diniy istaklariga ma'naviy-ruhiy ifoda qidirdilar. Ushbu qidirish boshqa mafkuraviy-siyosiy harakatlar bilan bir qatorda sufizm ko'rinishini oldi (passiv ijtimoiy-diniy norozilik ko'rinishi sifatida) va o'sha davrdagi hukumatdan uzoqlashish, boylikdan yuz o'girish, Payg'ambar ta'limotlariga qat'iy amal qilish kabilarga da'vat qildi. Passiv norozilik keyinchalik ko'plab sufiy tariqatlarining asosini tashkil qilgan *tavakkul* (o'zni Allohga topshirish), *sabr*, *rizo* (barcha holga rozi bo'lish) va boshqa qoidalarni rivojlantirgan zohidlik ko'rinishida ham aks etgan. Ayni mana shu paytdayoq ilk diniy marosimlar amaliyoti boshlanib, keyinchalik u sufizmdagi marosimlarning

(tundagi bedorlik, nafl namoz, ro'za va hokazolarning) shakllanishiga ta'sir ko'rsatdi.

Tariqat (arab. الطَّرِيقَةُ - yo'l, yo'nalish)- sufiylik atamasiga ko'ra solikni Alloh tomon eltadigan, turli ruhiy-ma'naviy manzil va maqomlarni bosib o'tishni o'z ichiga olgan maxsus yo'l.

Sufiylikka xos tushuncha sifatida tariqat - pir-shayxlar o'z muridlarini Allohga yaqinlashmoq va Uning roziligiga erishmoq maqsadida joriy etgan qoida va rusumlar majmuasidir.

Tariqatlarning tashkil topishi va islom olamida keng tarqalishiga tarixiy hodisalar ham turtki bo'lganini alohida ta'kidlash o'rinlidir. Mo'g'ullar bosqini, abbosiy xalifalarning zaiflashuvi, ulamolardan ko'ra tariqat shayxlarining obro'si oshib borishi, islom olamidagi umumiy tushkunlik davrida birodarlik hissi bilan birlashtiruvchi tariqatlarning oddiy musulmonlar nazdida ahamiyati oshib bordi.

### **Tasavvuf tariqatlarining kelib chiqishi. Markaziy Osiyoda tasavvuf.**

XII-XIV asrlarda tasavvufda ilk tariqatlar vujudga keldi, deyiladi. Bu tariqatlar keyinchalik paydo bo'lgan barcha tariqat tarmoqlari yoki alohida tariqatlarning o'zagi hisoblanadi.

Tasavvufning dastlabki davrida ilm sifatida shakllanish jarayonini tobeiy Hasan Basriy (642-768) shaxsiyati bilan bog'laydilar. Manbalarda u inson qalbining nozik jihatlarini anglay oladigan ruhshunos sifatida gavdalanadi. Uning aytgan hikmatli so'zlari keyingi davr tasavvufiy adabiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan. Tariqat silsilalarining aksariyatida Hasan Basriy ismining uchrashi odatiy holga aylangan. VIII asr oxiri - IX asr boshlarida Hasan Basriyning izdoshlari Raboh ibn Amr, Abdurahmon Daroniyalar (Ibn Atiyya) targ'ibotlarida Xudoga muhabbat va ilohiy ishq mavzulari namoyon bo'la boshladi. Bu mavzu tasavvufga yangi shakl va mazmun bera boshladi.

Abdulqodir Jiloniy (vaf. 1166 y.) izdoshlari ta'sis etgan qodiriya tariqati dastlabki tariqatlardan biri hisoblanadi. Keyingi o'rinda vujudga kelgan tariqatlardan biri Ahmad Rifoiiy (1106-1183) asos solgan rifoiiya tariqati

deyiladi. Mazkur tariqat o'z asoschisining hayotlik paytida to'laqonli tariqat sifatida e'tirof etib bo'lingan edi. Suhravardiya kabi ba'zi tariqatlar esa tashkiliy tuzilmasi yo'qligi tufayli tom ma'nodagi tashkilot sifatidatariqatga aylana olmadi. Tariqatlarni bir-biridan farqlanishida zikr katta ahamiyat kasb etadi. Tariqatlarning asosiy xususiyatlarini quyidagicha umumlashtirish mumkin: silsila orqali o'tadigan baraka merosxo'ri sifatida tariqat shayxiga to'liq itoat etish tamoyili; ierarxik itoat asosiga qurilgan yagona tashkilot tizimining mavjudligi; tariqat shayxiga bay'at berish; jismoniy, asketik va ruhiy mashqlar (uzlat, zikr, nafl ro'za, bedorlik va h.k.)ni bajarishda ichki tartib-qoidalarning mavjudligi; jamoaviy zikrning marosim sifatidagi ahamiyati; tariqatda avliyolar qabri bilan bog'liq e'tiqodning mavjudligi.

**Markaziy Osiyoda tasavvuf.** Ilk zohidlik harakatlari Markaziy Osiyo mintaqasini ham chetlab o'tmagan. Buxoro, Samarqand, Xorazm, Nasaf (Qarshi) shaharlarida faoliyat olib borgan ilk sufiy-zohidlar haqidagi ma'lumotlar qadimgi qo'lyozma manbalarda ko'p uchraydi.

Mintaqada o'zining butun islom olamida katta obro' qozongan nazariyotchilari ham bo'lgan. Ular orasida Buxoro yaqinidagi Kalobod qishlog'ida tug'ilib, shu erda dafn etilgan Abu Bakr Ahmad ibn Is'hoq al-Kalobodiyini (vaf. 990, yoki 995 y.) zikr etish o'rinli. U shuningdek hanafiy faqih sifatida ham mashhur. Uning islom olamidagi eng birinchi tasavvufiy asarlardan hisoblangan «*at-Ta'aruf li-mazhab ahl at-tasavvuf*» nomli asari hozirga qadar ilk musulmon tasavvufi sohasidagi ensiklopedik asar hisoblanadi. Asarda sufiylar qarashlari tizimi va ularning amaliyotlari ancha to'liq bayon etilgan. Aynan shu asarda sufiylarning ba'zi qoidalarini islom me'yorlari bilan muvofiqlatirishga harakat qilinadi.

Tasavvufning Markaziy Osiyoda (eng avvalo o'zining an'anaviy tarixiy-diniy markazi - Movarounnahrda) tashkiliy jihatdan o'zining asl ruhiy uslubi va maxsus markazlar (*zavviya, xonaqoh, ribot*) doirasida o'ziga xos tariqatlar ko'rinishida shakllanishi kechroq, taxminan XII - XIII asr boshlariga to'g'ri keladi. Ayni mana shu davrda mintaqada eng yirik tariqatlar paydo bo'ldi, ular

keyinchalik musulmon olamining katta qismiga tarqaldi, hozirgi davrda esa ular hatto G'arbiy Yevropa, Yaponiya va AQShda ham foaliyat yuritmoqda (bu erda so'z Naqshbandiya/Mujaddidiya guruhlariga haqida bormoqda).

**Kubraviya tariqati.** Hozirda ham amaliy va nazariy tarixi o'rganilayotgan bunday ilk tariqatlardan biri Kubraviya tariqatidir. Bunday nom uning asoschisi Najm ad-Din Kubro nomidan olingan (1145-1221; to'liq nomi: Ahmad ibn 'Umar). U *Xivaq* (hoz. Xiva, Xorazm viloyati) shahrida tug'ilgan, diniy bilimlarni o'rgangan. U uzoq vaqt sayohat qilgan (Misr, Eron) va tasavvuf ilmi bilan yaqindan tanishgan. Uning sufiy ustozlaridan eng mashhuri Ismo'il al-Kisriy (vaf. 1193 y.)dir. Kubro vatani Xorazmga qaytgach, o'sha davrdagi poytaxt Gurganj (hoz. Kuhna Urganch, Turkmaniston) da o'zining xonaqohi va keyinchalik *Kubraviya* deb nom olgan tariqatiga asos soladi. An'anaga ko'ra, Najm ad-Din Kubro Gurganjni mug'ullardan himoya qilish vaqtida qo'lida qurol bilan shahid bo'lgan.

Kubraviya ta'limotining aqidasi - sunniylik talablariga amal qilishdir. Ular maslaklarining nazariy asosini koinotning «ikki bosqichli» - kichik olam va katta olamdan tuzilganligi haqidagi qoida tashkil qiladi. Ularning birinchisi «quyi olam»ga tegishli bo'lsada, lekin oliy borliqni, ya'ni katta olamni o'zida aks ettiradi. Bu ta'limotga ko'ra, inson kichik olamning asosiy qismini tashkil qiladi va Allohning ba'zi sifatlarini o'zida aks ettira oladi yoxud oliy borliq haqidagi tasavvurlarni qabul qila oladi, biroq ularni o'zida anglay oladigan kishi bu faqat sufiy, bevosita shayx qo'l ostida tasavvuf yo'liga ergashgan kishidir.

O'z taraqqiyotining dastlabki davrlarida kubroviya O'rta Osiyo siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy hayotida faol ishtirok etib, mintaqada kuchli mavqega ega bo'lgan.

Najmiddin Kubro asarlari orasida eng mashxuri "Usuli ashara" risolasi bo'lib, bu asar barcha tariqatlarga o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Shayx Najmiddin Kubro asos solgan kubroviylik tariqati nafaqat Movarounnahr, balki Eron, Misr, Hindiston, Iroq va Afg'oniston xududiga ham kirib borgan. Kubroviylik tariqatidan firdavsiya, nuriya, rukniya, hamadoniya,

ig‘tishoshiya, nurbaxshiya, ne‘matullohiya kabi yangi tariqat shahobchalari o‘tib chiqqan.

**Yassaviya tariqati.** Movarounnahrda xojagon va yassaviya tariqatlari shakllanishida muhim o‘rin tutgan mashhur sufiy Yusuf Hamadoni (1048-1141) ham moturidiylik an‘anasining davomchisi sifatida namoyon bo‘ladi. Yassaviya tariqati eponimi - Ahmad Yassaviy va xojagon shayxi Abdulxoliq G‘ijduvoniyni tarbiyalagan Yusuf Hamadoniyning Markaziy Osiyo tariqatlari, xususan naqshbandiya shakllanishidagi o‘rni juda muhim.

Yusuf Hamadoni va Abdulxoliq G‘ijduvoni tasavvuf tarixidagi buyuk xizmati o‘laroq, tariqat ahli sunnatlarga muvofiq tarzda yashashi va turli bid‘atlar va botil qarashlardan mutlaqo uzoq bo‘lishini isbotlab berdilar. Shariatga amal qilish, undan chekinmaslikni asosiy qoidaga aylantirildi. Tarkidunyochilik va xilvatni rad etib, jamoat bilan birga bo‘lishni shart qilib qo‘yildi. Luqma haloligi - har kim o‘z mehnati bilan kun ko‘rishi zarurligini tariqatning asosiy talabi qilib belgiladi. Axloq masalasi qat‘iy qilib qo‘yildi. Bularning barchasi tasavvuf taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

XII asrda Markaziy Osiyoda vujudga kelgan ilk tasavvufiy tariqatning asoschisi Xoja Ahmad Yassaviy 1105 yilda Sayramda, Shayx Ibrohim oilasida dunyoga kelgan. Hazrati Xoja Ahmad Yassaviy, Qul Xoja Ahmad, Qul Ahmad, Sultonu-l-orifin kabi taxallus va unvonlarga ega bo‘lgan. Uning vafot etgan vaqti ko‘pgina qo‘lyozma manbalarda 1166/67 yil, deb berilgan.

Ahmad dastlabki ta‘limni Yassida mashhur olim Shahobiddin Isfijobiydan oladi. So‘ngra bobosi Arslonbob ko‘rsatmasi bilan Buxoroga boradi. O‘sha zamonlarda ilm-ma‘rifatning o‘chog‘i bo‘lgan Buxoroga Turkistonning turli tomonlaridan tolibi ilmlar yig‘ilar edi. Buxoroda Yassaviy arab tili bilan bir qatorda fors tilini ham chuqur o‘rganadi. Forsiyda yaratilgan tasavvuf adabiyoti bilan tanishadi. Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoni, Abdulloh Barrafiy, Xoja Hasan Andoqiylar bilan hamsuhbat va hammaslak bo‘lib, Yusuf Hamadoni muridlari qatoridan o‘rin oladi. U erda tasavvufdan ta‘lim olib, so‘ng o‘z yurti Turkistonga qaytadi, o‘z ta‘limotini targ‘ib etib, shogird va muridlar tayyorlay boshlaydi.

Rivoyatlarga ko'ra, Yassaviy 63ga (Payg'ambar yoshiga) etgach, er ostida hujra yasatib, «chilla»ga kirgan, qolgan umrini toat-ibodat qilib, qimmatli hikmatlar yozib, riyoatlar chekib, er ostida o'tkazgan. Bir rivoyatga ko'ra, u 125 yil, boshqa rivoyatga qaraganda, 133 yil umr ko'rgan. Yassaviy tarixda ilk turkiyzabon sufiy shoir sifatida ma'lumdir. Uning tasavvufni targ'ib etuvchi turkiyda yozilgan she'rlari tilining xalqqa yaqinligi va ohangdorligi bilan tezda mashhur bo'lib ketgan. Alisher Navoiy Ahmad Yassaviy haqida: «*Turkiston mulkining ulug' shayxul-mashoyixi hazrati Xoja Ahmad Yassaviy juda ko'p sufiy donishmandlarni tarbiyalab voyaga etkazgan*», deb keltiradi.

Yassaviya tariqatining mazmun-mohiyati «Devoni hikmat» she'riy asarida bayon etilgan. XII asrdagi turkiy she'riyatning ajoyib namunasi bo'lgan, keyingi davrlardagi turkiy adabiyotga katta ta'sir ko'rsatgan mazkur asarda poklik, to'g'rilik, kamsuqumlik, mehr-shafqat, halol kasb-hunar egallash, nafsni tiyish, imon-e'tiqodli bo'lish kabi asl insoniy fazilatlar maqtalgan. Zolimlar, poraxo'rlar, mutaassib shayxlar, johil va nodon kimsalar esa qoralangan.

Darhaqiqat, Xoja Ahmad Yassaviy Markaziy Osiyodagi ilk tasavvufiy tariqat - yassaviyaning asoschisi, nafaqat Xuroson va Mavorounnahr, balki turkiy xalqlarning ma'naviy tarixidagi sufiy donishmand, insonparvar shoir hisoblanadi.

Ahmad Yassaviyning Turkiston shahridagi (Qozog'iston hududida) qabri muqaddas qadamjoga aylantirilgan. Dastlab Ahmad Yassaviy qabri ustiga XII asrda kichik maqbara qurilgan bo'lib, uni ziyorat qilgan Sohibqiron Amir Temur qayta qurishga farmoyish beradi va 1395-1397 yillar davomida Yassaviyning qabri uzra mahobatli maqbara qurib bitkaziladi.

**Naqshbandiya tariqati.** XII asrdan boshlab o'lkada keyinchalik butun islom dunyosida dong taratgan eng qadimiy va eng nufuzli tariqatlardan biri - xojagon-naqshbandiya tariqati o'zining tarkidunyochilikni qoralovchi, insonparvarlik, vatanparvarlik va mehnatsevarlikni targ'ib etuvchi ilg'or ta'limoti bilan ajralib turadi.

Naqshbandiya ta'limotining asosida “ko'ngil Xudoda bo'lsin-u, qo'l ish bilan band bo'lsin” (“dil ba yoru, dast ba kor”) shiori yotadi. Naqshbandiyada piru



muridlik qoidalari osonlashtirilgan, sirdan turib e'tiqod qo'yish, imon mustahkamligi, Haq taologa sidqidildan itoat etish, ixlos va ma'naviy kamolot asosiy o'rin egallaydi. Rasm-rusumlar, odatlarni ko'r-ko'rona ado etish, riyo, soxta dindorlik qoralanadi. Axloqiy poklik, qanoatli, sabrli bo'lish, ixtiyoriy faqirlik bilan Allohga intilish yuksak fazilat hisoblanadi. Naqshbandiyada odamning qadri mansabi, boyligi bilan emas, ma'naviy komilligi bilan o'lchanadi. Unda hunar, kasb egallab, o'z mehnati ortidan halol luqma eb yashash talab qilinadi. Tilanchilik, darbadarlik bilan kun kechirish so'fiy uchun isnod sanaladi. Qul, xizmatkor saqlash, o'zganing mehnatidan foydalanish ham man etiladi. Naqshbandiyaning yuqoridagi shiori tarkidunyochilikka, tekinxo'rlikka qarshi qaratilgan. Unda manmanlik, so'fiy, shayxman deb kerilish, shovqin-suron ko'tarib zikru samo' bilan odamlar diqqatini o'ziga qaratish qoralanadi. Naqshbandiyada asosiy talab - qalbni dunyo g'uborlaridan tozalash, o'z nafsiga qarshi kurashish, ruhda charog'onlik topish, qallda Alloh nomlarini naqshlab borish usullari ishlab chiqilgan. Zikri xufiya (yashirin zikr) shunga xizmat qilgan. "Tashqaridan xalq bilan, ichkaridan Haq bilan bo'lish", har bir nafasni Xudo yodi bilan chiqarish, qadamni savob ishlar, ezgu amallar sari qo'yish, yurt kezib, aziz-avliyolar qabrini ziyorat qilish, g'ofillarni hushyor etish, har qanday holatda qalb ogohligiga erishish naqshbandiyaning asosiy ma'naviy tarbiya usuli hisoblangan.

XVIII asrning II yarmidan boshlab, O'rta Osiyoning mujaddidiya shayxlari ushbu ta'limotni Markaziy Osiyo va Volga-Ural mintaqasida tarqalishiga salmoqli hissa qo'shadilar. Mujaddidiyaning ko'plab shayxlari O'rta Osiyoda ushbu ta'limotni mustahkamlab, bu erdagi avvaldan mavjud bo'lgan naqshbandiy jamoalar bilan birga asta-sekinlik bilan boshqa tariqatlarni siqib chiqargan mahalliy ta'lim markazlariga asos soladilar.

Yetti pir - Abduxoliq G'ijduvoni, Muhammad Orif Revgariy, Mahmud Anjir Fag'naviy, Xoja Ali Romitaniy, Muhammad Boboyi Samosiy, Sayyid Amir Kulol va Bahouddin Naqshband xojagon-naqshbandiya tariqati «oltin silsila»sining halqalaridir. Ular ko'ngilni nafsu hirsdan poklash, halol mehnat ila umr kechirish, Allohni sidqidildan sevish g'oyalarini targ'ib qilgan. Ushbu aziz-avliyolarning

asarlari, qilgan ishlari zamonlar osha odamlarni tarbiyalab, ularga dinu diyonat, odob-axloq, ezgu soʻz va amaldan saboq berib kelmoqda.

Bugungi kunda Yetti pirning muqaddas qadamjolarini yanada obod qilinmoqda. Ziyoratgohlar taʼmirlanib, ziyoratchilar uchun mazkur barcha zaruriy shart-sharoitlar hozirlanmoqda. Ayni damda “Etti pir”ning boy ilmiy-maʼnaviy, axloqiy merosini chuqur oʻrganish, uni odamlarga tanitish tobora dolzarb ahamiyat kasb etib boradi. Zero, butun olam eʼtirof etayotgan ajdodlarimizning tanish va tanitish ulkan maʼnaviy burch hisoblanadi.

Naqshbandiya-mujaddidiya tariqati vakillari boshqa tariqat aʼzolari bilan ham aloqada boʻlgan. Jumladan yassaviya, qodiriya, xalvatiya tariqatiga ham oʻz taʼsirini koʻrsatgan.

#### **Mavzu yuzasidan savollar:**

1. Islomda ilk boʻlinish qaysi yili boʻlib oʻtgan?
2. Fiqhiy mazhablarning paydo boʻlishiga qanday omillar boʻldi?
3. Imom Abu Hanifa kim va u qanday mazhabga asos soldi?
4. Mazhabsizlik daʼvo qilayotgan gʻoyalarning qanday salbiy oqibatlar bor?
5. Tasavvufning omillar qaysi shakllanishga sabab boʻlgan?
6. Tasavvufdagi asosiy taʼlimotlar va rasm-rusumlar.
7. Tasavvufning Movarounnahrda tarqala boshlashi.

#### **Mustaqil ish topshiriqlari**

1. Naqshbandiya: faoliyati va asosiy taʼlimotlari tarixi haqida maʼlumot bering.
2. Kubraviya taʼlimotining asosiy nazariy qoidalari nimalardan iborat?
3. Markaziy Osiyoda Yassaviya: oʻrganish muammolari.
4. Tasavvufning mintaqadagi eng soʻnggi tarixi haqida nimalarni bilasiz?
5. Islom tarixida ixtiloflar va ularning xal etilishi.
6. Fiqhiy mazhablar tarixi.

## 7. Hanafiy mazhabi manbalari

### **Adabiyotlar:**

1. Ahmad Sirhindiy. Al-Maktubot ar-Rabboniyya. - Bayrut: Dor al-Kutub al-ilmia, 2004.
2. Komilov N. Tasavvuf. - Toshkent: O'zbekiston, 2009.
3. Islom: ensiklopediya. – T.:O'zbekiston milliy ensiklopediyasi,2004.
4. Tasavvuf atamalari izohli lug'at. Mualliflar jamoasi. - Toshkent: Movarounnahr, 2014.

## MAVZU: O'ZBEKISTONDA FAOLIYAT YURITUVCHI DINIY TASHKILOTLAR.

### **Mashg'ulot rejasi:**

1. Konfessiya tushunchasining mohiyati. Davlat va din munosabatlari.
2. O'zbekistonda vijdon erkinligini ta'minlanishi.
3. O'zbekistonda davlat va diniy tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlar.

BMTning 72 sessiyasida diniy bag'rikenglik haqidagi rezolyutsiyasini qabul qilinishi.

**Tayanch tushunchalar:** *diniy tashkilotlar, diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruv organlari, konfessiya, masjid, vijdon erkinligi, e'tiqod erkinligi, dahriy - ateist, dinning davlatdan ajzsratilish, sekulyarizm.*

### **Konfessiya tushunchasining mohiyati. Davlat va din munosabatlari.**

“Konfessiya”<sup>29</sup> so'zi (lotincha -“confessio”) o'zbek tilida aynan tarjima qilinganda “e'tiqod qilish”, degan ma'noni anglatadi. Umuman olganda, diniy konfessiya deganda muayyan diniy ta'limot doirasida shakllangan va o'ziga xos xususiyatlarga ega e'tiqod va ushbu e'tiqodga ergashuvchilar jamoasi tushuniladi. Bir din doirasida yuzaga kelgan bo'lsa-da, aqidalar borasida farqlanadigan jamoalar ham diniy konfessiyalar jumlasiga kiradi.

Bugungi kunda O'zbekistonda Adliya organlaridan rasman ro'yxatdan o'tgan 16 ta diniy konfessiya faoliyat olib bormoqda. Ularning jamiyat hayotida birdek ishtirok etishlari uchun zarur imkoniyatlar yaratib berilgan. 2021-yil iyun oyida qabul qilingan “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi” qonunning 7-moddasida “Davlat konfetsiyasilarining tinch-totuv yashashiga kafil bo'ladi. Missionerlik va prozeletizmni amalga oshirishga yo'l qo'ymaydi”<sup>30</sup>deb ta'kidlanadi. Bu bag'rikenglik tamoyillarini yanada rivojlantirishga qaratilgan.

Rivojlangan demokratik yo'ldan ketayotgan davlatlarning hozirgi zamonda dinga munosabati asosan vijdon erkinligini ta'minlash va diniy bag'rikenglikka

---

<sup>29</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Konfessiya>

<sup>30</sup> “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonuni 2021.T.B.3.

asoslangan. Shunga qaramay, bugungi kunda davlat va din o'rtasidagi munosabatlar o'z mazmuni, mohiyati, shakllari va usullariga ko'ra turli davlatlarda o'ziga xoslikka ega. Shu munosabat bilan din va davlat o'rtasidagi munosabatning tiplari, modellari haqida fikr yuritish mumkin.

Hozirda davlat bilan din (diniy tashkilotlar) o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishning turli shakllari mavjud bo'lib, ular bugunga kelib quyidagi uchta asosiy turkumga ajratiladi:

1. Davlat-diniy tashkilot modeli - identifikatsion model. Bunday modelni biz, misol uchun, Daniya, Angliya, Gresiya, Shvesiya, Finlyandiya, Norvegiyada (ya'ni Yevropa ittifoqining deyarli uchdan bir qismida), Saudiya Arabistoni, Bruney qirolligi, Qatar, Eron islom respublikasida kuzatishimiz mumkin.

2. Separatsion, ya'ni davlat dindan ajratilganligiga asoslangan model. Davlat bilan din o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishning bu turiga AQSh, Fransiya, Niderlandiya, Turkiya, MDH davlatlari, jumladan O'zbekiston Respublikasi kabi davlatlarni misol sifatida keltirish mumkin.

3. Kooperatsion - neytralitet modeli. Germaniya, Ispaniya, Italiya, Belgiya, Lyuksemburg, Avstriya kabi mamlakatlarida o'z aksini topgan.

O'zbekistonda tarkib topgan davlat va din o'rtasidagi munosabat o'z mohiyati, mazmuni va huquqiy asoslariga ko'ra separatsion modelga, ya'ni davlatdan din, umumta'lim maktablaridan diniy ta'limning ajratilganligi va vijdon erkinligi, konfessional bag'rikenglik ta'minlanganligiga asoslanadi.

O'zbekiston dunyoviy davlat bo'lib, mamlaktimizda din davlatdan alohida bo'lib, bu haqda mamlakatimiz Konstitutsiyasining 61-moddasida shunday deyiladi: «Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi».

Bu g'oya «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonunning 5-moddasida ham mustahkamlangan bo'lib, unda ham dinning davlatdan ajratilganligi, hech bir dinga yoki diniy e'tiqodga boshqalariga nisbatan biron-bir imtiyoz yoki cheklashlar belgilanishiga yo'l qo'yilmasligi belgilab qo'yilgan.

2021-yil iyun oyida qabul qilingan “Vijdon erkinligi diniy tashkilotlar to’g’risida”gi qonunning 7-moddasida dinning davlatdan ajratilganligi ko’rsatilgan. “O’zbekiston Respublikasida din davlatdan ajratilgan. O’zbekiston Respublikasida diniy tashkilotlar va davlat organlarining faoliyati o’zaro aralashmaslik asosida amalga oshiriladi”<sup>31</sup>.

Bu esa mamlakatimizda davlatning diniy ishlarga, dinning esa davlat ishlariga (qonun hujjatlarida ko’rsatilgan holatlar bundan mustasno, albatta) aralashmasligini anglatadi.

Buning zahirida davlat tomonidan turli dinlarga e’tiqod qiluvchi va dinga e’tiqod qilmaydigan fuqarolar, shu kabi tashkilotlar o’rtasida o’zaro murosa va hurmat o’rnatilishiga ko’maklashishi, ular o’rtasida vujudga kelishi mumkin bo’lgan qarama-qarshilik va keskinliklarning oldini olishi, diniy konfessiyalar o’rtasidagi tinchlik va totuvlikni qo’llab-quvvatlashi, diniy tashkilotlar zimmasiga davlat o’zining hech qanday vazifasini bajarishni yuklamasligi, ularning qonun hujjatlariga zid bo’lmagan faoliyatiga aralashmasligi kabilar yotadi.

Shu bilan birga O’zbekiston Respublikasi demokratik prinsiplarga sodiqligini ifodasi sifatida davlatning din va diniy tashkilotlar bilan o’zaro munosabatda quyidagi prinsiplarga amal qilishini e’lon qildi:

- dindorlarning diniy tuyg’ularini hurmat qilish;
- diniy e’tiqodlarni fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish;
- diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta’qib qilishga yo’l qo’ymaslik;
- ma’naviy tiklanish, umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni qaror toptirish ishida turli diniy uyushmalarning imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqot qilish yo’llarini izlash zarurati;

---

<sup>31</sup> “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi qonuni 2021.T.B.3.

- dindan buzg'unchilik maqsadlarida foydalanishga yo'l qo'yib bo'lmasligini e'tirof etish.

Yuqoridagilarga asoslangan holda, xulosa qilish mumkinki, biz yuqorida tahlil etgan davlat va din o'rtasidagi munosabatning uch modeli davlat va din o'rtasidagi munosabatning turli-tuman qirralarini jihatlarini va xossalarini to'laligicha qamrab ololmaydi. Davlat va din o'rtasidagi munosabatning bir modelida boshqa model elementlari ham uchrab qolishi mumkin. Shu jihatlarini hisobga olgan holda aytish mumkinki, davlat va din o'rtasidagi munosabatning qaysi modelda bo'lishi shu davlatning taraqqiyoti, undagi aholining mentaliteti, dinning xususiyati, mamlakatdagi demokratik vaziyat, inson huquqlarining ta'minlanganligi, xalqaro ahvol, jamiyatning ongi kabi omillar ta'sir etishi shubhasizdir.

**O'zbekistonda vijdon erkinligini ta'minlanishi.** Vijdon erkinligi tabiiy huquq va erkinliklar sirasiga kiruvchi, har bir shaxsning ajralmas huquqlaridan biridir. Shaxsning tabiiy huquqlari davlatning insonga bergan «tuhfasi» emas, balki insonning munosib turmush va hayot tarzini tanlash bilan bog'liq real imkoniyati hisoblanadi.

Shu bilan birga, tabiiy huquqlar jumlasiga kiruvchi erkinliklarni qonun chiqaruvchi o'zi xohlaganda qisqartirishi yoki cheklashga ham haqli emas. Chunki bu huquqlar insonlarga tabiatan (Xudo tomonidan) berilgan in'om sanaladi. Vijdon erkinligi ham xuddi shunday.

Vijdon erkinligi insonning asosiy erkinliklaridan bo'lsa-da, qonunda o'z ifodasini topib, muhofaza ostiga olingandagina chin ma'noda huquq darajasiga ko'tariladi. Aks holda shaxsning qalb kechinmalarini ifodalovchi bu huquq haqiqiy ma'nosini yo'qotadi.

Bu erkinlik deyarli barcha davlatlarning konstitutsiya va qonunlarida, shuningdek, qator xalqaro hujjatlarda huquqiy jihatdan himoyaga olingan.

«Vijdon» (*arab.* ehtiros, his-tuyg'u, insof, diyonat) kishining o'z xatti-harakati, qilmishi, yurish-turishi uchun odamlar, jamoatchilik oldidagi mas'uliyat hissi, insoniylikning asosiy belgilaridan biri; diyonat, insof», deya izoh berilgan.

Bundan ko‘rinib turibdiki, vijdon so‘zining birinchi ma‘nosi insoning o‘z xatti-harakatlarini uchun o‘zgalar oldidagi mas‘uliyat hissi hisoblanar ekan.

Huquqiy mezonda vijdon tushunchasi «vijdon erkinligi» shaklida keladi. O‘zbekistonning asosiy qomusi -Konstitutsiyadaning 31-moddasida va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining (yangi tahriridagi) 35-moddasida ta’kidlanishicha «Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi» (35-modda)<sup>32</sup>, degan qoida mustahkamlangan.

Bu qoidaga ko‘ra «vijdon erkinligi» degan tushunchaning mazmun-mohiyati shaxsning xohlagan dinga e’tiqod qilishi bilan birga, hech qanday dinga e’tiqod qilmaslik ixtiyorini ham qamrab oladi. Bu modda so‘ngida «diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi», degan muhim qoida asosida, har bir inson haqli bo‘lgan huquqning buzilmasligi uchun qonuniy zamin tayyorlangan. Buning zamirida vijdon erkinligiga nisbatan har qanday tahdidni bartaraf etish istagi yotadi.

Shunday qilib, Konstitutsiyamizdagi norma asosida vijdon erkinligi uch jihatni anglatadigan huquqiy kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi:

- Muayyan shaxs Xudoga ishonishi, xohlagan diniga e’tiqod qilishi mumkin;
- Xudoga va dinga ishonmasligi, ularga nisbatan betaraf bo‘lishi mumkin.
- Dahriy, ya’ni hech bir dinga e’tiqod qilmaygina qolmasdan, balki ularni inkor etishi mumkin.

Bu vijdon erkinligi huquqi aynan shu masalalar bilan cheklanadi degani emas. Odatda, konstitutsiya davlatning asosiy qonuni bo‘lib, yoritiladigan normaning umumiy jihatlarini o‘zida qamrab oladi. Konstitutsiya asosida qabul qilingan qonun va qonun osti hujjatlarida norma kengroq yoritiladi va sharhlanadi. Konstitutsiyadagi 31-modda zamirida qabul qilingan «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonunning 3-moddasi birinchi va ikkinchi banlarida bu tushuncha kengroq ochib berilgan. Unda aytilishicha, «Vijdon erkinligi

---

<sup>32</sup> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi(yangi tahrirda).O‘zbekiston.T.,-B.24.



fuqarolarning har qanday dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslikdan iborat kafolatlangan konstitutsiyaviy huquqidir.

Fuqaro o'zining dinga, dinga e'tiqod qilishga yoki e'tiqod etmaslikka, ibodat qilishda, diniy rasm-rusumlar va marosimlarda qatnashish yoki qatnashmaslikka, diniy ta'lim olishga o'z munosabatini belgilayotgan paytda uni u yoki bu tarzda majbur etishga yo'l qo'yilmaydi».

Demak, vijdon erkinligi faqat Xudoga ishonish yoki ishonmaslikdan tashqari, ibodat qilish, diniy rasm-rusumlar va marosimlarda ishtirok etish erkini, shuningdek, diniy ta'lim olish yoki olmaslikni o'z ixtiyori asosida belgilash huquqlarini ham o'z ichiga oladi. Shu o'rinda maslanning ikkinchi jihatini ham e'tiborga olish zarur, ya'ni O'zbekistonda diniy ta'lim maktab ta'limidan ajratilgan. Shuningdek, O'zbekiston qonunchiligida xususiy tartibdagi diniy ta'lim taqiqlanadi. Shunday ekan, diniy ta'lim maxsus vakolatga ega bo'lgan diniy ta'lim muassasalarida o'rganiladi.

Ba'zi huquqiy adabiyotlarda «vijdon erkinligi» o'rnida «e'tiqod erkinligi» tushunchasini ham uchratish mumkin. Aslida «e'tiqod» (arabcha «i'taqada» fe'lidan) so'zi ham ko'p ma'noli so'zlar jumlasiga kirib, ishonch, imonli bo'lish, ko'ngilda tasdiqlash kabi bir necha ma'nolarga ega. Biz uchun kerakli bo'lgan ma'nosiga keladigan bo'lsak, Xudoga yoki umuman g'ayritabiiy kuchlarga imon keltirishni anglatadi.

E'tiqod erkinligi ham vijdon erkinligi singari shaxsning biror dinni ixtiyor etib, unga e'tiqod qilishi huquqini anglatadi. Lekin bu huquq vijdon erkinligi qoidalari ruxsat beradigan dahriy bo'lish huquqini kafolatlamaydi. Shu kabi farqlar sababli ayrim davlatlar qonunchiligida (musulmon arab davlatlarida) vijdon erkinligi emas, e'tiqod erkinligi kafolatlangan. Shunga asosan agar inson amal qilib turgan dinidan chiqadigan bo'lsa, ayrim hollarda qonuniy jazo sanksiyalarining qo'llanilishi ham e'tiqod erkinligining o'ziga xos xususiyatini ko'rsatadi.

Shunga ko'ra, aytish mumkinki, vijdon erkinligi e'tiqod erkinligidan kengroq tushuncha hisoblanadi.

Vijdon erkinligi tushunchasi xalqaro huquqiy hujjatlarda ham atroflicha bayon etilgan. Jumladan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 18-moddasida shaxsning vijdon erkinligi huquqi kafolatlangan. Unda aytilishicha, «Har bir inson fikr, vijdon va din erkinligi huquqiga ega; bu huquq o‘z dini yoki e‘tiqodini o‘zgartirish erkinligini va ta‘limotda, toat-ibodat qilishda va diniy rasm-rusm hamda marosimlarni ommaviy yoki xususiy tartibda ado etish, o‘z dini yoki e‘tiqodiga yakka o‘zi, shuningdek, boshqalar bilan birga amal qilish erkinligini o‘z ichiga oladi».

Xulosa qilib aytish mumkinki, vijdon erkinligi shaxsning konstitutsiyaviy tabiiy huquqi bo‘lib, davlat bu erkinlikni huquqiy kafolatlash va amalda ta‘minlash tadbirlarini ro‘yobga chiqarish bilan bir qatorda, uni poymol etishga nisbatan har qanday tahdidning oldini olishga ham intiladi. Qonun ustuvorligi eng oliy mezon bo‘lgan fuqarolik jamiyatining har bir a‘zosi ushbu qonuniy talabga to‘g‘ri munosabatda bo‘lib, uning hayotga tatbiq etilishiga hissa qo‘shishi lozim. Chunki eng muhim konstitutsiyaviy huquqlardan bo‘lgan vijdon erkinligi huquqining amalda ro‘yobga chiqarilishi fuqarolik jamiyatining ma‘naviy-madaniy rivojlanganlik darajasining ham muhim ko‘rsatkichlaridan hisoblanadi.

**O‘zbekistonda davlat va diniy tashkilotlar o‘rtasidagi munosabatlar.** Inson va fuqarolarning vijdon erkinligi huquqini amalga oshirishlarida diniy tashkilotlarning muhim o‘rni bor. Davlat bilan din o‘rtasidagi munosabatlarda sub‘ekt sifatida bir tomondan e‘tiqod qiluvchilar, ya‘ni fuqarolar, ikkinchi tomondan davlat va uchinchi tomondan diniy tashkilotlar qatnashadi.

O‘zbekiston dunyoviy davlat va diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan bo‘lishiga qaramay, ularni jamiyatdan ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Shu sababli davlat diniy tashkilotlarning qonuniy faoliyatini qo‘llab quvvatlaydi, jamiyatning ma‘naviy qadriyatlarini tiklanishi va rivojlanishida diniy tashkilotlar ko‘magiga tayanadi, ya‘ni O‘zbekistonda din davlatdan ajratilgan bo‘lsada, jamiyatning ajralmas bo‘lagi hisoblanadi.

Bugungi kunda din bilan bog‘liq huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchi fuqarolar va davlatning o‘rni va ahamiyati birmuncha oydin bo‘lsa-da, diniy

tashkilotlar haqida, ularning maqomi va vazifalari, faoliyati haqida ma'lumotga ega bo'lish vijdon erkinligi sohasidagi bilim va ko'nikmalarning yanada ortishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil iyun oyida qabul qilingan «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonunining 11-moddasi diniy tashkilotlarni tashkil etishga bag'ishlangan bo'lib, unda aytilishicha "Diniy tashkilot ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan e'tiboran tashkil etilgan deb hisoblanadi.

Diniy ta'lim muassasasi ro'yxatidan o'tkazilganidan va vakolatli organning tegishli litsenziyasini olganidan keyin o'z faoliyatini amalga oshiradi"<sup>33</sup>.

Diniy tashkilot tushunchasiga berilgan ta'riflar o'rtasida mushtarak jihatlar mavjud. Umuman olib qaraganda diniy tashkilot inson va fuqarolarning vijdon erkinligi huquqini amalga oshirishlariga ko'maklashuvchi tashkilot hisoblanadi.

Mamlakatimizda faoliyat yuritadigan barcha diniy tashkilotlar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi yangi tahrirdagi qonuniga va amaldagi boshqa qonunchilik hujjatlariga asosan tashkil etiladi va faoliyat ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi yangi tahrirdagi qonuniga asosan diniy tashkilotlar faoliyati fuqarolarning *dinga e'tiqod qilish, ibodat qilish, diniy rasm-rusumlar va marosimlarni birgalikda ado etishlariga ko'maklashishni* maqsad qiladi.

Qonunchilikda diniy tashkilotlarning bir necha turlari e'tirof etiladi. Unga ko'ra, *diniy jamiyatlar, diniy o'quv yurtlari, masjidlar, cherkovlar, sinagogalar, monastirlar* va boshqa tashkilotlarga diniy tashkilot maqomi beriladi.

Diniy tashkilot huquqiy jihatdan e'tirof etilishi uchun, avvalo, u qonuniy asoslarga ega bo'lishi lozim. Respublikamizda tuziladigan diniy tashkilotlar ustav (nizom)i O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yoki uning joylardagi organlarida ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lib, qonunchilikda belgilangan tartibda o'z faoliyatini olib borishi mumkin.

---

<sup>33</sup> «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni 2021.T.B.4.

Respublikamizda davlat organlari bilan diniy tashkilotlarning o‘zaro munosabatlarini muvofiqlashtirish hamda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilish vazifasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din qo‘mita zimmasiga yuklangan.

Qo‘mita har bir shaxsning vijdon va diniy e‘tiqod erkinligi huquqi, fuqarolarning dinga bo‘lgan munosabatidan qat’i nazar tengligini ta‘minlash, shuningdek diniy tashkilotlar faoliyati bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish sohasidagi vazifalarni hal etish vakolati berilgan davlat boshqaruvi organi hisoblanadi. U mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan birgalikda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq diniy masalalarni hal qilishda yagona siyosatni amalga oshiradi.

Diniy tashkilotlarni vijdon erkinligini ta‘minlashdagi o‘rni va ahamiyatini hisobga olib davlat tomonidan ularga bir qator imtiyozlar ham belgilangan. Jumladan, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi qonunning 16-moddasida diniy tashkilotlar muayyan miqdorda davlat mulkidan foydalanishlari mumkin ekani ko‘rsatilgan. Shunga ko‘ra, diniy tashkilotlar o‘z ehtiyojlari uchun davlat organlari tomonidan shartnoma asosida beriladigan binolar va mol-mulkdan foydalanishga haqlidir. Bu esa tegishli hokimiyat organlari ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining «Madaniy meros ob‘yektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida»gi qonunining 27-moddasiga muvofiq tarixiy va madaniy yodgorliklar ob‘ektlari va buyumlar diniy tashkilotlarga tekin foydalanish shartnomasi shartlarida berib qo‘yilishi ko‘zda tutilgan.

Shunday qilib, O‘zbekistonda barcha shaxslarning vijdon va e‘tiqod erkinligi huquqini ta‘minlashga xizmat qiluvchi diniy tashkilotlarning hech bir to‘siqlarsiz, qonunda belgilangan tartib va asoslarda faoliyat olib borishlari uchun tegishli huquqiy asos va tashkiliy shakllar ta‘minlangan. Bu holat davlatimizning dunyoviy demokratik davlat sifatida rivojlanayotgani hamda diniy bag‘rikenglik tamoyillariga sodiq ekanini ko‘rsatadi.

O'zbekiston zaminida kishilarda, yurtimizda tarixan diniy zamindagi adovat va kelishmovchiliklar bo'lmagani, turli konfessiyalar va din vakillariga nisbatan yuksak ehtirom va hurmat, o'zaro muhosada yashashga intilish xalqimizning asrlar osha kamol topgan fazilatlaridan biri ekani haqida tegishli bilim, ko'nikma va qadriyatlar tizimini shakllantirish bag'rikenglik madaniyatini tarbiyalashning zarur sharti hisoblanadi.

Davlatimiz tomonidan yurtimizda tinch -totuvlikni kamol toptirish, millatlararo bag'rikenglik tamoyilini yanada mustahkamlash borasida bir qancha ustuvor vazifalar amalga oshirilmoqda.

Bag'rikenglik va o'zaro hurmatni qaror toptirish, diniy e'tiqodni ta'minlash, e'tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslikka ko'maklashishga qaratilgan harakatlarimiz butun dunyoda manzur bo'lmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan rezolutsiyaning qabul qilish taklifi O'zbekiston tomonidan ilgari surilgani va ushbu hujjatning qabul qilingani bunga yaqqol misol bo'la oladi.

2017-yil 19-sentabr BMT Bosh Assambliyasining 72-sessiyasida<sup>34</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirok etib nutq so'zladi. Shavkat Mirziyoyev sessiya ishtirikchilariga BMT Bosh Assambliyasining "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish taklifini berdi. Bu hujjatning asosiy maqsadi:

1. Barchaning ta'lim olish huquqini ta'minlashga, savodsizlik va jaholatga barham berishga ko'maklashishdan iborat

2. Ushbu rezolyusiya bag'rikenglik va o'zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta'minlash, e'tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslikka ko'maklashishga qaratilgan.

2018-yil 19-dekabr BMT Bosh Assambliyasi 12-yalpi sessiyasida rezolyutsiya qabul qilindi.

---

<sup>34</sup> <https://president.uz/oz/lists/view/1063>

## **Mavzu bo'yicha savollar**

1. Vijdon erkinligi nima va uning e'tiqod erkinligidan qanday farqlari mavjud?
2. Diniy tashkilot nima va uning boshqa jamaot tashkilotlaridan qanday farqlari bor?
3. Davlat va din o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishning qanday metodlarini bilasiz?

## **Mustaqil ish topshiriqlari**

1. O'zbekistonda davlat organlari bilan diniy tashkilotlarning o'zaro munosabatlari.
2. O'zbekistonda din davlatdan ajratilishining o'ziga xos jihatlari.
3. O'zbekiston Respublikasi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi (yangi tahrirdagi) Qonunining o'ziga xos jihatlari.
4. O'zbekiston Respublikasi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi (yangi tahrirdagi) Qonunida davlat va din munosabatlarining tartibga solinishi.
5. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mitaning maqsad va vazifalari.

## **Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2023.
2. "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni 2021.
3. Davlat va din. O'quv qo'llanma / Tuzuvchilar: D.Rahimjonov, N.Ismatova, G.Xudayberganova, L.Alidjanova, O.Ernazarov. - Toshkent: Somplex Print, 2019. - 136 b.
4. Dinshunoslik. O'quv qo'llanma / Muratov D., Alimova M., Karimov J., Najmiddinov J., Jo'raev Sh. -Toshkent, 2019. - 286 b.
5. Hasanboev O'. O'zbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy tashkilotlar, oqimlar, mafkuraviy kurashning dolzarb yo'nalishlari. T.: Tosheknt islom universiteti. 2014. -552 b.

6. Abduxoliqov S. Vijdon erkinligi: metodologiya muammolari. - T.: Fan, 1997. -302 b.

7. Ochildiev. A Diniy ekstremizm va terrorizimga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. -T.: TIU nashriyot-matbaa birlashmasi, 2008. -246 b.

## **MAVZU: KIBER MAKONDA DINIY E'TIQOD TARG'IBOTINING IJTIMOIY XAVFI.**

### **Reja:**

1. Kibermakon, kiber terrorizm tushunchalarining mohiyati.
2. Internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlarda diniy targ'ibot usullari.
3. Yoshlarni internet va ijtimoiy tarmoqlardagi axborot xurujlaridan asrashning dolzarb masalalari.

### **Tayanch tushunchalar:**

*Kibermakon, kibermakon va din, ijtimoiy tarmoqlar tahdidlari, axborot asri tahlikalari, internet tarmog'idagi axborot urushi, global tarmoqdagi g'oyaviy xurujlar oldini olish, barkamol avlodni mafkuraviy xurujlardan himoya qilish.*

### **Kibermakon, kiber terrorizm tushunchalarining mohiyati.**

Kibermakon kompyuter tarmoqlari orqali amalga oshiriladigan muloqot maydonini ifodalovchi voqelik sifatida 1990 yildan boshlab keng miqyosida rivojlanib, takomillashib kelmoqda. Kibermakon tushunchasini dastlab kanadalik yozuvchi Uilyam Gibson 1982 yil «Sojjenie Xrom» («Burning Chrome»)<sup>35</sup> nomli hikoyasida yozadi.

Keyinchalik, Gibsonning 1990 yilda yozib tugatgan «Neuromancyer» («Asabli manzaralar tasvirlovchisi», «Nervo-sochinitel») nomli texno-utopik fantastik trilogiyasida qo'llagan. Bu asardagi kibermakon tushunchasi millionlab odamlarning jamoaviy sarob, xayolparastlikning o'ziga xos ko'rinishi sifatida tasvirlangan. Bu erda jamoaviy sarob yoki xayolparastlik inson ongida sub'ektiv psixologik holat sifatida namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy nuqtai-nazardan kibermakon deganda kompyuter tarmog'i orqali bir-biri bilan bog'langan va bir vaqtning o'zida turli geografik nuqtada kesishuvchi har qanday mavjud kompyuterning grafik sifatidagi ma'lumotlariga o'ralashib qolgan kishilar jamoasi tushuniladi.

---

<sup>35</sup> [https://ru.wikipedia.org/wiki/«Sojjenie Xrom» \(«Burning Chrome»\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/«Sojjenie_Xrom»_(«Burning_Chrome»))



Hozirgi davrda fan, texnika va asosan kompyuter taraqqiyoti mahsuli bo'lgan kibermakon va uning boshqaruvchi qiyofasi «superkorporatsiya» texnologiyalarning insoniylikdan begonalashuvi natijasida din niqobidagi ijtimoiy va madaniy buzg'unchilikni sodir etishga bo'lgan urinishlar tobora kuchayib bormoqda. Jumladan, bugungi kunda kiberterrorchilik tuzilmalari o'z g'arazli maqsadlari yo'lida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanishga urinmoqda.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning «Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch» asarida quyidagicha ta'kidlangan: «Taassufki, ba'zan islom dini va diniy aqidaparastlik tushunchalarini bir-biridan farqlay olmaslik yoki g'arazli maqsadda ularni teng qo'yish kabi holatlar ham ko'zga tashlanmoqda. Shu bilan birga, islom dinini niqob qilib, manfur ishlarni amalga oshirayotgan mutaassib kuchlar hali ongi shakllanib ulgurmagan, tajribasiz, g'o'r yoshlarni o'z tuzog'iga ilintirib, bosh-ko'zini aylantirib, ulardan o'zining nopok maqsadlari yo'lida foydalanmoqda. Bunday nojo'ya harakatlar avvalo muqaddas dinimizning sha'niga dog' bo'lishini, oxir-oqibatda esa ma'naviy hayotimizga salbiy ta'sir ko'rsatishini barchamiz chuqur anglab olishimiz va shundan xulosa chiqarishimiz zarur».

«Kibermakon»da din niqobidagi «kiberhujum»lar tahdidi: din niqobi ostidagi ekstremistik saytlarda asosan davlat to'ntarilishi va xunrezlik urushlari haqida gap boradi. Jumladan, bugungi kunda dunyoda eng katta xavf solib turgan IShID guruhining internet kibermakonidagi axborot hujumi va tahdidini keltirib o'tish mumkin. Ularda IShID go'yo Islom yo'lida «qurbon» bo'layotgani aks etgan videolavhalar va fotosuratlar joylashtirilgan.

Terrorchilarning targ'ibot-tashviqotlari kun sayin avj olib bormoqda. «Odnoklassniki», «Facebook», «Instagram», «Twittyer», «VKontakte» ijtimoiy tarmoqlarida buzg'unchilik va yot g'oyalarni targ'ib qiluvchi yuzlab guruhlar mavjudligi fikrimizning yaqqol dalilidir. Shuningdek, Islom dinini noto'g'ri, qabih maqsadlarda talqin etish, dinga siyosiy tus berib, hokimiyatni qo'lga kiritish hisoblanadi.

## **Internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlarda diniy targ'ibot usullari.**

Insonlararo o'zaro munosabatlardagi har qanday ziddiyat - bu, axborotlar ziddiyatidir. Axborot har qanday qaror qabul qilish uchun eng muhim unsur bo'lib, u nafaqat, to'qnashuv paytida optimal xatti-harakatlarni amalga oshirish, balki, maqsadga yo'nalgan faoliyatni boshqarish imkonini beradi. Tizim mavjudligi va barbod bo'lishini belgilovchi omillaridan biri hisoblanadi.

Qadim davrlardan buyon axborotni o'zaro urush va nizolar jarayonida hujum uyushtirish yoki himoyalaniish resursi sifatida talqin etishga urinishlar bo'lib keladi. Biroq hozirga kelib ilmiy doirada «axborot urushi» kategoriya sifatida rasmiylashdi. Bunday urushlarning mohiyatini anglashga doir metodologik yo'nalishlar, nazariyalar shakllandi.

Shu tariqa axborot operatsiyasi - o'z axborot tizimlarini himoya qilish jarayonida raqib tomonning axborotni to'plash, qayta ishlash, uzatish va saqlash borasidagi ishlarini murakkablashtirish maqsadida amalga oshiriladigan xatti-harakat; axborot urushi esa, qarama-qarshi tomonning siyosiy va xarbiy boshqaruv tizimi hamda rahbariyatiga qaratilgan kompleks ta'sirlar, axborot operatsiyalari majmui, deb ta'riflandi. Bunday ta'sirlar orqali tinchlik va urush holatlarida raqib tomon rahbariyatini informatsion ta'sir o'tkazayotgan tomonga maqbul qarorlar qabul qilishiga erishish maqsadi ko'zlanadi.

Mutaxassislarining ta'kidlashlaricha axborot urushi milliy harbiy strategiyani ta'minlashda axborot borasida ustunlikka erishish maqsadida amalga oshiriladigan xatti-harakatlarni ifoda etadi. Bunda raqib tomon axborot tizimlariga ta'sir o'tkazish bilan bir vaqtda o'z axborot infratuzilmasi mustahkamlab boriladi.

Axborot sohasidagi ustunlik muayyan holat haqida axborotni uzluksiz to'plash, qayta ishlash va tarqatish qobiliyatini anglatadi. Bunday qobiliyat, o'ziga xoslik esa, raqib tomonga xuddi shunday xatti-harakatlarni amalga oshirishda to'sqinliklar qilish, qarshiliklar ko'rsatishda namoyon bo'ladi. Shuningdek, axborot sohasidagi ustunlik harbiy holat haqida real tasavvurga, raqib xatti-harakatlarining aniq va interfaol manzarasiga ega bo'lish imkonini beradi.

Bir soʻz bilan aytganda, bugungi kunga kelib, axborot sohasi koʻplab davlatlar siyosatining ystuvop yoʻnalishiga aylangan. Bu borada davlatlar tomonidan axborot agressiyasidan himoya tizimi, ommaviy madaniyat ekspansiyaga qarshi chora-tadbirlar bilan bogʻliq keng koʻlamdagi ishlar amalga oshirilmogda. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ham axborot resurslaridan foydalanish, axborot almashinuvi va umuman, axborotlashtirishga doir qonun xujjatlari majmui shakllantirildi. Jumladan, «Axborotlashtirish toʻgʻrisida»gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunining 4-moddasida "Axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati axborot resurslari, axborot texnologiyalari va axborot tizimlarini rivojlantirish hamda takomillashtirishning zamonaviy jahon tamoyillarini hisobga olgan holda milliy axborot tizimini yaratishga qaratilgan» - degan qoida oʻz aksini topgan.

Hozirda mazkur yoʻnalishdagi konunchilik amaliyoti boshqa davlatlar siyosatida ham keng oʻrin egallagan. Zero, axborot xurujlari avj olib, Oʻzbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov taʼbiri bilan aytganda, «**mafкура poligonlari yadro poligonlaridan ham koʻproq kuchga ega**» boʻlgan bugungi kunda axborot sohasi bilan bogʻliq jarayonlarga alohida eʼtiborni qaratish -ins-on, jamiyat va davlat maʼnaviy-madaniy xavfsizligi va barqarorligining muhim shartidir.

### **Din niqobidagi mafkuraviy tahdidlarning namoyon boʻlish shakllari.**

Yoshlarning faol ijtimoiy kuchga aylanib borayotgani bugungi kunda ularning turli mafkuraviy taʼsir va tazyiqlarning bosh obʼektiga aylanishiga olib keldi. Bunda ularning jamiyatning hali etarli tajribaga ega boʻlmagan, tashqi taʼsirlarga tez beriluvchan va ayni paytda, eng harakatchan qatlami ekani inobatga olinmogda.

Yoshlarning turli oqimlarga kirib qolishlari sabablari qatorida ularning bilimlari, shu jumladan, diniy ilmlarni egallashga boʻlgan qiziqish va intilishi hamda ishonuvchanligi, birdaniga va hamma narsaga (boylik, shon-shuhrat, martaba va h.k.) ega boʻlishga harakat qilishi, ilmiy tilda aytganda maksimalizm kabi maʼnaviy-ruhiy omillarni alohida ajratib koʻrsatish lozim. «Sen bu tashkilotga kirish yoki mana bu vazifani bajarish bilan alohida, har kimga ham nasib

qilavermaydigan sharafli ishga qo‘l urgan bo‘lasan, kerak bo‘lsa, sen millat, din, insoniyatning xaloskoriga aylanasan!», - degan qarashlarni singdirish jarayoni aynan mana shu kabi xususiyatlarga alohida e‘tibor berilayotganini ko‘rsatadi. «Yoshlarning ongida qanday kayfiyat ustunligini aytsang, men senga keyingi avlodning tabiati qanday bo‘lishini aytib beraman», - deb yozgan edi siyosiy arboblardan biri. Shu nuqtai nazardan qaraganda, diniy ekstremistik oqimlar ham jamiyatning ertangi kunini belgilab beradigan avlod ongini egallash, nazorat qilishni ko‘zlab ish yuritmoqda deyish mumkin.

Ayniqsa, g‘oyalar kurashi avj olgan bugungi kunimizda yoshlar ma‘naviyatiga tajovuz solayotgan tahdidlar qatorida, dinni niqob qilib, diniy qadriyatlarimizni oyoqosti qilishga urinayotgan ekstremistik va missionerlik harakatlarining faoliyati jiddiy tashvish uyg‘otmoqda. Shuning bilan birga, dindan siyosiy maqsadlarda foydalanishga urinish ba‘zan mudhish holatlarning yuz berishiga olib kelmoqda.

Davlatimiz kelajagi hisoblangan yosh avlod tarbiyasiga yurtimizda doimo alohida e‘tibor bilan qaralgan. Mamlakatimizda sog‘lom va ma‘naviy boy, intellektual rivojlangan, axloqan etuk, jismonan baquvvat avlodni tarbiyalash hamda voyaga etkazish maqsadida 2000 yilni «Sog‘lom avlod yili», 2001 yilni «Onalar va bolalar yili», 2008 yilni «Yoshlar yili», 2010 yilni «Barkamol avlod yili», 2014 yilni «Sog‘lom bola yili» va 2016 yilni «Sog‘lom ona va bola yili» deb e‘lon qilingani ham buning yana bir yorqin hayotiy-amaliy ifodasi bo‘ldi. Bu borada yurtimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta‘kidlaganlaridek, «... farzandlarimizning bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo‘lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma‘naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi».

Zero, jismoniy tarbiya bolani jismonan baquvvat, kuchli, sog‘lom etib tarbiyalasa, ma‘naviy tarbiya orqali unda yuksak axloq, ezgulik, insonparvarlik, shijoat, rahmdillik va mehnatsevarlik sifatleri shakllanadi. Ma‘naviy tarbiya farzandning o‘zligini saqlashga, uning botiniy olamini ma‘rifiy boyitishga xizmat qiladi. Buyuk alloma, vatandoshimiz Abu Rayhon Beruniy aytganidek, «Inson

tabiatning eng oliy zoti, kamolotidir, inson zoti barcha hayvonlardan yuqori turadi. Insonga katta sharaf ko'rsatilgan - unga aql-zakovat va kuch berilgan. Shu sababdan, insonning ma'naviy olami uning oldiga qo'yilgan vazifalarga mos bo'lishi uchun u yuksak axloqli, bilimli, ma'rifatli bo'lmog'i darkor». Demak, farzand tarbiyasi avvalo, uning ma'naviy poydevori qanchalik mustahkamligi bilan belgilanadi. Darhaqiqat, go'zal xulq ila tarbiyalangan bola hayotda aql-idrok bilan ish tutadi, imon-e'tiqodida sobit turadi, erkin va mustaqil fikrlaydi, har xil aldovlarga uchmaydi hamda g'arazli tashviqotlarga berilmaydi.

Ayni paytda, bir haqiqatni alohida qayd etish lozim. Ota-bobolarimiz dini bo'lmish islom har doim odamlarni o'z-o'zini idora etishga, yaxshi xislatlarni ko'paytirib, yomonlaridan xalos bo'lishiga chorlagan, og'ir sinovlarga bardosh berishga, yorug' kunlarga intilib yashashga da'vat qilgan, bir so'z bilan aytganda, xalqimiz uchun ham imon, ham axloq, ham ma'rifat bo'lib kelgan. Hozirda ham bu ma'rifat odamlarga ma'naviy-ruhiy kuch-quvvat bag'ishlab, o'zaro mehr-oqibatlilik tuyg'ularining kamol topishiga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash nafaqat bir davlat yoki mintaqa, balki jahon hamjamiyati uchun eng dolzarb masalaga aylandi. Shu jumladan, bizning yurtimizda ham begunoh kishilarning qoni to'kilishi, obod joylar vayron bo'lishi, aholi o'rtasida vahima, parokandalik kelib chiqishining oldini olish maqsadida bu kabi ishlarni amalga oshirmoqchi bo'lganlarga qarshi qat'iy kurash olib borilmoqda.

Hozirgi kunga kelib mintaqada, xususan, O'zbekistonda diniy-ma'rifiy sohaning rivojlanishi diniy mutaassiblik xavfining oldini olishda muhim omil bo'lib qolmoqda. Ammo g'arazli kuchlar ham o'z maqsadlariga erishish yo'lida yangi-yangi uslublarni, hiyla-nayranglarni o'ylab topishlari ham tabiiy. Bu kabi salbiy holatlarning paydo bo'lishi va rivoj topishiga yo'l qo'ymaslik esa doimiy xushyorlikni talab etadi.

Ming afsuski, diniy savodi past bo'lgan ayrim kishilar o'zlarini islom dinining jonkuyarlari qilib ko'rsatuvchi, aslida esa, hokimiyatni egallashni maqsad qilib qo'ygan turli oqim vakillarining quruq va'dalariga aldanib qolmoqdalar,

hatto, o'zlarini qurbon qilishgacha etib bormoqdalar. Johillik ham mutaassib oqimlarning g'arazli niyatlarini amalga oshirishiga zamin yaratadigan omillardan biriga aylandi. Mamlakatimiz hududiga yashirin tarzda olib kirilayotgan ekstremistik ruhdagi adabiyotlar, internet tarmoqlarida tarqatilayotgan materiallardan ta'sirlanayotgan va to'g'ri yo'ldan adashayotganlarning borligi ham buni tasdiqlaydi. O'zini portlatish orqali begunoh kishilarning halok bo'lishiga, qanchadan-qancha bolalarning etimga aylanishiga sabab bo'ladigan jafokorlik ham jaholatning o'ziga xos ko'rinishidir. Darhaqiqat hozirgi kunga kelib diniy ekstremistik tashkilotlar keng tarmoqli tizimga aylanib ulgurdi. Bu chuqur o'ylangan strategiyaning bir qismidir. Bunday kuchlar yoshlarimiz ongi va qalbini zabt etish maqsadida har qanday qabih yo'llardan foydalanishga urinmoqda.

Yuqoridagi mulohaza va dalillar, diniy ekstremizm va mutaassiblikning asl qiyofasini ochib berib, mazkur harakatlarning nafaqat dunyoviy qonun-qoidalar, balki islom dini asoslariga ham zid ekanini ko'rsatadi. Shunday ekan, bunday oqimlarga qarshi murosasiz kurash, terrorchilik harakatlarini amalga oshirayotgan mutaassib kuchlarning islom diniga mutlaqo yot, begona ekanini har tomonlama asoslash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda farzandlarimiz dunyoning eng o'tkir, faol, uddaburon, Vatanparvar yoshlariga aylanishi, ularni fidoiylik, vatanparvarlik, tadbirkorlik, millatparvarlik, sadoqatga o'rgatish ko'p jihatdan ota-onalarga ham bog'liq. Bu borada, albatta, ota-onaga yordam berishda butun jamoatchilik - mahalla faollari, diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchi, profilaktika noziri, Xotin-qizlar qo'mitasi va «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati kabi tashkilotlarning joylardagi mas'ullari birgalikda faol ishlashlari kerak.

Respublikamizda qaror topgan tolerantlik muhitini afkor ommaga ob'ektiv ko'rsatib berish, e'tiqod erkinligi sohasida O'zbekistonda olib borilayotgan siyosatni keng targ'ib qilish, diniy-ekstremistik oqimlar tomonidan targ'ib qilinayotgan vayronkor g'oyalarga qarshi islom manbalariga asoslangan ilmiy raddiyalar berish, diniy mutaassiblik tamoyillarining jamiyatga tahdidi, uning zamiridagi g'arazli geosiyosiy maqsadlar, ularni amalga oshirayotgan buzg'unchi

kuchlarning kirdikorlarini fosh etishga qaratilgan ishlanmalar yaratish yoki ularni aholi orasida targ'ib etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, har bir insonning o'z ishini sidqidildan amalga oshirishi, loqaydlik, beparvolikning oldini olishi, yon-atrofida bo'layotgan voqea-hodisalarga hushyorlik bilan qarab, Vatan tinchligi yo'lida sergak va ogoh bo'lib yashashi, yoshlarimizning ongu qalbini jaholatdan, yot va zararli g'oyalar ta'siridan himoya qilish, ajdodlarimizga armon bo'lib qolgan, biz erishgan mustaqillik va tinchlik-osoyishtalikni ko'z qorachig'idek asrab-avaylashning muhim omili hisoblanadi. Buni hech qachon unutmasligimiz, tinchlik uchun doimo o'zimizning bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etib yashashimiz lozim.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasidagi ustuvor vazifalarning beshinchisida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Muqaddas islom dinimizni insonparvarlik g'oyalarini targ'ib etish "Jaholatga qarshi-ma'rifat" tamoyili asosida o'sib kelayotgan yoshlarimizni sog'lom e'tiqod ruhida tarbiyalashda alohida ahamiyat beramiz. Sizlarga ma'lumki O'zbekiston ulkan imkoniyat va boyliklarga ega mamlakat, lekin bizning eng katta boyligimiz turli millat va elatlar, diniy konfessiyalar vakillari o'rtasidagi tinchlik va barqarorlik, o'zaro hurmat va hamjihatlikdir, desam o'ylaymanki barchangiz bu fikrga qo'shilasiz",-deb ta'kidladi.

**Yoshlarni internet va ijtimoiy tarmoqlardagi axborot xurujlaridan asrashning dolzarb masalalari.** Internet fan-texnika taraqqiyoti natijasi, madaniyat evolyusiyasining hosilasi hisoblanadi. Hozirgi kunda hayotimizni internetsiz tasavvur qilish juda mushkul. Ayniqsa, yoshlar hayotida global tarmoqning o'rni tobora oshib bormoqda. Internet dunyoning turli nuqtalarida yashovchi odamlarning o'zaro muloqotini hamda axborot almashinuvini mukammal darajada osonlashtirdi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'yicha internetdan eng ko'p foydalanuvchilar aynan 21 dan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar hisoblanar ekan.

Yurtimizda ham Internet tizimi rivojlanib, undan foydalanuvchilar safi jadal sur'atlar bilan kengayib bormoqda. So'nggi o'n yilda global tarmoqdan

foydalanuvchilar o‘n barobarga oshgan. Tarmoq orqali axborot izlash, qabul qilish, uzatishning juda qulay va ommabopligi undan foydalanuvchilar sonining tobora ortib borishini ta‘minlamoqda.

Internet yoshlar ongi va hissiyotlariga, tafakkur tarziga, xulq-atvorlariga ta‘sir ko‘rsatishda katta imkoniyatlarga ega. Internetning bugungi kundagi rivoji yoshlarga g‘oyaviy ta‘sir o‘tkazishning miqyosi va ko‘lamining keskin darajada o‘shishiga olib keldi.

Globallashuvning ijobiy va salbiy tomonlari bo‘lgani kabi, internet tarmog‘i ham shunday xususiyatlarga ega ekanini unutmazlik zarur. Albatta, global tarmoq - ulkan resurs. Biroq, bu resursdan kim va qanday maqsadlarda foydalanishi ham juda jiddiy masalalar sirasiga kiradi. Xususan, ma‘lumotlarda keltirilishicha, bugungi kunga kelib, internet tarmog‘ida ma‘naviy-axloqiy tubanlikni targ‘ib etuvchi sahifalarning soni bir necha yuz millionni tashkil etgan.

Ushbu fakt va raqamlar internet sanoati rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kishilarning axborotlarga nisbatan juda ehtiyotkorlik, ogohlik va ziyraklik bilan munosabatda bo‘lishlarini taqozo etadi. Boshqacha aytganda, kishilarimizda, ayniqsa, yoshlarimizda axborot iste‘moli madaniyatini shakllantirish bugungi kunning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Aynan shu taraqqiyot vositasidan ustamona foydalanib, qalblarni zabt etishda diniy omilning roli yuqori. Shuning uchun ham turli diniy-ekstremistik va terrorchi uyushmalar o‘z g‘oyalarini targ‘ib qilishda internetni eng samarali vosita sifatida qo‘llamoqda.

Bunda diniy-ekstremistik oqimlar o‘z maqsadlarini amalga oshirish uchun zamonaviy axborot kommunikatsiyalaridan keng foydalanish, internet orqali turli tillarda targ‘ibot olib borish va puxta ishlangan strategiya asosida virtual jamoatlar tuzish asosiy vazifaga aylangan. Masalan, bugungi kunda bir necha yirik terrorchi tashkilotlar o‘z saflariga faol tarzda ijtimoiy tarmoqlar orqali asosan 17-35 yosh oralig‘ida bo‘lgan kishilarni yollamoqda. Bunda psixologik ta‘sir samaradorligini yanada oshirish maqsadida ijtimoiy tarmoq a‘zolarining sahifalari, qo‘yilayotgan rasmlar, sharh va izohlar hamda olib borilayotgan suhbat mavzularini puxta



o'rganadi va shu asosda «nishon»ga olingan shaxsga mavzuga oid materiallar internetning Facebook, Odnoklassniki, VKontakte, Telegram, Twittyer, WhatsApp kabi keng auditoriyaga ega bo'lgan ijtimoiy tarmoqlar orqali (yozma xabar, matn, fotosurat, stiker rasmlar, audio-video rolik) jo'natiladi va o'zaro aloqa yo'lga qo'yiladi.

Yoshlar orasida mutaassiblikka yo'g'irilgan bunday forumlarning tobora ommalashuvi hamda ularda turli ko'rinishdagi buzg'unchi «fatvo»larning berib borilishi muammoning naqadar jiddiy ekanini namoyon etadi. Chunki dunyo aholisining asosiy qismini yoshlar tashkil qiladi. Yoshlar katta kuch hisoblanadi. Ularning endi shakllanib kelayotgan ongiga nimani singdirilsa, o'sha toshga o'yilgan naqshdek muhrlanadi. Shuning uchun ham radikal oqimlar aynan yoshlarni tuzog'iga ilintirishga harakat qiladi. Ulardagi ishonuvchanlik, kuchg'ayrat, qiziqqonlik ularning maqsadini amalga oshirishda qo'l keladi.

Ming afsuski, bunday manfur kuchlar asosan ilm va ma'rifatdan yiroq, sof diniy tushunchalarning asl mazmunini bilmagan kishilarni, asosan yoshlarni jalb etishga intilib, ijtimoiy tarmoqlar orqali «jihod», «takfir», «shahidlik», «hijrat» tushunchalarini noto'g'ri talqin etgan holda o'z Vatanlarini tark etishga urinmoqda. Shuningdek, ayrim kimsalar tomonidan maqsadli ravishda islom mohiyatiga zid bo'lgan turli xil asossiz axborotlar, manbasi aniq bo'lmagan diniy tushunchalardagi xabarlar yoki kishilarni vahimaga soluvchi foto va videolavhalar keng targ'ib etilmoqda. Bunda ba'zi yoshlarning axborot vositalari orqali tarqatilayotgan milliy va diniy qadriyatlarimizga zid bo'lgan xabarlar, aniq manbasi ko'rsatilmagan, asossiz axborot va ma'lumotlarga ishonib qolishayotgani, mulohaza qilmasdan ko'r-ko'rona qabul qilayotgani undan ham keskin oqibatlarini keltirib chiqarmoqda.

Bugun axborot iste'mol qilinadigan tovarga aylangan ekan, har bir inson o'zida uni iste'mol qilish madaniyatini tarbiyalashi lozim. Yoshlar shaxsiy xarakterdagi axborot himoyasi bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, o'zi foydalanayotgan salbiy axborotlardan himoyalana olishi zarur. Ana shu maqsadda 2011 yildan boshlab, Toshkent islom universiteti bakalavriat va magistraturaning

barcha yo‘nalishlarida «Axborot iste‘moli madaniyati» nomli maxsus kursning o‘qitilishi joriy etildi.

Axborot iste‘moli madaniyati, eng umumiy ma‘noda, axborot oqimidan inson manfaatlari, kamoloti hamda jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ma‘lumotlarni qabul qilish, saralash, tushunish va talqin etishga xizmat qiladigan bilimlar, qobiliyat va malaka tizimini anglatadi.

Inson o‘zida bunday madaniyatni tarbiyalashi uchun u yoki bu axborotni eshitar ekan, hech bo‘lmaganda «Bu axborotni kim uzatayapti?», «Nima uchun uzatayapti?» va «Qanday maqsadda uzatayapti?» degan savollarni o‘z-o‘ziga berishi, unga asosli javob topishga harakat qilishi kerak.

Shundagina turli g‘oyalar ta‘siriga tushib qolish, taqdim etilayotgan ma‘lumotlarga ko‘r-ko‘rona ergashishning oldi olinadi. Shakllangan axborot iste‘moli madaniyati milliy manfaatlarimiz va qadriyatlarimizga zid bo‘lgan xabar, ma‘lumotlarga nisbatan o‘ziga xos qalqon rolini o‘taydi, shaxs dunyoqarashi va xulqidagi sobitlikni ta‘minlashga xizmat qiladi.

Yosh avlodda bu jihatlar shu darajada shakllangan va qaror topgan bo‘lishi lozimki, ular vertual makonda umummilliy manfaatga xizmat qiladigan, uning taraqqiyotiga yordam beradigan axborotni tanlay olsin. Axborot iste‘moli madaniyatiga ega yoshlar, salbiy va noxolis axborotlar ta‘siriga tushib qolmaydi, chunki ularda bunday axborotlarga nisbatan mustahkam mafkuraviy immunitet shakllanadi.

«Kimki axborotga ega bo‘lsa, u, dunyoga egalik qiladi», degan fikr bugungi kunda barcha tomonidan e‘tirof etilgan. Shunday ekan, bugungi kunda yoshlarda axborot olami imkoniyatlaridan oqilona foydalanish malakasini shakllantirish hayotiy-amaliy ahamiyatga ega.

Darhaqiqat, islom dini ko‘rsatmalarida ham naql qilingan biror xabarga ishonishdan avval uni tekshirib, aniqlab olish talab etiladi. Jumladan, Qur‘oni karimda shunday deyiladi: **Ey, mo‘minlar! Agar sizlarga biror fosiq kimsa xabar keltirsa, sizlar (haqiqiy ahvolni) bilmagan holingizda biror qavmga**

**aziyat etkazib qo'yib, (keyin) qilgan ishlaringizga pushaymon bo'lmasligingiz uchun (u xabarni) aniqlab (tekshirib) ko'ringiz!** (*Hujurot, 6*).

Bu haqida Qur'oni karimning yana bir oyatida insonlar uchun muhim ko'rsatma kelgan bo'lib, unda ham turli vositalar orqali olinayotgan xabar va ma'lumotlarga ko'r-ko'rona ergashishdan qaytariladi: **(Ey, inson!) O'zing (aniq) bilmagan narsaga ergashma! Chunki quloq, ko'z, dilning har biri to'g'risida (har bir inson) mas'ul bo'lur (javob berur)** (*Isro, 36*). Demak, inson ko'rgan, eshitgan har bir ma'lumotiga ishonishi, unga ergashishi oqibatida Alloh oldida ham so'raladi.

Payg'ambar Muhammad (alayhis-salom)dan rivoyat qilingan bir necha hadislarda ham shunday deyiladi: «*Xabarni tekshirish Allohdan, (unda) shoshqaloqlik qilish shaytondandir*», deganlar. Shuningdek, *Abu Hurayra (r.a.)dan rivoyat qilingan boshqa bir hadisda esa, Rasululloh (alayhis-salom): «Kishining yolg'onchi ekanligiga uning eshitgan har bir narsasini gapiraverishi kifoya qiladi» deganlar.*

Demak, har bir olingan ma'lumotni tekshirib, asosli yoki asossiz ekanini aniqlamay turib, o'sha ma'lumotga qarab ish tutish islom mohiyatiga ko'ra, shayton yo'liga kirish hamda yolg'onchi bo'lib qolish bilan barobar bo'ladi. Chunki bunda xabar tarqatayotgan kishining g'arazli maqsadini amalga oshirishiga zamin yaratib qo'yiladi.

Shunday ekan, dunyoning turli mintaqa va hududlarida ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ziddiyatli to'qnashuvlarga teran qarash hissini oshirish, har qanday ko'rinishdagi tahdidlarga qarshi ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish, ayniqsa bu borada kelajagimiz hisoblangan yosh avlodni, bir so'z bilan aytganda har birimiz uchun muqaddas bo'lgan oilamizni din niqobi ostidagi yot g'oyalar ta'siridan asrash uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz lozim.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, BMT Bosh Assambliyasining 72-sessiyasida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda

yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat- BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini" ishlab chiqishni taklif etdi. Bu taklif yoshlarni ta'lim olish huquqini ta'minlashda savodsizlik va jaholatga barham berishga ko'maklashishdan iboratdir.

### **Mavzu bo'yicha savollar**

1. Kibermakon tushunchasining mazmun-mohiyati haqida ma'lumot bering.
2. Din niqobi ostidagi mafkuraviy tahdidlar qanday shakllarda namoyon bo'lmoqda?
3. Nima uchun internet olamidagi buzg'unchilar asosan yoshlarni o'z to'rlariga ilintirmoqda?
4. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda qaysi jihatlarga alohida e'tibor qaratish kerak?

### **Mavzu bo'yicha mustaqil ish topshiriqlari:**

1. Kibermakon, kiber terrorizm tushunchalarining mohiyatini ochib bering.
2. Ijtimoiy tarmoqlarda diniy targ'ibot usullarini asoslab bering.
3. Din niqobidagi mafkuraviy tahdidlarning namoyon bo'lish shakllarini tahlil qiling.
4. Ijtimoiy tarmoqlarda diniy axborot iste'moli madaniyatini tarbiyalashning zaruriyati haqida referat tayyorlang.

### **Adabiyotlar**

1. Diniy mutaassiblik: mohiyat, maqsadlar va oldini olish yo'llari / A.Hasanov, O.Yusupov, K.Shermuhamedov, U.G'afurov, J.Karimov. - Toshkent: Movarounnahr, 2013. - 160 b.
2. Qo'shaev U. Axborot iste'moli madaniyati. - Toshkent: «Extremum-Press» nashriyoti, 2013. - 44 b.
3. Tulepov A. Internetdagi tahdidlardan himoya. Mas'ul muharrir A.Hasanov. - Toshkent: Movarounnahr, 2016. - 672 b.
4. Shermuhammedov K., Karimov J., Najmiddinov J. Diniy ekstremizm va

terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. - Toshkent:  
«Movarounnahr» nashriyoti, 2016.

## **MAVZU: MISSIONERLIK VA PROZELITIZNING SIYOSIY-IJTIMOIIY XAVFI.**

### **Reja:**

1. Missionerlik va prozelitizm tushunchasining mohiyati va rivojlanish bosqichlari.
2. Missionerlik harakatlarining maqsadi va ular faoliyatining salbiy oqibatlari.
3. Missionerlik va prozelitizmning ma'naviy barqarorlikka tahdidi hamda uni oldini olishning mexanizmlari.

### **Tayanch tushunchalar:**

*Missionerlik, prozelitizm, sekta, diniy sektalar, diniy tashkilotlar, iegovo shohidlari, ettinchi kun adventistlari, missiya, Bibliya jamiyati.*

### **Missionerlik va prozelitizm tushunchasining mohiyati va rivojlanish bosqichlari.**

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasida vijdon erkinligi to'liq ta'minlangan. Vijdon erkinligi fuqarolarning u yoki bu dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslik huquqidir.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida 2025 ta masjid, 197 ta noislomiy diniy tashkilotlar faoliyat olib boryapti.

O'zbekiston musulmonlari idorasi tasavvufida 3 ta oliy va 10 ta o'rta maxsus islom ta'lim muassasi mavjud.

“Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'grisida”gi (1998-yil yangi tahriri) qonunning 5-moddasiga ko'ra: «Davlat diniy konfessiyalar o'rtasidagi tinchlik va totuvlikni qo'llab quvatlaydi. Bir diniy konfessiyadagi dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan hatti-harakatlar (prozelitizm), shuningdek boshqa har qanday missionerlik faoliyati man etiladi» deb belgilab qo'yilgan.

2021-yil iyun oyida qabul qilingan “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi” qonunning 7-moddasida “Davlat konfetsiyasilarining tinch-totuv yashashiga kafil bo'ladi. Missionerlik va prozeletizmni amalga oshirishga yo'l qo'ymaydi”deb ta'kidlanadi<sup>36</sup>.

---

<sup>36</sup> “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonuni 2021.T.B.3.

Missionerlik deganda nima tushunamiz?

**Missionerlik** (missiya-lotincha yuborish, topshiriq)-biror dinga e'tiqod qiluvchi xalqlar orasida boshqa bir dini targ'ib qilish demakdir.

Missionerlik asosan, xristianlikka xos bo'lib, bu harakat xristianlik Vizantiya imperasida davlat dini sifatida e'lon qiliganidan e'tiboran olib boriladi. Mazkur harakatning ilk davrida xristian missionerlari o'zlarining missionerlik harakatlarini Yevropa va Yaqin Sharqdagi ko'p xudolikka sig'inib kelgan aholini yakka xudolikka tarqib qilishdan iborat deb ko'rsatganlar.

Keyinchalik bunday qarashlari eskirdi, xususan hozirgi vaqtda kelib, jahon aholisining deyarlik 80-90 foizi o'z diniga, aksariyat hollarda yakka xudolikka ega bo'lgan davrda «missionerlik» va ayniqsa, «prozelitizm» salbiy bir holatga aylanib qoldi.

Bugunki kunda mahalliy xristian diniy tashkilotlarining «misionerlik» harakatlari to'g'ridan-to'g'ri mahalliy-tub aholini «evangelitazitsiya» qilishga, ya'ni o'z diniga og'dirishga qaratilgani namoyon bo'ladi.

O'sha davrdagi evangellashtirishni bugungi kunda hududimizda tatbiq etish to'g'ri bo'larmikan va shartmikan? bugungi kunda mavjud ma'lumotlarga ko'ra, respublikamiz fuqarolarning 99 foizi o'zini qaysidir bir diniy yo'nalishiga tegishligini ma'lum qilgan, shundan 90 foiziga yaqini musulmonlar, 7-8 foizini pravoslavlar va boshqa din vakillari tashkil etadilar. Mazkur fuqarolarning deyarli hammasi yakka xudolikka ishonadilar. Garchi shunday ekan, ularni yana qanaqangi yakka xudolik, «haqiqiy» dinga etaklash mumkin.

Xristian missionerlik tashkilotlarning maqsadlari asosan uch nuqtaga qaratilgan:

1.Xalqlarni xristianlashtirish. Shu orqali ularni iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy jihatdan g'arb davlatlari ta'sir doirasiga tushurish.

2.Xalqlar o'rtasida o'z e'tiqodiga shubha uyg'otish ishonch va e'tiqoddan yuz o'girish va undan chiqqishiga olib kelish.

3.Xristianlikni qabul qilganlarni o'z e'tiqodida qattiq turishini ta'minlash va shu orqali ularning safini «Yangi xristianlar» bilan to'ldirish.

Bu maqsadlarga erishish uchun ular hech nimani ayamaydilar va doimo o'z uslub va metodlarini takomillashtirib boradilar, jumladan mamlakatimiz hududida faoliyat yuritayotgan ba'zi xristian diniy tashkilotlari quyidagi usullaridan o'zlarining missionerlik harakatlarida foydalanadilar:

-xayriya yordamini ko'rsatish, bunga birinchi navbatda moddiy yordam kiradi, tibbiy yordam hamda oziq-ovqat bilan ta'minlash ham sabab bo'ladi.

Bunday harakatlari bilan ular o'zlari haqida ijobiy xulosa yoki baho chiqarishga ega bo'ladilar. Hamkorlikni yo'lga qo'yishga muvaffaq bo'ladilar:

-bepul xristianlikni targ'ib qiluvchi mahalliy tilda chop etilgan, juda sifatli rangli ishlangan kitob va jurnallarni tarqatish.

-xristianlikga chaqiruvchi video-audio kassetalarni tarqatish;

-tibbiy, ta'lim-tarbiya sohasiga maxsus kadrlarni yuborish (tibbiy xizmatchi, o'qituvchi-murabbiy);

-missionerlik ruhidagi kutubxona, ingliz tili va kompyuter o'rgatish xonalarini tashkil etish;

-o'z saflariga qo'shilganlarni moddiy rag'batlantirish, ularni xorijiy safarlarga yuborish va ish bilan ta'minlash.

Missionerlik harakatida yana bir holatini alohida ajratish lozim. Bu ma'lum bir ijtimoiy qatlamni ajratib olish va bilan maqsadli ish olib borish. Jumladan, yoshlar bilan ishlashning turli missiyalari mavjud bo'lib, ulardan biri bolalar uchun xristian lagerlarini tashkil qilish. «Xalqaro xristian lagerlari» assotsiatsiyasining bugungi kunda 200 ga yaqin lagerlari mavjud. O'zbekistonda ham ularning borligi 90-yillarda kuzatilgan. Nukusda «Emanuel» tashkiloti lager tashkil qilgan uchun yopilgan.

*(Qozog'istonda «Niva» lageri («Jatva» cherkoviga oid) da oxirgi 5 yil ichida 3000 ta bola dam olgan. Ularning 80 % e'tiqod qilmaydiganlar oilasidan bo'lgan. Lager dasturiga ko'ra, lager mavsumi tugashiga borib (15 kun ichida), dam oluvchilarning yarmi Iso Masihni tan olgan).*

Missionerlikni bizning Respublikaga xos bo'lgan xususiyatlardan biri-bu xristian diniy tashkilotlarida o'zbek va boshqa mahalliy tillarda diniy ibodatlar olib



borishga harakat qilishdir.

Ikkinchisi-bu mahalliy millat vakillari orasida o'zbek va boshqa mahalliy tillardagi diniy adabiyotlarni tarqatish va ulardan foydalanish: «U murabbiydir», «Xudo tayin qilgan qurbonlik», «Iso Masihning shogirdlari «Xudo» so'zi o'rnida «Alloh» so'zini ishlatilari mumkinmi?», «Xudo muqaddas uchlikda birlashgan», «Shaxsan menga Xudo murojaat qilyapti», «U sizni sevadi» va h.z.

Mazkur ko'rinishdagi missionerlik harakatini eng ko'p olib boradiganlar, hozirgi kunda, bu «Iegov shohidlari» diniy tashkiloti vakillaridir. Ularning vakillarini jamoat joylarida, xiyobon va mahallalarda ochiqdan-ochiq missionerlik ruhidagi adabiyotlarini tarqatishlarini kuzatish mumkin.

Missionerlik bilan faol shug'ullanuvchi «Iegov shohidlari» sektasida ta'sir etish mexanizmlari aniq va lo'nda qilib ishlangan. Bu yo'nalish 19-asrning 70-yillarida AQShda vujudga kelgan. Bugungi kunda jahonning turli mamlakatlarida 100 ga yaqin bo'linmalariga ega. Bu tashkilot qat'iy markazlashgan bo'lib, uning boshqaruvchi raisi cheklanmagan hokimiyatga ega. Yuqoridan pastga ko'rsatmalar va adabiyotlar, pastdan yuqoriga hisobotlar yuborib turiladi. «Iegov shohidlari» o'zining matbuot organiga ega. «Posbon minora», «Uyg'on». Bu jurnallar jahon xalqlarining 160 dan ziyod tilida nashr qilinib, dunyoning turli burchaklarida tarqatiladi.

Ularning tarqatayotgan adabiyotlari didli, rangli va chiroyli manzaralar bilan tasvirlangan. «Jalb etuvchilar»ning ovoz ohanglari tinchlantiruvchi va mehrlil sado etadi. Mutaxassislarning aytishicha, «Iegov shohidlari» sektasi a'zolari jalb etishning 86 xil usulidan foydalanar ekanlar.

Ular ko'pincha quyidagi turdagi kishilarni o'z ta'sir doiralariga olishga urinadilar.

- keksalar ayniqsa, endigina nafaqaga chiqqanlar va yolg'iz qariyalar;
- o'z o'rnini topishga intilayotgan o'smirlar;
- kuchli stressni (kasallik, yaqin odamining vafoti, ajralish va x.k.) boshidan kechirayotganlar;
- qochoqlar va ishsizlar.

Yana bir missionerlik harakati bilan shug‘ullanayotgan diniy tashkilot «To‘liq injil xristian cherkovi»dir. Ular ba’zi ibodat uylarida o‘zbek tilida ibodatlarni olib bormoqdalar, moddiy yordam ko‘rsatish orqali o‘z dinlariga da’vat qilishga harakat qilmoqdalar.

Missionerlik faoliyatining eng cho‘qqisi bu prozelitizm. Prozelitizmi-bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri biron bir dinga ishongan fuqaroni majburan o‘z dinidan voz kechishi va o‘zga dinni qabul qilishga majbur qilishdan iborat.

Prozelitizm illatining ba’zi bir noxush natijalarini keltirish mumkin: bir qancha vaqt islom dinida yurib, keyin xristian dinini qabul qilgan kishilar vafot etganda, jasadlarini musulmon qarlariga qo‘yish muammo tug‘dirmoqda. Sababi, mayitning musulmon ota-onalari o‘z farzandlarini xristian mozoriga dafn etishni xohlamaydilar. Musulmonlar esa, xristian dini vakili jasadini o‘z musulmon birodarlari yotgan joyga ular uchun haqorat deb biladilar. Natijada kelishmovchiliklar kelib chiqadi.

Missionerlik qonun orqali ta’qib qilinib turiladi: O‘zbekiston Respublikasida vijdon erkinligi qonunan kafolatlangan. Har bir fuqaro xohlagan diniga e’tiqod qilishi mumkin. Davlat va diniy tashkilotlar bir-biridan ajratilgan. Shu bilan birga diniy konfessiyalar o‘rtasidagi tinchlik, totuvlik va daxlsizlikni ta’minlash maqsadida prozelitizm (bir diniy konfessiyadagi dindorlarni boshqasiga kiritishga qatilgan xatti-harakatlar) va har qanday missionerlik faoliyati qonunan man etilgan.

Qonun ustuvorligi ta’minlangan barcha davlatlarda vijdon erkinligi shiori ostida mazkur jamiyatda beqarorlik keltirib chiqaruvchi xatti-harakatlarga yo‘l qoyilmaydi. Dunyodagi aksariyat davlatlarda vijdon erkinligini amalga oshirishda suiste’mollarga yo‘l qo‘yilishining oldini olishda qonuniy choralar belgilangan bo‘lib, ushbu qonunlar oldida barchaning barobar ekanini ta’minlash qonun ustuvorligi tamoyilining zaruriy sharti hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan O‘zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonunining 5-moddasiga muvofiq “Bir diniy konfessiyadagi dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan hatti-harakatlar (prozelitizm), shuningdek boshqa

har qanday missionerlik faoliyati man etiladi. Ushbu qoidaning buzilishiga aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikka tortiladilar ". Respublikada missionerlik va prozelitizm bilan bog'liq noqonuniy harakatlar uchun O'zbekiston Respublikasi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks va jinoyat kodeksiga javobgarlik belgilangan.

Ushbu qoidaning buzilishiga aybdor bo'lgan shaxslar qonun oldida javobgarlikka tortiladilar.(Jinoyat kodeksining 216(1), 216(2) moddalari)

Aholining, xususan soha mutaxassislarining, missionerlik haqida ma'lumotga ega bo'lishlari ularning burch va vazifalari sanaladi. Chunki Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: "Islom-bu ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz dini. Uni tashqi ta'sir, buzg'unchi unsurlardan tozalash muqaddas burch sanaladi."

Mustaqil Respublikamizdagi ayrim oilalarning, xususan, yoshlarning ota-bobolarimizning muqaddas islom dinidan voz kechib, xristian missionerlari domiga ilinayotganini inobatga olsak, bu faoliyat tinch-totuv yashayotgan xalqimiz o'rtasiga solinayotgan rahna-adovat ekani kunday ravshan bo'lib qoladi.

Missionerlik ta'siriga tushib qolmaslik uchun ham uni bilishimiz, u haqida ma'lumotga ega bo'lishimiz lozim ekan.

Birinchiidan, xushyor bo'lishimiz, loqaydlikka berilmasligimiz kerak bo'ladi, chunki "Vatan", "millat", "imon-e'tiqod" bu muqaddas tushunchalardir. Uni hech narsaga almashtirib bo'lmaydi.

Ikkinchiidan, har bir inson biror narsa haqida to'g'ri tushunchaga ega bo'lishi darkor. Hech kimning biror narsani, hatto dinni ham noto'g'ri, yanglish va bo'yab talqin qilishga xaqqi yo'q va bo'lmasligi kerak.

Uchinchiidan va eng muhimi musulmonlar uchun nima kerak va muhim va nojoiz va kerak emasligini yana bir eslatib qo'yish lozim bo'ladi.

Mamlakatimizdagi diniy bag'rikenglik muhitini yanada mustahkamlash va missionerlikning oldini olish har birimizdan ijtimoiy faollik va fidoyilikni talab qiladi.

Bag'rikenglik va o'zaro hurmatni qaror toptirish, diniy e'tiqodni ta'minlash, e'tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo'l

qo'ymaslikka ko'maklashishga qaratilgan harakatlarimiz butun dunyoda manzur bo'lmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan rezolutsiyaning qabul qilish taklifi O'zbekiston tomonidan ilgari surilgani va ushbu hujjatning qabul qilingani bunga yaqqol misol bo'la oladi.

2017-yil 19-sentabr BMT Bosh Assambliyasining 72-sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirok etib nutq so'zladi. Shavkat Mirziyoyev sessiya ishtirikchilariga BMT Bosh Assambliyasining "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish taklifini berdi. Ushbu rezolyutsiyaga ko'zlangan maqsadlardan biri bag'rikenglik va o'zaro totuvlikni qaror toptirish, e'tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish ularning kamsitilishiga yo'l qoymaslikka ko'maklashishga qaratilgan.

Darhaqiqat, shunday. Respublikamizda konfessiyalararo tortuvlik va bag'rikenglik ustunvor qilmoqda. Har bir fuqaromizning missionerlikning mohiyatini chuqur anglab etishi, befarqlik va loqaydlikka yo'l qo'ymagan holda, uning oldini olish bo'yicha ishlarda faol ishtirok etish ana shu barqarorlik muhitini saqlab qolish va yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Befarqlik ijtimoiy illat sifatida og'ir oqibatlarini keltirib chiqarishi hayotiy tajribadan ma'lum. Mashhur faylasuflardan biri befarqlik oqibatlariga to'xtalib shunday deb yozgan edi: "Dushmanlardan qo'rqma -nari borsa, ular seni o'ldirishi mumkin. Do'stlardan qo'rqma -nari borsa, ular senga xiyonat qilishi mumkin. Befarq odamlardan qo'rq -ular seni o'ldirmaydi ham, sotmaydi ham, faqat ularning jim va beparvo qarab turishi tufayli er yuzida xiyonat va qotilliklar sodir bo'laveradi".

Har bir kishida xalqimizning ertangi kuni, jamiyatimiz istiqboli va Vatanimiz taqdiri uchun daxldorlik tuyg'usini, o'z bilim va malakasi, irodasi va qudratini el - yurt manfaatlari, uning birligi va taraqqiyoti yo'lida safarbar etishda namoyon bo'ladigan fidoyilikni tarbiyalashda hayotiy -amaliy ahamiyat kasb etadi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov so'zlari bilan aytganda, "... har kuni, har soatda fidoyi bo'lish, o'zini tomchi va tomchi, zarrama -zarra buyuk maqsadlar sari

charchamay, toliqmay tinimsiz safarbar etib borish, bu fazilatni doimiy, kundalik faoliyat mezoniga aylantirish” gina ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni ta’minlashimizga mustahkam zamin yaratadi.

Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasidagi ustuvor vazifalarning beshinchisida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlab o’tganidek, “Sizlarga ma’lumki O’zbekiston ulkan imkoniyat va boyliklarga ega mamlakat, lekin bizning eng katta boyligimiz turli millat va elatlar, diniy konfessiyalar vakillari o’rtasidagi tinchlik va barqarorlik, o’zaro hurmat va hamjihatlikdir, desam o’ylaymanki barchangiz bu fikrga qo’shilasiz”.

### **Mavzu bo’yicha savollar**

1. Missionerlik va prozelitizm so‘zlarining mazmun-mohiyati nimada?
2. Missionerlik tashkilotlari asosan qanday maqsadlarni ko‘zlaydi?
3. Zamonaviy sektalar tomonidan missionerlik faoliyatini olib borishda qanday uslublardan foydalanilmoqda?

### **Adabiyotlar**

1. O’tkir Hasanboyev. O’zbekistonda davlat va din munosabatlari: Diniy tashkilotlar, oqimlar, mafkuraviy kurashning dolzarb yo’nalishlari. “Toshkent islom universiteti” nashriyot-marbaa birlashmasi, Toshkent-2014.

2. Missionerlik: kecha va bugun. - Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2008. - 64 b.

3. Shermuhammedov K., Karimov J., Najmiddinov J. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari. - Toshkent: «Movarounnahr» nashriyoti, 2016. - 224 b.

4. Missionerlik: mohiyat, maqsadlar, oqibatlar va oldini olish yo‘llari. - Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2017. - 200 b. (A.Achiliev bilan hammualliflikda).

## **MAVZU: DINIY FUNDAMENTALIZM, RADIKALIZM VA TERRORIZMNING TARIXI VA YO'NALISHLARI.**

### **Reja:**

1. Diniy ekstremizm, fundamentalizmning tarixi va rivojlanish bosqichlari.
2. Terrorizm tushunchasi va uning asosiy belgilari. Islom niqobidagi ekstremizmning g'oyaviy ildizlari.
3. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari.

### **Tayanch tushunchalar:**

*Ekstremizm, diniy ekstremizm, fundamentalizm, mutaassiblik, aqidaparastlik, terror, terrorizm, xalqaro terrorizm, firqalar, xorijiylar, soxta salafiylar*

### **Diniy ekstremizm, fundamentalizmning tarixi va rivojlanish bosqichlari.**

Diniy ekstremizm va terrorizm kabi hodisalarning ildizlari uzoq tarixga borib taqalsa-da, ular hech qachon ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyot uchun bugungidek tahdid solmagan. Zero, hozirda diniy ekstremizm va terrorizm global xarakterga ega bo'lib, dunyoning barcha mamlakatlari hamda mintaqalariga birdek xavf solmoqda. Shunday ekan, uning oldini olish va unga qarshi kurashish insoniyatning istiqboliga daxldor masalaga aylandi.

Ekstremizm (lotincha - «aql bovar qilmas darajada», «haddan oshish») jamiyatda qabul qilingan qonun-qoidalarga zid radikal qarashlar va harakatlarni anglatadi. Ularga diniy tus berish esa, diniy ekstremizmga olib keladi.

Diniy ekstremizm - jamiyat uchun an'anaviy bo'lgan diniy qadriyatlar va aqidalarni rad etish, ularga zid g'oyalarni aldov va zo'rlik bilan targ'ib qilishga asoslangan nazariya va amaliyotni anglatadi.

Ekstremistik qarashlarni barcha dinlarda, buddaviylik, xristianlik, islomdagi turli oqimlarda uchratish mumkin. Masalan, mutaxassislar katolik cherkovining erkin fikr yurituvchi, hukmron feodal-katolik cherkovi aqidalarini rad etuvchi kishilar - papa hokimiyati dushmanlarini ta'qib qilish uchun XIII asrda

tuzilgan va minglab odamlarning qurbon bo'lishiga olib kelgan inkvizitsiya faoliyatini ham ekstremizmning o'ziga xos ko'rinishi sifatida baholaydilar. Ammo hozirda islom dini niqobi ostidagi diniy-siyosiy harakatlar a'zolari tomonidan turli jinoyatlar sodir etilayotgani jamiyat xavfsizligiga jiddiy tahdid solmoqda.

Fundamentalizm - (lotincha - «asos») tushunchasining ma'nosi muayyan ijtimoiy hodisaning dastlabki ko'rinishini anglatadi.

Diniy fundamentalizm - «ma'lum din vujudga kelgan ilk davriga qaytish va bu yo'l bilan zamonaning barcha muammolarini hal qilish mumkin», degan fikrni ilgari surish ta'limotini anglatadi. Istilohda aqidaning o'zgarmasligini himoya qiladigan, muayyan diniy e'tiqod shakllanishining boshlang'ich davrida belgilangan barcha yo'l-yo'riqlarni qat'iy va og'ishmay bajarilishini talab qiladigan diniy oqimlarni ifodalashda qo'llaniladi.

«Fundamentalizm» atamasi aslida xristian dini bilan bog'liqdir. Fundamentalizm iborasi birinchi bor I Jahon urushi arafasida vujudga kelgan protestantlikdagi ortodoks oqimlarni ifodalash uchun ishlatilgan. Bu oqim 1910 yildan keyin shu nom bilan atala boshlagan. Fundamentalistlar xristianlikning an'anaviy aqidalariga, ayniqsa Bibliyaning mutlaqo mukammalligiga ishonishni mustahkamlash, uni so'zma-so'z sharhlashga qat'iy rioya qilishni talab qildilar. Bu oqim keyinchalik Amerikada keng tarqalib ketdi. 1919 yili Filadelfiyada Jahon xristian fundamentalistlari assotsiatsiyasiga asos solindi.

XX asrning 70-yillaridan boshlab, bu so'z islomga nisbatan qo'llanila boshladi. Bunda «fundamentalizm» atamasi - Qur'on va hadislarni so'zma-so'z talqin etuvchi, ilk islomga qaytishga qaratilgan aqidalarni targ'ib qiluvchi diniy-konservativ ruhdagi yo'nalishga nisbatan ishlatildi. Buning natijasida jahon matbuotlarida islom niqobidagi mutaassib jangarilarni «fundamentalistlar» deb atash ham odat tusiga kirdi.

Shunday ekan, ekstremizm yoki fundamentalizmni faqat muayyan din bilan bog'lash mutlaqo asossiz. Xususan, islom dini, u bilan bog'liq turmush tarzi va qadriyatlar majmui hech qachon ekstremistik tuzilmalarning go'yo din va

musulmon jamoasi ravnaqi yo'lida amalga oshirayotgan terrorchilik xurujlarining asosiy sababi sifatida qaralishi mumkin emas.

Islom shiorlaridan tanlab foydalanadigan, dinning asl mohiyatini buzib talqin qiladigan ekstremistik tuzilmalar xuddi yuqoridagi kabi go'yoki, keng xalq ommasi bilan uzviy birlik mavjudligini ko'rsatish, aslida esa jamiyatda tartibsizlik va parokandalikni yuzaga keltirish uchun mablag' yig'ish, asosiy tahdid manbai sifatida odamlar ongini egallash, jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish orqali hokimiyatga erishishdek ehtiyojlarini qondirish maqsadini ko'zlaydi.

Hozirgi davrda ko'plab ekstremistik uyushmalar va mutaassib harakatlar turli dinlar, shu jumladan, islom, xristianlik, yahudiylik dinlari ta'limotlaridan foydalanmoqdalar.

Aqidaparastlik (arab. - «aqida» - «ishonch», «biror narsani ikkinchisiga bog'lash») muayyan sharoitda, biron-bir g'oyaga qat'iy ishonib, uni mutlaqlashtirish asosida shakllangan qoida va tartiblarni sharoit, holat, vaziyatni hisobga olmagan holda, ko'r-ko'rona qo'llash yoki shunga urinishni anglatadi. U muayyan qonun va qoidalar ta'sir doirasini sun'iy kengaytirishga urinishda yorqin namoyon bo'ladi.

Mutaassiblik (arab. - «g'uluv ketish», «chuqur ketish») o'z fikr-mulohaza va dunyoqarashi to'g'riligiga o'ta qattiq ishonib, boshqa diniy e'tiqodlarga murosasiz munosabatda bo'lishni anglatadi. Mutaassiblik barcha davrlarda turli din va yo'nalishlar orasida keskin nizo va to'qnashuvlar kelib chiqishiga sabab bo'lgan.

Ayni paytda, dunyoviy va diniy bilimlarning sayozligi, sof diniy tushunchalarning asl mazmunini bilmaslik ham diniy mutaassiblik g'oyalarning tarqalishiga sabab bo'lishi mumkin. Bu jarayonning eng xatarli jihati dinni siyosiy lashtirish vositasida hokimiyatga intilish, dindan odamlar orasiga nifoq solish, qo'poruvchilik ishlarini amalga oshirish va g'arazli manfaatlarni ro'yobga chiqarishda foydalanishga urinishlarda namoyon bo'lmoqda.

Demak, diniy ekstremizm kelib chiqishining birinchi va asosiysi sababi bu - mutaassib fikr va qarashlarning paydo bo'lishidir. Mutaassiblik diniy ekstremizm



va terrorizmga zamin tayyorlaydi. Shu o‘rin qayd etish joizki, ko‘p manbalarda «aqidaparastlik» so‘zi hozirgi voqelikdan kelib chiqib «mutaassiblik» so‘zi bilan almashtirilgan holda istifoda etilmoqda.

**Terrorizm tushunchasi va uning asosiy belgilari.** Terrorizm (lotincha - «qo‘rqitish», «vahimaga solish») - aholining keng qatlamlarida vahima va qo‘rquv uyg‘otish, jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish orqali davlat hokimiyatini egallash maqsadiga qaratilgan jinoiy faoliyatdir.

Terror - ommaviy va siyosiy maqsadlarga erishish uchun zo‘ravonlikdan hamda zo‘ravonlik qilish bilan tahdid solishdan muntazam foydalanishdir. Shunday qilib, «terror» dushmanni jismoniy zo‘ravonlik yo‘li bilan qo‘rqitish, hatto uni jismonan yo‘q qilishni anglatadi. «Terrorizm» esa terror amaliyotidir. Bu ikki tushunchani shu tarzda chegaralash maqbul bo‘lsa, u holda terrordan kelib chiqqan terrorizm aslo yangi hodisa bo‘lmay, bugungi kungacha asrlar qo‘ynidan etib kelgan, deb hisoblash mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida «terrorizm»ga quyidagicha ta’rif berilgan: «Terrorizm - xalqaro munosabatlarni murakkablashtirish, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzish, xavfsizligiga putur etkazish, urush va qurolli mojarolar chiqarish, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish, aholini qo‘rqitish maqsadida davlat organini, xalqaro tashkilotni, ularning mansabdor shaxslarini, jismoniy va yuridik shaxsni biron bir faoliyatini amalga oshirishga yoki amalga oshirishdan tiyilishga majbur qilish uchun zo‘rluk, kuch ishlatish, shaxs yoki mol-mulkka xavf tug‘diruvchi boshqa qilmishlar yoxud ularni amalga oshirish tahdidi, shuningdek, terrorchilik tashkilotining mavjud bo‘lishini, ishlab turishini, moliyalashtirilishni ta’minlashga, terrorchilik harakatlarini tayyorlash va sodir etishga, terrorchilik tashkilotlariga yoxud terrorchilik faoliyatiga ko‘maklashayotgan yoki bunday faoliyatda ishtirok etayotgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita har qanday mablag‘-vositalar va resurslar berish yoki yig‘ishga, boshqa xizmatlar ko‘rsatishga qaratilgan faoliyat».

Yuqorida keltirilgan ta’riflarda terrorizmning nihoyatda muhim bir xususiyati - uning muayyan siyosiy maqsad yoki amaliy natijalariga emas, balki u

yoki bu xuruj natijasida odamlar orasida, ijtimoiy fikrda yuzaga keladigan xavotirli aks-sado, shov-shuvga erishishga qaratilgani ta'kidlangan. XX asrning 60-yillaridan boshlab, terrorizmning mojarolarni keltirib chiqaruvchi hodisa sifatidagi salohiyati, butun-butun mintaqalar yo'nalishi turlicha bo'lgan terrorchi tashkilotlar va guruhlar faoliyat ko'rsatgan joylarga aylanib qoldi. Buning natijasida, terrorchilik harakatining ko'lamigina emas, balki metodlari ham o'zgardi. Uning eng dahshatli ko'rinishlaridan biri - o'zini avvaldan o'limga tayyorlagan terrorchi-kamikadzelar tomonidan amalga oshirilayotgan harakatlarni keltirish mumkin.

Musulmon mamlakatlarida terrorchi uyushmalar ommaviy bo'la olmaganini uchun aholining keng qatlamlari nomidan harakat qilish taassurotini uyg'otish maqsadida diniy shiorlardan niqob sifatida foydalanadilar.

Demak, terror, terrorchilik faoliyati, terrorchi birgalikda bir butun hodisa sifatida terrorizmni tashkil etadi. Hozirgi davrda u global miqyos kasb etib, xalqaro terrorizm shaklini oldi.

«Xalqaro terrorizm» tushunchasi davlatlar, xalqaro tashkilotlar, siyosiy partiya va harakatlarni beqarorlashtirishga qaratilgan siyosiy qo'poruvchilik faoliyatini ifodalaydi. U og'ir jinoyatlardan bo'lib, uzoq davom etgan jarayonlarning hosilasi hisoblanadi.

Xalqaro terrorizm fenomeni, ayniqsa, XX asr boshlarida avj ola boshladi, ya'ni xalqaro terrorizmga qarshi kurashda davlatlararo hamkorlikni yo'lga qo'yilishi o'tgan asrning 30-yillaridan boshlangan. Masalan, 1934 yilda Madridda bo'lib o'tgan jinoyatchilikka oid qonunlarni unifikatsiyalashtirish muammolariga bag'ishlangan konferensiyada terrorizmning «Aholini dahshatga solish va har qanday ijtimoiy tashkillashuvni yo'q qilish maqsadida biror bir vositani qo'llash» degan ma'nodagi ta'rifi qabul qilinishiga erishilgan. 1937 yilda 20dan ortiq davlat terrorizmning oldini olish va bunday harakatlar uchun jazolash haqidagi Konvensiyani imzoladi.

Bugungi kunda terrorchilik uslublari ancha kengayganini ta'kidlash zarur. 1970-yillarda biror shaxs yoki siyosiy arbobga qarshi uyushtirilgan terror amaliyoti ko'proq uchragan bo'lsa, hozirda jamoat joylarida, samolyot, avtobus va

poezdlarda portlashlarni sodir etish orqali ko‘plab tasodifiy kishilarning qurbon bo‘lishiga olib keladigan qo‘poruvchilikni amalga oshirishga e‘tibor berilmoqda. Ekspertlarning fikricha, bunday harakatlar birinchi navbatda nobud bo‘lganlardan ko‘ra, uning guvohlariga qaratilgan.

Xalqaro terrorchilik harakatlarining asosiy belgilari:

- xalqaro huquq himoyasidagi ob‘ekt yoki sub‘ektlarga qarshi qaratilgani;
- davlatlar chegaralarini buzish orqali amalga oshirilishi;
- a‘zolari ikki yoki undan ortiq davlat fuqarolari, shu jumladan, yollanma shaxslar bo‘lgan ekstremistik guruhlar tomonidan sodir etilishi;
- ekstremistik guruhlar tarkibida qo‘poruvchilik harakatlari bo‘yicha xorijlik yo‘riqchilarning qatnashishi;
- ekstremistik guruh a‘zolarining boshqa davlatlar hududida tashkil etilgan maxsus lagerlarda tayyorgarlik ko‘rishi;
- tayyorgarlik ko‘rish va qo‘poruvchilikni sodir etishda xorijiy davlatlar va ekstremistik uyushmalar yordamidan, xalqaro tus olgan noqonuniy qurol-yarog‘ savdosi va narkobiznesdan keladigan moliyaviy manbalardan foydalanilishi.

Muayyan mamlakat hududida sodir etilgan terrorchilik xurujida qayd etilgan u yoki bu belgilarning bo‘lishi, unga xalqaro maqom berilishi va shundan kelib chiqib, unga mos choralar ko‘rilishiga olib keladi.

### **Islom niqobidagi ekstremizmning g‘oyaviy ildizlari**

Diniy ekstremizm o‘z mohiyatiga ko‘ra siyosiy hodisa bo‘lib, u amaldagi siyosiy hokimiyat tizimini keskin o‘zgartirishga yo‘naltirilgan. O‘zini islom nomi bilan bog‘laydigan diniy -ekstremistik tashkilotlarning xususiy jihatlari quyidagilardan iborat:

- dunyoviy davlat va jamiyatda murosasiz munosabatda bo‘lish va uni shariatga asoslangan tuzumga aylantirishga harakat qilish;
- dinning davlatdan ajratilganligini rad etish va jamiyatning barcha a‘zolarini majburan shariat talablari asosida hayot kechirishini ta‘minlash;
- islom dinini dunyoning boshqa jamiyatlariga qarshi qoyish;
- mamlakatlarning mustaqilligi va hududiy yaxlitligini tan olmaslik;

- o'z maqsadlari yo'lida davlat va jamiyatda ijtimoiy -siyosiy barqarorlikni izdan chiqarishga qaratilgan hatti-harakatlarga urg'u berish.

Jamiyatlar barqarorligiga rahna solayotgan, ularning barqaror taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatayotgan terroristik harakatlardan biri:

**Vahobiylik.** Vahobiylik XVIII asrda Arabiston yarim orolida vujudga kelgan dini-siyosiy oqimdir. Uning asoschisi Muhammad ibn Abd al-Vahhob 1703 yili Arabiston yarim oroli Najd o'lkasining al-Uyayna degan joyida tavallud topgan. Bu davrda uning otasi Abd al-Vahhob ibn Sulaymon mustaqil mahalliy amir hokimiyatida qozilik lavozimida xizmat qilar edi. Muhammad yoshligidan diniy ilmlarni o'z otasi rahbarligida o'rgana boshladi. U an'anaga ko'ra, Qur'onni yod oldi, tafsir va hadis ilmlari bilan tanisha boshladi. Bir necha bor Misr, Suriya, Ko'rdiston, Iroq, Eron mamlakatlarida bo'lib, ko'pincha ulamolar suhbatida o'zining janjalkashligi va mutaassibliigi bilan ajralib turgan. U o'z targ'ibotchilik faoliyatini 1730 yillarda boshlab, birinchi maqsadi o'ziga munosib homiy topish bo'ldi.

1745 yili Muhammad ibn Abd al-Vahhob ad-Diriyya vodiysiga uning amiri Muhammad ibn Saud taklifiga binoan ko'chib o'tdi. Bu bilan Muhammad ibn Saud o'z hokimiyatini kuchaytirishda vahhobiylikdek mafkuraviy qurolga ega bo'ldi. Vahhobiylar o'zlari xohlagan jamoani kufirda yoki shirkda ayblashlari va unga qarshi jihad e'lon qilishlari mumkin edi. Ibn Saud esa bu jihadni amalga oshirib, o'z hokimiyati chegaralarini kengaytirishni boshladi. Muhammad ibn Abd al-Vahhob 1792-yili vafot etdi. Ibn Saud va uning sulolasi vaxxobiylik bayrog'i ostida olib borgan urushlari 1932-yilda Saudiya Arabistoni davlatining tuzilishi bilan yakunlandi.

Vahhobiylik ta'limoti diniy masalalarda din fundamenti, ya'ni Payg'ambar davri voqeiyliklariga qaytishni talab etdi. Ular barcha muxoliflarini bid'atchilikda, ya'ni dinga yangilik kiritganlikda aybladilar, o'zlarining siyosiy dushmanlarini esa mushriklikda ayblab, ularga qarshi jihad olib borishga fatvo berdilar. Axloqiy masalalarda nazariy jihatdan, garchi shaxsiy kamtarlik, mol-mulkka hirs qo'ymaslik, dunyoviy hayotda toat-ibodatga aksariyat vaqtni sarflashni targ'ib

qilsalarda, lekin amalda saroy ahlining bosqinchilik urushlari qo'shni qabilalar mol-mulklarini talash oqibatida gap bilan amal o'rtasida ziddiyat paydo bo'ldi.

Vahhobiylik harakatlari Usmoniylar imperiyasi (1453-1924) hududlarida vujudga kelganligi va imperiya bilan bu harakat o'rtasida bir necha qonli to'qnashuvlar yuz berganligi tufayli bu oqimda turk islomiga qarshi bo'lgan kuchli kayfiyat o'z aksini topdi. Imperiyaning markaziy hududlarida hanafiylik mazhabi mutlaq hukmron mavqega ega bo'lganligi uchun mazkur maktab qoidalari qattiq tanqid qilindi.

Shuningdek, vahhobiylik harakati mafkurasining markazida avvaliga Arabiston erlarini birlashtirish orqali, keyinchalik butun islom dunyosida islom davlatini shakllantirish g'oyasi ham mavjud edi. Ular bu maqsad yo'lida har qanday qurbonliklarga tayyor edilar.

Vahhobiylarning chet ellarda ko'plab tashkilotlari bo'lib, ular faol harakat olib boradilar. Ularning ko'pchiligi yashirin siyosiy faoliyat olib boradi. Ish uslublari - diniy hissiyotlari kuchli bo'lgan fuqarolarni jamiyatlarga tortib, ularni qayta tarbiyalash, so'ng ulardan tashviqot va ijtimoiy tartibbuzarlik, ekstremistik harakatlarda foydalanish. Bu ishlarga, ayniqsa, yoshlarni, bolalarni, hayot tarzidan norozi bo'lgan shaxslarni jalb qiladilar. Xayriya fondlari orqali mayib-majruhlarga, etim-yesirlarga yordam, diniy ta'lim berish, turli diniy adabiyotlarni tarqatish kabi yo'llar bilan keng targ'ibot ishlarini olib boradilar. Kishilarga fanatizm, murosasizlik, o'zgarar fikrlari va manfaatlariga hurmatsizlik ruhini singdirishga urinadilar.

**Ixvon al-muslimun.** XIX asr dastlabki yillaridan islom dini tarqalgan mamlakatlar iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy hayotida katta tarixiy o'zgarishlar yuz bera boshladi. Bu o'zgarayotgan yangi sharoitlarga diniy-falsafiy, huquqiy normalarning XIX asr yarmidan boshlangan moslashuvi fanda "Islomiy islohotlar" nomini oldi. Lekin bu jarayon haddan tashqari cho'zilib ketdi va ko'p sohalarda ziddiyatli hollarni keltirib chiqardi. Ular orasida panislamizm va musulmon jamoalarining boshqa konfessiyalardan ajratish g'oyasini aytishimiz mumkin. Panislamizm g'oyasini birinchi bo'lib ilgari surgan Jamoliddin al-Afg'oniy (1839-

1897) hisoblanadi. U diniy-siyosiy arbob bo'lib, 1884 yili Parijda Muhammad Abdurrahmon (1849-1905) bilan birgalikda "al-Urvat al-vusqo" jurnalini nashr etdi va unda panislamizm g'oyalarini targ'ib qila boshladi. Afg'oniyning g'oyalarini keyinchalik "Musulmon birodarlar" ("al-Ixvon al-muslimun") radikal shakllarida rivojlantirildi.

Al-Ixvon al-muslimun - 1928 yili Misrning Ismoiliya shahrida Misrlik shayx Xasan al-Banno tomonidan tashkil etilgan diniy-siyosiy tashkilot. Xasan al-Banno Jamoliddin al-Afg'oni, Muhammad Abduh, Rashid Rizo asarlaridan ta'sirlanib, panislamizm g'oyasida "jihod", "islomiy millatchilik", "islomiy davlat" ta'limotlarini ishlab chiqdi. Ixvon al-muslimun bu ta'limotlar asosida islom dini tarqalgan mamlakatlarda Qur'on va shariatda ifodalangan qoidalarga to'liq rioya qiluvchi, "islomiy adolat" printsiplari o'rnatilgan jamiyat qurish uchun siyosiy kurashni boshlab yubordi.

Ixvon al-muslimun o'z tarixida bir necha bosqichlarni bosib o'tdi. 1928-1936- yillardagi davrni xayriya va ma'rifatchilik bosqichi deb atasa bo'ladi. Keyinchalik u kurash uslubi sifatida terrorni qo'llash darajasiga etgan siyosiy tashkilot sifatida maydonga chiqdi. Ko'plab davlatlarda uning faoliyati taqiqlandi. Keyingi davrda ixvon al-muslimun orasida bo'linish yuz berib, ular 3 yo'nalishga bo'linib ketdi:

1. "mo''adillar" - Xasan al-Banno va Sayyid Qutb tarafdorlari;
2. "islom demokratlari" - "islom sotsializmi" ta'limoti tarafdorlari;
3. "at-Takfir va-l-xijra", "al-Jixod", "Xizb at-Taxrir al-islomiy" kabi terror uslubini qo'llovchi tashkilotlar.

**Hizbut at-Tahrir.** Xizbut at-Tahrir 1952 yili Quddus shahrida falastinlik ilohiyotchi Taqiy ad-din an-Nabahoniy (1909-1979) tomonidan asos solingan diniy-siyosiy partiya. U Xayfada tug'ilib o'sgan, Qohiradagi "al-Azhar" universitetida ta'lim olgan.

Partiyaning asosiy maqsadi - avval arab davlatlari miqyosida, keyin islom dunyosi miqyosida va nihoyat jahon miqyosida xalifalik shaklidagi islom davlatini tuzish. Ularning asosiy da'vosi - Mustafo Kamol Otaturk tomonidan 1924-yili

Usmoniy xalifa Ikinchi Abd al-Majid (1922-1924) xalifalikdan g'ayriqonuniy chetlatildi. Davlat diniy-islomiy qonunlar asosida xalifa tomonidan idora etilishi lozim. Partiya dasturi 187 banddan iborat bo'lib, asosiy maqsadi - hokimiyatga erishish. Bunday asosiy yo'l - islomiy fikrlovchi shaxslarni shakllantirish. Ularga islomiy ta'lim-tarbiya berish ikki bosqichdan iborat: 1) u bilan islom ta'limotini o'rgatish yo'lida madaniy-ma'rifiy ishlar olib borish; 2) siyosiy faoliyatga tortish.

Maqsadga erishish uchun kurash uch bosqichdan iborat:

1. g'oyaviy-fikriy kurash;
2. jamiyatda g'oyaviy inqilobni amalga oshirish;
3. hokimiyatga faqatgina umma - jamoaning to'liq roziligidan so'ng kelish.

Xizbut at-Tahrir tarafdorlari ko'pgina musulmon davlatlari, jumladan Tunis, Iroq, Jazoir, Sudan, Yaman va boshqalarda o'z faoliyatlarini yashirin olib bormoqdalar. Uning hozirgi kundagi raxbari Abd al-g'adim az-Zallumdir.

Xizbut at-Tahrir tuzilish jihatidan piramida shaklidir. Har bir guruh (xalqa) alohida-alohida bo'lib, 5-6 kishidan iborat. Guruhlarning o'quv ishiga "mushrif" rahbarlik qiladi. Undan tashqari guruhda yana bir rahbar - "amir" bo'lib, u mushrifga mashg'ulotlarni o'tkazishda bevosita yordam ko'rsatadi. Mushrif bir vaqtning o'zida bir necha guruhda ta'lim ishlarini olib borishi mumkin. O'qish davomida tinglovchilar diniy mavzudagi mashg'ulotlar bilan birga siyosiy, jumladan, musulmon davlatlarida sodir bo'layotgan voqealarni diqqat bilan o'rganadilar.

O'zbekiston hududida 1992-yildan boshlab partiyaning boshlang'ich bo'linmalari tashkil etila boshlagan. Partiya safiga kiruvchilar o'z partiyalari haqidagi ma'lumotlarni hech qachon oshkor etmaslikka o'z mushrifi buyurgan vazifalarni so'zsiz bajarishga Qur'on bilan qasam ichadilar. Partiya mutasaddilari o'z tarafdorlarini ko'proq ziyolilar, ilmiy xodimlar, talaba yoshlar orasidan qidiradilar.

Yetarli ta'lim olgan shaxslar keyinchalik o'zlari mustaqil guruh tuzishlari lozim. Taxrirlarning ta'limi bosqichma-bosqich olib boriladi. Birinchi bosqichda "Islom nizomi" va "Izzat va sharaf sari" kitoblari bo'yicha o'qitiladi,

“al-Vay” jurnalidagi ma’lumotlar muxokama qilinadi. Keyingi bosqichlarda “Demokratiya kufr nizomi”, “Siyosiy ong”, “Xalifalikning tugatilishi”, “Xizbut at-tahrir tushunchalari”, “Islomiy da’vatni yoyish vazifalari va sifatлари” kabi kitoblari o’qitiladi. Bu adabiyotlar partiya manfaatlarini ko’zlab, Qur’on oyatlari va hadislarni noto’g’ri talqin qilib dindorlar ongiga ta’sir qilish mo’ljallangan. Ushbu nashrlar dindorlarni siyosiy lashtirilgan islomga targ’ib etib, ularni fuqaroviy bo’ysunmaslikka va muomaladagi umumiy qoidalarni inkor etishga chaqiradi.

Hozirgi zamon islom ulamolari -Yusuf Qarzoviy, Sayyid Muhammad at-Tantoviy, Nosir ad-din al-Alboniylar Xizbut at-tahrirni *oxod* hadislariga, qabr azobiga, *sirrot* ko’prigiga ishonmasliklari uchun ularni *axl as-sunna va-l-jamo’a* safidan chiqqan hisoblaydilar.

**Akromiylar.** Respublikamiz hududida tashkil topib, hozirda faoliyati deyarli to’xtatilgan noan’anaviy ham islom ta’limotiga ham konstitutsiyaviy davlatchilik asoslariga zid bo’lgan guruh “Akromiylar”dir.

Akromiylar 1996-1997-yillarda Andijonda tashkil topib, uning nomi guruh asoschisi 1963-yilda tug’ilgan Yo’ldoshev Akrom nomi bilan bog’liq. A. Yo’ldoshev Xizbut at-tahrirning etakchisi an-Nabahoniy g’oyalari asosida 12 darsga mo’ljallangan “Imonga yo’l” risolasini yozgan. Shu sababdan akromiylarni “Imonchilar” deb ham yuritiladi.

Akromiylar ham davlat tepasiga chiqish kabi g’arazli maqsadlarni ko’zlaydilar. Biroq, ular taxrircilardan farqli o’laroq, xalifalik davlatini mahalliy sharoitdan kelib chiqib, avvalo Andijonda, so’ng Farg’ona vodiysida amalga oshirmoqchi bo’ldilar. Akromiylar siyosiy xokimiyatga erishishning 5 bosqichini rejalashtirganlar - “sirli”, “moddiy”, “uzviy”, “maydon” va “oxirat”. To’rtinchi va beshinchi bosqichlar tamomila islomlashtirish davri tugagach boshlanishi va ochiqdan-ochiq hokimiyat uchun kurash bosqichlari bo’lmog’i lozim edi.

Bu guruh a’zolari asosan hunarmandlardan iborat bo’lib, ular rasmiy ishxonalardan bo’shab, jamoa ma’qullagan mehnat faoliyati bilan shug’ullanganlar. Zarurat tug’ilganda “birodarlari”ga “jamoa banki”dan moddiy yordam berganlar. Undan tashqari jamoa a’zolariga tashkiliy ravishda oziq-ovqat



mollari tarqatib turilgan. Quda-andachilik faqat “birodarlar” o’rtasida amalga oshirilgan.

### **Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari.**

Musulmon mamlakatlarining diniy ekstremizmga qarshi kurash strategiyasi umuman olganda, har bir davlatning o’ziga xos xususiyatlari va ustuvor yo’nalishlaridan qat’i nazar, bilvosita va bevosita qarshilik ko’rsatish usullarini o’z ichiga oladi.

Bilvosita choralarga rasmiy diniy tashkilotlar bilan hamkorlik, zo’ravonlikka qarshi kurashda diniy arbob va muassasalarning ahamiyatini oshirish, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma’rifiy chora-tadbirlarni amalga oshirishga yordam beradigan dasturlarni kiritish mumkin.

Bevosita qarshilik ko’rsatish o’z ichiga huquqni muhofaza qilish idoralari tomonidan ko’riladigan choralarni, aksilterrorchilik qonunlarini qabul qilish, ulardan keng foydalanish kabi tadbirlarni oladi.

Diniy ekstremizm Markaziy Osiyo davlatlarining dunyoviy prinsiplariga, xalqimizning ma’naviy qadriyatlariga ham ta’sir o’tkazmoqda. O’zbekiston davlati buni oldini olish maqsadida izchil siyosat olib bormoqda. O’zbekistonning diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi xalqaro maydonga izchil olib borayotgan siyosati tinchlik va barqarorlikni saqlash, xalqning farovon hayotini ta’minlashga qaratilgan. Bugungi kunda BMTning terrorizmga qarshi kurashga doir 14 tadan ortiq asosiy hujjatlari bo’lib, O’zbekiston bu konvensiya va protokollarni imzolagan va izchil ijro etib kelmoqda. O’zbekiston davlati “Terrorizm, separatizm va ekstremizm bilan kurash haqidagi Shanxay konvensiyasi(Shanxay 15.06.2001)”ni bajarishda faollik ko’rsatmoqda.

Xalqaro terrorizmga qarshi Shanxay hamkorlik tashkiloti tomonidan bir qancha ishlar olib borildi. Shanxay hamkorlik tashkiloti Xitoy, Rossiya, Tojikiston, Qirg’iziston hamda O’zbekiston davlatlari o’rtasida 2001-yil 15-iyundan tashkil topgan. Uning asosiy maqsadlaridan biri mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash, terrorizm, ekstremizmga qarshi birgalikda kurashish tashkilotning asosiy

sohalariga kiradi. O'zbekiston 2001-yil SHHTga a'zo bo'ldi. 2022-yil 15-16-sentabr Samarqand shahrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida SHHT davlat rahbarlari kengashining 22-majlis tadbirlari bo'lib o'tdi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ta'kidlaganidek, bugungi kunda terrorism, ekstremizm tahdidlari tobora kuchayib, yangi shakllar kasb etayotganini inobatga olib, Shanxay Hamkorlik Tashkilotining mintaqaviy aksiterror tuzilmasini tashkilot maqomida xavsizlikni ta'minlash bo'yicha prinsipial jihatdan yangi vazifalarni hal qilishga moslashtirish zarurligi qayd etildi.

Pzeridentimiz Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida" qayd etganidek "O'zbekiston Respublikasi o'z tarixida ekstremizm va terrorizm bilan bog'liq holatlarga bir necha marta duch kelgan. Ushbu yo'nalishda xavf-xatar, tahdid va tahlikalar saqlanib qolayotganini hisobga olgan holda, davlatimiz bundan buyon ham keng jamoatchilik va xalqaro hamjamiyat bilan birgalikda ekstremizm va terrorizm hamda ularni moliyalashtirishga qarshi kurashishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshiradi<sup>37</sup>.

Bu sohadagi asosiy maqsadimiz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy tizimini himoya qilish, milliy xavfsizlik, shuningdek, fuqarolarning ushbu sohadagi huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga imkon beradigan ekstremizm va terrorismga qarshi kurashish bo'yicha samarali davlat siyosatini amalga oshirishdan iborat bo'lib qoladi".

Zamonaviy ekstremizm va terrorismga qarshi kurash davlatlarning doimiy e'tiborini, uning oldini olish va bartaraf etishga qaratilgan ko'pqirrali siyosatni amalga oshirishda o'zaro hamkorlik va sobitlikni talab etadi.

Xalqaro terrorismga qarshi kurashda dunyo hamjamiyatlari keng faoliyat olib bormoqda.

Islom olamidagi nufuzli tashkilotlar ham hozirgi kunda er yuzda tinchlikni saqlash, har tamonlama aloqalar olib bormoqda.

---

<sup>37</sup> <https://e-library.sammu.uz/uz/book/102>

Islom dini hozirgi kunda musulmon mamlakatlarining tashqi va ichki siyosatida, xalqaro munosabatlarda muhim o'rin tutmoqda. Islom dunyosiga mansub mamlakatlarning jahon iqtisodiyoti va ijtimoiy rivojlanishdagi o'rni ortib bormoqda. Hozirgi kunda ko'plab xalqaro va mintaqaviy darajadagi islomiy tashkilotlar mavjud. Ular ichida eng nufuzli tashkilotlardan biri "Islom hamkorlik tashkiloti" hisoblanadi.

"Islom hamkorlik tashkiloti"<sup>38</sup> 1969-yilda 25-sentabr Marokashda Islom davlati rahbarlarining 1-yig'ilishida tashkil topdi. Dastlab bu tashkilotga Osiyo va Afrikaning 25 ta davlati a'zo bo'lgan. Endilikda 57 tadan ortiq davlat a'zo bo'lib kirgan.

Tashkilot faoliyatida quyidagilar asosiy maqsad sifatida belgilangan:

- Islom birdamligini rahbatlantirish
- Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ilmiy va boshqa sohalarda hamkorlikni mustahkamlash
- Tinchlik va xavfsizlikni saqlash uchun tadbirlar belgilash.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida qayd etganidek "O'zbekiston Islom hamkorlik tashkiloti bilan ham izchil o'zaro hamkorlikni rivojlantirmoqda va uni muqaddas Islom dini qadriyatlarini saqlash hamda rivojlantirish, musulmon xalqlar orasidagi birdamlikni mustahkamlash, ularning taraqqiyoti va ravnaqiga ko'maklashishga qaratilgan samarali bo'g'in sifatida baholaydi.

O'zbekiston Islom hamkorlik tashkilotiga a'zo mamlakatlarning ta'lim va ma'rifat, fan va texnikani rivojlantirish, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni joriy qilish sohasida o'zaro faol hamkorlik tarafdoridir.

Bu borada biz Islom hamkorlik tashkilotining 2016-2025-yillarga mo'ljallangan O'n yillik harakatlar dasturi va uning ustuvor yo'nalishlarni qo'llab quvvatlaymiz" deb ta'kidlab o'tdi.

---

<sup>38</sup> O'zbekistonda davlat va din munosabatlari. O'tkir Hasanboyev.,T.-B.36.

Islom olamida nufuzli tashkilotlardan yana biri “Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo’yicha islom tashkiloti” (ISESCO)- Islom hamkorlik tashkiloti huzuridagi mustaqil tashkilot. 1979-yili ta’sis etilgan.

ISESCO faoliyati quyidagilarga qaratilgan:

- Ta’lim, fan, madaniyat va kommunikatsiya sohasida tashkilotga a’zo mamlakatlar o’rtasida hamkorlikni kuchaytirish
- Dunyoda tinchlik va barqarorlikka hissa qo’shish
- Islom madaniyati haqidagi to’g’ri tasavvurlarni shakllantirish, sivilizatsiyalar, madaniyatlar va dinlararomuloqotni yo’lga qo’yish
- Tashkilotga a’zo davlatlarning ta’lim tizimlari o’rtasida aloqalarni tashkil etish ishlarini amalga oshirish.

ISESCO faoliyatida har yili Islom madaniyatining arab dunyosi, Osiyo va Afrika qit’alari bo’yicha poytaxtlarni e’lon qilish o’ziga xos an’anaga aylanib bormoqda. Shunga ko’ra 2007-yilda Toshkent shahri Islom madaniyati poytaxti sifatida tan olingan. 2020-yilda Osiyo mintaqasidan Buxoro shahri Islom madaniyati poytaxti sifatida tanlab olingan.

Islom olamidagi tashkilotlardan yana biri “Arab davlatlari ligasi” hisoblanadi. Arab davlatlarining xalqaro tashkiloti, 1945-yil 22-martda Qohira shahrida Arab davlatlari vakillarining kengashida tuzilgan. Asoschilari Misr, Saudiya Arabiston, Iroq, Livan, Yaman va Iordaniya hisoblanadi.

ADL asosiy maqsadi a’zo davlatlar o’rtasida siyosiy, iqtisodiy va moliyaviy masalalarda hamkorlikni rivojlantirish; transport va kommunikatsiya sohasidagi aloqalarni mustahkamlash; sog’liqni saqlash va madaniyat sohasidagi aloqalarni rivojlantirish; ijtimoiy muammolarni hal etish va boshqa sohalarda hamkorlik aloqalarni yo’lga qo’yish hisoblanadi.

Yuqoriga qayd etilgan tashkilotlar Islom olamida o’zaro hamkorlik aloqalarini amalga oshirishda asosiy o’rin egallaydilar.

O’zbekiston respublikasi bu davlatlar bilan tinchlikni saqlash iqtisodiyot, madaniyat va boshqa sohalarda hamkorlik olib bormoqda.

### **Mavzu bo'yicha savollar**

1. Ekstremizm, aqidaparastlik va mutaassiblik tushunchalarining mazmuni nima?
2. Terrorizmning mohiyati va uning xalqaro miqyos kasb etishining sabablari nimada?
3. Diniy mutaassiblikning ilk paydo bo'lishi qaysi davrga borib taqaladi?
4. Musulmon dunyosining diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash tajribasining ahamiyatli jihatlarini keltiring.

### **Mustaqil ish topshiriqlari**

Xalqaro terrorizmning mohiyati haqida ma'lumot bering.

1. Markaziy Osiyo mintaqasida faoliyati kuzatilgan diniy ekstremistik harakatlar haqida gapirib bering.
2. O'zbekiston davlat siyosatida radikal oqimlar va qarshi kurashning yo'nalishlari to'g'risida referat tayyorlang.

### **Adabiyotlar**

1. Diniy mutaassiblik: mohiyat, maqsadlar va oldini olish yo'llari / A.Hasanov, O.Yusupov, K.Shermuhamedov, U.G'afurov, J.Karimov. - Toshkent: Movarounnahr, 2013. - 160 b.
2. Tulepov A. Islom va aqidaparast oqimlar. To'ldirilgan nashr. Mas'ul muharrir Shayx Abdulaziz Mansur. - Toshkent: Sharq, 2014. - 536 b.
3. Ilmdan boshqa najot yo'q / A.Abdullaev, N.Hakimova, Sh.Jo'raev, J.Karimov. - Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2015. - 156 b.
4. Shermuhammedov K., Karimov J., Najmiddinov J. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. - Toshkent: «Movarounnahr» nashriyoti, 2016. - 224 b.

## DINSHUNOSLIK FANINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH.


«**Bilaman, Bilmoqchiman, Bildim (B/B/B)**». Bu metod talabalarni kitob, ilmiy maqolalarni o'qishga, bilmaganlarini o'rganishga harakat qilishlariga yordam beradi. Barcha talabalarni darsga faol qatnashishlarini ta'minlaydi. Bu metodni qo'llashda o'qituvchi avvaldan qaysi mavzu yoki savolni shu metod yordamida o'rganishni aniqlaydi. O'rganilgan mavzu bo'yicha savollar va ularning javoblarini, o'qiladigan maqola, darslikdagi paragraf yoki ma'ruza matni, yangi mavzu bo'yicha bilish lozim bo'lgan savollar va ularga javoblarni tayyorlaydi. Talabalarning nimalarni bilishi, yangi mavzu bo'yicha nimani bilishi zarurligi va dars davomida nimalarni talabalar bilganini ko'rsatishi uchun jadval chiziladi. Jadval quyidagicha bo'ladi:

B/B/B jadvali

Biz nimalarni bilamiz?	Biz nimalarni bilishni xohlaymiz?	Biz nimalarni bildik?
1.		
2.		
3.		



Uni har bir talaba o'z daftariga chizib oladi. Doskaga yoki qog'oz plakatga (qog'oz doskaga) butun guruh uchun chizamiz. Bunda savol qo'yilib, guruhda juftlik yoki kichik guruhlar, yoki individual tarzda muhokama qilish mumkin.

### Klaster metodi




### Dars jarayonida sxemalardan foydalanish


#### XRISTIANLIKNING VUJUDGA KELISHI




## XRISTIANLIKNING SIRLI MAROSIMLARI



## XRISTIANLIKNING BO'LINISHI



## BUDDA TA'LIMOTI





## BUDDAVIYLIKNING ASOSIY YO'NALISHLARI

xinayana (kichik arava)-xalos bo'lishning tor yo'li, kishi ilohiy haqiqatga dunyoviy hayotdan voz kechish bilan erishadi

maxayana (katta arava)-halos bo'lishning keng yo'li. kishi dunyoviy hayotdan voz kechmasdan haqiqatga erishib bo'lmaydi

## GLOSSARIY

**AVTOKEFAL CHERKOVLAR** (yunoncha, “o‘z-o‘zini boshqarish”) – pravoslavlikdagi mustaqil boshqaruvga ega bo‘lgan cherkovlar tuzilmasi. Ma‘lum bir tashkilot “avtokefal” maqomini olishi uchun miro moyini mustaqil ravishda tayyorlay olish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.

**AVESTO** (“Apastak”, “Ovisto”, “Ovusto”, “Abisto”, “Avasto”) –joriy qilingan qat‘iy qoidalar, sanskrit tiliga yaqin o‘ziga xos avesto tilida yozilgan zardushtiylikning muqaddas kitobi.

**AVTONOM CHERKOVLAR** (yunoncha, “mustaqil”) – biror–bir avtokefal cherkovdan ichki tartib–qoidalarni mustaqil bajarish huquqini olgan cherkov. Avtonom cherkov rahbari avtokefal cherkov patriarxi tomonidan tasdiqlanadi.

**AGNI** – yer xudolarining eng ulug‘i (quyosh, chaqmoq, olov) hisoblangan olov xudosi. Agni haqidagi afsonalar Hindistondan tashqarida vujudga kelgan. U odamlar qurbonliklarini xudolarga etkazuvchi ruhoniy sifatida tasavvur qilingan va biror qurbonlik uning vositasisiz xudolarga etib bormaydi, deb hisoblangan.

**ADJI** – To‘rt tomoni teng bo‘lgan salb bo‘lib, tangrichilik dinining ramzi hisoblanadi. U barcha narsa asliga qaytishining ifodasi bo‘lgan.

**ADONAY** – YAhudiylikda ibodat vaqtida zikr qilinadigan Xudoning ismlaridan biri.

**AZIZ** – isnod tabaqasining barchasida roviylari soni ikkitadan oz bo‘lmagan hadis.

**AKEM MANA** – yomon fikr, adashtirish ma‘budi, Axriman tarafdori.

**AQIDA** – (arabcha, biron narsani bir-biriga bog‘lash) aqoid ilmining mashhur nomlaridan biri.

**AQIQA** – (arabcha, “qorin sochi”) tug‘ilgan chaqaloqning sochini olish va tavalludi munosabati bilan so‘yiladigan qo‘yga aytiladi.

**AQLIY DALIL** – mutakallimlarning naqlga asoslanib bergan o‘z ra‘ylari. Fikriy qarashlari asosida biron aqidaviy masalaga bergan javoblari. Aqliy dalil asosan mantiq bilan bog‘liq hisoblangan.

**AMERETAT** – zardushtiylikda baxt, abadiylik ma‘budi, Axura Mazda tarafdori.

**AMESHA SPENTA** (abadiy muqaddas) – zardushtiylikda Axura Mazda yaratgan 7 maxluqdan biri. Boshqa fikrga ko‘ra, Amesha Spenta – Axura Mazdaning timsoli.

**ANJUMANI MOG‘ONE IRON** – zardushtiy ruhoniylar ierarxiyasidan tashkil topgan Eron Mobadlari kengashi.

**ANXRA–MAYNYU** (yunoncha, Axriman) – zardushtiylikda yomonlik, yovuzlik, buzg‘unchilik ibtidosi, zulmat egasi bo‘lib, ezgulik va yorug‘lik sohibi Axura Mazda va uning tarafdorlariga qarshi bosh ko‘targan ma‘bud.

**APOSTOL** (yunoncha, «elchi») – xristian ta‘limotiga binoan Isoning eng yaqin yordamchilarining unvoni. Ularning asosiylari 12 ta: Pyotr (Simon Ionin), Andrey, Ioann, Iakov Zevedev, Filipp, Varfolomey, Matfey, Foma, Iakov Alfeev, Faddey, Simon Kananit, Iuda Iskariot (Isoni sotgan havoriy), Matfiy (Iudadan so‘ng uning o‘rnini egallagan). Bularan tashqari yana 70 nafar havoriy mavjud bo‘lgani xristian adabiyotlarida qayd etiladi.

**ARON KODESH** – Sinagogalarda “Tavrot” o‘ramlari saqlanadigan maxsus joy.

**ATXARVA VEDA** – “Afsun va jodular vedasi” – koinot bilan bog‘liq, mistik parchalar va sehr bilan aloqador duolardan iborat kitob. O‘sha davrda afsun va jodular olov ustida bajarilgani sababli, u afsonaviy ruhoniy Atxarvana – “Olov ruhoniysi” nomi bilan uzviy bog‘liq.

Atxarva Veda 6000 she‘rdan iborat 371 madhiyani o‘z ichiga oladi. Ular jami 20 kitobda jamlangan.

**AXURA MAZDA** (yunoncha, Ormuzd) – zardushtiylikda donishmandlik sohibi, yaxshilik, ezgulik, yaratuvchanlik ibtidosi, yorug‘lik sohibi bo‘lib, yovuz Axriman va uning tarafdorlariga qarshi doimiy kurashda.

**ASHA VAXISHTA** – zardushtiylikda adolat, haqiqat ma‘budi, Axura Mazda tarafdori.

**ASHVINA VA SAVITAR** – Hind havo xudolari.

**BARASHNUM** – zardushtiylikda jasadni ko‘targan va yuvgan kishilarning uzoq vaqt davomida itlar yordamida amalga oshiriladigan poklanish marosimi.

**BAR–MITSVA** (ibr., “buyurilgan amrlar o‘g‘li”) – yahudiylilikda 13 yoshga to‘lgan o‘g‘il bola, balog‘at yoshiga etgani munosabati bilan o‘tkaziladigan marosim.

**BIBLIYA** (yunoncha, “kitoblar”) – yahudiylilik va xristianlik dinlaridagi asosiy muqaddas manbaning nomlanishi. YAhudiylikda “Bibliya”si “Kitve kadesh” va “Tanax” ham deb nomlanadi. Xristianlar tomonidan tan olinadigan “Bibliya” “Qadimgi Ahd” va “YAngi Ahd”dan iborat bo‘lib, umumiy hisobda 66 kitobdan iborat.

**BIBLIYA JAMIYATI** – “Bibliya”ning alohida qismlarini yoki to‘laligicha dunyo tillariga tarjima qilish bilan shug‘ullanadigan jamiyatlar nomi. Bunday jamiyatlar biror bir diniy konfessiyaga qarashli bo‘lmay, buyurtma asosida ishlaydi. Ilk “Bibliya” jamiyati 1804 yilda Britaniyada tuzilgan. Hozirda dunyo bo‘yicha 140 dan ortiq shunday jamiyatlar mavjud.

**BODDHISATTVA** – xudoning nuri, oliy kamolotga erishgan va nirvanaga ko‘tarilish huquqiga ega bo‘lgan inson.

**BOZKURT** – Qadimiy turkiy tilda “Kulrang bo‘ri” ma‘nosida kelib, tangrichilarning totemi bo‘lgan.

**BRAXMAN** – sanskrit tilidan olingan bo‘lib “Braxmaga atalgan, o‘zini bag‘ishlagan”, degan ma‘nolarni bildiradi.

**BUTUNJAHON SOBORLARI** – xristian cherkovi episkoplarining ma‘lum diniy masalalarni hal qilish maqsadida o‘tkaziladigan yig‘ilishi. Ilk sobor milodiy 325 yilda Nikeya shahrida bo‘lib o‘tgan. Hozirgacha 21 marta Butunjahon soborlari o‘tkazilgan.

**VAJRAYANA** – “olmos g‘ildirak”, ilk buddaviylikning dharmalar tabiati haqidagi turli qarashlari natijasida yuzaga kelgan yo‘nalish.

**VAYSHLAR** – hind kasta tizimida savdogar, hunarmand va dehqonlar.

**VARANA** – Tridandinalarning markazi bo‘lib, unda tarkidunyochilikda hayot kechiradilar.

**VAHIYNOMA** – rus va boshqa tillarda Apokalipsis. “YAngi Ahd”ning tarkibiy qismi bo‘lib, uni “Injil” mualliflaridan biri Ioann ilohiy ilhom orqali yozgan, deb

*e'tiqod qilinadi. Ushbu kitobda qiyomat va Isoning ikkinchi qaytishi bilan bog'liq hodisalar bayon qilingan.*

**VEDALAR** – oriylar o'zlari bilan olib kelgan muqaddas yozuvlari, sanskrit tilidan tarjima qilinganda “muqaddas, ilohiy bilim” ma'nolarini anglatuvchi Hindistonning asosiy muqaddas manbai.

**VERETRAGNA** – zardushtiylikda eng mashhur ezgulik yazatlaridan biri.

**VIDEVDAT** – 22 bobdan tashkil topgan “Avesto”ning saqlanib qolgan eng mukammal bo'limi.

**VIJDON ERKINLIGI** – kishilarning biror dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslikdan iborat kafolatlangan konstitutsiyaviy huquqi.

**VISPARAD** – “Avesto”ning 24 bobdan tashkil topgan ma'budlar sha'niga o'qiladigan duo va pand–nasihatlardan iborat bo'limi.

**VISHNU** – vedalarda zikr qilingan va keyinchalik unutilgan xudolar orasida abadiy hisoblangan va hozirda butun Hindistonda ulug'lanuvchi quyosh xudosi.

**VOJIB** – Qur'oni karimda to'g'ridan–to'g'ri buyruq kelmagan holda bajarilishi shart bo'lgan amallar.

**VOHUMANAH** (Behmen) – zardushtiylikda aql, ezgu fikr, tushunish yazati (farishtasi).

**GALAXA** – yahudiylik shariati.

**G'ARIB** – birgina ishonchli odamdan rivoyat qilingan sahih hadis.

**GAT** – “Avesto” tarkibidan joy olgan Zardushtning so'zlari hisoblanadigan bo'lim.

**GEGIG** – tangrichilikda Er olami.

**GOVMARD** (forscha, ho'kiz–odam) – zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, birinchi inson.

**GOHI** – zardushtiylikda kunning muayyan qismida bajariladigan (Xavan goh – tongdan peshingacha, Rapitvin goh – peshindan so'ng, Uzarin goh – kun botishdan oldin, Aivisrutrim goh – kun botgandan so'ng, Ushaxin goh – yarim kechadan tongacha ibodatleri).

**DASTUR** – Mobad oilasiga mansub zardusht ruhoniylari tabaqasining yuqori vakili.

**DAXMA** – zardushtiylikda erdan 4–5 metr balandlikda silindr shaklida bo'lgan maxsus joy bo'lib, unga o'liklar ustma–ust tartib bilan yotqiziladi.

**DAEN** – zardushtiylikda imon, yaxshi amal, u inson vafotidan so'ng go'zal qiz qiyofasida ko'rinib, uni CHinvanda ko'prikdan olib o'tishga yordam beradi.

**DEV VIZARESH** – zardushtiylikda inson vafotidan so'ng uning qilmishi yovuzlik bo'lsa, jazo beruvchi, do'zaxga tashlovchi ma'bud.

**DENKART** (“Imon faoliyati”) – IX asrda Sosoniylar hukmronligi davrida yozilgan qomusiy lug'at bo'lib, u o'z ichiga badiiy va tarixiy ma'lumotlarni olgan. Dastavval 9 bo'limdan iborat bo'lgan, keyinchalik uning 2 qismi yo'qotilgan.

**DIAKON** (yunoncha, xizmatchi) – xristian cherkovlaridagi eng quyi ruhoniylar darajasi.

**DIN ARKONLARI** – ma'lum bir dindagi asosiy ibodatlar majmui.

**DINIY BAG'RIKENGLIK** – kishilar va jamiyatda diniy asosda o'zaro bir–birini tushunish, xolis va haqqoniy bilimlar, adolatli va haqiqiy baholar, o'zaro hurmat

va ishonchga, hamjihatlik va hamkorlikka asoslangan qarashlar va amaliy faoliyat tizimini o'z ichiga oladigan ijtimoiy–madaniy hodisa.

**DINIY MUTAASIBLIK** – o'z aqida va g'oyalarning shak–shubhasiz to'g'riligiga qattiq ishonish, ularga mukkasidan berilganlikni, boshqa firqa va mazhablarga murosasiz munosabatni ifodalovchi qarashlar va xatti–harakatlar majmui.

**DINIY SEKTA** – ma'lum bir dindagi rasmiy aqidalarga zid ravishda ajralib chiqqan yoki mavjud dinlar va konfessiyalarga umuman aloqasi bo'lmagan holda din bayrog'i ostida faoliyat ko'rsatadigan guruh.

**DINIY TASHKILOTLAR** – bir din izdoshlarining dinga e'tiqod qilish, ibodat, rasm–rusum va marosimlarni birgalikda ado etish maqsadida tuzilgan ko'ngilli birlashmalari (diniy jamiyatlar, diniy o'quv yurtlari, masjid, cherkov, sinagoga, monastir va boshqalar).

**DODGOH** – zardushtiylikda hamma uchun ochiq bo'lgan muqaddas olov yoniq turadigan xona.

**DRON** – zardushtiylikda ibodat marosimlari uchun maxsus tayyorlangan non.

**DRUDJ** – zardushtiylik dinida yolg'on so'z.

**DUJVARTSHTA** – zardushtiylik dinida yovuz fikr.

**DUJMATADAN** – zardushtiylik dinida yovuz amal.

**DUJUXTA** – zardushtiylik dinida yovuz so'z.

**DYAUS, VARUNA, INDRA** – vedizmدا turli osmonlarni boshqarib turuvchi osmon xudolari. Varuna keyinchalik suv va dengizlar xudosiga aylanib ketgan.

**EPISKOP** (yunoncha, “nazoratchi”) – xristian cherkovidagi ruhoniylk unvoni. Episkoplar havoriylarning izdoshlari, deb hisoblanadi.

**JABROIL** – Alloh bilan payg'ambarlar o'rtasida elchi vazifasini bajaruvchi farishta.

**JEBRLAR** – zamonaviy zardushtiyning Erondagi vakillari.

**ZABUR** – Dovud payg'ambarga tushirilgan kitob. “Qadimgi Ahd” tarkibiga kiritilgan bo'lib, turli qo'shiq va madhiyalardan iborat.

**ZAIF** – sahih shartlaridan birortasini yo'qotgan va hasan darajasiga etmagan hadis.

**ZAKOT** – (arabcha, poklash) ehtiyojdan tashqari bo'lgan boylikning qirqdan bir qismini (2,5 %) sadaqa qilish. Zakot moli zakot miqdoriga etgan badavlat kishilar uchun farz etilgan.

**ZAURVI** – zardushtiylikda qarilik, o'lim ma'budi, Axriman tarafdori.

**ZEND** (parfiyoncha, “sharhlangan matn”) – milodiy III asrga oid qonunlardan iborat Avestoning sharhi.

**ILM AL–JARH VA–T–TA'DIL** – roviylarning adolati va zabti haqida bahs yuritib, ularning ishonchli yoki ishonchsizligi haqida yakuniy xulosa chiqaruvchi roviyga tanqidiy yondashish ilmi.

**ILM AR–RIJOL** – roviy haqida to'liq ma'lumotni o'rganuvchi hadis ilmi sohasi.

**ILOHIY KITOB** – Alloh tomonidan payg'ambarlarga nozil qilingan Zabur, Tavrot, Injil va Qur'on kitoblari.

**IMON** – ishonmoq, tasdiqlamoq bo'lib, istilohda esa “La ilaha illallohu Muhammadun rasulullohu” (“Allohdan o'zga iloh yo'q va Muhammad – Allohning

payg‘ambari”) kalimasini til bilan aytib (*al–iqrór bi–l–lison*), dil bilan tasdiqlash (*at–tasdiq bi–l–qalb*) demakdir.

**INDRA** – zo‘rlik, zulm ma‘budi, *Axriman* tarafdori.

**INJIL** – (yunoncha, “*Evangelie*”) “*YAngi Ahd*»dagi *Mark*, *Matto*, *Luqo* va *YUhannolardan* rivoyat qilingan kitoblar nazarda tutiladi. Ularda *Iso Masihning* hayot yo‘li va mo‘jizalari bayon qilingan.

**ISLOM** – (arabcha, *taslim bo‘lish*, *bo‘ysunish*) yagona *Allohga bo‘ysunish* ma‘nolarini beradi.

**QAVLIY SUNNAT** – *Rasululloh (a.s.)ning* turli holat va munosabatlarda aytgan so‘zlari.

**QADIMGI AHD** – “*Bibliya*”ning qismlaridan biri. “*Tavrot*” (*Musoning 5 kitobi*), “*Zabur*” va boshqa kitoblardan iborat, jami 39 kitobni o‘z ichiga oladi.

**KALOM** – so‘z, *nutq ma‘nosini* bildiradi. Mo‘taziliylar *paydo bo‘lgandan keyin* *aqida ilmining nomi* “*kalom*” deb atala boshlangan.

**KARDINALLAR KOLLEGIYASI** – *Rim katolik cherkovidagi oliy kengash*. *Papa o‘rni bo‘shab qolganda uning vazifasini bajarish va yangi Papani saylash vazifalarini bajaradi*.

**KASTA** – *hinduiylikda ayni ish bilan shug‘ullanuvchi, otalardan meros qolgan haq, vazifa va odatlar bilan qattiq bog‘langan shaxslar toifasidir*. *Kasta insonlar tomonidan saylanmaydi va tanlanmaydi, uning ichida faqatgina dunyoga kelish mumkin*. Bu tizim 4 sinfdan tashkil topadi.

**KAUTXUMA (KAUTHUMA)** – *Sama Vedaning hozirgi kungacha etib kelgan tahriri*. *Kautxuma to‘plami 1810 she‘rdan iborat bo‘lib, undan faqatgina 76 tasi Rigvedada uchramaydi, she‘rlar, asosan, Rigvedaning VIII va IX mandalasidan olingan bo‘lib, ular tantanali qurbonlik marosimida rohiblar tomonidan o‘qiladi*.

**QIYOMAT** – (arabcha, “*tik turish*”, “*o‘rindan turish*”) o‘liklarning qayta tirilishi va o‘rnidan turishi.

**KIROMUN KOTIBUN** – *islomda har bir insonning hayoti davomida bajargan har bir amal va so‘zlarini yozib boradigan farishtalar*.

**KIRXA** (*nemischa, “cherkov”*) – *lyuteran cherkovlarining nomi*.

**KOSTEL** (*polyakcha, chexcha, “cherkov”*) – *Rim katolik cherkoviga qarashli ibodatxonalarga nisbatan ishlatiladigan atama*. Ushbu atama *pravoslav yoki protestant cherkovlariga nisbatan qo‘llanilmaydi*.

**KRISHNA** – “*qora*” ma‘nosini anglatadi, o‘zining tabiiy kelib chiqishiga ko‘ra juda murakkab obraz. U haqda *olov, chaqmoq, momaqaldiraq, osmon, quyosh bilan bog‘liq afsonalar mavjud*. *Krishna jangovar, engilmas qahramon sifatida ta‘riflanadi*. U *urushda ham, sevgida ham engilmas bahodir, ammo juda ayyor tabiatga ega*.

**QUDSIY HADIS** – *Ma‘nosi Allah taolodan bo‘lib, aytilishi, ya‘ni lafzi Rasululloh (a.s.)dan bo‘lgan hadislar*.

**KUNEL** (*kunelem size*) – *Ko‘ngil sezishi qobiliyati, intuitsiya bo‘lib, tangrichilik e‘tiqodiga ko‘ra, u Tangri tomonidan insonga jon kiritilayotganda berilgan*.

**QUR‘ONI KARIM** – *Islom dinining birlamchi muqaddas manbasi bo‘lib, 23 yil mobaynida Muhammad payg‘ambar (a.s.)ga Jabroil farishta (a.s.) orqali ba‘zan oyat–oyat, ba‘zan esa to‘liq sura tarzida nozil qilingan ilohiy kitob*.

**KUT** – Quvvat, kuch, energiya manbai. Tangrichilik e'tiqodiga ko'ra, u insonning moddiy tirikligi sababidir.

**KUSHTI** – zardushtiylikka e'tiqod qiluvchi shaxs diniy marosimlarda taqishi lozim bo'lgan maxsus kamar.

**KSHATRIY** – hind kasta tizimida hokim va jangchilar tabaqasi.

**LUQO** (Luka) – “YAngshi Ahd” tarkibiga kiruvchi to'rt Injil mualliflaridan biri. Xristianlik tarixida Bibi Maryamning suratini chizgan birinchi inson sifatida tanilgan. Iso Masihning 70 havoriylari qatoriga kiradi.

**“LYU I” NING OLTI SAN'ATI** – Mil.avv 6–5 asrlarda Xitoyda diniy marosimlarni bajarish, musiqani tushunish, o'qish, sanash, ikki g'ildirakli jang aravasini boshqarish va kamondan o'q otish san'ati shunday nom bilan atlagan va uni egallagan odam bilimli hisoblangan.

**MAVZU'** – Rasululloh (a.s.)ga nisbat berilib to'qilgan yolg'on hadis.

**MAGEN DAVID** – YAhudiylik dinining ramzlaridan biri bo'lmish olti bo'rchakli “Dovud yulduzi”.

**MAKRUH** – bajarilishi yomon sanalgan amal.

**MANDUB** – bajarilishi tark qilinishidan afzal bo'lgan amal.

**MANU QONUNLARI** – kasta tizimidagi barchaga xos vazifalarni o'zida qat'iy belgilab bergan to'plam.

**MARK** – “Injil” mualliflaridan biri. Havoriylardan Pyotrning shogirdi bo'lgan. Aleksandriyada cherkov tuzib, o'zi birinchi episkop bo'lgan.

**MATTO** (Matfey) – “Injil” mualliflaridan biri, Iso Masihning 12 asosiy havoriylaridan biri. “Injil”da Leviy Matfey va Leviy Alfeev nomlari bilan ham tilga olinadi.

**MAHAYANA** – “katta g'ildirak”, ilk buddaviylikning diniy–axloqiy yo'nalishlaridan bo'lib burchga sodiqlik, pok bo'lish haqidagi qarashlardan yuzaga kelgan.

**MAHSHAR** – qiyomat kuni bandalar yig'iladigan va savol–javob bo'lib o'tadigan joy

**MASHHUR** – isnod yo'llarining har birida uchta va undan ortiq shaxslar tomonidan rivoyat qilingan va mutavotir darajasiga etmagan hadislar.

**MEDITATSIYA** – “fikrlash, o'ylash”, shaxsning o'z ruhiy faoliyatiga chuqur berilish holati, muroqaba, hikmat va haqiqat haqidagi ilm.

**MENOG** – Ruh olami.

**MENORA** (ibr., “shamchiroq”) – etti ustunli, tillodan yasalgan shamchiroq. YAhudiylikning asosiy ramzlaridan biridir.

**MEHRJON** – 23 sentyabr kuni nishonlanadigan Hosil bayrami.

**MIRO MOYI** (yunoncha, «xushbo'y moy») – xristianlikning etti sirli marosimlaridan birida tanaga suriladigan xushbo'y moy. Ushbu moy cherkov episkopi tomonidan oliy navli zaytun moyiga oq uzum vinosi, atirgul yaproqlari, binafsha, zanjabil ildizlari, muskat, atirgul, chinnigul va limon moylari kabi maxsulotlarni qo'shib qaynatish orqali tayyorlanadi.

**MISSIONERLIK** \_\_\_\_\_ – bir dinga e'tiqod qiluvchi xalqlar orasida boshqa bir dinni targ'ib qilish bilan bog'liq nazariy qarashlar va amaliy xatti–harakatlar majmui.

**MITRA** (avesto, do'stlik, kelishuv) – inson vafotidan so'ng uning ruhini himoya qiluvchi ezgulik yazatlaridan biri.

**MOBAD** – diniy marosimlarni avloddan avlodga saqlab qolish mas'uliyatini olgan, ruhoniylar oilasi, o'rta maqomli ruhoni.

**MOBADAN MOBAD** – mobadlarning mobadi, mobad oilasiga mansub zardusht ruhoniylari tabaqasining yuqori vakili.

**MOBADYOR** – mobadlardan bo'lmagan diniy ma'lumotga ega xirbadlardan keyin turuvchi martaba.

**MONASTYIR** – xristianlikda ruhoniylar jamiyatdan ajralib, faqat ibodat bilan shug'ullanadigan joy, muassasa. Ayollar va erkaklar uchun mo'ljallangan monastirlar mavjud.

**MONOFIZITLAR** (yunoncha, «yakka, yagona», «tabiat») – ruhoni Evtixiy tomonidan asos solingan xristianlikdagi ilk yo'nalishlardan biri bo'lib, milodiy V asrda paydo bo'lgan. Iso Masih xudo va inson tabiatida paydo bo'lgan bo'lsa-da, keyinchalik uning faqat xudolik tabiati saqlanib qolgan degan g'oyani olg'a surgan. Ushbu yo'nalish vakillari 451 yilda Xalkidoniyada bo'lib o'tgan Butunjahon soborida kuforda ayblanishgan.

**MUBOH** – islom shariati qilish yoki qilmaslikni kishilar ixtiyoriga qo'ygan amallar.

**MUQADDAS YOZUV, XUSHXABAR** – xristianlikning muqaddas kitobi "Injil"ga nisbatan ishlatiladigan nomlar.

**MUQADDAS KITOB** – "Bibliya" va uning tarkibiga kiruvchi kitoblar nomi.

**MUQADDAS RIVOYATLAR** – "Bibliya" tarkibiga kirmagan, cherkov avliyolari tomonidan qabul qilingan hujjatlar va nomalar.

**MUQADDAS RUH** – xristianlikda Xudoning uch ko'rinishidan biri. Muqaddas Ruh dunyoning yaralishida ishtirok etgan, Bibi Maryam ham u orqali Isoga xomilador bo'lgan.

**MUSANNAF** – hadis to'plamlarining muayyan mavzularga ajratilgan turi.

**MUSNAD** – 1. Isnodi muttasil ravishda o'z nihoyasiga etgan hadis, ya'ni sanadi bilan rivoyat qilingan hadis. 2. Sanad, isnod so'zlarining sinonimi. 3. Hadis to'plamlarining turi.

**MUTAVOTIR** – yolg'onga yo'l qo'yishi mumkin bo'lmagan rostgo'yiligi e'tirof etilgan kishilarning boshdan oxirigacha o'zlari kabi kishilardan naql qilgan rivoyati.

**MUTAKALLIM** – kalom ilmi bilan shug'ullangan olimlar "mutakallim" deb atalgan.

**MUTTASIL** – isnodi uzluksiz bo'lgan marfu', mavquf hadislar. YA'ni roviylar silsilasi – sanad uzluksiz Rasululloh (a.s.)ga etib borgan bo'ladi.

**MO'TAZILIYA** – (arabcha, "ajralib chiqmoq") islom olamida birinchi paydo bo'lgan, eng kata, adashgan e'tiqodiy ta'limotning nomi.

**NAVRO'Z** – yilning kun va tuni teng bo'lgan 21 martda nishonlanadigan ezgulikning yovuzlik ustidan g'alabasiga bag'ishlangan yangi yil bayrami.

**NAQLIY DALIL** – aqliy dalildan farqli ravishda naqliy dalil faqat Qur'on va sunnatga asoslangan.



**NAMOZ** – har bir musulmon kishining kuniga besh mahal poklanib, qibla tomonga yuzlangan holda amalga oshiradigan farz ibodati.

**NASUSA** – qutiga ko‘muvchilar, dafn marosimida ishtirok etuvchi ijtimoiy tabaqa vakillari.

**NER TAMID** (ibr., “abadiy shamchiroq”) – sinagogada “Tavrot” solingan sandiq ro‘parasida joylashgan, doimo yonib turuvchi shamchiroq. Singogalarda Ner tamid Menorani eslatib turuvchi ramz sifatida quyiladi.

**NIRVANA** – inson ichki dunyosining mukammalligi, orzu–istaklari, yashash hissi, qanoat, tarki dunyochilik kabi ruhiy holatni o‘z ichiga olgan oliy intilish.

**NOUS** – inson vafotidan so‘ng undan qolgan suyaklar saqlanadigan maxsus quticha bo‘lib, u daxmaga qo‘yilgan.

**OQ VA QORA RUHONIYLAR** – pravoslav ruhoniylari qatlami. “Oq” ruhoniylar oila qurish huquqiga ega, “qora” ruhoniylarga esa oila qurishi mumkin emas.

**ORIYLAR** – oq tanli qavm hisoblanib, Hazar, ya‘ni, hozirgi Kaspiy dengizining shimoliy, Evropaning shimoli yoki Turkmaniston mintaqasida miloddan avvalgi XVII – XVI asrdan XII asrgacha turli qabila va guruhlar shaklida yashaganlar.

**OSOR** – xabar, sunnat va hadisning sinonimi sifatida ishlatiladigan atama. Osor odatda sahobiylar yoki tobe‘iyilarga mansub so‘zlarga nisbatan qo‘llaniladi.

**OTA XUDO** – Xristianlikda Xudoning uch ko‘rinishidan biri va asosiysi. Ota Xudo dunyoni yaratgan bo‘lib, uchlikning qolgan ko‘rinishlari (O‘g‘il Xudo va Muqaddas Ruh) undan kelib chiqqan.

**OTASH ADURAN** (Olovlar olovi) – o‘rta darajadagi aslzodalar olovi, 1000 kishidan kam bo‘lmagan aholi turar joylarida Mobadlar tomonidan yoqiladi.

**OTASH DODGOH** (Qonuniy olov) – quyi darajadagi olov, mahalliy jamoalarning kundalik diniy ehtiyojlari uchun ishlatiladi. Forslarda bu kabi joylar Dar ba mehr (adolat egasi bo‘lgan Mitraning hovlisi) deb ham atalgan.

**OXIRAT KUNI** – odamlar qayta tirilib, hayoti davomida bajargan har bir amali uchun hisob–kitob qilinadigan kun. U Qiyomat kuni deb ham ataladi.

**OHOD** – roviylar soni mutavotir darajasiga etmagan hadis turi.

**OYAT** – (arabcha, «belgi, mo‘jiza») Qur‘on suralarini tashkil etuvchi qism, «jumlalar».

**PAYG‘AMBAR** – Allohning erdagi elchisi bo‘lib, odamlarni Allohga ibodat qilishga chaqiruvchi va oxirat haqida xabar beruvchi kishi

**PANCHA SHILA** – buddaviylikda besh nasihat, ya‘ni qotillik, o‘g‘rilik, gumrohlik, yolg‘on, mast qiluvchi narsalardan saqlanish.

**PASTOR** (lotincha, cho‘pon) – protestantlikdagi cherkov rahbari. Pastorlar ommaviy ibodatlarda ma‘ruzalar o‘qish va cherkovning ichki faoliyatini boshqarish bilan shug‘ullanadi.

**PASXA** (yunoncha, ivritcha – “yonidan o‘tish”) – xristianlikdagi asosiy diniy bayramlardan biri. Iso Masihning qayta tirilgan kuni sharafiga nishonlanadi. Hozirgi kunda Pasxa kuni Oy–Quyosh kalendari asosida hisoblanib, har yili o‘zgarib turadi.

**PORSIYLAR** – VII asrda Eronga islomning kirib kelishi oqibatida Hindistonga ko‘chib o‘tishga majbur bo‘lgan zardushtiylarning bugungi kundagi avlodlari.

**PRESVITER** (lotincha, “oqsoqol, jamoa boshlig‘i”) – xristian ruhoniyluk ierarxiyasida yuqori o‘rinni egallovchi diniy lavozim. Qadimda episkoplar ham presviter deb atalishgan.

**PUSHAN** – hindlar e‘tiqodidagi quyosh xudosi. U muruvvatli hisoblanib, quyoshning mahsuldorlik faoliyatini o‘zida namoyon qiladi.

**PYATIDESYATNIKLAR** – protestantlikdagi eng yirik yo‘nalishlardan biri. O‘zlarini Iso vafotidan 50 kun o‘tgach Muqaddas Ruh in‘omiga ega bo‘lib, turli notanish tillarda gapira boshlagan havoriylarning izdoshlari, deb hisoblaganlari uchun shu nomni qabul qilganlar.

**RATU** (avesto, namuna, rahbar) – zardushtiylikning himoyachisi, mas‘um mobad, zardusht ruhoniylari tabaqasining eng yuqori vakili.

**RASHNU** – zardushtiylikda inson vafotidan so‘ng uning ruhini himoya qiluvchi ezgulik yazatlaridan biri.

**RIG VEDA** – “Madhiyalar vedasi”, xudolarga aytilgan madhiyalar to‘plami bo‘lib, tangrilarni ulug‘lash maqsadida yozilgan, 1017 ta ilohiydan tashkil topgan. Har bir ilohiy 10 ga yaqin “oyat”dan iborat. Bu ilohiylar o‘nta kitob, ya‘ni Mandalaga bo‘linadi. Ular ichida eng uzuni 191, eng qisqasi 43 ta ilohiydan iborat.

**RIM PAPASINING QARORLARI** – turli davrlarda Papa tomonidan chiqarilgan din sohasidagi qarorlar. Rim katolik cherkovi aqidasi binoan Papaning qarorlari ham muqaddas ahamiyatga ega.

**RISHI** – g‘ayritabiiy kuchlar bilan aloqada bo‘la oladigan kishilar.

**ROJDESTVO** – Xristianlikning asosiy bayramlaridan biri. Iso Masihning odam tanasida mujassam bo‘lib tug‘ilishi kuni munosabati bilan o‘tkaziladi. Ushbu bayram haqidagi ilk ma‘lumotlar IV asrga tegishli xristian manbalarida qayd qilingan.

**ROHIB** (yunoncha, monax – “zohid”) – xristianlikda dunyoviy lazzatlardan tarkidunyochilik qilib, faqat ibodat bilan shug‘ullanuvchi shaxs.

**RUDNA** – Hind xudolaridan biri, odamlarning unga nisbatan cheksiz qo‘rquvlari ularni doimiy ravishda Rudnaga bag‘ishlab madhiya va duolar o‘qishga undagan. U Rig Vedada SHiva – “yoqimli” nomi bilan zikr etiladi.

**RO‘ZA** – yilda bir oy – hijriy qamariy kalendarning Ramazon oyi davomida kunduz kunlari eyish–ichish va jinsiy aloqada bo‘lishdan tiyilish.

**SAVITRI** – hindlar e‘tiqodidagi quyosh xudosi. Quyoshning quvvat beruvchi kuchida namoyon bo‘ladi.

**SAMA VEDA (MELODIY)** – “Qo‘shiqlar vedasi” – Nazmlar vedasi hisoblanib, u Rig Vedadan olingan, turli xil mavzulardagi ilohiylar va rohiblar o‘qiydigan nazmiy ilohiylardan iboratdir.

**SAMAVEDINALAR** – Hindistonda hozirgacha vedalarni kuyga solib kuylovchilar.

**SANGHA** – “oliy haqiqat”ga etishgan avliyolar, Budda asos solgan va hozirgacha faoliyat ko‘rsatib kelayotgan rohiblar jamoasi.

**SAOSHYANTA** – xaloskor, zardushtiylikka ko‘ra, dunyoga 3 nafar saoshyanta kelishi lozim. Ular Zardusht ta‘limotini qayta tiklaydi, Qiyomatga yaqin ularning oxirgisi Anxra–Maynyu bilan jang qilib, barcha yovuzlik kuchlarini mag‘lub etadi.

**SARASVATI** – daryo xudosi. Sarasvati keyinchalik braxmanlikda soʻz xudosi sifatida tasvirlangan.

**SAR–MOBAD** (Bozorg dastur) – mobadlarning sardori, katta mobad, mobad oilasiga mansub zardusht ruhoniylari tabaqasining yuqori vakili.

**SAHIH** – isnodi boshidan oxirigacha adolatli, aniqlik egasi boʻlgan kishining oʻzi kabi kishidan rivoyat qilgan, shozz (oʻzidan kuchliroq roviyga qarshi turish) va illatli (noqislik) boʻlmagan hadis.

**SAHOBIY** – Rasululloh (a.s.)ni imon keltirgan holda koʻrgan va shu musulmonlik holida vafot etgan kishi.

**SIDDUR** (ibr., “tartibga solish”) – yahudiylikda ibodat vaqtida oʻqiladigan duo kitobi.

**SIKXLAR** – shogirdlar maʼnosini bildiradi.

**SINAGOGA** (yunoncha, “sinagoge” – “yigʻilish”, ibroniycha “beyt kneset” – “yigʻilish uyi”) – yahudiylikda asosiy ibodat va marosimlar oʻtkaziladigan joy.

**SMARTLAR** – haqqoniy rivoyatlar deb nomlanuvchi shivalikdagi oqim. Ularning bir qismi rohiblikda, yana bir qismi dunyoviylik holatida yashaydilar.

**SMITRI** – “Dostoniy” degan maʼnoni anglatadi. Hind muqaddas kitoblarining ikkinchi qismi.

**SOGʻDID** – zardushtiylikda it yordamida amalga oshiriladigan odamdan devlarni quvish va poklash marosimi.

**SPENTA ARMAITI** – zardushtiylikda muhabbat, ishonch, rahm, fidoyilik maʼbudi, Axura Mazda tarafdori.

**SPENTA–MANYU** – zardushtiylikda yorugʻlik, yaralish ibtidosi maʼbudi, Axura Mazda tarafdori.

**SRAOSHA** – zardushtiylikda inson vafotidan soʻng uning ruhini himoya qiluvchi ezgulik yazatlaridan biri.

**SUNAN** – Hadislar «tahorat» bobidan «vasiyatlar» bobigacha fiqh tartibi boʻyicha jamlangan toʻplamlar.

**SUNNAT** – islom shariatiga koʻra, zimmaga yuklanmagan, lekin bajarilishi talab qilingan amal. U Paygʻambar (a.s.)ning pokiza sayratlari, turmush tarzlari, diniy yoʻllaridir. Uchga boʻlinadi: qavliy, feʼliy va taqririy.

**SUR** – Ruh, ichki quvvat. Tangrichilikda u Tangri tomonidan insonga puflash orqali kiritilgan deb eʼtiqod qilingan.

**SURA** – Qurʼondan bir boʻlak boʻlib, eng kami uchta, eng koʻpi 286 oyatni oʻz ichiga oladi.

**SURYA** – hindlar eʼtiqodidagi quyosh xudosi. Quyoshning yorqinroq namoyon boʻlgan koʻrinishi hisoblanadi. U yunonlardagi Apollon kabi etti ot biriktirilgan gʻildirakli aravalarda tasvirlangan.

**SYAO JEN** – “kichkina odam” konfutsiylik taʼlimotiga koʻra insonlarning boshlangʻich tabaqasi, yaʼni oddiy xalqdan chiqqan, hech qanday bilimga ega boʻlmagan shaxs. “Syao jen”dan bilim olish va marosimlarni toʻla–toʻkis bajarish orqali “Szen–sze” darajasiga erishish mumkin boʻlgan.

**TAVOF** – Kaʼbaning atrofini aylanish.

**TAY–LYAO** – Xitoydagi eng muqaddas qurbonlik marosimi. Unda uchta jonivor – qoʻy, xoʻkiz va choʻchqalardan iborat “uchlik” qurbonlik keltiriladi.

**TAQRIRIY SUNNAT** – sahobiyalar tomonidan qilingan biror xatti–harakat yoki gap–so‘zga Payg‘ambar (a.s.)ning indamasliklari yoki ma‘qullashlari.

**TALES** – YAhudiyalarda ibodat vaqtida elkaga tashlab olinadigan choyshab. Taleslar odatda qora yoki ko‘k yo‘l–yo‘l oq matodan tikiladi.

**TANGRI** – Tangrichilik e‘tiqodining bosh va yagona Osmon xudosi, Tangrixon deb ham ataladi.

**TARAMAITI** – zardushtiylikda takabburlik ma‘budi, Axriman tarafdori.

**TAURVI** – zardushtiylikda kasallik, nuqsonlik ma‘budi, Axriman tarafdori.

**TIN** – Jon, tiriklik. Tangrichilik e‘tiqodiga ko‘ra, inson tirikligining sababchisi.

**TRIPITAKA (TIPITAKA)** – uch savat donolik, duolar shaklidagi buddaviylikning muqaddas kitob.

**TIRTXAKAR** – jayniylikda yo‘l tuzuvchi, ruhlarni ozod qiluvchi.

**TRIDANDINALAR** – uch tayoqlilar, shivalikdagi oqim.

**TRIMURTI** – ya‘ni, uchlik – Braxma, Vishnu, SHiva xudolari asosiy xudolar hisoblanib, Braxma ularning eng kattasi, dunyoni yaratgan xudo hisoblanadi. Biroq, hinduiylikda faqatgina Vishnu va SHivagagina sig‘inadilar. SHunga binoan, hinduiylik ikki asosiy oqimga bo‘linadi: SHivaga sig‘inuvchilar va Vishnuga sig‘inuvchilar.

**TURK HOQONLIGI** – 552–603 yillar davomida zamonaviy Markaziy Osiyo, SHarqiy Turkiston, Mo‘g‘uliston, Manjuriya (shimoliy–sharqiy Xitoy) va SHimoliy Kavkaz hududlarini o‘z ichiga olgan Bumin hoqon asos solgan qadim turkiylar davlati.

**TURKIYLAR** – Evroosiyo hududida miloddan avvalgi I ming yillikda asosan chorvachilik bilan shug‘ullangan ko‘chmanchi Oltoy qabilalaridan tashkil topgan zamonaviy turkiy xalqlar (o‘zbek, turk, turkman, ozarbayjon, uyg‘ur, qozoq, qirg‘iz va boshqalar)ning ajdodlari.

**TO‘LIQ INJIL XRISTIANLARI** – protestantlikdagi eng yirik yo‘nalishlardan biri bo‘lgan pyatidestyaniklikning ikkinchi nomi. “Injil”ga haqiqatan amal qiluvchi sof e‘tiqod vakillari deb bilganlari uchun ham o‘zlariga nisbatan shunday nomni ishlatadilar.

**ULUM AL–HADIS** – hadislarni rivoyat qilish, ishonchli va ishonchsizini o‘rganadigan ilm.

**UMAY (Jumay)** – tangrichilik e‘tiqodiga ko‘ra, ayol jinsidagi Erdagi hayotning sababchisi va makoni Er yuzida bo‘lgan ma‘buda, “Hayot onasi” deb e‘tiqod qilingan.

**UPANISHADLAR** – hinduiylikda ruhiy–ma‘naviy yo‘l hisoblanib, diniy takomillik zanjirining eng yuqori martabasi hisoblanadi.

**UPANISHADLAR DAVRI** – miloddan avvalgi VI asrdan miloddan keyingi bir necha asrgacha cho‘ziladi. U tasavvufiy oqimlar sir–asrorlari va shaxsiy mushohadalarini o‘z ichiga olgan bo‘lib, botiniy hayotga berilib, zohirdan yiroqlashgan ruhoniylar va tarkidunyochilarni to‘g‘ri yo‘lga boshlash uchun tartibga keltirilgan.

**FARZ** – islom dini ta‘limotiga ko‘ra, inkor qilib bo‘lmaydigan darajada qat‘iy dalil bilan bajarilishi talab qilingan amal.

**FE'LIY SUNNAT** – Rasululloh (a.s.)dan sodir bo'lgan shar'iy ishlar yoki sahobiylar Payg'ambar (a.s.)ning bajargan ishlaridan naql qilgan narsaga.

**FRAVAN** – ibodat marosimlarida o'qiladigan duo.

**FRAVASHI** (avesto, oldindan tanlov) – Osmonlarda yashovchi va Zardushtga vahiy olib tushuvchi maxluqotlar.

**FRASHO KERETI** – zardushtiylikda oxir zamonda paydo bo'ladigan yovuzlik egasi.

**XABAR** – Muhammad (a.s.)ning so'zlari va xatti-harakatlari haqida rivoyat (sinonimi hadis, osor).

**HADIS** – Payg'ambar (a.s.)ga nisbat berilgan gaplar.

**HAJ** – qodir bo'lgan kishi uchun umrida bir marta Makka shahridagi Ka'bani ziyorat qilish va ushbu ibodat o'z ichiga oladigan arkonlarni ado etishdan iborat.

**XALQIY SUNNAT** – Rasululloh (a.s.)ning tashqi qiyofa va ko'rinishlari haqidagi sunnat.

**XALOSKOR** – yahudiy va xristian atamasida Messiya (ivritcha, mashiax; qadimgi yunoncha, xristos). Yahudiylar aqidasiga ko'ra, Xaloskor qiyomatga yaqin kelib yahudiylarni najot sari etaklaydi. Yahudiy “messiyasi” Dovud avlodidan bo'lishi shart. Xristian aqidasiga ko'ra esa, xaloskor bu Iso Masihdir.

**HAROM** – atamasi islom ta'limotiga ko'ra, inkor qilib bo'lmaydigan darajada qat'iy dalillar bilan bajarilishi taqiqlangan amal.

**HASAN** – sahih hadis shartlariga ega bo'lgan, lekin zabti pastroq bo'lgan adolatli roviyning o'zi kabilardan qilgan rivoyati.

**XAURVATAT** – zardushtiylikda salomatlik, mukammallik ma'budi, Axura Mazda tarafdori.

**XVARTSHA** – zardushtiylikda ezgu amal.

**XINAYANA** – kichik g'ildirak, najot topishning tor yo'li.

**XIRBAD** – moad oilasiga mansub zardusht ruhoniylari tabaqasining eng quyi vakili.

**XRAFSTRA** (Jirkanchli) – zardushtiylikda o'ldirish mumkin bo'lgan yovuzlik tarafdori deya e'tiqod qilinadigan yirtqich hayvonlar.

**XUDONING RAHMATLARI** – protestantlikning pyatidesyatniklik yo'nalishiga hos aqidalardan biri. Xudoning rahmatlari deganda Masihni qabul qilish, Muqaddas Ruh bilan cho'qintirilish va ruhiy qayta tug'ilish nazarda tutiladi.

**XUDO-ODAM** – Iso Masihga nisbatan ishlatiladigan nom. Xristianlik aqidasiga ko'ra Iso asli xudo bo'lib, insonlarni xalos qilish uchun inson qiyofasiga kirgan.

**XULUQIY** – Rasululloh (a.s.)ning axloqiy sifatlari haqidagi sunnat.

**XUM** (Xaoma) – ibodat marosimlarida maxsus tayyorlanadigan ichimlik.

**XUMATA** – zardushtiylikda ezgu fikr.

**XURDAK AVESTO** (“Kichik Avesto”) – dindorlar kundalik faoliyati uchun “Avesto”ning ixchamlashtirilgan shakli.

**XUXTA** – zardushtiylikda ezgu so'z.

**XSHATRA VAIRYA** – zardushtiylikda qudrat, qat'iylik, hukmronlik ma'budi, Axura Mazda tarafdori.

**SZEN-SZE** – “YUksak ma'rifatli odam”. Qadimgi Xitoydagi bilim va donishmandlik kulti hisoblanib, u bilim

olish yo'lida sabr–matonatli va o'ta intiluvchan odamlarni yuqori martabaga ko'tarilishiga yordam beradi, deb e'tiqod qilingan. Szen–sze darajasiga erishgan odam faqat uchta narsadan – Osmonning amri, buyuk insonlar va o'ta donishmandlardan qo'rqishi mumkin bo'lgan.

**CHINVAD** (ajratish ko'prigi) – inson vafotidan so'ng uning ruhi ezgulik va yovuzlikni ajratuvchi ko'prikdan o'tishi lozim. CHinvad ko'prigida inson ruhi ezgulik yazatlari Sraosha, Mitra va Rashnu himoyasiga o'tsa, abadiy rohat va farog'at makoni Qo'shiqlar uyiga boradi.

**SHAURVA** – zardushtiylikda qo'rqqoqlik, pastkashlik ma'budi, Axriman tarafdori.

**SHEOL** (ibr., “ostki, quyi”) – yahudiylik mifalogiyasiga ko'ra, o'liklar dunyosi.

**SHIVA** – oddiy xalq ommasi, kambag'allar ilohiyoti hisoblanadi. U Rig Vedaning birinchi nusxalarida Rudra nomi bilan zikr etilgan. Atxarva Vedada Rudraning roli oshib boradi. YAjur Vedada Rudra Agni timsolida berilgan. U Ishana, Ishvara, Maxadeva (buyuk xudo) nomlari bilan ham ataladi.

**SHOZZ** – ishonchli roviyning o'zidan kuchliroq roviyga muxolif bo'lishi.

**SHOYIXET** – yahudiylarning qassoblari

**SHOH OTASH VARAXRAM** (G'olib SHoh Bahrom olovi) – maxsus shohona marosimlar, yirik g'alabalarga bag'ishlanib 16 xil olov jamlanib, yoqilgan olov.

**SHRUTI** – “Vahiyga tayanuvchi” degan ma'noni anglatadi. Hind muqaddas kitoblarining birinchi qismi.

**SHUDRALAR** – hind kastalaridagi ishchilar, eng quyi tabaqa.

**YERLIK** – Tangrichilik e'tiqodiga ko'ra, erkak jinsidagi o'lim sababchisi va makoni Er ostida bo'lgan ma'bud

**YIUHANNO** (Ioan) – Isoning 12 havoriylaridan va “Injil”ning mualliflaridan biri. Xristianlikka ko'ra,

YUhanno “YAngi Ahd” tarkibiga kiruvchi “Vahiyнома” kitobining muallifi hamdir.

**YAJUR VEDA** – “Qurbonliklar vedasi”. Qurbonlik marosimi ko'rinishlari bilan aloqador vedadir. Uning asosiy qismini qurbonlik qilish usullari – yajus tashkil qiladi. Mazkur yajuslar qurbonlik marosimning ma'lum bo'limlarida juda past ovozda, ijro etiladi, ular ma'nosini esa, marosimning o'tkazilish tartibidan kelib chiqib tushunish mumkin. YAjuslarning ba'zi qismlari nazm, ba'zilari esa nasr shaklida yozilgan bo'lib, qurbonlik bilan bog'liq so'z va duolarni o'z ichiga oladi.

**YAZAT** (avesto, ehtiromga loyiq) – Erdagi turli hodisa va holatlarga mas'ul Axura Mazda tomonidan yaratilgan quyi ruhlar, farishtalar.

**YANGI AHD** – “Bibliya” qismlaridan biri. To'rt Injil, Havoriylar faoliyati kitobi, 21 ta havoriyning nomalari va YUhannoning “Vahiynomasi” ni o'z ichiga olgan, 27 kitobdan iborat.

**YASNA** – diniy marosimlarda o'qiladigan duolardan iborat bo'lgan 72 bobli “Avesto”ning bo'limi.

**YASHT** – “Avesto”ning 22 bobdan tashkil topgan ma'budlar sha'niga aytilgan madhiyalardan iborat bo'limi.

## ADABIYOTLAR

1. 1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi "O'zbekiston". T.2023.
2. "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonun (2021-yil 5 iyul yangi tahriri tasdiqlangan).
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T. 1. - Toshkent: O'zbekiston.. 2017.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O'zbekiston. 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O'zbekiston. 2017.
4. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. Toshkent: O'zbekiston, 2019.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambliyasining 72-sessiyasidagi nutqi. Xalq so'zi-2017-yil 20-sentabr №189.
8. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon. Toshkent: O'zbekiston, 2019.
8. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. "O'zbekiston" Toshkent-2022.
9. Dunyo dinlari tarixi / Tuzuvchilar: S. Agzamxodjaev, D.Rahimjonov, N.Muhamedov va b. - T.: ToshDShI, 2011.
10. Mo'minov A. Dinshunoslik : Darslik / Mo'minov A., Ibrohimov N.I. - Toshkent : Mehnat, 2004.
11. Haydarova H.B. Dinshunoslik. Buxoro "Durdona" nashriyoti, 2011.
12. Bag'rikenglik - barqarorlik va taraqqiyot omili / Mas'ul muharrir A.Ochildiev. - T.: Toshkent islom universiteti, 2007.
13. Dinshunoslik asoslari .Tuzuvchilar: A.Ochildiev va boshqalar. - T.: "Toshkent islom universiteti" nashriyot matbaa birlashmasi, 2013.
14. Yovqochev Sh. O'zbekiston - bag'rikeng diyori / Mas'ul muharrir A.Ochildiev. - Toshkent : O'zbekiston, 2007.

15. Hasanboev O'. O'zbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy tashkilotlar, oqimlar, mafkuraviy kurashning dolzarb yo'nalishlari / Mas'ul muharrirlar K.Komilov, A.Mansurov. - Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyoti, 2014.

16. Kamilov D. Dinshunoslik. O'quv qo'llanma. – .: Lesson Press, 2021.

17. Abu Xomid G'azzoliy Kimei saodat//Ikki dune saodatiga eltuvchi bilim. - Samarkand: Imom Buxoriy xalkaro markazi, 2019.

18. Islomov Z., Haydarov I. Xristianlik: ibodatxona, ibodat va marosimlari. - Toshkent: Qaqnus nashriyoti, 2020.

19. G'oyibnazarov Sh. Islom terrorizmga qarshi. -Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2021.

#### **Axborot manbalari**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).
2. [www.edu.uz](http://www.edu.uz).
3. [www.google.uz](http://www.google.uz).
4. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)



## MUNDARIJA

Kirish.....	3
1-Mavzu: Dinning ittimoiy madaniy hodisa sifatidagi ahamiyati .....	5
2-Mavzu: Milliy dinlar.....	26
3-Mavzu: Zardushtiylik dini.....	45
4-Mavzu: Buddaviylik dini .....	53
5-Mavzu: Xristianlik dini.....	63
6-Mavzu: Islom dini.....	79
7-Mavzu: Islom dinining aqidaviy yo'nalishlari va maktablari.....	101
8-Mavzu: Markaziy Osiyo tarixida Hanafiya mazhabining o'rni.....	113
9-Mavzu: O'zbekistonda faoliyat yurituvchi diniy tashkilotlar.....	132
10-Mavzu: Kiber makonda diniy e'tiqod targ'ibotining ijtimoiy xavfi.....	144
11-Mavzu: Missionerlik va prozelitizning siyosiy-ijtimoiy xavfi.....	158
12-Mavzu: Diniy fundamentalizm, radikalizm va terrorizmning tarixi va yo'nalishlari.....	166
Dinshunoslik fanini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish.....	182
Glossariy.....	186
Adabiyotlar .....	199

## ОГЛАВЛЕНИЕ

Введение .....	3
Тема 1. Значение религии как социального и культурного явления .....	5
Тема 2. Национальные религии .....	26
Тема 3: Зороастризм .....	45
Тема 4: Буддизм.....	53
Тема 5: Христианство .....	63
Тема 6: Ислам. ....	79
Тема 7. Догматические направления и школы ислама.....	101
Тема 8. Роль мазхаби Ханафии в истории Средней Азии.....	113
Тема 9. Религиозные организации, действующие в Узбекистане .....	132
Тема 10. Социальная опасность распространения религиозных убеждений в киберпространстве .....	144
Тема 11. Политическая и социальная опасность миссионерства и прозелитизма .....	158
Тема 12. История и направления религиозного фундаментализма, радикализма и терроризма.....	166
Использование интерактивных методов при изучение религиоведение работ.....	182
Глоссарий.....	186
Литература.....	199

## TABLE OF CONTENTS

Introduction .....	3
Topic 1. The importance of religion as a social and cultural phenomenon .....	5
Topic 2. National religions.....	26
Topic 3: Zoroastrianism.....	45
Topic 4: Buddhism.....	53
Topic 5: Christianity .....	63
Topic 6: Islam.....	79
Topic 7. Dogmatic trends and schools of Islam.....	101
Topic 8. The role of the Hanafi mazhab in the history of Central Asia.....	113
Topic 9. Religious organizations operating in Uzbekistan.....	132
Topic 10. Social danger of the spread of religious beliefs in cyberspace .....	144
Topic 11. Political and social danger of missionary and proselytism.....	158
Topic 12. History and trends of religious fundamentalism, radicalism and terrorism .....	166
The use of interactive methods in the reading of religious studies.....	182
Glossary .....	186
Literature .....	199

**Hanifa Haydarova**

# **DINSHUNOSLIK**

**O'quv qo'llanma**